

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**UMUMIY TILSHUNOSLIK
fani bo`yicha
O`QUV-USLUBIY MAJMUASI**

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar

Ta’lim sohasi:

110000 – Pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi):

5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti



Navoiy shahri

Navoiy davlat pedagogika instituti O`zbek filologiyasi fakulteti

O`zbek tilshunosligi

kafedrasi yig`ilish bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Navoiy shahri

2014-yil 26 -avgust

Qatnashdilar:

Kafedra mudiri, f.f.n.R.Nuritdinova,
kafedra a`zolaridan: f.f.d.N.Murodova,
f.f.n.B.Zaripov, f.f.n R.Yusubova,
R.Sharopova, N.Sadinova
A.Allaberdiyev,N.Rahmonov, D.Gadoyeva,
G.Ernazarova, J.Yo`ldoshev (kotib)

KUN TARTIBI:

Har xil masalalar

1. Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Tilshunoslik asoslari”, “Umumiyl tilshunoslik”, “O`zbek tilining nazariy grammatikasi”, “O`zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “Hozirgi o`zbek adabiy tili”, “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, “O`zbek tili praktikumi”, “O`zbek tili dialektologiyasi”, “O`zbek tili stilistikasi”, “O`zbek adabiy tili tarixi”, “O`zbek tilshunosligi tarixi”, “O`zbek onomastikasi” va magistratura yo`nalishi uchun “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “O`zbek tili fonetikasi”, “O`zbek tili leksikologiyasi”, “Badiiy matnning lingvopoetik tahlili metodikasi”, “O`zbek tilining nazariy grammatikasi”, “Areal lingvistika”, “Sistem tilshunoslik”, “Leksikologiya-frazeologiya” fanlaridan o`quv-uslubiy majmuani tayyorlashda haqida.

ESHITILDI: Kafedra mudiri so`zga chiqib, “O`zbek tilshunosligi” kafedrasida hozirgi kunda yigirma bitta fan o`qitilayotganligi, jumladan, “Tilshunoslik asoslari” fani fakultetning barcha 1-kurslar uchun, o`qilib kelinayotganligini ta`kidladi. Ta`lim-tarbiya jarayonini maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishda yaratilayotgan ta`lim texnologiyasining o`rni va ahamiyati juda beqiyos bo`lib, unga ijodiy yondashgan holda ishlab chiqish bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlashda o`ziga xos ahamiyatga ega ekanligini aytib o`tdi. Ushbu masala yuzasidan kafedra professor-o`qituvchilaridan fikr bildirishlarini so`radi.

SO`ZGA CHIQIDI: f.f.d.N.Murodova, f.f.n.B.Zaripov, f.f.n R.Yusubova, N.Sadinova, A.Allaberdiyev, N.Rahmonovlar so`zga chiqib, yuqorida e`tirof etilgan fanlar bo`yicha ta`lim texnologiyalari o`z nihoyasiga yetganligi va belgilangan talab bo`yicha vazifalar o`z vaqtida bajarilganligini aytib o`tdilar.

Shundan so`ng, yig`ilish raisi f.f.n.R.Nuritdinova so`zga chiqib, kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan o`quv-uslubiy majmua tayyorlanib tugatilganligini aytib, uni ko`rib chiqishni fakultet o`quv-uslubiy kengashidan so`rash taklifini berdi.

Q A R O R Q I L A D I

1. Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Tilshunoslik asoslari” fanidan o`quv-uslubiy majmuuning tayyorlangan darajasi yuqori, barcha talablarga javob beradi.
2. O`quv-uslubiy majmua tayyorlanib tugatilganligini ko`rib chiqish fakultet o`quv-uslubiy kengashidan so`ralsin.

Yig`ilish raisi:

f.f.n. R.Nuritdinova

Kotib:

o`qit. J. Yo`ldoshev

Navoiy davlat pedagogika instituti “O`zbek filologiyasi” fakulteti
“O`zbek tilshunosligi” kafedrasi professor-o`qituvchilarining “Umumiyl
tilshunoslik” fanidan barcha bakalavriatura ta’lim yo`nalishi bo`yicha tayyorlagan
ta’lim texnologiyalari majmuasiga

EKSPERT XULOSASI

O`zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda ularning hayotga tatbiq etilishini ta’minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi me’yoriy hujjatlar respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining poydevori yaratildi. Uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarini boshqarish, jahon andozalari va zamon talablari darajasida yo‘lga qo‘yish, ularning har biri uchun o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil O`zbekiston taraqqiyotining negizi sifatida kun tartibiga qo‘yildi.

Bugungi kunda xalqining ko`p asrlik badiiy-ijodiy salohiyati natijasida yaratilgan ma’naviy boyliklarini yanada chuqurroq o`rganqsh, uning asl namunalarini ommalashtirish, milliy qadrqyatlarni tiklashga bo`lgan ehtiyoj kuchaydi.

Buning boisi shundaki, ming yillar mobaynida shakllangan qadriyatlar, madaniy-ma’naviy boyliklar hamisha jamiyat taraqqiyotiga, insonning g`oyaviy-ruhiy poklanishiga xizmat qilib kelgan.

O`zbek tili o`zbek xalqi ma’naviy madaniyatining ko`p asrlik boy xazinasidir. Shuning uchun ham o`zbek tilining shakllanishi va taraqqiyotida so`zlar—bitmas-tuganmas manbaa bo`lib xizmat qiladi.

“Umumiyl tilshunoslik” fani bo`lajak o`qituvchilarini tayyorlash uchun o`qitiladigan umumkasbiy, amaliy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fanning o`zlashtirilishi natijasida talabalar pedagogic texnologiyalar fanining mazmun mohiyati, rivojlanish bosqichlari va pedagogic texnologiyalarning klassifikatsion

tamoyillari hamda an'anaviy innovatsion ta'limning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim ko`nikmalarining egallaydilar va malakaga ega bo`ladilar.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan kafedra professor-o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan ta'lim texnologiyalari majmuasi zamon talablar asosida, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnikasi ochib berilgan holda ishlab chiqilgan.

Kurs bo'yicha o'quv rejasida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari rejlashtirilgan bo`lib, har bir mavzu bo'yicha dars mashg`ulotini o'tkazish texnologiyalari batafsil izohlab berilgan bo`lib, majmuada “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “FSMU”, “Muammo”, “Tushunchalar tahlili”, “Venn diagrammasi”, “T-organizeyri”, “BBB”, “Nilufar gul”, “Esse”, “SWOT”, “Charxpalak”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Ikki qismli kundalik”, “Fidbeyk”, “Assisment”, “Agar men...”, “Xulosalash” kabi interfaol ta'lim texnologiyalarida foydalanilgan.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan kafedra professor-o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan ta'lim texnologiyalari majmuasi qo'yilgan talablariga to'la mos keladi va ta'lim tizimida talabalarni o'qitishda qo'llash o'z samaradorligini beradi.

O'zbek tilshunosligi
kafedrasi dotsenti, f.f.n:

R.Nuritdinova

Navoiy davlat pedagogika instituti “O'zbek filologiyasi” fakulteti
“O'zbek tilshunosligi” kafedrasi professor-o`qituvchilarining “Umumiy tilshunoslik” fanidan barcha bakalavriatura ta'lim yo`nalishi bo'yicha tayyorlagan ta'lim texnologiyalari majmuasiga

EKSPERT XULOSASI (tashqi)

Ta`lim tizimini isloh qilish kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o`zgarishlarni kiritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi I chaqiriq IX sessiyasi 1997-yil 29- avgustda “Ta`lim to`g`risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Vazirlar mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida umumiyo`rta ta`limni tashkil etish” to`g`risidagi 1998-yil 13-maydagi 203-sonli qarori, hamda umumiyo`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va hujjatlarga asosan hozir respublikamizda ta`lim-tarbiya tizimini tubdan o`zgartirish, uni yangi zamon talablari darajasiga ko`tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning qonuniy asoslari belgilab olindi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bu tilning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkonini yaratdi. O'zbek tili asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo`lib, o'zbek xalqi orasida o`zaro aloqa vositasi hamda uning matbuot va badiiy adabiyot tili bo`lib xizmat qilmoqda. Bu tilda Alisher Navoiy, Bobur, Abdulg`ozzi Bahodirxon, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor,

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa qator adiblarimiz o`zlarining tarixi-badiiy asarlarini yaratib, uning qudratini namoyish qilganlar.

“Umumiy tilshunoslik” fani bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash uchun o`qitiladigan umumkasbiy, amaliy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fanning o`zlashtirilishi natijasida talabalar pedagogic texnologiyalar fanining mazmun mohiyati, rivojlanish bosqichlari va pedagogic texnologiyalarning klassifikatsion tamoyillari hamda an'anaviy innovatsion ta`limning o`ziga xos xususiyatlari haqida bilim ko`nikmalarining egallaydilar va malakaga ega bo`ladilar.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan kafedra professor-o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan ta`lim texnologiyalari majmuasi zamon talablar asosida, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo`llash texnikasi ochib berilgan holda ishlab chiqilgan.

Kurs bo`yicha o`quv rejasida ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari rejalshtirilgan bo`lib, har bir mavzu bo`yicha dars mashg`ulotini o`tkazish texnologiyalari batafsil izohlab berilgan bo`lib, majmuada “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “FSMU”, “Muammo”, “Tushunchalar tahlili”, “Venn diagrammasi”, “T-organizeyri”, “BBB”, “Nilufar guli”, “Esse”, “SWOT”, “Charxpalak”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Ikki qismli kundalik”, “Fidbeyk”, “Assisment”, “Agar men...”, “Xulosalash” kabi interfaol ta`lim texnologiyalarida foydalanilgan.

“Umumiy tilshunoslik” fanidan kafedra professor-o`qituvchilar tomonidan tayyorlangan ta`lim texnologiyalari majmuasi qo`yilgan talablariga to`la mos keladi va ta`lim tizimida talabalarni o`qitishda qo`llash o`z samarasini beradi.

Navoiy davlat konchilik instituti
Chet tillar kafedrasi dotsenti

f.f.n. M.Ravshanov

Navoiy davlat pedagogika instituti “O’zbek filologiyasi” fakulteti
o`quv-uslubiy Kengashining bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Navoiy shahri

2014-yil 28-avgust

Qatnashdilar:

Ilmiy Kengash raisi

f.f.d.N.Murodova

19 ta a’zolari

KUN TARTIBI:

4.Turli masalalar

Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Tilshunoslik asoslari”, “Umumiy tilshunoslik”, “O’zbek tilining nazariy grammatikasi”, “O’zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “Hozirgi o’zbek adabiy tili”, “Qadimgi turkiy til”, “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, “O’zbek tili praktikumi”, “O’zbek tili dialektologiyasi”, “O’zbek tili stilistikasi”, “O’zbek adabiy tili tarixi”, “O’zbek tilshunosligi tarixi”, “O’zbek onomastikasi” va magistratura yo`nalishi uchun “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “O’zbek tili fonetikasi”, “O’zbek tili leksikologiyasi”, “Badiiy matnning lingvopoetik tahlili metodikasi”, “O’zbek tilining nazariy grammatikasi”, “Areal lingvistika”, “Sistem tilshunoslik”, “Leksikologiya-frazeologiya” fanlaridan o`quv-uslubiy majmua tayyorlanganligi haqida.

So`zga chiqdi: Ilmiy Kengash raisi f.f.d.N.Murodova

Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Umumiy tilshunoslik” fanidan tayyorlangan o`quv-uslubiy majmuuning tayyorlanganligi to`g`risida fikr-mulohazalaringizni bildirishlaringizni so`rayman.

So`zga chiqdi: f.f.n. B.Zaripov so`zga chiqib,

“Umumiy tilshunoslik” fanidan kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan ta’lim texnologiyalari majmuasi zamon talablari asosida, innovatsion pedagogic texnologiyalarni qo`llash texnikasi ochib berilganligi haqida to`xtalib o`tdi. O`quv-uslubiy majmuada “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “FSMU”, “Muammo”, “Tushunchalar tahlili”, “Venn diagrammasi”, “T-organizeyri”, “BBB”, “Nilufar guli”, “Esse”, “SWOT”, “Charxpak”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Ikki qisqli kundalik”, “Fidbeyk”, “Assisment”, “Agar men...”, “Xulosalash” kabi interfaol ta’lim texnologiyalarida foydalilanilganligini aytib o`tdi. “O’zbek tilining tarixiy grammatikasi” fanidan kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan ta’lim texnologiyalari

majmuasi qo`yilgan talablarga to`la mos keladi va ta'lim tizimida talabalarni o`qitishda qo`llash o`z samaradorligini beradi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yig`ilishda

Q A R O R Q I L I N D I:

1. Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Umumiy tilshunoslik” fanidan o`quv-uslubiy majmua tayyorlangan va tugatilgan deb topilsin.

2. . Kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriatura uchun “Umumiy tilshunoslik” fanidan o`quv-uslubiy majmuani institut o`quv-uslubiy Kengashidan ko`rib chiqish so`ralsin.

Yig`ilish raisi:

f.f.d. N.Q.Murodova

Kotiba:

o`qit. N.Mansurova

Ushbu ta’lim yo’nalishining DTS O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2011-yil «16» sentabrdagi 387-buyrug’i bilan **TASDIQLANDI** hamda 2013- yil «1» martda 2660 - raqami bilan O’zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalashtirish agentligi (**«O’zstandart» AGENTLIGI**) RO’YXATIDAN O’TGAN.

Ushbu ishchi o’quv fan dasturi 2011-yil 17-noyabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 467-buyrug’i bilan tasdiqlangan va BD-5111200-3.05 raqam bilan qayd qilingan “**Umumiy tilshunoslik**” o’quv fani fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Fanning o`quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Rasulov Ravshanxo`ja – TDPU Umumiy tilshunoslik kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Dadaboev Hamidulla – Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zMU Umumiy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Jamolxonov Hasanboy - Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi

Ishchi o’quv fan dasturi O’zbek tilshunosligi kafedrasining 201_ yil _____ dari majlisida muhokama qilingan va ____ -sonli qarori bilan ma’qullangan.

Kafedra mudiri _____
(imzo)

Ishchi o’quv fan dasturi _____ fakultet o’quv-metodik komissiyasining 201_ yil _____ dari yig’ilishida qo’llanish uchun tavsiya etilgan.

O’quv-metodik komissiya
raisi _____

(F.I.SH)

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2011 йил “___” ____ даги “___” -сон мажлис баёни билан маъқулланган.

Фаннинг ўқув дастури Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчи:

Расулов Равшанхўжа – ТДПУ Умумий тилшунослик кафедраси мудири, филология фанлари доктори, профессор

Тақризчилар:

Дадабоев Ҳамидулла – Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ Умумий тилшунослик ва компьютер лингвистикаси кафедраси мудири, филология фанлари доктори, профессор

Жамолхонов Ҳасанбой - Тошкент давлат педагогика университети профессори, филология фанлари номзоди

Фаннинг ўқув дастури Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети илмий-методик кенгашида тавсия қилинган (20 йил «__» ____ даги __-сонли мажлис баённома).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro`yxatga olindi

№ BD 5111200 -3.05

2011 yil 17 noyabr



Vazirlikning 2011 yil "17"
daqi "162"-sonli buyrug'i
bilan tasdiqlangan

Logueb

UMUMIY TILSHUNOSLIK

FAN DASTURI

| | |
|-------------------------------------|------------------------------------|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar |
| Ta'lim sohasi: | 110000 - Pedagogika |
| Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi): | 5111200 - O'zbek tili va adabiyoti |

Toshkent – 2011

Fan dasturining shakli Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2011 yil 1 noyabrdagi 4 son majlis bayoni bilan ma’qullangan

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oily ta’lim muassalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

R.Rasulov – “Umumiy tilshunoslik” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori, professor

S.Muhamedova – “Umumiy tilshunoslik” kafedrasi mudiri v.b., filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Dadaboev - Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU “Umumiy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.Tursunpo‘latov - Jizzax davlat pedagogika instituti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

K.Shayxova - Toshkent Bank kolleji “Tillar kafedrasi” mudiri

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (2011 yil 13 oktabrdagi 3 -sonli bayonnomasi).

Kirish

Ushbu dastur tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy-nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bilan bog'liq muammolar hamda stilistika, amaliy stilistika va tilning funksional va lingvistik uslublari haqida ma'lumot beradi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lajak o'qituvchilarga tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy- nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha atroficha bilim berish, stilistika, til uslublari haqida, adabiy me'yor bilan uslubiy me'yor o'rtasidagi munosabat va ularning farqli jihatlari haqida ma'lumot berish va ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlanadirishdan iborat.

Fanning vazifasi - tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy-nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha bilimlarga o'rgatish hamda uslub, uslubshunoslik, uning asosiy tushuncha va kategoriyalari; fonetika, leksika, frazeologiya, sintaksisning uslubiy imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlar berish; talabalarga uslubiy xatolar va ularning oldini olish yo'llari bo'yicha bilimlar berish kabilardan iborat. Ushbu fan talabalarni nazariy jihatdan etuk mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Umumiyl tilshunoslik” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- jahon tilshunosligining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari hamda uslub, uslubshunoslik; til vositalarini tanlashda xatoga yo'l qo'ymaslik; o'zbek tili uslublari; ularning o'ziga xosliklari; fonetik, morfologik, frazeologik, sintaktik birliklarning uslubiy imkoniyatlari haqidagi bilimlarni ***bilishi kerak***;
- muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni echishda foydalana bilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Umumiyl tilshunoslik fani ixtisoslik fani hisoblanib, 6-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalahtirilgan tilshunoslik asoslari, hozirgi o'zbek adabiy tili, falsafa, mantiq, informatika va axborot texnologiyalari kabi fanlardan egallagan bilimlarga tayanipladi.

Fanning ta'limdagি o'rni

Umumiyl tilshunoslik fani bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tilshunoslikning umumiyl nazariy asoslari bilan tanishtiradi, talabalarga tilshunoslik tarixi,

tilshunoslikning nazariy masalalari va metodlari bo'yicha puxta ma'lumotlarni beradi hamda ularni uslubiyat asoslari bilan tanishtiradi, talabalarga uslubiyat, uning turlari va funksional uslublar haqida nazariy va amaliy ma'lumotlarni beradi.

Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning umumiy tilshunoslik fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan, ya'ni "Klaster" metodi, "Skorobey", "Zigzag" va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik va o'quv qo'llanmalar, seminar ishlanmalari, tarqatma materiallar va elektron materiallardan foydalaniadi. Seminarlarda mos ravishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniadi.

Seminar mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Tarozi", "Bumerang" pedagogik texnologiyalaridan, kichik guruhlar mksobaqlari, guruhli fikrash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Asosiy qism

I Bo'lim. Umumiy tilshunoslik

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Umumiy tilshunoslik fanining maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Umumiy tilshunoslik fanining ilmiy-nazariy, falsafiy fan ekanligi. Ayni fanning tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari va lisoniy tahlil usullari kabi bo'limlardan iboratligi.

Umumiy tilshunoslik fanining maqsadi va vazifasi talabalarni til falsafasi, til nazariyasi bilan tanishtirish va quollantirish, til hodisalari tahlilidan nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatish.

Tilshunoslik tarixi

Til haqidagi fanning uzoq taraqqiyot natijasi ekanligi, uning jamiyat tarixi bilan bog'liqligi, o'z tarixiga egaligi.

Umumiy tilshunoslikni tilshunoslik tarixi bo'limidan boshlashning zarurligi, tilshunoslik tarixidagi asosiy yo'nalishlar, maktablar, ularning tilshunoslik tarixida tutgan o'rni, tilshunoslikka qo'shgan hissasi.

Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari.

Qadimgi Hind tilshunosligi

Hindlarning qadimgi tilshunoslari. Ularning eng buyuk fonetikachi va grammatikachilar. Vedalar. Panini grammatikasi. Sanskrit.

Qadimgi Yunon tilshunosligi

Qadimgi yunon tilshunosligining falsafa bilan bog'liqligi. Yunon tilshunosligining

ikki davri: falsafiy va grammatik davrlari. So`z va u bildirgan narsa, hodisalar orasida tabiiy munosabat mavjudligi haqidagi munozaralar. Analogiya va anomaliya. Yunon tilshunosligining Iskandariya davri va til hodisalariga oid fikrlar.

Qadimgi Rim tilshunosligi

Rim grammatikasining grek grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga kelishi. Rimlik olimlar: Yuliy Sezar, Moris Varron, Mark Kvintilian, Donata va boshqalarning til haqidagi asarlari, fikrlari. So`z turkumi masalasi.

Qadimgi davr tilshunoslik maktablarining tilshunoslik tarixidagi o`rni, ahamiyati va kamchiliklari.

Qadimgi Xitoy tilshunosligi

Xitoy tilshunosligida yozma manbalarga alohida e'tibor berilishi. Leksikologiya, leksikografiya, ieroglifika, fonetika va grammatika masalalari bo'yicha qator ishlarning amalga oshirilishi. So`z masalasi.

O'rta asrlar tilshunosligi Arab tilshunosligi

Kufa va Basra maktablari. Ushbu maktab vakillari, ularning tadqiqotlari. Sibavayxiyning "al Kitob"i. Arab tilshunosligining tuzilishi: rasmul xat (grafika), tajvid (orfoepiya), sarf (morfologiya), nahv (sintaksis), ilmul Lug'at (leksikografiya va leksikologiya), ilmu – l-ma'oniy (semasiologiya), ilmu-l-bayon (uslubshunoslik) va boshqalar. Arab tilining izohli lug`atlari. Arab tilshunosligining tilshunoslik tarixida tutgan o`rni.

Arab tilshunosligining rivojida O'rta Osiyolik allomalarining xizmati

Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning filologik asarlari.

Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy va Mirzo Mehdixonlarning lisoniy tadqiqotlari, ularning turkiy va o'zbek tilshunosligi tarixidagi o`rni.

Yevropada uyg'onish davridagi tilshunoslik

Por-Royal grammatikasi. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonovsovning "Rossiya grammatikasi" asari.

Komparativistika (qiyosiy–tarixiy tilshunoslik), uning vujudga kelishida qiyosiy – tarixiy metodning ahamiyati. Qiyosiy–tarixiy metodning asoschilari, ularning tilga oid asarlari. V.Gumboldtning lingvistik nazariyasi, til antinomiyasi. Uning umumiyligi tilshunoslik faniga asos solishi.

Naturalizm (A.Shleyxer va b.). Psixologizm (G.Shteyntal va b.). F. de Sossyur ta'limoti.

Sho`ro davri tilshunosligi

Sho'ro davri tilshunosligining ulkan vakillari: N.Ya.Marr, I.I.Meshaninov, L.V.Sherba, D.N. Ushakov, E.D.Polivanov, A.M.Peshkovskiy, I.Yu.Krachkovskiy, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, R.A.Budagov, V.V. Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, A.A.Reformatskiy, A.I. Smirnitskiy, G.A.Zolotova, A.A.Leontev, O.S.Axmanova, V.M.Solnsev va boshqalar.

O'zbek tilshunosligi

G'.O.Yunusov, A.G'ulomov, A.K.Borovkov, O.Azizov, A.N.Kononov, S.Usmonov, E.D.Polivanov, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, S.N.Ivanov, F.Kamolov, M.Mirzayev, Z.Ma'rufov, M.Asqarova, X.Komilova, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, T.Ibrohimov, I.Rasulov, Sh.Rahmatullayev, S.Mutallibov, A.Rustamov, G'.Salomov, E.Fozilov, O.Usmonov, A.Hojiyev, Q.Mahmudov, A.Shermatov, N.Mamatov, A.Aliyev, M.Sodiqova, X.Nazarova, J.Muxtorov, M.Mirtojiyev, E.Umarov, A.Safayev, A.Mahmudov, X.Doniyorov, Y.Abdullayev, E.Begmatov, I.Qo'chqortoyev, H.Abdurahmonov, A.Sayfullaev, A.Abuazizov, H.Ne'matov, Sh.Shukurov, A.Matg'oziyev, Yo.Tojiyev, R.Qo'ng'urov, B.O'rionboyev, A.Ahmedov, R.Rasulov va boshqalarning tadqiqotlari.

Tilshunoslikning nazariy masalalari. Lingvistika va uning turlari.

Dinamik va statik lingvistika. Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika tushunchalari, ularning mohiyati.

Tilning ta'riflari

Tilshunoslik tarixida til ta'rifi masalasi. Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta'riflar, ularning ahamiyati.

Til va nutq

Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o'z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutqning esa voqelik ekanligi. Til va nutqning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri. Nutq faoliyati.

Substansiya va forma

Substansiya (mohiyat) – ichki, forma (shakl) – tashqi tomonlar sifatida falsafadagi mohiyat va hodisaning tilda mazmun va shakl sifatida talqin qilinishi. Shakl (forma, hodisa)ning mazmun (mohiyat, substansiya) bilan dialektik bog'liqligi. Til va nutqqa, uning birliklariga shakl va mazmunning, tovush va ma'noning xosligi.

Sistema va struktura

Sistemaning o`zaro bog`langan qismlardan iborat bir butun ob`ekt ekanligi. Strukturaning tuzilishi sistemaning ichki tuzilishi ekanligi. Sistema va strukturaning dialektik bog`liqligi. Sistemaning turlari: moddiy sistema va ma`naviy sistema. Til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida. Til muayyan strukturaga ega bo`lgan sistemadir.

Tilni informatsiya nazariyasiga ko`ra kod bilan tenglashtirish

Belgi nazariyasi (semiologiya yoki semiotika) nuqtai nazardan tilning belgilar sistemasi deb qaralishi. Til belgisi, uning tarkibi, o`ziga xos xususiyatlari va boshqa belgilar sistemasidan farqli tomonlari. Semiotika.

Tilning ikki jihat

Tilning ikki jihat: ifoda va mazmun jihatlari. Tovushning ifoda, ma`noning esa mazmun jihatiga kiritilishi. Tilning asosiy birliklarini ifoda va mazmun jihatidan “baholash”.

Til va nutq birliklari

Tovush va fonema, ularning o`zaro munosabati. Fonema haqidagi fikrlar. So`z va u haqidagi fikrlar. Leksema, morfema, morf, allomorf, ularning mohiyati, vazifasi, xususiyatlari. Suz birikmasi va gap, ularning vazifasi, o`ziga xos xususiyatlari.

Til sistemasi, paradigmata va sintagmatika

Paradigmatik munosabat. Sintagmatik munosabat. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlarning o`zaro bog`liqligi, dialektik aloqasi. Pozitsiya tushunchasi.

Tipologiya va lingvistik tipologiya.

Tipologiya va lingvistik tipologiya. Universaliya.

Tilshunoslikning tadqiqot metodlari

Lisoniy metodlar: tasviriy, qiyosiy-tarixiy, chog`ishtirish, distributiv tahlil, komponent tahlil, valentlik tahlili, statistik tahlil va boshqalar. Bu metodlarning vazifasi, o`ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

Seminar mashg`ulotlarini tashkil etish bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

Seminarlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tilshunoslik tarixi, maktablari.
2. Hind va Yunon tilshunosligi.
3. Arab tilshunosligi.

4. O'rta Osiyoda tilshunoslik.
5. Komparativistika.
6. Naturalizm, psixologizm.
7. Til va nutq.
8. Substansiya va forma. Sistema va struktura.
9. Til va nutq birlklari.
11. Til belgilar sistemasi. Tilning ikki jihatni.
12. Paradigmatika va sintagmatika.
13. Tipologiya. Lisoniy metodlar.

Seminarlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini ma'ruza qilish va savol-javoblar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Jahon tilshunosligening tarixiy bosqichlari .
2. Qadimgi hind tilshunosligida lug'atchilik.
3. Qadimgi yunon tilshunosligida analogiya va anomaliya masalalari.
4. O'rta Osiyolik allomalarining lisoniy merosi.
5. F.de Sossyur ta'limotida strukturalizm masalalari.
6. Strukturalizmning klassik maktablari.
7. O'zbek tilshunosligi.
8. Til va nutq.
9. Til va nutq birlklari.
10. Til sistemasi.
11. Lingvistik metodlar.

II Bo‘lim. Stilistika **Stilistikaning asosiy kategoriya va tushunchalari**

«Stilistika» fani, uning maqsadi va vazifalari. «Stil» so‘zining izohli lug‘atlarda berilishi. Uslubshunoslikning ikki ko‘rinishi; Nutqiy uslubshunoslik va lingvistik uslubshunoslikning ahamiyati.

Tilning fuksional uslublari

Vazifadosh uslublar va ularning turlari. Adabiy me’yor va uslubiy me’yor. Ularning bir-biridan farqi va o‘zaro munosabati. Til va nutq uslublari tushunchasi.

So‘zlashuv uslubi

So‘zlashuv uslubining leksik - frazeologik xususiyatlari. Bu uslubning til vositalari. Adabiy so‘zlashuv va oddiy so‘zlashuv uslubi. So‘zlashuv uslubining morfologik, sintaktik xususiyatlari. O‘qituvchi va talabalar nutqida, insholarida so‘zlashuv uslubi elementlari ishlatilishining oldini olish.

Rasmiy uslub

Rasmiy uslubning vazifalari va ishlatish doirasi, leksik, grammatik vositalari. Rasmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat xujjatlari va ish yuritish qog‘ozlarining uslubiy xususiyatlari.

Ilmiy uslub

Ilmiy uslubning o‘ziga xos belgilari. Ilmiy terminologiya. Ilmiy uslubning leksik-grammatik, sintaktik xususiyatlari. Ilmiy- ommabop uslubning o‘ziga xos jihatlari.

Publitsistik uslub

Bu uslubning boshqa uslublardan farqi. Publitsistik uslubning leksik, frazeologik, grammatik vositalari. Publitsistik materiallar mazmuni, elementlari.

Badiiy uslub

Badiiy uslubning vazifalari. Uning boshqa uslublar tizimidagi o‘rni. Badiiy uslub vazifasi haqidagi qarashlar. Bu uslubda ijodiy individuallik. Badiiy uslubning morfologik-sintaktik xususiyatlari.

Lingvistik stilistika

Til vositarining uslubiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi, hozirgi o‘zbek adabiy tilining uslubiy strukturasi.

Fonetik stilistika

Uning asosiy ob‘ekti. Uslubshunoslikning fonetik vositalari; muallifga xos vositalar, ijro etishga xos vositalar. To‘liq va to‘liqsiz talaffuz ko‘rinishlari. Ayrim nutq tovushlari, talaffuz variantlarining uslubiy ahamiyati. Intonatsiya va uning komponentlari, uslubiy imkoniyatlari. Assonans va alliteratsiyaning uslubiy xususiyatlari.

Leksik stilistika

Tilning leksik-frazeologik jihatdan uslubiy boyligi. Til va nutqdagi uslubiy bo‘yoq. Ko‘p ma’noli so‘zlarning uslubiy xususiyatlari. Sinonimiya va sinonimik qatorning uslubiy xususiyatlari. Navoiy va Shayxzoda asarlaridagi sinonimlarning ahamiyati haqida. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari. Nutqiy antonimiya. Ommofonlarning

uslubiy qo'llanishi. Omonimiya va uslubshunoslik. Tuyuq, so'z o'yinlari, askiyalarda omonimlarning roli. Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari. Vulgarizm, varvarizm, ekzotizm, tabu va evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari. Dialektizmlar, kasbhunar leksikasining uslubiy ahamiyati. Ularni o'rinsiz qo'llash haqida. Boshqa tillardan kirgan so'zlar. Rus, arab, fors-tojik so'zlarining uslubiy xususiyatlari. O'zga tillardan kirgan so'zlarni o'rinsiz ishlatish hollari. Jargon va argolarning uslubiy xususiyatlari. Frazeologizmlar uslubshunosligi

O'zbek frazeologiyasining uslubiy imkoniyatlari. Uslubiy bo'yoq dor va neytral frazeologizmlar. Ularning sinonimiya, antonimiya va omonimiysi, uslubiy xususiyatlari. Maqol va hikmatli so'zlarning uslubiy ahamiyati. So'z qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash.

Morfologik stilistika

Morfologik uslubshunoslik ob'ekti. So'z turkumlarining uslubiy imkoniyatlari. Ot turkumi. Atoqli va turdosh otlarning uslubiy vazifalari. Kelishik va egalik qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari. Qaratqich va tushum kelishigining uslubiy xususiyatlari. Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilarda sinonimik munosabatlar. Ko'plik qo'shimchasining uslubiy vazifalari. Sifat. Sifat darajalari uslubiyatlari Sifat sinonimiysi. Son. Otlashgan sonlarning uslubiy xususiyatlari. Bir sonining uslubiy imkoniyatlari. Sonlar sinonimiysi. Olmosh. Olmoshlar sinonimiysi. Olmoshlarning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash uslubiy vosita hisobida. Fe'l. Fe'l zamonlaridagi uslubiy imkoniyatlar. Zamon ko'shimchalari sinonimiysi. Fe'l mayllari, fe'l nisbatlarining xususiyatlari.

Sintaktik stilistika

Sintaktik uslubshunoslikning vazifalari. Sintaktik sinonimiya. So'z birikmasi sinonimiysi. Darak, so'roq, buyruq, undov, his-hayajon gaplarning qo'llanilishidagi o'ziga xoslikdir. Gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari. Qo'shma gaplar sinonimiysi. Tinish belgilarning uslubiy xususiyatlari. Sintaktik figuralar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Stilistika fanining maqsadi, vazifalari haqida.

Nutq uslublari, uslub turlari bo'yicha amaliy ishlar.

So'zlashuv uslubining badiiy uslubda ko'llanishiga doir misollar. Rasmiy hujjatlar, ish qog'ozlari namunalarini o'rganish.

So'zni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash. So'zlar, frazeologik iboralarning noto'g'ri qo'llanishiga doir misollar. Badiiy asarlardan frazeologizmlar, ko'p ma'noli, uslubiy bo'yoq dor, neytral so'zlarni aniqlash.

Sifat sinonimiyasiga doir misollar.

Sifat yasovchi affikslarning to'g'ri yoki noto'g'ri ko'llanishi, sinonimlarga doir misollar. Fe'l zamonlari, olmoshlarning almashib ko'llanishiga doir misollarni topish. Uslubiy xato, uslubiy noaniqlik tushunchalarining farqi. Matndagi uslubiy xatolar, noaniqliklarni aniqlash.

Stilistik sinonimlar ustida ishslash. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar sinonimiyasiga doir mashqlar.

Turg'un birikmalarning uslubiy xususiyatlariga doir mashqlar ishslash. Frazeologik

ibora, frazeologik chatishma va qo'shilmalarni farqlash va ularni o'z o'rnida yoki noo'rin qo'llanganini, tushuntirish.

Darak, so'roq, undov, his-hayajon gaplarning uslubiy xususiyatlariga doir misollar. Bu gaplarning qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xatolarni aniqlash. Ritorik so'roq gap qo'llangan misollarni topish.

Publitsistik uslub janrlari. Matnlardan leksik-frazeologik va grammatik vositalarni aniqlash. Biror mavzuda publitsistik matn tuzish. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash. Ilmiy-ommabop matnlar tahlili.

Badiiy adabiyotlardan ko'shma gaplarni aniqlash. Matnlardan uslubiy bo'yoqdor grammatik shakllar va murakkab gaplarni ishlatishda yo'l qo'yilgan xatolarning oldini olish.

Mustaqil ravishda badiiy asardan sintaktik figuralar va troplar qo'llangan misollarni topish va ularni tahlil qilish. Badiiy usul namunalari, she'r, xikoya yozish va ularda sintaktik figura, troplarni ko'llash. Ularning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganligini aniqlash. Erkin mavzuda insho yozish va unda yo'l qo'yilgan uslubiy nuqsonlarni aniqlash.

Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- internetdan foydalanish;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. E.Qilichevning "O'zbek tilining amaliy stilistikasi" o'quv qo'llanmasi va S.Sultonsaidovaning "O'zbek tili stilistikasi" ma'ruzalar matnini o'qib, kerakli o'rirlarni konspektlashtirish. Lingvistik uslubshunoslikni tarkibiy qismlarga ajratib, ularning har biriga badiiy asarlardan misollar yozish.

2. Nutq uslubilarining har biriga adabiyotlardan matnlar yozish va izohlash.
3. Badiiy uslubda mustaqil ravishda she'r, hikoya va maqola yozish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Elektron ta'lim resurslari

- 1. www.tdpu.uz**
- 2. www.pedagog.uz**
- 3. www.Ziyonet.uz**

4. www.edu.uz

5. tdpu-INTRANET. Ped

6. www.nutq.intal.uz

Didaktik vositalar

Didaktik vositalar ro`yxati beriladi.

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko`rsatgich (ukazka).
- video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko`z (glazok).

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar :

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq 1998.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.- T.: O`zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch.- T.: Ma`naviyat, 2008.
4. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq.- T. : O`qituvchi, 1993.
5. Nurmonov A. O`zbek tilshunosligi tarixi. -T.: Sharq, 2002.
6. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik (o`quv qo`llanma)- T., 2005.
7. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik (o`quv qo`llanma)- T., 2006.
8. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. (Darslik)- T., 2010.
9. Qilichev E. O`zbek tilining amaliy stilistikasi.- T.: O`qituvchi, 1995.
10. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O`zbek tili stilistikasi.-T., 2009.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Ne'matov H., Rasulov R. O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T. : O`qituvchi, 1995.
 2. Rasulov R. O`zbek tili fe'lllarining ma`no tuzilishi. -T., 2005.
 3. Muhamedova S. O`zbek tilida harakat fe'lllarining semantikasi va valentligi.-T., 2005.
 4. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. –T., 2009.
5. Mirtojiyev M., Muhamedova S. O `zbek tilida so‘z valentliklari.-T., 2011.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

Nº BDI-5141100-3.11
«__» ____ 2014_ yil

«Tasdiqlayman»

Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
_____ prof.X.I.Ibragimov
«__» ____ 2014_ yil

“Umumiy tilshunoslik” o'quv fanining

ISHCHI O'QUV FAN DASTURI

| | |
|-------------------|----------------------|
| Fakultet: | O'zbek filologiyasi |
| Kafedra: | O'zbek tilshunosligi |
| Kurs | III 6-sem |
| Jami auditoriya | 96 soat |
| soatlari: | |
| Ma'ruza | 46 soat |
| Seminar | 30 soat |
| Amaliy mashg`ulot | 20 soat |
| Mustaqil ta'lif | 78 soat |

| | |
|--|------------------------------------|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar |
| Ta'lif sohasi: | 110000 – Pedagogika |
| Ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi): | 5111200 - O'zbek tili va adabiyoti |

2014 – 2015 - o'quv yili

I. Kirish

Ushbu dastur tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy-nazariy masalalari va tilshunoslik metodlari bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumot beradi. O'zbek tili stilistikasi, amaliy stilistika va tilning funksional va lingvistik uslublari, uslubiy norma va uslubiy xato tushunchalari haqida ma'lumot beradi.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning **maqsadi** - bo'lajak o'qituvchilarga tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy-nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha atroficha bilim berish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan, o'zbek tilining uslublari, uslubiy ko'rinishlari haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanning **vazifasi** - tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy- nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha bilimlarga o'rgatishdan iborat. Ushbu fan talabalarini nazariy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi. "Umumiyl tilshunoslik" fani o'z ilmiy va amaliy ahamiyatiga ega bo'lib, uning vazifalari uslub, uslubshunoslik, uning asosiy tushuncha va kategoriyalarini namoyon etish; fonetika, leksika, frazeologiya, sintaksisning uslubiy imkoniyatlarini namoyon etish; adabiy me'yor bilan uslubiy me'yor o'rtasidagi munosabat va ularning farqli jihatlari haqida ma'lumot berish; talabalarga uslubiy xatolar va ularning oldini olish yo'llari bo'yisha bilimlar berish kabi muammolarni hal etishni ko'zda tutadi.

1.2. Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

"Umumiyl tilshunoslik" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- jahon tilshunosligining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik mакtablari, tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik metodlarini **bilishi**;
- muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish **malakalariga ega bo'lishi**;
- o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari va uning grafik sistemasi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- o'zbek tilining funksional uslublarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi**;
- o'zbek tilining uslubiga xos asosiy xususiyatlarni farqlash . **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim**.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

“Umumiy tilshunoslik” fanini o‘qitishda talabalarning o‘zbek tilshunosligining barcha bo‘limlari, hozirgi o‘zbek adabiy tili, nutq madaniyati, falsafa, mantiq, psixologiya, pedagogik mahorat kabi fanlardan egallagan bilimlariga tayanoladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida mutaxassislik fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi

1.4. Fanning hajmi

| Nº | Mashg‘ulot turi | Ajratilgan soat | Semestr |
|----|--------------------------|-------------------|---------|
| 1 | Nazariy (ma’ruza) | 30+16 | 6 |
| 2 | Amaliy mashg‘ulotlar | 20 | 6 |
| 3 | Laboratoriya mashg‘uloti | - | - |
| 4 | Seminar | 30 | 6 |
| 5 | Kurs ishi | - | |
| 6 | Mustaqil ta’lim | 40+38 | 6 |
| 7 | Jami | 100+74=174 | |

II. Asosiy qism

2.1. Nazariy mashg‘ulotlar mavzulari, mazmuni va ularga ajratilgan soatlar

I bo‘lim. Umumiy tilshunoslik

| Nº | Mavzular mazmuni | Mashg‘ulotlar maqsadi | Ajr. soat |
|----|---|--|--------------|
| 1. | “Umumiy tilshunoslik” fanining maqsadi va vazifasi. Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari. Qadimgi Hind va Xitoy tilshunosligi | “Umumiy tilshunoslik” fanining maqsadi va vazifasi hamda jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari bilan talabalarni tanishtirish. Hindlarning qadimgi tilshunoslari, ularning eng buyuk fonetikachi va grammaticachilari. Vedalar. Panini grammaticasi. Sanskrit haqida ma’lumot berish. Qadimgi Xitoy tilshunosligi haqida ma’lumot berish. | 2 |
| 2. | Qadimgi Yunon va Rim tilshunosligi | Til haqidagi fanning uzoq taraqqiyot natijasi ekanligi, uning jamiyat tarixi bilan bog‘liqligi, o‘z tarixiga egaligi. Yunon tilshunosligining ikki: falsafiy va grammatik davrlari. Rim grammaticasining grek grammaticasining shahobchasi sifatida maydonga kelishi bilan tanishtirish. Qadimgi Yunon va Rim tilshunoslari asarlari bilan talabalarni tanishtirish | 2 |
| 3. | O‘rta asrlar. Arab tilshunosligi | Kufa va Basra maktablari. Ushbu maktab vakillari, ularning tadqiqotlari. Sibavayxiyning “al Kitob”i. Arab tilshunosligining tuzilishi: rasmul xat (grafika), tajvid (orfoeziya), sarf (morphologiya), naxv (sintaksis), ilmul Lug‘at (leksikografiya va leksikologiya), ilmu – l-manoiy (semasiologiya), | 2 |

| | | | |
|-----|---|--|---|
| | | ilmu-l-bayon (uslubshunoslik) va boshqalar bilan tanishtirish. | |
| 4. | Arab tilshunosligining rivojida O'rta Osiyolik allomalarning xizmati | Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning filologik asarlari. Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy va Mirzo Mehdixonlarning lisoniy tadqiqotlari, ularning turkiy va o'zbek tilshunosligi tarixidagi o`rni O'rta Osiyolik allomalarning lisoniy merosi haqida ma'lumot berish | 2 |
| 5. | Yevropada uyg'onish davridagi tilshunoslik. Komparativistika. V. fon Gumbold ta'limoti. | Por-Royal grammatikasi. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonosov asarlari. Komparativistika, V.fon Gumboldt ta'limoti. | 2 |
| 6. | Naturalizm. Psixologizm. F.de Sossyur ta'limoti. | Naturalizm. Psixologizm oqimlari. F.de Sossyur ta'limoti haqida ma'lumot berish | 2 |
| 7. | Tilshunoslikning nazariy masalalari. "Lingvistika" termini. Lingvistika turlari. Tilning ta'riflari. | Atomistik va struktural lingvistika. Ichki va tashqi lingvistika, makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari, ularning mohiyati. Tilning ta'riflari haqida ma'lumot berish. | 2 |
| 8. | Til va nutq | Til va nutqning dialektik munosabati. Til tarkibi. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali. Tilning o'z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Tilning imkoniyat, nutqning esa vogelik ekanligi. Til va nutqning ham ijtimoiy, ham individual xarakteri haqida ma'lumot berish. | 2 |
| 9. | Til va nutq birliklari (Til birliklari) | Til va nutq birliklari haqida umumiy ma'lumot. Fonema, morfema, leksema va model kabi til birliklari, ularning o'zaro munosabati, o'ziga xos jihatlari, vazifalari haqida ma'lumot. | 2 |
| 10. | Til va nutq birliklari (Nutq birliklari) | Tovush, so'z, so'z birikmasi, gap va matn kabi nutq birliklari, ularning o'ziga xosliklari, jihatlari, fikr almashish jarayonidagi vazifasi haqida ma'lumot. | 2 |
| 11. | Substansiya va forma. Sistema va struktura. | Substansiya va forma, sistema va struktura haqida ma'lumot berish. Substansiya va forma, sistema va strukturalarning ilmiy –nazariy, falsafiy sharhi. Sistemaning o'zaro bog`langan qismlardan iborat bir butun ob'ekt ekanligi. Strukturaning tuzilishi sistemaning ichki tuzilishi ekanligi. Sistema va strukturaning dialektik bog`liqligi. Sistemaning turlari: moddiy sistema va ma'naviy sistema. Til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida. Til muayyan strukturaga ega bo`lgan sistemadir. | 2 |
| 12. | Tilni informatsiya | Tilni informatsiya nazariyasiga ko'ra kod bilan | |

| | | | |
|-------------|---|---|--------------|
| | nazariyasiga ko‘ra kod bilan tenglashtirish. Tilning ikki jihat. | tenglashtirish. Kod turlari haqida ma’lumot. Tilning ikki jihatni Til va nutqqa, uning birliklariga shakl va mazmunning, tovush va ma‘noning xosligi haqida ma’lumot berish. | 2 |
| 13. | Til sistemasi, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar. Sinatgmatika va paradigmatica. | Til birliklari va ular orasidagi munosabatlar haqida fikrlar. Sintagmatika va paradigmatica haqida. Sintagmatik munosabat. Paradigmatik munosabat. Sintagmatik va paradigmatic munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi, dialektik aloqasi. Pog‘onali munosabat. Pozitsiya tushunchasi haqida ma’lumot berish. | 2 |
| 14 | Tipologiya va lingvistik tipologiya. Lisoniy metodlar. Dioxron tadqiqot metodlari. | Tipologiya. Lisoniy tipologiya. Metod va lisoniy metodlar haqida umumiylar ma’lumot berish. Dioxron tadqiqot metodlari: tasviriy, qiyosiy-tarixiy, chog‘ishtirish, tarixiy-qiyosiy hamda tipologik metodlar. | 2 |
| 15. | Lisoniy metodlar. Sinxron tadqiqot metodlari. | Sinxron tadqiqot metodlari haqida. Ushbi metodlarning quyidagi turlari: distributive, statistik, bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish, transformatsion, komponent, eksperimental fonetik va boshqa metodlar haqidagi fikrlar. Lisoniy metodlar – sinxron tadqiqot metodlari – zamonaliviy, hozirgi, yangi metodlar haqida ma’lumot berish. | 2 |
| Jami | | | 30 s. |

II bo‘lim. O‘zbek tili stilistika

| Nº | Mavzular mazmuni | Mashg‘ulotlar maqsadi | Ajratilgan soat |
|-----------|--|---|----------------------------|
| 1. | Uslubshunoslikning asosiy kategoriya va tushunshalari | «O‘zbek tili stilistikasi» fani, uning maqsadi va vazifalari. Uslubshunoslikning ikki ko‘rinishi. Nutqiy uslubshunoslik va lingvistik uslubshunoslikning ahamiyati haqida ma’lumot berish. | 2 |
| 2. | So‘zlashuv uslubi. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub. | Vazifadosh uslublar va ularning turlari. Adabiy me’yor va uslubiy me’yor. Ularning bir-biridan farqi va o‘zaro munosabati. Til va nutq uslublari tushunchasi. So‘zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari. Bu uslubning til vositalari. Adabiy so‘zlashuv va oddiy so‘zlashuv uslubi. Rasmiy uslubning vazifalari va ishlatish doirasi. Leksik, grammatik vositalari. Davlat hujjalari va ish yuritish qog‘ozlarining uslubiy xususiyatlari. Ilmiy uslubning o‘ziga xos belgilari. Ilmiy terminologiya. Ilmiy-ommabop uslubning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot berish. | 2 |
| 3. | Publitsistik uslub. | Publitsistik uslubning leksik, frazeologik, | 2 |

| | | | |
|--------------|---|--|---------|
| | Badiiy uslub. | grammatik vositalari. Publitsistik materiallar mazmuni, elementlari. Badiiy uslubning vazifalari. Uning boshqa uslublar tizimidagi o'rni. Bu uslubda ijodiy individuallik. Badiiy uslubning morfologik-sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumot berish. | |
6. Yunon tilshunosligi va uning ikki davri: falsafiy va grammatik davrlari.
7. Analogiya va anomaliya.
8. Yunon tilshunosligining Iskandariya davri.
9. Xitoy tilshunosligi.
10. Rim tilshunosligi.
11. Arab tilshunosligi. Kufa va Basra maktablari.
12. Sibavayxiyning “al Kitob”i.
13. Arab tilshunosligining tuzilishi.
14. Arab tilining izohli lug ‘atlari.
15. Abu Nasr Farobiyning lisoniy qarashlari.
16. Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari.
17. Abu Ali ibn Sinoning lisoniy qarashlari.
18. Mahmud Koshg‘ariyning lisoniy asarlari.
19. Mahmud az Zamaxshariyning lisoniy asarlari.
20. Alisher Navoiyning lisoniy asarlari.
21. Mirzo Mehdixonning lisoniy asarlari..
22. yevropada uyg‘onish davridagi tilshunoslik.
23. Por-Royal grammatikasi.
24. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonosovning “Rossiya grammatikasi” asari.
25. Komparativistika (qiyosiy – tarixiy tilshunoslik).
26. V.Gumboldtning lingvistik nazariyasi, til antinomiyasi. Uning umumiy tilshunoslik faniga asos solishi.
27. Naturalizm (A.Shleyxer) ta’limoti.
28. Psixologizm (G.Shteyental) ta’limoti.
29. F. de Sossyur ta’limoti.
30. Til ta’rifi.
31. Til va nutq.
32. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali.
33. Tilning o ‘z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi.
34. Nutq faoliyati.
35. Substansiya (mohiyat) va forma (shakl).
36. Sistema va struktura. Ularning dialektik bog‘liqligi.
37. Til ikkilamchi belgilar sistemasi.
38. Til birliklari.
39. Nutq birliklari.
40. Tilni informatsiya nazariyasiga ko‘ra kod bilan tenglashtirish.

41. Semiotika.
42. Tilning ikki jihat: ifoda va mazmun jihatlari.
43. Til sistemasi, sintagmatika.
45. Til sistemasi, paradigmatica.
46. Sintagmatik munosabat.
47. Paradigmatik munosabat.
48. Pozitsiya tushunchasi.
49. Tipologiya. Lingvistik tipologiya.
50. Lisoniy metodlar.
51. Sinxron tadqiqot metodlari.
52. Diaxron tadqiqot metodlari.

II bo'lim

Oraliq va yakuniy nazorat savollari

1. Uslubshunoslik fanining maqsadi va vazifalari
2. «Uslub» so‘zining ma’nolari
3. Nutq uslubi tushunshasi
4. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xosliklari
5. Rasmiy – idoraviy uslubning o‘ziga xosliklari
6. Ilmiy uslubning o‘ziga xosliklari
7. Publitsistik uslubning o‘ziga xosliklari
8. Badiiy uslubning o‘ziga xosliklari
9. Akademik V.V. Vinogradov uslubshunoslik ob’ektlarini nesha aspektga bo‘ladi, ularni sanab bering
10. Egalik qo‘sishmashalarining uslubiy xususiyatlari
11. Sintaktik figuralar
12. Ironiya
13. Evfemizm
14. Omonimlar, ularning turlari, uslubiy imkoniyatlari
15. Sub’ektiv baho shakllarining uslubiy xususiyatlari
16. Kishilik olmoshlarining uslubiy xususiyatlari
17. «Bir» so‘zining leksik-semantik xususiyatlari
18. Adabiy til va stilistika
19. Leksik stilistika.
20. Emotsional-ekspressiv leksikaning uslubiy xususiyatlari.
21. Fonetik stilistika
22. Nutq stilistikasi
23. Til stilistikasi
24. Fe’l zamon shakllarining uslubiy xususiyatlari.
25. SHaxs-son shakllarining uslubiy xususiyatlari.
26. Fe’lning funktsional shakllarining uslubiy xususiyatlari
27. YOrdamshi so‘zlarning uslubiy xususiyatlari
28. Undovlarning uslubiy imkoniyatlari
29. Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari
30. Tinish belgilarining uslubiy vazifasi
31. Troplar

32.Neologizmlarning uslubiy xususiyatlari

Yakuniy nazorat savollari

1. Uslubshunoslik fanining maqsad va vazifalari
2. «Uslub» so‘zining ma’nolari
3. Nutq uslubi tushunshasi
4. So‘zlashuv uslubining morfologik xususiyatlari
5. So‘zlashuv uslubining leksik-frazeologik xususiyatlari
6. Rasmiy uslubning morfologik, sintaktik xususiyatlari Uslubshunoslik fanining predmeti
7. Akademik V.V.Vinogradov uslubshunoslik fanining ob’ektlarini nesha aspektga bo‘ladi, ularni sanab bering
8. Egalik ko‘shimshalarining uslubiy xususiyatlari
9. Sintaktik figuralar
- 10.«Oson» so‘zining sinonimik qatorini tuzing va izohlang.
- 11.Ironiya
- 12.Evfemizm
- 13.Omonimlar, ularning turlari, uslubiy imkoniyatlari
- 14.Funktional uslub turlari
- 15.«Tuzlamoq» so‘zining ma’nolarini izohlang, sinonimlarini ko‘rsating
- 16.Sub’ektiv baho shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 17.Epitet, metafora, metonimiya
- 18.«Mum tishlamoq» iborasining leksik va frazeologik sinonimlarini ko‘rsating
- 19.Kishilik olmoshlarining uslubiy xususiyatlari
- 20.Sarkazm
- 21.«Bir» soning leksik-semantik xususiyatlari
- 22.Rasmiy uslubning boshqa nutq uslublaridan farqi
- 23.Sintaktik figuralar: epifora, takror, sintaktik parallelizm Ko‘rsatish olmoshlarining uslubiy xususiyatlarini
- 24.Adabiy til va stilistika
- 25.Leksik stilistika (umumiy xarakteristikasi)
- 26.Antonimlarning uslubiy xususiyatlari
- 27.Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari
- 28.Omonimlarning uslubiy xususiyatlari
- 29.Tabu va evfemizmlarning uslubiy xususiyatlari
- 30.Arxaizm va istorizmlarning uslubiy xususiyatlari
- 31.Emotsional-ekspresiv leksikaning uslubiy xususiyatlari
- 32.Frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari
- 33.Fonetik stilistika
- 34.Nutq stilistikasi
- 35.Til stilistikasi
- 36.So‘zlashuv uslubi
- 37.So‘zlashuv uslubining fonetik xususiyatlari.
- 38.Rasmiy uslub
- 39.Rasmiy stilning grammatik xususiyatlari.
- 40.Ilmiy uslub

- 41.Ilmiy uslubning grammatik xususiyatlari.
- 42.Badiiy uslub
- 43.Publitsistik uslub
- 44.Publitsistik uslubning grammatik xususiyatlari
- 45.Kelishik shakllarning uslubiy xususiyatlari
- 46.Ko‘plik shaklining uslubiy xususiyatlari
- 47.Egalik shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 48.Ot yasovshi affikslarning uslubiy ahamiyati
- 49.Ot shakllari uslubiyati.
- 50.Sifat stilistikasi
- 51.Sifat darajalari sinonimiyasi
- 52.Sub’ektiv baho shakllarining uslubiy qo‘llanishi
- 53.Son stilistikasi.
- 54.Olmoshning uslubiy xususiyatlari
- 55.Fe’lning uslubiy xususiyatlari
- 56.Mayl shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 57.Bo‘lishsiz fe’lning uslubiy xususiyatlari
- 58.Fe’l zamon shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 59.SHaxs-son shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 60.Fe’lning funktional shakllarining uslubiy xususiyatlari
- 61.YOrdamshi so‘zlarning uslubiy xususiyatlari.
- 62.Undovlarning uslubiy imkoniyatlari.
- 63.Sintaktik omonimiyaga xos uslubiy xususiyatlari
- 64.Sintaktik sinonimlikka xos uslubiy xususiyatlari
- 65.Darak, so‘roq, buyruq gaplarning uslubiy xususiyatlari
- 66.Gap bo‘laklarining uslubiy xususiyatlari
- 67.Uyushiq bo‘laklarining uslubiy xususiyatlari
- 68.Gap bo‘laklari tartibining uslubiy xususiyatlari
- 69.Bir bosh bo‘lakli gaplarning uslubiy xususiyatlari
- 70.To‘liqsiz gapning uslubiy xususiyatlari
- 71.Gapdagi izoh bo‘laklarning uslubiy xususiyatlari
- 72.Undalmaning uslubiy xususiyatlari
- 73.Kirishlarning uslubiy xususiyatlari
- 74.Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari
- 75.Ko‘shirma va o‘zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari
- 76.Abzats va uning uslubiy o‘rni
- 77.Tinish belgilarining uslubiy vazifasi
- 78.Sintaktik figuralar
- 79.Troplar
- 80.Neologizmlarning uslubiy xususiyatlari
- 81.Hujjat turlari

UMUMIY SAVOLLAR

1. Paradigmatika nima?
2. Sintagmatika nima?
3. Paradigmatik munosabat nima?
4. Sintagmatik munosabat nima?
5. Iyerarxik munosabat qanday munosabat?
6. Tipologiya nima?
7. Lingvistik tipologiya nima?
8. Universaliya nima?
9. Metod nima?
10. Metodning qanday ko'rinishlari mavjud?
11. Metodika nima?
12. Metodologiya nima?
- 13.** Metodlar nechtaga bo'linadi?
14. Tasviriy metod qanday metod?
15. Qiyosiy – tarixiy metod qanday metod?
16. CHog'ishtirish metodi qanday metod?
17. Tarixiy - qiyosiy metod qanday metod?
18. Tipologik metod qanday metod?
19. Distributiv tahlil metodi qanday metod?
20. Statistik tahlil metodi qanday metod?
21. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi qanday metod?
22. Transformatsion tahlil metodi qanday metod?
23. Komponent tahlil metodi qanday metod?
24. Valentlik tahlil metodi qanday metod?
25. Ekperimental – fonetik tahlil metodi qanday metod?
26. Avtomatik tahlil metodi qanday metod?
27. Tilshunoslik tarixi, maktablari.
28. Qadimgi hind tilshunosligi.
29. Qadimgi YUnion tilshunosligining ikki davri.
30. Analogiya.
31. Anomaliya.
32. Falsafiy davr vakillari.
- 33.** Grammatik davr vakillari

TARQATMA MATERIALLAR

«Umumiy tilshunoslik» fani maqsadi:



- «Umumiy tilshunoslik» fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo`nalishda puxta, «hushyor» qilish uchun zarur. Shuningdek, ular til hodisalari tahlilidan ilmiy xulosalar, g`oyalar chiqara oladi, hodisalar mohiyatiga alohida e`tibor beradi, nazariya bilan amaliyotni dialektik munosabatda oladi. Til va nutq birliklarini chuqur o`rganish jarayonida dialektik falsafaning shakl va mazmun, umumiylilik va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalari nuqtayi nazaridan, shularga asoslangan holda fikr yuritadi, kuzatishlar olib boradi.

"Umumiy tilshunoslik" fani metodologiyasi:



- «Umumiy tilshunoslik» fani talabalarning umumilingvistik tayyorgarligini, bilim darajasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, yangi nazariya va faktik materiallar bilan tanishtiradi, mustaqil, ijodiy fikr-mulohaza yuritishga, izchillikka o`rgatadi, nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodologiyasi va metodikasi bilan qurollantiradi.



«Umumiy tilshunoslik» fanining dolzarb massalalari:



- *Tilshunoslik tarixi.*
- *Tilshunoslikning nazariy masalalari.*
- *Tilshunoslik metodlari.*

• **Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816-yil) fanlar olamiga kirib keldi. Shashubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g`oyalilar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o`zining alohida o`rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo`ldi.**



Tilshunoslik rivoji:



- Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta`limotlari, ogimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi.
- O`rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O`rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi Hind tilshunosligi.



- Til masalalariga bo`lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug`ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar tili davrlar o`tishi bilan mamlakat aholisining so`zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya`ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so`zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo`qotish uchun hind olimlari qadimiylar yodgorliklar tilini o`rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar.



- Qadimgi hind tilshunoslari grammatika morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo`nalishda ham grek tilshunoslardan ancha o`tib ketdilar. Aniqrog`i, hind tilshunosi Guru morfologiyaning uch bo`limdan tashkil topishini aniq ko`rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So`zlar tasnifi (so`z turkumlari). 2. So`z yasalishi. 3. So`z o`zgarishi.
- Hindlar to`rtta so`z turkumini farqlaganlar: ot, fe`l, old ko`makchi va yuklama.



- Qadimgi hindlar so`zlarni tahlil qilish, tarkibini o`rganish jarayonida ularni quyidagi bo`laklarga ajratganlar: 1) o`zak, 2) suffiks, 3) qo`shimcha (turlovchi qo`shimcha). Shuningdek, so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi morfemalar farqlangan.
- Hindlar otlarda yettita kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo`nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o`rin kelishigi.




Qadimgi yunon tilshunosligi.



- Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi.
- Faylasuflar va shoirlar vatani bo`lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomo-nidan o`rganilgan.
- Yunon faylasuflari til masalalarini o`rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo`nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo`nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy-falsafiy muammolar sifatida namoyon bo`ladi.
- Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining etakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.



- Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o`rganish, so`zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug`ullanishga, shu yo`na-lishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo`ldi.
- Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo`linadi:
- **Falsafiy davr.**
- **Grammatik davr.**



Tilshunoslikning falsafiy davri.



- Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g`oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.
- Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo`lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo`nalishlar til masalalari bilan faol shug` ullanganlar.



- Tilshunoslikning falsafiy davrida so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g`oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o`zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog`lanishda bo`lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo`ladi, «ochiladi». Aniqrog`i, suvda daraxtlar, ko`zguda o`zimiz aks etganidek har bir nom o`zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar



GLOSSARIY

Adabiy me'yor – til birliklarining adabiy til qoidag`talablariga mos holda, namunali tarzda qo`llanilishini, tilning adabiyligini ta'minlovchi vostalarni belgilovchi me'yor.

Adabiy til – umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1. YOzma shakli. 2. Og`zaki shakli. **Alliteratsiya** – (*lot. ad – old, -ga+ litera - harf*). Misralar, undagi so`zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo`llanilishi.

Analogiya – aynan o`xshashlik.

Anomaliya – qisman o`xshashlik.

Anafora – (*yun.anaphora – yuqoriga chiqarish*) parallel tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) boshida aynan bir unsurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo`llanish.

Analitik shakl – yordamchi so`zlar vositasida hosil bo`luvchi shakl.

Antiteza – (*yun. antithesis – qarama-qarshi qo`yish*). Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo`yishdan ibotat uslubiy qo`llanish.

Antonimlar – (*yun.anti – qarshi, zid; onyma - nom*). O`zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

Apostrof – (yun. – chetga yoki orqaga qaragan). CHet tilga oid ismlar tarkibidagi ayrim qismlarni ajratib talaffuz etishni, fonetik transkripsiyada undoshlarning yumshoqligini ko`rsatish uchun satr ustiga qo`yiladigan vergulsimon belgi (').

Arxaizm – (yun. archaios - qadimgi). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqa boshlagan til birligi (so`z, frazeologizm va b.)

Assanans – (*fran. assonance - ohangdoshlik*). Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.

Affiks – (lot. – birlashtirilgan, biriktirilgan). So`zga (leksemaga) zid qo`yiladigan (leksik ma'noga ega bo`lmagan), o`zi qo`shiladigan asosning lug`aviy yoki

grammatik ma'nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema; qo'shimcha.

Bayonot – diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va ish kabilar haqida manfaatdo tomonlar va umum axboroti uchun og'zaki yoki yozma ravishda e'lon qilingan rasmiy bildirish va shu haqdagi hujjat.

Badiiy uslub - funksional uslubning turlaridan bo`lib, u tilning kommunikativ va estetik vazifalarining birligi bilan, boshqa uslublarga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning keng qo'llanilishi, so'zlarning obrazli, ko'chma-metaforik qo'llanilishi va sh.k. belgilari bilan ajralib turadi.

Varvarizm – (yun. barbarismos). Ona tiliga o`zlashmagan, o`zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki ibora. Varvarizmlardan, odatda, o`zga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi.

Vulgarizmlar – (lot. vulgaris - oddiy, sodda) - dag`al so'z, dag`al ibora.

Gradatsiya – (lot. gradatio – bosqichma-bosqich kuchaytirish). Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini (mazmunini) kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon.

Deklaratsiya – biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy suratda e'lon qilingan bayonna, hukumat yoki partiya tantanali suratda e'lon qilgan asosiy qonun - qoidalar.

Disfemizm- kishilarni o`z nomlari bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilgan jonivor yoki narsa nomi bilan atashdir.

Denotat - leksema orqali nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buyum.

Denotat lotincha *denotate* - “*belgilamoq*” so`zidan olingan.

Dialektizmlar – biror dialektga xos bo`lgan til birliklari. Dialektizmlar so'z, ibora yoki boshqa birliklar bo`lishi mumkin.

Jonlantirish – jonsiz predmet, mavhum narsalarga jonli predmetlarga, insonga xos xususiyatlar berib tasvirlashdan iborat usul.

Jargon – (fr. jargon). Biror guruh vakillarining, o`z nutqi bilan ko`pchilikdan ajralib turish maqsadida, o`zicha mazmun berib ishlataladigan so`z va iboralari.

Ifoda semalari - semema tarkibidagi uslubiy ma`no qirralaridir, ular so`zda ko`chma ma`no hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Istorizmlar – o`tmish voqeligini atash zaruriyati bilan ishlataladigan so`zlar, ya`ni tarixiy so`zlar.

Inversiya – gapda so`zlar tartibining o`zgarishi.

Kassatsiya – sud hukmidan norozi bo`lib, ishni qayta ko`rish to`g`risida yuqori sud tashkilotlariga shikoyat qilish yoki ariza.

Kodeks – huquqning biror sohasiga oid tartibga solingan qonunlar to`plami.

Kommunikatsiya – xabar, aloqa. Biror mazmunning til vositalari bilan berilishi, xabar qilinishi.

Konnotatsiya - (lot. cun, con - birga + notare - belgilamoq). Til birligining konnotativ ma`no (ekspressiv, uslubiy munosabat kabi qo`shimcha ma`no yoki ma`nolarning) ifodasi.

Lingvistika – (fran. linguistique < lot. lingua - til) – Tilshunoslik.

Leksik uslubiyat – turli leksik qatlamlarning uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, so`zlarning funksional-uslubiy, emotsiyal-ekspressiv bo`yog`i, shuningdek, nutqda leksik vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo`llash haqidagi ta’limot.

Leksik me’yor – leksik birliklarning adabiy til qoidalariga mos holda, namunali tarzda foydalanishini belgilovchi me’yor.

Leksik va frazeologik me’yor – hamma tomonidan ishlataladigan, hammaga tushunarli bo`lgan so`z va iboralarning qo`llanishi.

Metafora- so`z ma’lum leksik ma’nosining denotatiga boshqa bir denotat o`xshashligi uchun ham uni ataganligi orqasida ko`chma ma`no yuzaga keltirishdir.

Metonimiya- so`z ma'lum leksik ma'nosi denotati boshqa bir denotat bilan zamon va makonda o`zaro aloqador bo`lganligi uchun uni ham ataganligi orqasida ko`chma ma'no yuzaga keltirishidir.

Mushtarak – barcha stil uchun umumiy bo`lgan.

Mayl – fe'l kategoriyalaridan biri.

Modallik – qo`shimcha ma'no ifodalash.

Nota – bir davlatning ikkinchi bir davlatga yuborilgan rasmiy xati.

Nutqiy shtamp – qoliplashgan yoki qolipga tushgan jumlalar.

Neytrallik – stiliy bo`yoqsizlik.

Nomema - leksema ikki tomonlama birlik bo`lgani sababli tilshunoslik nazariyasida leksemaning shakliy tomonidir. Nomema – *fonemalardan tashkil topadi*.

Nutq - tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish ususli, jarayoni.

Nutq birliklari: *tovush, sýz (sýz formasi), sýz birikmasi, gap.*

Nutqning fonetik bo`laklari jumla (fraz), takt, bo`g`in, tovushdan iboratdir.

Okkazionalizmlar – mahsuldor bo`limgan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o`zida qo`llangan so`z, individual-uslubiy neologizm.

Omonimlar- o`zaro shakliy bir xil bo`lgan so`zlar, ya`ni yozilishi va talaffuzi bir xil, ma'nosi har xil bo`lgan so`zlar omonimlardir.

Paronimiya - so`zlarning o`zaro shakliy o`xshash bo`lishi paronimiya deyiladi.

Paronim - talaffuzi (fonetik ifodasi) o`xshash, ammo lug`aviy ma'nosi farqli o`zakdosh leksemalar.

Partonimiya - leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo`lak munosabatlarining ifodalishidir. SHunga ko`ra partonimik munosabatda alohida olingen uzv(a'zo)ning uni tashkil qilayotgan ichki a'zolari bilan munosabati ko`rib chiqiladi.

Proklitika - urg`uli so`zdan oldin kelib, urg`u jihatdan unga qo`shilib ketadigan so`z.

Publitsistik – (publikus) ijtimoiy, ommaviy.

Pamflet – xalqaro mavzudagi fel’eton.

Potensial imkoniyat – zahiradagi imkoniyat

Parafraza – narsa, hodisani o`z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash.

Reduksiya – tovush artikulyatsiyasining kuchsizlanishi natijasida tovush (ovoz)ning o`zgarishi, tovushning miqdor va sifat belgisi jihatidan pasayishi.

Ritorik so`roq – faqat so`roq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy san’at; javob talab qilmaydigan so`roq.

Ritorik so`roq gap – o`zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo`lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan so`roq gap.

Sinekdoxa - so`z ma’lum leksik ma’nosining denotati bilan boshqa bir denotat biri ikkinchisiga bo`lak yoki aksincha butun bo`lish munosabatiga egaligi, uni ham ataganligi orqasida ko`chma ma’no yuzaga kelishidir.

Sinonimlar - yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo`lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma’no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so`zlardir.

Segment birliklar – so`z yoki morfema tarkibida gorizontal chiziq bo`ylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, bo`g`in, fonetik so`z, takt, fraza.

So`z - leksik va grammatik ma’nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Sarkazm - achchiq, zaharhanda.

Stil – (yun. stylos – yozuv (xat) tayoqchasi) – uslub.

Til - imkoniyat sifatida aloqa-aratashuv, fikr almashuv quroli. Til va jamiyat uzviy bog`liqdir. Til – tabiiy, ruhiy, ilohiy emas, balki ijtimoiy hodisadir.

Til birliklari: fonema, morfema, leksema (so`z) va modellar.

Tushuncha (signifikat) ob’ektiv borliqdagi narsa-hodisalarining kishi ongida

umumlashgan tarzidagi in'kiosidir. Tushuncha mantiqiy kategoriya bo`lib, u tafakkurga xos; leksik ma'no va uni ifodalovchi leksema esa tilga oid, til strukturasiga tegishlidir.

Takt – nutqning talaffuz jihatidan yaxlitlangan va pauza (pauzalar) bilan ajraladigan parchasi.

Fonetika –tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va b. xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi bo`limi.

Fonema - so`zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig`i, binobarin, ma'nolarni ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonologiya - tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materianing fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi.

Fraza – 1. Nutqning aloqa qilish birligi sifatidagi eng kichik mustaqil birligi. Bunday birlik odatda gapga teng bo`ladi va bunda “fraza” termini “gap” terminiga mos keladi. 2. Eng katta fonetik birlik – fikr tugalligiga ega, alohida ohang yordamida birlashgan va o`ziga o`xhash birliklardan to`xtam orqali ajratilgan jumla.

Funksional uslubshunoslik - uslubshunoslikning funksional uslublarini o`rganuvchi bo`limi.

Ekstralinguistica – tashqi lingvistika.

Enklitika – urg`uli so`zdan keyin kelib, urg`u jihatdan unga qo`shilib ketadigan so`z.

Efemizm - bir narsani o`z nomi bilan atashda noqulaylik tug`ilganda unga ijobjiy, yoqimli his uyg`otuvchi belgi berish maqsadida xuddi shunday belgiga yaqin narsanining nomi bilan atash, yoki o`sha noqulaylikni yopib yuboruvchi so`z yoki lug`aviy birlik bilan nomlashdir.

Elliptik gap - to`liqsiz gap.

Ellipsis – nutq unsurining tushib qolishi. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan (mas., iqtisod talabi bilan) yuz beradi. Undan odatda uslubiy figura sifatida foydalilanildi. Tilda esa turli sabablar bilan yuz beradi.

Epitet – sifatlash.

Epifora – paralell tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) oxirida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat nutq figurasi.

Qofiya – she’riy misralardagi ayrim so`zlarning, ba’zi qo`shimchalarning bir xilda o`zaro ohangdosh bo`lib kelishi.

Referat mavzulari

1. O`rtq Osiyolik olimlardan biri Mahmud az Zamaxshariyning lisoniy asarlari haqida ma`lumot bering
2. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning lisoniy asarlari.
3. Mirzo Mehdixonning lisoniy tadqiqotlari.
4. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida O’rta Osiyolik allomalar ta’rifi
5. Arab tilshunosligining rivojida O’rta Osiyolik allomalarining xizmati
6. Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning filologik asarlari haqida
6. Mahmud Koshg’ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy va Mirzo Mehdixonlarning qanday lisoniy tadqiqotlari
7. Evropada uyg’onish davridagi tilshunoslik haqida
8. “Por-Royal grammatikasi” asarinining mohiyati
9. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonovsovning “Rossiya grammatikasi” asari.
10. Komparativistika (qiyosiy – tarixiy tilshunoslik), uning vujudga kelishida kiyosiy – tarixiy metodning ahamiyati.
11. Qiyosiy – tarixiy metodning asoschilari, ularning tilga oid asarlari.
12. V.Gumboldning lingvistik nazariyasi, til antinomiyasi. Uning umumiyligi tilshunoslik faniga asos solishi.
13. Komparativistika-ning ikki bosqichi.
14. Lingvistikaning turlari turlari haqida

III. O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

I. Asosiy darslik va o‘quv qo’llanmalar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2012. –B.440.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma ‘naviyat, 2008.
3. Ne’matov H., Bozorov O. Til va Nutq.- Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
5. Rasulov R. Umumiyligi tilshunoslik (Tilshunoslik tarixi. 1-qism). - Toshkent, TDPU, 2005.
6. Rasulov R. Umumiyligi tilshunoslik (Tilshunoslikning nazariy masalalari. 2-qism).- Toshkent, TDPU, 2006.
7. Rasulov R. Umumiyligi tilshunoslik (OTM uchun darslik)- Toshkent, TDPU, 2010.

II. Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat. 2008.
2. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi.- T.: O‘qituvchi, 1995.

3. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. (o‘quv qo‘llanma)-T.: Yurist-Media markazi, 2009.

I. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent: Moliya-iqtisod, 2007.

2. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.- Toshkent: Oz‘ME, 2002.

II. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

2. Rasulov R. O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi. -Toshkent, TDPU, 2005.
3. Muhamedova S. O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantikasi va valentligi. -Toshkent: Fan, 2005.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.Ped
6. www.Nutq.intal.Uz

1-ma’ruza

“Umumiy tilshunoslik” fanining maqsadi va vazifasi. Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari. Qadimgi Hind va Xitoy tilshunosligi

Reja:

1. “Umumiy tilshunoslik” fanining maqsadi va vazifasi.
2. Jahon tilshunosligining tarixiy bosqichlari.
3. Qadimgi Hind tilshunosligi
4. Qadimgi Xitoy tilshunosligi

Asosiy tayanch tushunchalar:

«Umumiy tilshunoslik fani ilmiy-nazariy, falsafiy fan. Vedalar tili, vyakarana, sanskrit, logogramma, leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya

«Umumiy tilshunoslik» fani tilshunoslik fanlari sirasida eng murakkab va keng qamrovli ilmiy-nazariy, falsafiy fan sifatida ajralib turadi. Ushbu fanning murakkabligi, keng qamrovli va falsafiy fan ekanligi bevosita o’rganiladigan o’ta jiddiy muammolar bilan, fikr yuritiladigan dolzARB masalalar bilan, lisoniy hodisalarning (faktlarning) mohiyati bilan, ularga qaysi nuqtai nazardan yondashish bilan, ularni chuqr tahlil qilish va ulardan ob’ektiv ilmiy xulosalar chiqarish bilan belgilanadi.

«Umumiy tilshunoslik» fanining faollik ko’rsatish chegarasi «cheksiz» bo’lib, ayni fan o`z kuzatishlarini jahon tilshunosligi tarixiga oid zarur masalalardan, yetakchi oqimlar va yo`nalishlardan boshlab, hozirgi tilshunoslikning eng muhim va murakkab nazariy muammolarini, ta’limotlarini o’rganish bilan - nafaqat tilshunoslikning balki barcha fanlar uchun metodologik asos bo`lib xizmat qiladigan dialektik falsafa hamda psixologiya, mantiq kabi fanlarga ham bevosita aloqador bo`lgan muammolarni qamrab olishi bilan yakunlaydi.

Aytilganlarning isboti sifatida «Umumiy tilshunoslik» fani o’rganadigan asosiy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritamiz.

1. Til va jamiyat (millat).
2. Til va tarix.
3. Til va tafakkur.
4. Til semiotik ob’ekt sifatida.
5. Til va nutq.
6. Til sistema va struktura sifatida.
7. Tilda substansiya va forma.
8. Til belgisi va ma’no.
9. Til va yozuv.
10. Tilni tadqiq qilish usullari va boshqalar.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarga nima uchun kerak?

«Umumiy tilshunoslik» fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo`nalishda puxta, «hushyor» qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal qurollangan talabalargina (faqat talabalar emas) tom ma’nodagi filolog - tilshunos sifatida

shakllanadi. Shuningdek, ular til hodisalari tahlilidan ilmiy xulosalar, g`oyalar chiqara oladi, hodisalar mohiyatiga alohida e'tibor beradi, nazariya bilan amaliyotni dialektik munosabatda oladi. Til va nutq birliklarini chuqr o`rganish jarayonida dialektik falsafaning shakl va mazmun, umumiylit va xususiylik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalari nuqtai nazaridan, shularga asoslangan holda fikr yuritadi, kuzatishlar olib boradi.

«Umumiy tilshunoslik» fani talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, bilim darajasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, yangi nazariya va faktik materiallar bilan tanishtiradi, mustaqil, ijodiy fikr-mulohaza yuritishga, izchillikka o`rgatadi, nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodologiyasi va metodikasi bilan qurollantiradi.

«Umumiy tilshunoslik» fani haqida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu fan bo`yicha rus hamda o`zbek tilshunosligida yaratilgan ishlarga ijodiy yondashgan va ulardan foydalangan holda o`quv qo'llanmasida quyidagi dolzARB massalalarga, aniqrog`i, dastavval, birinchi masalaga to`xtalamiz, fikr yuritamiz. Bular:

1. Tilshunoslik tarixi.
2. Tilshunoslikning nazariy masalalari.
3. Tilshunoslik metodlari.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. SHak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g`oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida o`zining alohida o`rganish ob`ektiga va tekshirish metodiga ega bo`ldi.

Qat'iy aytish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, «o'sish» davrini bosib o`tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo`ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligidagi, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko`plab manbalarga «guvoh bo`ldi», shakllandi. Aniq`i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o`ziga xos va o`ziga mos doimiy mustahkam o`rin egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta'limotlari, oqimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi.

O`rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O`rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu-mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo`lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug`ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo`ldi. Aniqrog`i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar tili davrlar o`tishi bilan mamlakat aholisining so`zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladи. Ya`ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so`zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo`qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o`rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo`lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo`lmagan so`zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug`atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatic jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so`z va jumlalar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo`lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo`ldi.

Hindlar qadimiy davrda eng buyuk fonetikachi va gram-matikachi sifatida tanilganlar. Ular fonetika sohasida YUnionlardan ham oldin unli va undosh tovushlarni farq-laganlar, portlovchi va sirg`aluvchi, jarangli va jarangsiz to-vushlarni, tovush birikmalarini, bo`g`in, urg`u, intonatsiya, cho`-ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. SHular yuzasidan mukammal ma'lumotlar qoldirganlar. Qadimgi hind tilshunosligida fonema haqida

ham muayyan tushunchalar bo`lgan.

Qadimgi hindlar so`zlarning faqat ma`no tomonidagina emas, balki tovush tomonida ham o`zgarishlar bo`lishini bilganlar. SHunga ko`ra ular so`zlarning tovush jihatiga alohida e'tibor berganlar. Tovush haqida, tovushlarning o`zgarishi ha-qida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik - artikulyatsion xususiyat-lari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o`zgarishi (kombinator o`zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e'tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion – fiziologik xususiyatlarini hi-sobga olgan holda tasnif qilganlar. SHu asosda, Yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a'zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta'siridan, Ya'ni tegishidan undoshlar hosil bo`lishini qayd etganlar.

Agar yunon filologlari tovush almashinuvi masalasiga umuman ahamiyat bermagan bo`lsalar, hind tilshunoslari bu ja-rayonga alohida e'tibor berganlar, tadqiqot olib borganlar, ayni jarayonning o`ziga xosliklarini aniqlab berganlar. Qiyoslang: sanskrit tiliga oid so`zlarda, masalan, vidma so`zi «biz bilamiz» ma`nosini bersa, veda «men bilaman» tushunchasini, vaidyas so`zi esa «olim», «ilmli» ma`nosini berishini ko`rsatib berganlar. Qayd etilgan ma`no (tushuncha) o`zgarishlari esa i – e - ai unli tovushlarning almashinuvi natijasi ekanligi haqida ishonarli, asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Qadimgi hind tilshunoslari grammatika - morfologiya sohasida ham ancha ishlarni amalga oshirdilar. Ular bu yo`nalishda ham grek tilshunoslaridan ancha o`tib ketdilar. Aniqrog`i, hind tilshunosi Guru morfologiyaning uch bo`limdan tashkil topishini aniq ko`rsatib beradi va unga quyidagilarni kiritadi: 1. So`zlar tasnifi (so`z turkumlari). 2. So`z yasalishi. 3. So`z o`zgarishi.

Hindlar to`rtta so`z turkumini farqlaganlar: ot, fe'l, old ko`makchi va yuklama.

Hindlarda ot predmet ifodalovchi, fe'l esa harakat, holat ifodalovchi so`z sifatida beriladi. Old ko`makchilar esa otlarning, asosan, fe'llarning ma`nosini belgilaydi. Yuklamalar esa ma'nolariga ko`ra 1) bog'lovchi va 2) qiyoslovchi kabi turlarga ajratiladi. Olmosh va ravishlar esa ot va fe'l turkumlariga qo'shib yuborilgan, alohida ajratilmagan.

Yunonlardan farqli holda hindlar so`z turkumlarini gap bo`laklaridan farqlaganlar,

Ya'ni ular bilan qorishtirma-ganlar, adashtirmaganlar. Shunga ko`ra hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe'llarni harakat ifodalovchi so`z sifatida «baholaganlar».

Qadimgi hindlar so`zlarni tahlil qilish, tarkibini o`rganish jarayonida ularni quyidagi bo`laklarga ajratganlar: 1) o`zak, 2) suffiks, 3) qo`shimcha (turlovchi qo`shimcha). Shuningdek, so`z yasovchi va so`z o`zgartiruvchi morfemalar farqlangan.

Ovrupo olimlari hind tilshunoslarining ishlari bilan yaqindan tanishib, so`zlardan o`zak, so`z yasovchi va so`z o`zgar-tiruvchi morfemalarni ajratishga «kirishganlar».

Hindlar otlarda yetti kelishikni qayd etganlar: 1) bosh kelishik, 2) qaratqich kelishigi, 3) jo`nalish kelishigi, 4) tushum kelishigi, 5) qurol kelishigi, 6) chiqish (ablativ) kelishigi, 7) o`rin kelishigi.

Hind tilshunoslari qo`shma so`zlarning o`ttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qo`shma so`zlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga e'tibor berganlar. Masalan: ot+ot//fe'l; sifat// sifatdosh //ravish+ot // sifat//fe'l; son+ot va boshqalar.

Hind grammaticakchilari fe'l turkumining morfologik kategoriylarini mukammal ishlagan edilar. Ular fe'lning uch zamonga birlashadigan yetti xil zamon formasini: hozirgi zamon, o`tgan zamonning tugallangan, tugallanmagan, uzoq o`tgan zamon turlarini, kelasi zamon, odatdagisi kelasi zamon va juda kam qo'llaniladigan shart fe'li shaklini ajratganlar.

Hindlar qadimgi davrlardayoq fe'lning to`rtta maylini - aniqlik, istak, buyruq va shart mayllarini bilganlar.

Fe'lning aniq, o`cta va majhullik nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta'riflangan, tavsiflangan.

Hindlar sanskrit tilida fe'lning uchta shaxs va uchta son: birlik, juftlik va ko`pliklarga ko`ra tuslanishni ko`rsat-ganlar.

Hind tilshunoslari fikr ifodalash birligi bo`lgan gapning muhimligini inkor qilmagan bo`salar-da, sintaksis masalalari bilan maxsus shug`ullanmaganlar. Ular sintaksisda so`zlarning birikish tartibi, kelishik, zamon va mayl formalarining birikishi kabi masalalarni o`rganish bilan chegaralanganlar. So`z fikr ifodalash imkoniyatiga ega emas, Ya`ni so`z gapdan tashqari mavjud emas deb, gapni tilning asosiy birligi hisoblaganlar.

Xullas, qadimgi hindlar fonetika va morfologiyaga nis-batan sintaksis masalalarida ancha bo`sh bo`lganlar.

Qadimgi hindlarning eng mashhur tilshunosi Paninidir. U bizning eramizgacha bo`lgan IV asrda yashab ijod etdi. Panini o`zigacha bo`lgan davr tilshunoslarining qo`lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirib, ulardan foydalangan holda klassik sanskritning (qadimgi hind adabiy tilining) eng mashhur grammatikasini yaratdi. Uning ushbu asari «Ashtadxyan» nomi bilan ataladi. Panini grammatikasi to`rt mingga yaqin (3996 ta) qisqa va lo`nda she`riy usulda yozilgan, osonlik bilan esda qoladigan qoidalarni (str) o`z ichiga oladi.

Panini grammatikasi sof empirik va tasviriy xarakterga ega bo`lib, unda sanskrit (qisman Veda) tilining fonetikasiga, morfologiyasiga, so`z yasalishi va sintaksisiga oid fikrlar jamlangan.

Ushbu tadqiqot tili - undagi qoidalalar nihoyatda ixcham va qisqa bo`lganligi, asar tili o`ziga xos terminologiyaga egaligi sababli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha ovrupolik olimlarga tushunarli bo`lmadi. Birinchi bo`lib, asar mazmunini, undagi g`oyani rus tilshunos olimi O.Bytling izohlab berdi.

Panini o`z davridayoq tilni sistema sifatida tushundi, so`z turkumlarini farqladi, so`z tarkibini o`rgandi, o`zak, qo`shimcha, urg`u, intonatsiya va boshqa hodisalar haqida ma'lumot berdi.

Paninining sakkiz bo`limdan iborat klassik sanskrit masalalariga oid grammatikasi Hindistonda deyarli ikki ming yil davomida eng asosiy va eng muhim qo`llanma bo`lib xizmat qildi. Eramizning XIII asrlaridagina sanskritning hind olimi Vopadeva tuzgan yangi grammatikasi maydonga keldi.

Yaski (Yaska) Hindistonning mashhur tilshunosidir. U so`z hamda so`zning morfologik tarkibi, ma`nosи, vazifasi haqi-da fikrlarini yozib qoldirgan. Yaski so`zning predmetni bevosita aks ettirmasligini, so`z bilan, Ya`ni uning tovush tomoni bilan predmet o`rtasida ma`noning mavjudligini to`g`ri ta'kidlaydi. So`z ma`no tufayli predmetni nomlash imkoniyatiga egaligini qayd etadi.

Tilshunos Vedalar tilini keng izohlab, tushuntirib beruvchi asar yaratadi va bunda o`zigacha bo`lgan tadqiqotchilar ishlarini, umumlashtiradi.

Xullas, qadimgi Hindistonning tilshunoslik sohasidagi yutuqlari ulkan bo`lib, ular o`z muvaffaqiyatlari bilan jahon tilshunosligi faniga 110ata hissa qo`shdilar. Ularning ta`limotlari, g`oyalari yunon va arab tilshunosligiga jiddiy ta'sir qildi. Hind tilshunosligi Ovrupoga XVIII asrning o`rtalarida yetib keldi.

O`rta Osiyoda esa hind tilshunoslarining ta`limotlari ancha ilgari ma'lum bo`lgan. Jumladan, buyuk bobokalonimiz xorazimlik Abu Rayhon Beruniy (X – XI asr) sanskritni yaxshi bilgan, Hindistonga maxsus bag`ishlangan «Hindiston» nomli asar ham yaratgan.

Eng muhimi shundaki, hind tilshunoslarining jahon tilshunosligiga qo`shgan beqiyos hissasi 110ata110rit bilan belgilanadi. Tilshunos olimlarning 110ata110rit bilan yaqindan tanishuvi jahon fanida qiyosiy – tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

Qadimgi Xitoy tilshunosligida yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo`lgan.

Bizning kunlarimizgacha yetib kelgan Xitoy yozuvining eng qadimi yozma yodgorliklari eramizgacha bo`lgan XIII-XI asrlarga borib taqaladi. Ushbu yozma yodgorliklar hayvon (qo`y) suyaklari va toshbaqa qalqonlari bo`lib, ularda fol ochish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Bu qadimgi «manbalar» Xitoy tilshunosligi tarixida va taraqqiyotida muhim o`rin egallaydi.

Fikr yuritilgan davrlardayoq Xitoy iyeroglifi muayyan so`z sifatida, so`zni

anglatuvchi, ifodalovchi sifatida xizmat qilgan. Ya’ni Xitoy iyeroglifi logogramma hisoblangan.

Xitoy madaniy taraqqiyotiga hind madaniyatining ta’siri natijasida (Ya’ni Xitoyga Hindistondan buddizmning kirib kelishi sababli) hind tilshunosligining ta’siri bilan Xitoy tilshunoslari ona tillarining fonetik – prosodemik hodisasi – intonatsiyaning to`rtta turini, ko`rinishini ishlab chiqdilar.

Xitoy tilshunoslari tomonidan, ayniqsa, xan davrida (bizning eramizgacha bo`lgan 206 y – bizning eramizning 220 y) leksikologiya, leksikografiya, iyeroglifika, fonetika, grammatika va dialektologiya masalalariga 111ata e’tibor berilgan.

Ushbu davrning eng buyuk tilshunosi Syuy Shen «Elementlar va murakkab belgilar haqida» asari bilan yozuv nazariyasining asoslarini yaratdi. Bu manba Xitoy tilshunoslida shu kunlarda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

Xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII – XIX asrlarda keng quloch yoydi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisiga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslilik taraqqiy qildi.

Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga 111ata hissa qo`shgan ota bola Van Nyan – Sun (1744-1832) va Van In-Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi.

Xitoy tilshunoslari so`z masalasida mustaqil so`zlarni va yordamchi so`zlarni farqlaganlar. Mustaqil so`zlarni ot, sifat va fe`l turkumiga ajratganlar.

Yangi davr tilshunosligining yirik vakili tadqiqotchi Chjan Bin-Lin (1869-1936) bo`lib, u Xitoy tilining moyoriy va tarixiy fonetikasi, dialektologiyasi masalalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, u fonetik yozuv loyihasini ham tuzdi.

Umuman olganda, Xitoy tilshunosligining asosiy yo`nalishi, ayniqsa, o`rta asrlarda fonetika (Yoki fonologiya) hisoblangan. Xitoy yozuvi-ideografik yozuv bo`lib, har bir belgi so`zga Yoki o`zakka muvofiq keladi. Fonetik jihatdan esa har bir belgi bo`g`inga to`g`ri keladi. Aslida amaliy jihatdan barcha o`zaklar bir bo`g`inlidir.

XVII-XVIII asrlarda Xitoyda fan-tarixiy fonetika 111ata muvaffaqiyatlarga erishdi. Agar Xitoyda tasviriy fonetika poetika bilan bog`langan bo`lsa, tarixiy fonetika qadimgi matnlarni sharhlashda yuzaga kelgan ayrim masalalarga javob berish bilan shug`ullandi.

Xitoy tili tarixiy fonetikasining yaratilishi Xitoy klassik tilshunosligining qo`lga kiritgan muhim yutug`i hisoblanadi. Bu jahon tilshunosligi fanida dastlabki yo`nalish sifatida butunlay tarixiylik prinsipiga asoslangan bo`lib, o`z oldiga bevosita kuzatishda berilmagan tilning o`tmish «shakli», holati bilan bog`liq hodisalarni, faktlarni tiklash maqsadini qHyadi. Ayni jarayonning metodlaridan va qo`lga kiritgan natijalari, yantuqlaridan hozirgi kunlarda ham foydalaniilmoqda.

2-ma’ruza

Qadimgi Yunon va Rim tilshunosligi

Reja:

1. Yunon tilshunosligining falsafiy davri.
2. Yunon tilshunosligining grammatick davri.
3. Qadimgi Rim tilshunosligi

Asosiy tayanch tushunchalar:

Predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi, stoiklar maktabi; tilshunoslilikning 2

davri: falsafiy davri, grammatick davri; so`z bog`lanishli nutqning eng kichik qismi.

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi.

Faylasuflar va shoirlar vatanı bo`lgan qadimgi Yunonistonda til masalaları dastavval faylasuflar tomo-nidan o`rganilgan.

Yunon faylasufları til masalalarını o`rganish jarayonida tadqiqot muammolarını, yo`nalishlarını ham belgilab oladilarki, bu yo`nalishlar umumiyl, nazariy, lisoniy - falsafiy muammolar sifatida namoyon bo`ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining yetakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o`rganish, so`zlarini tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatica va leksika sohalari bilan jiddiy shug`ullanishga, shu yo`na-lishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo`ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo`linadi:

4. Falsafiy davr.
5. Grammatik davr.

Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar chiqarish, g`oyalalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo`lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo`nalishlar til masalalari bilan faol shug`ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o`ta dolzarb va eng muhim muam-molaridan biri so`z muammosi, so`zning tabiiy hodisami? Yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo`lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalanı hal qilishda tarafma - taraf bo`lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog`i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so`z bilan ma`no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o`rtasida qanday munosabat mavjud? So`zdagi tovush bilan ma`noning bog`lanishi qanday yuz beradi? Bu bog`lanish tabiat tomonidan beriladimi Yoki so`zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi? Yoki ma`lum qonun - ko`rsatma bilan tayinlanadimi yoki «muayyan urf - odat bilan bog`lanadimi? Yoki odamlar tomonidan belgilanadimi. Ya`ni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi? va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g`oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o`zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog`lanishda bo`lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo`ladi, «ochiladi». Aniqrog`i, suvda daraxtlar, ko`zguda o`zimiz aks etganidek har bir nom o`zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig`i predmet bilan ularni anglatuvchi so`zlar orasidagi bog`lanish tabiat tomonidan berilgan bo`lib, bu bog`lanish tabiiy, zaruriy bog`lanish hisoblanadi.

Xulosa shuki, olamda mavjud bo`lgan barcha narsa -predmetlarning tabiat tomonidan berilgan, o`ziga mos va xos nomlari, «to`g`ri» nomlari bor. So`zlar tabiat tomonidan yara-tilgan. Tabiat har bir predmet uchun alohida nom belgilagan, nom bergen.

Demokrit va uning tarfdorlari esa so`z va predmet munosabati masalasida Geraklit va uning tarfdorlariga qarshi quyidagi g`oyani ilgari suradilar. Ular aytadi: narsa, predmetlarning nomlari, so`zlar ularning tabiatiga qarab, mohiyatiga muvofiq holda qo`yilmaydi, balki nomlash jarayoni odatga ko`ra, odamlarning o`zaro kelishuviga, ular tomonidan belgilanishiga ko`ra amalga oshadi. Demak, predmetlarga nomlar tabiat tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan

beriladi.

Demokrit va uning tarafdarlari o`z g`oyalarining to`g`ri-ligini isbotlash uchun yana quyidagi fikrlarni ham bayon qiladilar: 1) ko`p so`zlar bir necha ma`noga ega bo`lib, shunga muvofiq ular turlicha predmetlarni ifoda etadi; 2) ko`pgina tushunchalar bir qancha nomga, atamaga ega bo`ladi; 3) tilning tabiiyligi g`oyasidan kelib chiqadigan bo`lsak, u holda ko`pgina predmetlarning bir nechta nomga ega bo`lishi mumkin emas; 4) vaqt o`tishi bilan bir so`z o`rniga boshqasi yuzaga keladi. Ya`ni muayyan predmet nomi o`zgarib, boshqa nomga, atamaga ega bo`ladi; 5) ko`pgina tushunchalar so`z ifodasiga, nomga ega emas. Demak, - deydi Demokrit va uning tarafdarlari, bir vaziyatda so`zlar yetishmasa, boshqa vaziyatda ular ortiqcha, ko`p. Yana boshqa bir holatda so`zlar qatiy emas, yana boshqa bir vaziyatda esa so`zlar kamlik qiladi. Demokrit fikricha, bunday holat, asosan, odamlar faoliyati bilan bog`liq bo`lib, ular tomonidan yuzaga keladi, tabiat tomonidan emas.

SHunday qilib, Demokrit va uning tarafdarlari narsa, predmet nomlari tabiat tomonidan, tabiiy berilgan emas, degan g`oyani ilgari suradilar va ayni fikrning to`g`riligini tilda mavjud bo`lgan omonim va sinonim so`zlar bilan isbotlaydilar. Haqiqatan, bir-biridan farq qiladigan turli narsalarning nomlari (so`zlar) qanday qilib bir xil (omonim: ot, yosh, qirq, ko`k, son, ko`r, til, ter, qo`y, quv) Yoki bir narsaning qanday qilib birdan ortiq nomi (sinonim: bosh, kalla; janjal, g`avg`o, to`palon, g`alva, mashmasha; bo`kmoq, ivimoq; kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq) bo`lishini Geraklit tarafdarlarining ta`limoti-moslik, «to`g`rilik» ta`limoti asosida izohlab bo`lmaydi. Chunki sinonimlar tovush tomonidan farqli bo`ladi; agar so`zning tovush tomoni predmetning mohiyati, xususiyati bilan bevosita bog`langan bo`lsa, demak, sinonimlar turli xil xususiyatni ifodalovchi so`zlar sifatida bitta predmetni anglatishlari mumkin emas. Qolaversa, tabiatdagi hamma predmetlar ham o`z nomlariga ega emas.

Tilshunoslikning falsafiy davrida eng dolzarb muammo bo`lgan predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasi Platonning «Kratil» nomli asarida ham mukammal bayon qilinadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida til masalalari bilan jiddiy va barakali shug`ullangan oqimlardan biri stoitsizm hisoblanadi. Stoitsizm ta`limotining vakillari bo`lgan stoiklar: Xrisipp, Krates va boshqalar o`z ta`limotlarida jahondagi nomuvofiqlikka hamma narsalarning maqsadga muvofiq bo`lishini qarama - qarshi qo`yadilar. Shunga ko`ra ular tilni kishilarning ruhida tabiat talabiga ko`ra paydo bo`lgan deyish bilan birga so`z predmetning tabiiy xususiyatini ifoda qiladi, deb aytganlar. Stoiklar so`zlovchi gapirganida so`z orqali u predmetning tabiatini haqida qanday taassurotda bo`lsa, eshituvchida ham xuddi shu xususiyatlar haqidagi taassurot tug`iladi, deb o`ylaganlar.

Stoiklar predmet va uning nomi orasidagi munosabat masalasida Geraklit va uning tarafdarlari ta`limotini quvvatladilar. Ya`ni ular ham predmet va uning nomi (so`z) o`rtasida moslik, muvofiqlik mavjud deb hisoblar edilar.

Ayni vaqtda stoiklarning muxolifi bo`lgan Epikur va uning ta`limoti tarafdarlari esa Demokritning fikrini quvvatlab, so`zlar va predmetlar orasidagi aloqa, bog`lanish tabiiy bo`lishi mumkin emas. Chunki narsalarning mohiyati bilan ularning nomi orasida qarama-qarshiliklar juda ko`p, degan fikrni ilgari surganlar.

Epikurchilar predmet bilan uning nomi orasidagi aloqa tasodifiy, bu aloqani dastlab tilni o`zaro kelishuvchilik asosida ijod qilgan kishilar yaratgan. Ana shunday tasodifiylik bo`lmaganida edi, barcha xalqlar bir-birlarining tillariga tushungan bo`lar edi, deyishadi.

Tilshunoslikning falsafiy davrida o`zaro qizg`in kurash olib borgan yetakchi oqimlardan, yo`nalishlardan yana biri analogistlar va anomalistlar - qarama - qarshi g`oyadagi faylasuflar guruhi edi.

Ular til hodisalarida analogiya mavjudmi? Yoki anomaliyami?, qonuniyat mavjudmi Yoki qonuniyat yo`qmi?, degan fikr bilan qurollanib, til bilan ob`ektiv borliq, so`z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishga kirishadilar.

Mashhur yunon grammatikachisi Aristarx boshchiligidagi analogistlar oqimi tilning grammatik qurilishi va lug`at tarkibi bilan borliq orasida moslik, muvofiqlik - o`xshashlik

mavjud, degan g`oyani ilgari surishadi. Ular yunon va lotin tillarida otning uch xil grammatic jinsi (rod): erkaklar jinsi, ayollar jinsi va har ikki jinsiga ham tegishli bo`lmanor oraliq jins mavjudligini aytishadi. Shunga ko`ra ular predmetlar erkaklar jinsiga, ayollar jinsiga Yoki oraliq jinsiga tegishli bo`ladi, deyishadi.

Anomalistlar oqimining yetakchisi stoik Krates va uning tarafдорлари esa ushbu g`oyaga zid fikrni, zid g`oyani ilgari surishadi. Ya`ni ular aytadi: tilning tarkibi va grammatic qurilishi bilan borliq orasida to`la moslik, o`xshashlik yo`q; biz doim turli tengsizlikka, moslik meyordan chetga chiqish-larga duch kelamiz. Masalan, tildagi uch grammatic jins atrofimizdagi narsalarga real ravishda to`g`ri keladi, deb hisoblash be`manilikdir. Haqiqatan ham, masalan, rus tilidagi cherepaxa (toshbaqa), belka (olmaxon) so`zlari shakliga qaraganda grammatic jihatdan ayollar jinsiga mansub bo`lishi kerak edi. Amalda esa o`sha hayvonlarning erkagi ham, urg`ochisi ham bir xilda cherepaxa, belka deyiladi. Shuningdek, rus tilidagi dyatel (qizilishton) so`zi o`z shakliga ko`ra faqat erkaklar jinsiga nisbatan qo`llanaveradi. Demak, bu yerda til anomaliyasi mavjud bo`lib, shakl bilan mazmun orasida moslik yo`qdir.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi yunon fay-lasuflari Anaksimen, Prodig, Protagor, Platon, Aristotellar til masalalariga oid asarlar yaratganlar va hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan asosli fikrlarni bayon qilganlar.

Anaksimen (bizning eramizgacha bo`lgan 560-502y).

U «Riktorika» asari bilan uslubistika fanining asosini yaratdi.

Prodik (bizning eramizgacha bo`lgan V asr).

Prodik sinonimika masalalarini ishlab chiqdi. U ma`no jihatdan har bir ma`nodosh so`zning o`ziga xos xususiyatlari-ni, ma`no ottenkalarini, qirralarini farqlashga o`rgatdi.

Protagor (bizning eramizgacha bo`lgan 480-410 y).

Protagor otlarning rodalarini (jinsini), fe`l zamон-larini va gaplarning turlarini farqladi.

Shuningdek, ayni davr faylasuflari ot va fe`llarni farqlab, gapning ot bilan fe`lning bog`lanishidan hosil bo`lishini ta`kidladilar.

Platon (bizning eramizgacha bo`lgan 427-347 y).

O`z davrining dastlabki yirik faylasufi Platon etimologika fanining asoschisi sifatida e`tirof qilinadi. U mantiqli nutqda ikki turdag'i so`zlarni: otlarni va fe`llarni farqladi. Gapda ega vazifasida kelgan so`zni ot deb, kesim vazifasida kelgan so`zni fe`l deb, atadi. Fe`lning ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan so`z ekanligini qayd etdi.

Aristotel (bizning eramizgacha bo`lgan 348-322 y).

O`z davrining ikkinchi buyuk qomusiy olimi - faylasufi Aristotel tilga oid masalalarni mantiq bilan bog`liq holda o`rgandi va u birinchi bo`lib, grammaticani mantiqdan ajratdi.

Aristotel ham, Platon kabi, ot - egani va fe`l - kesimni tan oldi. Bu guruhg'a qo`shimcha ko`makchi so`zlarni-bog`lov-chilarini ham kiritdi. Ya`ni so`zlarni uch turkumga: ot, fe`l, bog`lovchi hamda Yuklama kabilarga bo`ldi. Ot va fe`llarni mustaqil ma`noga ega so`zlar sifatida, bog`lovchi, Yuklamani esa faqat grammatic vazifa bajaruvchi so`z sifatida qayd etdi.

Aristotel o`z davridayoq gapni fikr ifodalovchi nutq birligi deb, ta`rifladi. Shuningdek, u kelishiklar, tovushlar haqida ham ma`lumot berdi. Masalan, u fonetikada unli va undosh tovushlarni ajratdi.

Yuqorida aytiganganlardan bir muncha farqli holda tilshunoslikning falsafiy davrida stoiklar nutqda so`zlarni besh guruhg'a: fe`l, bog`lovchi, artikl, atoqli otlar va turdosh otlarga ajratdilar.

Shuningdek, ular ushbu so`zlearning barchasi ham ma`nolidir, deyishdi. Stoiklar otlarda beshta kelishikni farqladilar: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, jo`nalish kelishigi, tushum kelishigi va chaqirish (zvatelniy; chiqish) kelishigi.

Stoiklar o`sha davridayoq nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa bHlib, o`rgandilar. Ular yunon tilida 24 ta tovush borligini aytib, bularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar.

Xullas, tilshunoslikning falsafiy davridan hozirgi tilshunoslik uchun muhim bo`lgan ikki ta`limot qoldi:

1. Tilning elementlari, birliklari (so`z va gap) – ishora, belgi.
2. Til birliklari ma`no, fikr bilan shartli bog`langan.

Tilshunoslikning grammatik davri qadimgi yunon tilshunosligida Iskandariya davri deb yuritiladi. Misr davlatining markazi bo`lgan Iskandariya makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog`liq edi. U bosib olgan Sharq mamlakatlarida yunon tili, madaniyati, falsafasining ta'siri natijasida yunon madaniyati, Sharq madaniyati bilan qo`shilib ketib, aralash madaniyat - ellinizm yuzaga keladi.

Iskandariya ellinizm madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Umuman, bizning eramizgacha bo`lgan III asrdan boshlab, birorta ham shahar: na Afina, na Rim yuksak madaniyat namunasi va ilmiy markaz bo`lgan Iskandariya shahri bilan tenglasholmas, raqobat qilomas edi.

Xullas, yunon tilshunosligi, ayniqsa, ellinizm davrida-yunon - Sharq davrida (bizning eramizgacha bo`lgan 334-31y) taraqqiy qildi, rivojlandi.

Aleksandriya grammatika maktabining eng yirik vakillari Zenodot, Aristarx, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar.

Zenodot (taxminan bizning eramizgacha bo`lgan 250 y).

U 800.000 dan ortiq qHlyozma manbalarga ega bo`lgan mashhur Iskandariya kutubxonasining birinchi rahbari. Zenodot va boshqa yunon filologlari Gomer, Esxil, Sofokl va boshqalarning asarlari ustida faol tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular ushbu asarlarning lug`at tarkibi va grammatikasiga oid sharhlar ustida mehnat qildilar. Zenodot artiklni, olmoshlarni farqladi.

Aistarx (bizning eramizgacha bo`lgan 215-143 y).

Iskandariya maktabining eng mashhur va yetakchi olimi samofrakiyalik Aristarx uzoq yillar davomida Iskandariya kutubxonasini boshqardi. U o`zining 40 ga yaqin shogirdlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Gomer asarlarini mukammal o`rganib, tekshirib chiqilgan to`liq matnini yaratishdi.

Aistarx so`z turkumi haqidagi ta`limotni mukammal ishlab chiqdi va sakkizta so`z turkumini ajratdi. Bular: ot, fe'l, sifatdosh, artikl Yoki ko`rsatkich, olmosh, old ko`makchi, ravish va bog`lovchi.

Dionisiy (bizning eramizgacha bo`lgan 170-90 y).

Aistarxning shogirdi frakiyalik Dionisiy o`zigacha bo`lgan tadqiqotchilarining ishlari va tajribalarini o`rganib, ulardan foydalananib, rimliklar uchun «Grammatika san'ati» nomli sistemalashtirilgan dastlabki yunon grammatikasini yaratdi.

Dionisiy ta`limotiga ko`ra so`z so`zlashuv nutqining (bog`langan nutqning) eng kichik bo`lagi (qismi)dir. Gap (Yoki nutq) esa so`zlarning o`zaro munosabatidan, bog`lanishidan hosil bo`lib, tugal fikr ifodalaydi.

Dionisiy grammatikasida ot turkumi haqida quyidagi fikr beriladi: ot kelishik va songa ko`ra o`zgaruvchi turkumdir. U sifatlarni ham otga kiritadi.

Dionisiy fe'l haqida fikr yuritib, fe'lning kelishiksiz so`z turkumi bo`lib, zamon, shaxs, son, mayl, nisbat, tuslanish va boshqalarga ega ekanligini aytadi. Fe'lning beshta: aniqlik, buyruq, istak, tobelik va noaniqlik mayllarini; fe'lning uchta: harakat, o`zlik va o`rta nisbatlarini; fe'lning uchta: birlik, juftlik va ko`plik sonlarini; fe'lning uchta: birinchi-nutqni so`zlagan, ikkinchi-nutq yo`naltirilgan va uchinchi-so`z yuritilgan (o`zga) shaxslarni qayd etadi. Grammatik zamon esa hozirgi, o`tgan va kelasi zamon kabi turlarga bo`linadi. Sifatdoshlar esa fe'l va otlarga xos bo`lgan belgilarni birlashtiradigan kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Artikl, Dionisiy fikricha, turlanuvchi so`z turkumi bo`lib, u turlangan otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Olmosh ot o`rnida qo`llaniladigan so`z bo`lib, ma'lum shaxslarni ko`rsatadi. Ravish turlanmaydigan so`z turkumidir, fe'l haqida ma'lumot beradi va fe'lga birikadi. Bog`lovchi fikrni ma'lum tartibda bog`laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko`rsata-digan so`zdir. Old ko`makchi so`z turkumi bo`lib, barcha so`z turkumlari oldidan so`z tarkibida ham, gap tarkibida ham keladi. Ya`ni u sintaksisda ham, so`z yasalishida ham qo`llaniladi.

Apolloniy Diskol (bizning eramizning II asrining birinchi yarmi)

Apolloniy Diskol bizgacha yetib kelgan yunon tili sintaksisini yaratdi. U «Sintaksis haqida» asarida yunon tili sintaksisiga oid ma'lumotlarni berdi.

Iskandariya maktabi vakillari tilning tovush tomoniga ham katta e'tibor berishdi. Ular tovushlarni akustik prinsip asosida tasvirladilar, tovush va harflarni aynan bir narsa hisoblab, ularni unli va undosh tovushlarga ajratdilar. Shunga ko'ra harflarni unli tovushlar va undosh tovushlar nomi bilan tasvirladilar. Unli harflarni (tovushlarni) o'z holicha talaf-fuz qilinadigan va o'zini alohida eshitish mumkin bo'lgan tovushlar sifatida, undosh harflarni (tovushlarni) esa unlilar bilangina talaffuz qilinadigan tovushlar sifatida qaradilar. Shuningdek, ular bo`g`in, urg`u haqida ham ma'lumot berishdi.

Tilshunoslikning grammatik davrida Iskandariya maktabi vakillari yunon tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlarini olib bordilar va qator asarlar yaratdilar. YUNon tilshunosligida, ayniqsa, morfologiyaga oid masalalar mukammal ishlangan bo`lib, unga nisbatan fonetika va sintaksis masalalari bo`sh tadqiq qilingan. Shuningdek, Iskandariya maktabi vakillari gram-matikani falsafadan ajratdilar.

Xullas, qadimda tilshunoslikning Iskandariya davri grammatikani mustaqil fan sifatida yaratdi.

Qadimgi yunon tilshunosligi (grammatikasi) hind tilshunosligi (grammatikasi) bilan bir qatorda o`z davrida arab tilshunosligiga (grammatikasiga) ta'sir qildi.

Qadimgi Rim filologlarining tilshunoslik faniga qo`shgan hissasi katta emas. Rim grammatikasi yunon grammatikasining shahobchasi sifatida maydonga keldi. Iskandariya maktabida yaratilgan yunon tili grammatikasi qadimgi rimliklar tomonidan lotin tiliga tatbiq qilindi. Yunon tilidagi deyarli barcha grammatik terminlar lotin tiliga o`girildi.

YUNon tilshunosligidagi analogiya va anomaliya maktab-laridagi munozaralar ham Rim tilshunosligida davom et-tirildi.

Qadimgi Rim tilshunosligining vakillari: Yuliy sezar, Mark Terensiy Varron, Mark Fabiy, Kvintilian, Eliya Donata, Verriy Flakk, Prissian va boshqalardir.

Yuliy Sezar (eramizdan ilgarigi 100-44 y).

Qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi va notig`i YULiy sezar «Analogiya haqida» nomli grammatik asarini yozdi. U so`z va predmet munosabati masalasida analogiya tarafdori sifatida tanildi.

Mark Terensiy Varron (eramizdan ilgarigi 116-27 y).

Mark Varron 25 kitobdan iborat «Lotin tili haqida» asarini yaratdi. SHu kungacha bu asarning 6 tasi yetib keldi. Kitobda analogistlar va anomalistlar orasidagi nazariy tortishuv, munozara mukammal bayon qilinadi. U ham YULiy sezar kabi analogiya tarafdori edi. Varron so`z o`zgarishini analogiyaga, so`z yasalishini esa anomaliyaga kiritadi.

Eliya Donata (bizning eramizgacha IV asrning o`rtalari).

Eliya Donata grammatikaga oid keng qamrovli mashhur asarini yozadi va uni «Grammatika san'ati» deb nomlaydi. Ushbu asar to`liq va qisqartirilgan variantlarda bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Verriy Flakk (bizning eramizning boshlari).

Rim tilshunosi Verriy Flakk leksikologiya sohasida o`zigacha bo`lgan tadqiqotlarni, tajribalarni va fikrlarni umumlashtirib, katta hajmdagi «Fe'lning ma'nos» asarini yozdi.

Prissian (VI asr. boshlari).

Rim grammatikachisi Prissian lotin tili bo`yicha o`z davrining eng katta tadqiqoti hisoblangan «Grammatika san'ati haqida ta'limot» kitobini yaratdi.

Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Prissianning grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammal bayoni sifatida juda ko`p asrlar

davomida - o`rta asrlar davri uchun namuna bo`lib xizmat qildi.

SHunday qilib, rimliklar yunonlardan namuna olib, ularga taqlid qilib, lotin tili haqida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Rimliklarning ona tili bo`yicha grammatikaga oid tadqiqotlari, asosan, yunon tilidan tarjima qilingan bo`lsa - da, ularning grammatikalarida ayrim yangiliklar, yangicha qarashlar uchrab turadi. Jumladan, Rim tilshunoslari yunon tilshunoslardan farqli holda Rim grammatikasiga alohida uslubshunoslilikni kiritdilar. Rim grammatika-chilari so`z turkumiga undovlarni ham kiritdi. Ammo yunon tiliga xos bo`lgan artiklni chiqarib tashladilar. Chunki lotin tilida artikl yo`q edi. Demak, lotin tili uchun ham 8 ta so`z turkumi xos bo`lib qoldi. Rim tilshunoslari son turkumini ikkiga: tub son va tartib songa bo`lib o`rganishdi. Yuliy Sezar lotin tiliga yunon tilida mavjud bo`lmagan ablativ (ajratish) kelishigini kiritdi va kelishiklar sonini oltitaga yetkazdi.

Rim filologlari grammatikaga oid terminlarni ham yunon tilidagi terminlar asosida yaratdilar. Jumladan, yunon va rim grammatikasiga oid ayrim terminlar ruscha va o`zbekcha tarjimalari bilan quyidagilar: onoma, nomen-imya, ot; rema, verbum - glagol, fe'l (qadimgi rus tilida nutq); antonomia, pronomen-mestoimeniye, olmosh; nomen adjektivum-imya prilagatelnoye, sifat; epirryoma, adverbium-narechiye, ravish; artron, artikulum - artikl; prodesis, praepositio-predlog, old ko`makchi, old qo`shimcha; syndesmos, conjunctio-soyuz, bog`lovchi; interjectio- mejdometiye, undov; soneenta, vokales-glasnye, unlilar; symfona, consonantes - soglasnye, undoshlar va boshqalar.

Xullas, antik davr tilshunoslilik maktablarining ahamiyati jahon tilshunosligi nuqtai nazaridan yuksakdir. Ushbu davr Ovrupo madaniyatining beshigi bo`lib maydonga chikdi. Qadimgi yunon va Rim tilshunoslirkari keyingi davr tilshunosligining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Iskandariya tilshunoslilik maktablari vakillari gramma-tikani mustaqil fanga aylantirdilar. Ular juda katta grammatik «xom-ashyo» (material) to`plab, ot va fe'l turkumlarining asosiy kategoriyalarini aniqlab berishdi. Yunon tilshunoslari fonetika, morfologiya, sintaksis va etimologiya fanlarining asoslarini yaratdilar. Ular so`z va gap kabi muhim va murakkab lisoniy birliklarni aniqlab, izohladilar, so`z turkumlarini ajratib berdilar.

Shuningdek, antik (qadimgi) davr tilshunosligining - yunon va Rim tilshunoslilik maktablarining jiddiy kamchiliklari ham bor edi. Bu davr tilshunosligi ta'limotida tilga tarixiy yondashish prinsipi yo`q edi. Ya`ni ushbu davr tilshunosligi, hind tilshunosligi kabi, tilning tarixiy taraqqiyotini tushunmas edilar. Ular yunon va Rim tillaridan boshqa tillarni tadqiq qilmadilar. Ya`ni bir til (yunon yoki Rim tillari) doirasida qoldilar, boshqa barcha tillarni esa yovvoyi, qo`pol til deb hisobladilar. Shuningdek, ular ko`pgina grammatik kategoriyalarni mantiq kategoriyalari bilan qorishtirdilar.

Aytilganlarga qaramasdan, Ovrupo grammatik ta'limoti deyarli XIX asrgacha qadimgi yunon va Rim filologlarining ta'limotlariga asoslanib keldi.

3-ma’ruza

O`rta asrlar. Arab tilshunosligi

Reja:

1. O`rta asrlar tilshunosligi
2. Arab tilshunoslida leksikografiya masalalari.
3. Arab tilshunoslida grammatika masalalari.

Asosiy tayanch tushunchalar: Tilshunoslirkning yuzaga kelishidagi amaliy ehtiyoj; arab tilshunosligining dastlabki markazlari – Kufa va Basra grammatika maktablari; arab

tilshunosligida leksikografiya sohasidagi yutuqlar; «Al - kitob» asari, Qomus – “okean” demakdir; «At - tuhfatuz zakiyatu fillug’ atit turkiya» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asari.

O`rta asrlar V asrdan (476 yildan) boshlab, XV asrgacha (1492 yilgacha) bo`lgan davrlarni o`z ichiga oladi. Ushbu davr deyarli barcha fanlar taraqqiyotida, shu jumladan, yevropa tilshunosligida ham turg`unlik davri deb e’tirof qilinadi. Aniqrog`i, ayni davr tilshunoslik taraqqiyotida na faktik materiallar to`plashda, na mukammal nazariyalar, g`oyalar yaratishda - tilshunoslik fanining ilgarilashida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Buning asosiy sababi shundaki, o`arbiy yevropada mazkur davrdagi tarixiy sharoit, katolik cherkovining reaksiyon taziyqi ilm - fanning o`sishiga, rivojiga jiddiy to`sinqilik qildi.

Shunga qaramasdan o`rta asrlarda shu davrgacha yozuvga ega bo`lmagan bir qator xalqlarda, masalan, got, arman, irland, qadimgi ingliz, slavyan va boshqalarda yozuv - yozuv sistemasi paydo bo`ldi.

O`rta asr Ovruposining yagona, asosiy o`rganiladigan, tadqiq qilinadigan tili lotin tili hisoblandi. Lotin tilida davlat hujjatlari tuzilar, ilmiy va badiiy asrlar yozilar, katolik cherkovidagi diniy jarayonlar amalga oshirilar edi. Bu til bilim olishning ham kaliti hisoblanardi. Lotin tili mantiqiy fikrlash maktabi deb ham tushunilardi. Lotin tili grammatikasining qoidalari va tushunchalari barcha tillar uchun umumiylis hisoblanib, yangi tillar grammatikasiga ko`chirilar edi. Natijada har bir boshqa tilning o`ziga xosligi yo`qolar edi. Ammo bu davrda ushbu tilda gaplashilmas-nutqiy faollik yuritilmas edi. Ya’ni u o`lik tilga aylangan edi. SHuning uchun lotin tilining talaffuzi emas, harflari, so`zlarning yozilishi muhim edi. Lotin tili, asosan, Donata va Prissian gram-matikasi asosida o`rganilar edi.

Yevropada o`rta asrlarning oxirroqlarida – XI-XII asrlarda falsafiy-lisoniy bahsmunozara avj olib ketdi. Bu munozara realizm va nominalizm ta’limotlari nomini oldi.

Ruhoniy Anselm (1033-1109) boshchiligidagi realizm ta’limotiga ko`ra faqat umumiylis tushunchalargina (masalan, daraxt tushunchasi, harakat tushunchasi va b.) real mavjud. Ushbu tushunchalarga muvofiq keluvchi predmet va hodisalar esa ularning kuchsiz nusxasi, xolos. Yana ham anig`i ob’ektiv dunyo umumiylis tushunchalardangina iborat. Ayni tushunchalarda qayd etilgan, ifodalangan predmet va hodisalar esa o’sha tushunchalarning yuzaki nusxasi (kopyasi) dir.

Rossellin (1050-1110) boshchiligidagi nominalizm ta’limoti esa, haqiqatga to`la muvofiq, real tarzda faqat o`ziga xos xususiyatlarga, belgilarga ega bo`lgan narsa, predmet, hodisalargina mavjud, degan g`oyani ilgari suradi.

Bizning tafakkurimiz orqali ushbu predmet va hodisalardan chiqariluvchi umumiylis tushunchalar esa, deyishadi, bu ta’limot vakillari, real, aniq mavjud bo`lmaydi. Ular inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi, fikrlash faoliyati tufayli hosil bo`ladi, yuzaga keladi.

Pe’r Abelyar (1079 -1142) boshchiligidagi konseptualistlar (mo’’tadil nominalistlar) ham mutlaqo to`g`ri holda real tarzda faqat alohida narsalar mavjud, ular umumiylis tushunchalarimiz-ning asosi bo`lib xizmat qiladi, deyishadi.

Konseptualistlar umumiylis tushunchalar alohida mavjud bo`lmaydi, balki real mavjud narsa - predmetlardan hosil qilinib, narsa, predmet va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradi, deydi. Ushbu fikr hozirda ham tilshunoslik fanida tan olingan. Chunki bu g`oya ob’ektiv haqiqatga to`la muvofiq keladi.

VII-VIII asrlarda Arabiston hududida va arablar tomonidan bosib olingan qator mamlakatlarda - Old Osiyo, Shimoliy Afrika hamda Pireney yarim orolida - jahon miqyosidagi mamlakat - Arab xalifaligi tashkil topdi.

Arab xalifaligi islom diniga asoslangan ko`pmillatli davlat bHlib, xalifatda ish yuritish vositasi va fan tili arab tili hisoblangan.

Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo`lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlar bilan bog`lanadi. Ya`ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi.

Bir tomondan musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo`lgan «Qur'on»ni tushunarli qilish, undagi so`zlarni to`g`ri va aniq talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini shevalar ta'siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug`ullanishga kirishdilar.

Arab tilshunoslige o`z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunoslige yutuqlariga, o`z an'analariga tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar o`z tillarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan foydalanganlar.

VII-VIII asr arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan. Basra va Kufa shaharlarida ikkita lisoniy maktab tashkil topgan bo`lib, ular o`rtasida tilshunoslikning ko`pgina masalalari yuzasidan «fikrlar jangi», qizg`in bahslar, munozaralar olib borilgan.

Ushbu lisoniy munozaralar tilshunoslik fanining markazi Arab xalifaligining poytaxti bo`lgan Bog`dod shahriga ko`chirilgandan so`ng to`xtagan.

Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil al - Farohidi (taxminan 718-791y) birinchi arab tili lug`atini yaratdi. U lug`atini «Kitobul ayn» («Ayn harfi kitobi») deb nomlab, unda grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etdi. Shuningdek, olim «Kitobul avomil» («Boshqaruvchilar kitobi») nomli asarni ham yozdi. Ammo bu asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Xalil al - Farohidining shogirdi, mashhur arab tilshunosi, kelib chiqishiga ko`ra fors basralik Amir bin Usmon Sibavayxiy (733 yilda vafot etgan) o`zining salmoqli «Al - kitob» asarini yaratdi. Muallif ushbu asarda o`zigacha bo`lgan barcha tadqiqotchilarning ta'limotlarini, fikrlarini, qarashlarini umumlashtiradi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal ko`rinishini taqdim etadi. Ushbu asar har ikkala: Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan bir xilda yuqori baholangan va qadrlangan.

Kelib chiqishiga ko`ra yunon Abu-Abayda (770-837) noyob so`z va ibora, ifodalarning keng qamrovli lug`atini tuzadi.

Bog`dodlik hind Sag`ani (1181-1252) 20 tomlik lug`at yaratadi va uni «To`lqinlar toshqini» deb nomlaydi.

Misrlik ibn Mansur (1232-1311) katta hajmdagi salmoqli lug`at tuzib, uni «Arab tili» deb ataydi.

Sherozlik fors Feruzobodi (1329-1414) 60 tomlik lug`at tuzgan va uni «Qomus» (Okean) deb nomlagan. Bundan keyin yaratilgan ko`plab lug`atlar ham «Qomus» nomi bilan ataladigan bo`lgan.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan, keltirilgan asarlardan ma'lum bo`ldiki, arab tilshunoslari leksikografiyaga alohida, jiddiy ahamiyat bergenlar. SHuning uchun arab tilshunosligida leksikografik tadqiqotlar muhim o`rinni egallaydi. Arab leksikograflari ayrim predmetlarni anglatadigan sinonimlar lug`atini, masalan, qilichni anglatadigan 500 ta so`z va iboradan, arslonni anglatadigan 500 ta, tusni ifoda etadigan 400 ta so`z va iboradan tashkil topgan ko`plab turli mavzudagi lug`atlarni tuzganlar.

Demak, arab tilshunoslari leksikografiya sohasida juda katta yutuqlarga erishganlar.

Xullas, arab leksikografiyasida lug`atlar mazmuniga ko`ra olti guruhga bo`linadi: 1.

To`liq izohli lug`atlari. 2. Predmet lug`atlari (masalan, hayvonlar bilan bog`liq lug`atlari va b). 3. Sinonimlar lug`ati. 4. Noyob so`zlar lug`ati. 5. O`zlashgan so`zlar lug`ati. 6. Tarjima lug`atlari.

Arab leksikografiyasi Sharq - Eron, Turkiya, qisman hind xalqlariga ham, yevropa xalqlariga ham katta ta`sir ko`rsatdi.

Arab tilshunoslari, yunon tilshunoslardan farqli, fonetika masalalariga g`oyat sezgirlik bilan munosabatda bo`lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, qat'ian farqlaganlar. Shuningdek, harf termini bilan faqat yordamchi so`z va affikslarnigina emas, balki nutq tovushini, aloma termini bilan esa tovushning yozuvdagi ko`rinishini, Ya`ni harfni ifodalaganlar.

Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, undoshni mohiyat, unlini esa o`tkinchi deb ta`riflaganlar va arab so`zlarida (o`zaklarida) undosh tovushlarning asosiy rol o`ynashini ta`kidlaganlar. Qiyoslang: kitob, kotib, kutub. Shunga ko`ra ular uch undoshli o`zaklarni alohida ajratganlar.

Arab tilida o`zak 3 (ba`zan 4) undoshdan iborat bo`lib, so`z va so`z formalarini yasash paytida bu undoshlar orasidagi unli tovushlar o`zgartiriladi (kitob, kotib, kutub). So`zning bunday tuzilishi fleksiya (egilish) haqidagi ta`limotni yaratishga olib keldi. Shunga ko`ra arab - yahudiy filologiyasida o`zak, so`z yasovchi elementlar tushunchasi bilan birga fleksiya haqidagi tushuncha ham paydo bo`ldi.

Arablar, hindlar kabi, tovushlarni akustik va fiziologik belgilariga ko`ra farqlaganlar. Nutq a`zolari sifatida og`iz bo`shlig`i, burun bo`shlig`i va bo`g`iz hisoblangan. Nutq tovushlarini hosil qilishda bo`g`iz, til, tanglay, milk, tish, lab xizmat qilishi ta`kidlangan.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning eng bo`sh bo`limi hisoblangan. SHunga qaramasdan arablarda sintaksisning tekshirish ob`ekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so`zdan-ikki otdan Yoki ot va fe`ldan iborat bo`lishini, bu so`zlar o`rtasidagi sub`ekt - predikat munosabatining o`rganilishini to`g`ri ta`kidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga ko`ra otli, fe`lli va holli turlarga bo`linishini qayd etdilar. Otli gaplarning ot so`zdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), fe`lli gaplarning esa fe`l so`zdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar.

Otli gapning egasi mutbado (mubtado), kesim esa habar (xabar) deb nomlanadi.

Gapning ikkinchi darajali bo`laklari sifatid 1)to`ldiruvchi, 2) hol va 3) izohlovchilar ko`rsatiladi.

So`zlar o`rtasidagi sintaktik munosabatga xizmat qiluvchilar sifatida moslashuv, boshqaruv va bitishuv olinadi. Otli gaplarda ega kesim bilan moslashadi.

Arab tilshunoslari morfologiada, Aristotel kabi, uchta so`z turkumini-ismun (ot), fe`lun (fe`l) va harfun (yuklama, yordamchi so`zlar va affikslarni) ajratadilar. Otni keng ma`noda olib, uning tarkibiga ot, sifat, olmoshlarni ham kiritadilar.

Otlarni atoqli va turdosh otlarga, turdosh otlarni esa aniq va mavhum otlarga ajratadilar. Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari ancha mukammal tasvirlanadi. Otlarning kelishik kategoriyalari sifatida tushum kelishigi (-ni), jo`nalish kelishigi (-ga, -ka, -g`a), o`rin va payt kelishigi (-da), chiqish kelishigi (-dan) va birgalik kelishigi (bila) qayd etiladi. Qaratqich kelishigi alohida izofa hodisasi sifatida tushuntiriladi. Bosh kelishik haqida so`z yuritilmaydi.

Arab grammatikasining morfologiya qismi Sibavayxiy asarida puxta ishlab chiqilgan. Aniqrog`i, u morfologiya oidi quyidagi masalalarni tadqiq qiladi: 1. So`z turkumi. 2. O`zakning tuzilishi. 3. Ot va ularning tasnifi. 4. Fe`l va uning shakllari va boshqalar.

Arab tilshunoslaringin tadqiqotlarida fe'l markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Sibavayxiy o'z ishlarida fe'lning qator grammatik kategoriyalari: o'timlilik, o'tim-sizlik, nisbat, shaxs, son va boshqalarni qayd etadi. Fe'llarni tuzilishiga ko'ra tub va yasama fe'llarga ajratadi.

Arablarda sonlar birliklar, o'nliklar, yuzliklar va mingliklarga bo`linadi. Olmoshlarning kishilik va o`zlik olmoshlari qayd etiladi, ularning ichki turlari (masalan, kishilik olmoshlarining uch shaxsi: man, san, o`z, biz, siz, ular) beriladi.

Arab tilshunoslaringin asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri sifatida arab tilining lug`at tarkibi kuzatiladi. Arab leksikologlari so`zlarni turli nuqtai nazardan o`rganadilar. Bu holda ular so`zlarning tuzilishini, ma'nosini, kelib chiqishini, qo`llanish darajasini hisobga oladilar, shunga ko`ra so`zlarga baho beradilar.

Arablar so`zlarning bir ma'noli va ko`p ma'noli bo`lishini aytadilar. Ular so`zlarning ko`p ma'noligi ayni bir so`zning turli joylarda turli predmet va hodisalarini anglatishidan hosil bo`lishini, Ya'ni shuning natijasi ekanligini ta'kidlaydilar. So`zlarning to`g`ri va ko`chma ma'nolarga ega bo`lishini aytib, ko`chma ma'no hosil bo`lishining 12 usulini ishlab chiqadilar.

Arab leksikologiyasida sinonim va antonim so`zlarga alohida e'tibor beriladi va tadqiqotlarda keng o'rinni ajratiladi.

Arab tilshunoslari, asosiy e'tiborni o'z ona tillariga qaratishdan tashqari, fors, mo`g`ul va turkiy til masalalari bilan ham shug`ullanganlar.

Turkiy til masalalari bo`yicha tilshunos Asiruddin Abu Hayyon al - Andalusiy (1256-1344) qator asarlar yaratdi. Ma'lumotlarga qaraganda bu asarlarning o`ndan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Masalan, 1. «Kitobul af'ol fillisoniy turkiya» («Turk tilidan ish kitobi»). 2. «Kitob zahvul mulk finnahvit turkiya» («Turk sintaksisi sohasidan yorqin kitob»). 3. «Adduratul mudita fil lug`atit turkiya» («Turk tili tarixi») 4. «Kitob al idroki lisonul atrok» («Turklar tilini tushunish kitobi»).

«Turklar tilini tushunish» kitobi 1312 yilda arab tilida yozilgan bo`lib, kirish, lug`at va grammatika bo`limlaridan tashkil topgan. Muallif asarning kirish qismida til sistemasining tuzilish elementlari - tashkil qiluvchilari sifatida lug`at tarkibini, morfologiya va sintaksisni ko`rsatadilar. Ya'ni u alohida olingan so`zlarning ma'nolarini, so`zlarning turlanishi va tuslanishining qoidalarini hamda so`z birikmalarini qayd etadi.

Asarning lug`at qismida turkiy so`zlar arab alfaviti tartibida joylashtirilgan bo`lib, unda 3000 ga yaqin so`z mavjud.

Asarning morfologiya qismida so`z turkumlari haqida fikr yuritiladi. Bunda ot, fe'l va harf (yordamchi so`zlar va affikslar) alohida qayd etiladi. Turkiy tillarning so`z yasash, so`z o`zgartirish va forma yasash kategoriyalari haqida ma'lumot beriladi.

Asarda sintaksisning so`z birikmasi ta'limotiga to`xtab o`tiladi.

Turkiy tilga bag`ishlangan muallifi noma'lum «At - tuhfatuz zakiyatu fillug`atit turkiya» («Turkiy til haqida noyob tuhfa») asari ham bo`lib, u XIV asrga oid deb taxmin qilinadi. Arab tilida yozilgan bu manba prof. S.Mutallibov tarjimasida o`zbek tilida 1968 yilda Toshkentda nashr qilingan. 1978 yilda esa asar akad. E.Fozilov va M.T.Ziyayevlar tomonidan rus tiliga Hgirilib, «Izbyiskanniy dar tyurkskomu yazyku» nomi ostida (akad. A.N.Kononov muharrirrigi) Toshkentda chop etildi.

Asarda qipchoq shevasining lug`at tarkibi va grammatik qurilishi tasvirlanadi. Tadqiqot uch bo`limdan: 1. Qisqacha kirish. 2. Lug`at va 3. Grammatikadan tashkil topgan.

Manbaning kirish qismida til va jamiyat masalasiga e'tibor qaratilib, tilning jamiyatdagi vazifasi, o'rni uning tafakkur bilan bog`liqligi haqida fikrlar beriladi.

Muallif: «Inson hayvondan faqat tushunish va til (so`zlash, bizningcha-nutq R.R) bilangina farq qiladi», - deydi. Demak, fikrlash va til (nutq) qobilyati faqat insongagina xos ekanligi ta'kidlanadi. Binobarin, inson ana shu qobilyatiga ko`ra o`zgalar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqaga kirishadi, o`zaro aqliy, lisoniy munosabatda bo`ladi.

Ishning kirish qismida, shuningdek, grafika - yozuv bilan bog`liq ayrim masalalar hamda ba`zi tovushlar haqida, tovush-larning fiziologik - talaffuz xususiyatlari hamda talaffuz vaqtida tushib qolish xususiyatlari haqida ma'lumot beri-ladi. Masalan, d: ichir (asli ichdir); b: agar (asli arabcha ab-gar); r: bila (asli birla, birlan); q: sichan (sichqan), tashari (tashqari), bashar (bashqar); k: ichari (ichkari); ng: aliz (alingiz).

Asarning lug`at bo`limida uch mingta turkiy so`z qayd etiladi. Ular arab tiliga tarjima qilinadi, ma'nolariga alohida e'tibor beriladi.

Manbaning grammatikaga oid bo`limida muallif, asosan, morfologiyaga katta e'tibor beradi. Ishda turkiy til gram-matikasi arab tili grammatikasiga qiyoslanadi. Aniqrog`i, arab tili grammatikasi asosida turkiy til grammatikasi tahlil qilinadi.

Asarda turkiy tildagi so`zlar arab tili grammatikasi asosida uch turkumga ot (ismun), fe'l (fe'lun) va yordamchi so`zlar (harfun)ga ajratiladi. Sifat, son va olmoshlar arab tili an'anasisiga muvofiq ot turkumi tarkibiga kiritiladi. Ot ma'no jihatdan atoqli, turdosh, jamlovchi va kichraytish otlariga ajratiladi. Otlarning grammatik kategoriyalari: son, egalik va kelishik kategoriyalari haqida yetarli darajada ma'lumot beriladi. Otlarning son jihatdan birlik va ko`p-likka ega ekanligiga e'tibor qaratiladi. Qiyoslang: at – at-lar; epchi – epchilar (ayol - ayollar).

Otlarda egalik shakllari birlik va ko`plik ko`rinishiga, tuzilishiga ega ekanligi aytildi. Qiyoslang: bashim, ko`zim-bashimiz, ko`zimiz; bashing, ko`zing - bashingiz, ko`zingiz; bashi, ko`zi - bashlari, ko`zları.

Asarda beshta kelishik kategoriysi qayd etiladi. Bular: 1. Tushum kelishigi. 2. Jo`nalish kelishigi (-g`a, -ga, -qa, -ka, -a, ust). 3. O`rin-payt kelishigi (-da). 4. Chiqish kelishigi (-tan, -dan). 5. Birgalik kelishigi (bila).

Asarda sifat haqida ma'lumot beriladi hamda belgining eng ortiqligini ifodalovchi shakllar: -roq, -rak affikslari keltiriladi.

Olmoshlarning - kishilik olmoshlarining uch shaxsi: man, san, o`z; biz, siz, o`zlar - qayd etiladi.

Asarda son turkumining to`rtta darajasi keltiriladi. Bu-lar: birliklar: bir, ikki, uch, besh...; o`nliklar: o`n, yigirma, qirq, elli...; yuzliklar: yuz, ikki yuz, uch yuz, to`rt yuz...; ming-liklar: ikki ming, uch ming, to`rt ming... va boshqalar.

Muallif «At - tuhfa» asarida fe'l (fe'lun) turkumiga atroflicha to`xtaladi. Fe'l turkumining qator grammatik ka-tegoriyalari: zamon, mayl, bo`lishli-bo`lishsizlik, shaxs, o`tim-lilik, nisbatlar haqida fikr yuritadi.

Ishda fe'lning ancha murakkab bo`lgan nisbat kategoriysi-uning majhullik, birgalik, orttirma va o`zlik nisbatlari haqida ma'lumot beriladi.

Ishda fe'lning o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon kategoriyalari ham atroflicha yoritiladi.

«At - tuhfa» da harfun - yordamchi so`zlar masalasiga ham e'tibor beriladi. Turkiy tilda dag`i, taqi, yo`qsa, yo`q, ya, ammo kabi so`zlar bog`lovchi bo`lib kelishi aytildi. Yuklamalar haqida fikr yuritilgan bo`limda faqat ta'kid Yuklamalarigina emas, balki, umuman ma'noni kuchaytirish usullari haqida fikr beriladi. Qiyoslang: biy-biy (bek-bek); al-al; uk-uk.

Turkiy tilda undovlarning uchta ekanligi aytildi. Bular: ey, abav, abu. Masalan: A kichi! «Ey odam!»

«At - tuhfa» asarida grammatikaga – sintaksisiga oid ma'lumotlar ham berilgan bo'lib, uning asosini gap haqidagi fikrlar tashkil qiladi. Gaplar otli va fe'lli gaplarga ajratiladi. Gapning zaruriy, tarkibiy qismlari sifatida ega (mubtado) va kesim (xabar beriladi). Muallif: Biy uydadir, gapini sintaktik jihatdan mutlaqo to`g`ri ega (biy) va kesim (uydadir) kabi bo`laklarga ajratadi.

Ishda, asosan, so`roq gaplar haqida fikr yuritiladi. So`roq gaplarning o`ziga xos xususiyatlari, hosil bo`lishi, so`roq vositalari haqida fikrlar beriladi. Masalan, Biylar keldilarmi? Nadan kularsan? Necha aqchadir? va boshqalar.

Xullas, arab tilshunosligi, umuman, jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan bo`lib, yevropaga hind tilshunosligiga nisbatan ancha oldin ma'lum bo`lgan.

XIII asrning o`rtalarida (1258) arab xalifaligining poytaxti bo`lgan Bog`dod mo`g`ullar tomonidan bosib olinadi. Natijada xalifalik o`z ichida alohida davlatlarga bo`linib ketadi. Shu bilan arab madaniyatining klassik davri o`zining nihoyasiga yetadi.

4-ma'ruza

Arab tilshunosligining rivojida O`rta Osiyolik allomalarining xizmati

Reja:

1. Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning lisoniy qarashlari.
2. Mahmud Koshgariy, Mahmud az Zamashshariy, Alisher Navoiy va Mirzo Mehdixonlarning lisoniy tadqiqotlari, ularning turkiy va o`zbek tilshunosligi tarixidagi o`rni.

Asosiy tayanch tushunchalar: «Fanlar tasnifi» (yoki «Fanlar tasnifi haqidagi so`z») kitobi haqida; **Til – so`zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimon; nutq tovushlari va nutq organlari;** «savt» va «harf» tushunchalari; «Devon»dagi turkiy til va dialektlar tasnifi; Koshg`ariy metafora – o`xshashlik asosida ma`no ko`chishi haqida; Zamahshariyning «Al-Mufassal» asari haqida.

O`rta Osiyolik mashhur allomalarining jahon madaniyati, ma'rifati-ilm-faniga qo'shgan hissasi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalar: Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg`ariy, Mahmud az- Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobi (873-930) yaratgan asarlar ichida «Fanlar tasnifi» (Yoki «Fanlar tasnifi haqidagi so`z») kitobi tilshunoslik masalalariga bag`ish-langanligi bilan ajralib turadi.

Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfoepiya va uslubistika kabi bo`limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan. Forobi fonetika haqida fikr yuritar ekan, nutq tovushlari, tovushlarning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo`lishi, o`rni, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so`zga qo'shimchalar qo'shganda yuz beradigan tovush o`zgarishlari, so`zning fonetik meyori haqida fikr yuritadi.

U leksika yuzasidan ma'lumot berar ekan, leksik birlik bo`lgan so`z masalasiga, so`z ma'nolarining tasnifi masalasiga to`xtaladi. Ya'ni so`z ma'nosining ikki turini: sodda va murakkab bo`lishini ko`rsatadi. Sodda ma'noli so`zlarga: odam, hayvon, gul, ovqat, osmon kabi atash vazifasini bajaruvchi alohida so`zlarni kirlitsa, murakkab ma'noli so`zlarga: narsa va uning belgisini bildiruvchi - Bu odam – bilimli, bu gul - o'simlik kabi ifodalarni kiritadi.

Forobiy morfologiya masalasida so`zlarni arab tilshunosligiga asoslangan holda ot, fe'l va harflarga ajratadi. Otlarni ikkiga: atoqli va turdosh otlarga bo`ladi. Aniqrog'i, sodda ma'noli so`zlarni ikkiga ajratadi: 1) atoqli otlar: Zayd, Amr; 2) turdosh otlar: odam, hayvon, ot va boshqalar. Otlarga son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko`plik), fe'llarga zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi zamon) kategoriyasi xosligini ta'kidlaydi.

U sintaksis masalasida so`z birikmasi haqida, nutqning qismlarga bo`linishi, so`zlarning qanday birikish qoidalari va hukm bildirishi, so`zlarning qo'shilish turlari haqida fikr yuritadi.

Forobiy orfografiya masalasida so`zlarning yozilish qoidalari yuzasidan ham dastlabki ma'lumotlarni beradi.

Forobiy she'riyat - she'r haqida fikr yuritar ekan, she'rning yozilish o'lchovlari, Ya'ni she'rning yozilishidagi to`liq va noto`liq o'lchovlar, qaysi o'lchov yoqimli va chiroyli ekanligi, umuman, she'r tovush va bo`g`inlardan tashkil topishi haqida fikr bayon qiladi.

Forobiy ulug` faylasuf olim sifatida umumiylilik va xususiylik dialektikasi nuqtai nazaridan tilga, lisoniy hodisalarga ham murojaat qiladi.

U ot, fe'l va yuklama kabi so`z turkumlarining arab tilida ham, yunon tilida ham mavjudligini aytib, buni umumiylilik sifatida talqin qiladi. Ayni vaqtida arab tilshunoslari ushbu so`z turkumlarini shu til hodisalari, birliklari asosida tahlil qilsalar, yunon tilshunoslari esa qayd etilgan morfologik kategoriyalarni o`z ona tili materiallari asosida o`rganishlarini ta'kidlaydiki, bu jarayon xususiylik sifatida namoyon bo`ladi. Binobarin, dialektik falsafaning umumiylilik va xususiylik kategoriyasi tilning muayyan tushunchalari orqali o`zining isbotini, tasdig`ini topadi.

O`rta asr yevropasida Aliborona nomi bilan mashhur bo`lgan qomusiy alloma xorazmlik Abu Rayhon al - Beruniy (937-1048), ma'lumotlarga qaraganda, 150 dan ortiq asar yaratgan. Ushbu asarlar matematika, fonetika, kimyo, astronomiya, jo`g`rofiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa, riyoziyot va tilshunoslik kabi qator sohalarga oid bo`lib, jahon ilm-fanining durdonalari sifatida qadrlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari «Saydana» nomli asarida beriladi. Anig'i, ushbu asar dorivor o`simliklar, hayvonlar va madanlar tavsifiga bag`ishlangan bo`lib, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi. Buyuk alloma ushbu asarda dorivor moddalarning bir necha tillarda qanday nomlanishinigina bayon qilib qolmasdan, balki ushbu moddalarning har bir tildagi mahalliy, Ya'ni har bir shevadagi nomlanishini ham alohida ko`rsatib beradi. Demak, muallif predmet va uning nomi munosabati masalasiga alohida ahamiyat beradiki, ayni masala qadimgi tilshunoslik davridan to shu kungacha ham til haqidagi fanning eng dolzarb muammolaridan biri bo`lib kelmoqda.

Beruniy she'riyat masalalari bilan ham shug`ullanadi, asarlar yaratadi, o`zi ham she'r ijod qiladi. U «Saydana» asarida qator shoirlarning she'riyatidan namunalar keltiradi.

Beruniy asardagi 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomiga izoh beradi. Har bir bob bir harfga bag`ishlanadi. U asarda 4500 dan ortiq arabcha, yunoncha, suriyacha, forscha, xorazmiycha, so`g`dcha, turkcha va boshqa tillardan o`simlik, hayvon, dorivorlar nomlarini to`playdi va izohlaydi. Demak, «Saydana» asari ayni vaqtida dorivor moddalar nomlarining izohli lug`ati sifatida ham qadrlanadi. Muallif asarda dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha so`z bo`lsa, ular shu harf bobida ichki alfavit asosida beriladi. Mazkur lug`at ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug`at sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Ovrupoda Avitsenna nomi bilan mashhur bo`lgan va Sharqda ulug`lab, «SHayhurrais» nomi bilan atalgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) turli sohalarda, shu jumladan, tilshunoslik bobida ham bir qancha asarlar yaratdi.

Qomusiy alloma Ibn Sino: 1) «Kitobi al milh finnahv» («O'tkirlik sintaksisda ekanligi kitobi») 2) «Kitob lisonul arab» («Arab tili kitobi») 3) «Asbobi xudut al xuruf» («Tovushlarning chegaralanish sabablari») kabi tilshunoslikka oid qator asarlar qoldirdi.

SHu kungacha «Asbobi hudut al huruf» asarining to`rtta nashri: Qohira (2), Tiflis nashri va Toshkent nashrlari ma'lum.

Asarning Toshkent nashrini tayyorlashda prof. A.Mahmudov va prof. Q.Mahmudovlarning xizmatlari katta bo`ldi.

Ushbu asar kirish va olti bobdan tashkil topgan. Manbada tovushning hamda nutq tovushlarining paydo bo`lish sabablari, bo`g`iz va tilning anatomiysi, ayrim arab tovushlarining paydo bo`lishidagi o`ziga xosliklari, ushbu tovushlarga o`xshash nutq tovushlari hamda tovushlarning nutqiy bo`lmagan harakatlarda eshitilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

Ibn Sino tovushning hosil bo`lishida havoning to`lqinsimon harakati sabab ekanligini to`g`ri ko`rsatadi. Aniqrog`i, artikulyatsiya o`rnidan havoning siqilib chiqishi natijasida nutq tovushlari yuzaga keladi.

U fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi. Fizikaviy tovushlarni «savt», nutq tovushlarini esa «harf» so`zlari-terminlari bilan nomlaydi. Fizikaviy tovushning ham, nutq tovushining ham havoning to`lqinsimon harakati sababli hosil bo`lishi ta'kidlanadi.

Demak, bu tovushlarning yuzaga kelishida havoning to`lqinsimon harakatlanishi umumiylilik hisoblanadi. Ayni vaqtida bu umumiylilikning xususiyligi shundaki, savtlardan - fizikaviy tovushlardan farqli holda harflarning – nutq tovushlarining hosil bo`lishida muayyan nutq a'zolari ishtirok qiladi. Demak, nutq tovushlari nutq a'zolari orqali, bevosita ularning ishtirokida yuzaga keladi.

Ibn Sino harflarni – nutq tovushlarini unli va undosh tovushlarga ajratadi. Unlilar miqdorini uchta, undoshlar miqdorini esa yigirma sakkizta deb belgilaydi. Undoshlar haqida mukammal ma'lumot beradi. Umuman, Ibn Sinoning fonetika sohasida yaratgan ishlarini, bayon qilgan fikrlarini, ayniqsa, uning tovushlarni unli va undosh tovushlarga ajratilishini jahon tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissasi sifatida baholash lozim.

Mahmud Koshg`ariy O'rta Osiyoning XI asrida yashab ijod etgan buyuk allomasidir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo`yicha qimmatli ma'lumotlar qoldirdi.

Mahmud Koshg`ariy turkiy tilshunoslikning ensiklo-pediysi hisoblangan mashhur «Devonu lug`atit turk» («Turkiy so`zlar devoni») asarini yaratdi. Shuningdek, shu kungacha topilmagan «Javohirun nahv fi lug`atit turk» («Turkiy tillar sintaksisining javohirlari») nomli asarini ham yozgan.

Arab tilidan K.Brokkelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, 1928 yilda Leypsigda, Bosim Atalay tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, 1939 yilda Anqarada nashr qilingan «Devonu lug`atit turk» asari prof. S. Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, 1960-1963 yillarda Toshkentda nashrdan chiqdi.

Mahmud Koshg`ariyning «Devoni» akad. A.N.Kononov, prof. H.Ne'matov, prof. F. Abdullayev, prof S.Usimonov, prof. A.Kondrashov, prof.A.Nurmonov va boshqalarining taxminicha 1072- 1078; 1078- 1083; 1071- 1073; 1073- 1074; 1076- 1077 yillarda yozilgan. Xulosa bitta, asar X1 asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik maydoniga kirib kelgan.

Tilni kishilar o`rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko`zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg`ariy o`zining mashhur «Devon»ida aynan bir davrga oid bo`lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini sinxron - qiyosiy metod asosida

solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o`sha davrda aynan mana shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan bo`lib, bu arab tilining ko`p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi.

«Devonu lug`atit turk» asarida turkiy tilshunoslik tarixida birinchi marotaba turkiy til va dialektlarning tasnifi ham beriladi.

Xullas, Mahmud Koshg`ariy o`zining «Devon»i bilan sinxron - qiyosiy tilshunoslikka asos soldi, ayni tilshunoslikning buyuk sifatida tanildi.

Mahmud Koshg`ariy sinxron - qiyosiy metod bilan qurollangan holda turkiy qabilalarni kezib, asosiy diqqat-e'tiborini ularning tillaridagi umumiyligi va farqli xususiyatlarga qaratadi. Shuningdek, u turkiy qabilalarning joylashish o`rniga haqida ham qimmatli, asosli jo`g`rofiy ma'lumotlar beradiki, bu «Devon»dagi faktlarning, fikrlarning, qarashlarning ob'ektivligini ta'minlaydi. Aytiganlar «Devon»ning juda katta mehnat evaziga yaratilganligidan xabar beradi.

Tilshunoslikning barcha sathlari bo`yicha qiyosiy tadqiqot ishlarini olib borgan Mahmud Koshg`ariyning «Devon»i muqaddima va lug`at qismlaridan tashkil topadi.

«Devon»ning kirish qismida asarning tuzilishi haqida, Shuningdek, SHimoliy Xitoydan tortib, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg`ona, Buxorogacha tarqalgan katta hududdagi urug`lar, qabilalar va ularning tillari haqida, bu tillarning fonetik va grammatik xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

«Devon»ning asosiy lug`at qismida esa 9 mingga yaqin turkiy so`z arab tiliga tarjima qilinib, izohlanadi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida muhim fikrlar bayon qilinadi.

Mahmud Koshg`ariy turkiy tillar – so`zlar fonetikasi – tovushlar haqida fikr yuritar ekan, tovushlarni harflardan qat`iy farqlaydi, tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari haqida fikr yuritadi. U arab yozuvi sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini aytib, arab yozuviga yangi belgilarni kiri-tadi. Aniqrog`i, arab yozuvidagi 18 harfni – shu harflardan yet-titasi ustiga maxsus qo`shimcha belgi qo`yish orqali 25 taga yet-kazadi. Natijada 25 ta tovush o`zining yozma - harf shakliga, ifodasiga ega bo`ladi.

Alloma undosh tovushlar haqida gapirib, undoshlarning sodda va murakkab bo`lishi, jarangli va jarangsizligi, qattiq va yumshoqligi, undoshlarning ketma – ket kelishi: katta, oppoq (geminatsiya) – kabi masalalarga to`xtaladi. Shuningdek, u singar-monizm, tovush tushishi, almashinishi, assimilyatsiya, metateza, reduksiya kabi bevosita tovushlar bilan bog`liq fonetik jara yonlar haqida ham fikr yuritadi.

Mahmud Koshg`ariy til va nutqning asosiy birligi bo`lgan so`z masalasiga leksikolog, semisiolog, leksikograf sifatida to`xtalar ekan, bunda u asosiy diqqat-e'tiborni tilshunoslikning eng muhim va eng murakkab masalalaridan biri bo`lgan so`z ma`nosiga, so`zning ko`p ma'noliligiga, so`z ma`nosining ko`chishiga, so`z ma`nosining izohi kabi o`ta jiddiy masalalarga qaratadi. Ya`ni olim «Devon»da so`zning muayyan ma`no angla-tishdek eng muhim xususiyatidan kelib chiqib, so`z ma`nosini bilan bevosita bog`liq bo`lgan onomimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari haqida, so`z ma`nosining ko`chishi bilan bog`liq bo`lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik kabi ma`noning ko`chish usullari haqida, so`z ma`nosining kengayishi va torayishi haqida fikr yuritadi, turkiy tillardan qator misollar keltiradi, fikrini isbotlaydi. Masalan, «Devon»da o`t so`zi omonim sifatida qayd etiladi va quyidagi onomimik ma`nolarda qo`llanilishi aytildi. Qiyoslang: o`t-dori (u dori tomdirdi); o`t-o`simlik (qo`y o`tni yeb tugatdi). Erik-eriydigan, eruvchan (masalan, yog` va boshqa eriydigan narsa); erik-chaqqon, yo`rg`a (masalan, chaqqon, g`ayratli odam, yo`rg`a ot).

Mahmud Koshg`ariy antonim so`zlarga ham to`xtalib, chivgin (to`q tutuvchi,

semirtiruvchi, kuchli, masalan, ovqat) so`zining ma`no zidi – antonimi sifatida kevgin (to`q tutmaydigan, kuchsiz, masalan, ovqat, osh) so`zini keltiradi. Ya`ni so`zlarining biri «kuchli» (ko`p quvvatli) ma`nosini bersa, ikkinchisi «kuchsiz» (kam quvvatli) ma`nosini anglatadi.

Muallif «Devon»da sinonimik munosabatdagi so`zlar sifatida quyidagilarni qayd etadi: ishlar, urag`ut, o`xshag`u (xotin kishi ma`nosida); o`pdi, ichdi (ichmoq ma`nosida); ilishdi, asishdi (osmoq ma`nosida). Mahmud Koshg`ariy metafora-o`xshashlik assosida ma`no ko`chishiga tug`moq fe`lini keltiradi. Ya`ni ushbu so`z faqat insonga nisbatan emas, balki qo`llanish vaqtin jihatdan ancha keyin, tashqi o`xshashlik asosida, hayvonga nisbatan ham ishlatilishi haqida ma`lumot beradi.

U ma`no ko`chishining metonimiya usuliga to`xtalib, bulut, osmon va og`il so`zlarini keltiradi. Ya`ni bulut, osmon so`zleri yomg`ir ma`nosida qo`llansa, og`il so`zi go`ng, qiy ma`nosida ishlatilishini aytadi.

Alloma ma`noning kengayishiga tug`moq so`zini keltirib, bu so`z faqat odamlarga nisbatan emas, balki keyinchalik hayvonga nisbatan ham qo`llanganligini aytadi. Bundan so`zning qo`llanish qamrovi, muayyan predmet bilan bog`lanishi, uni anglatish faolligi kengayganligi ma`lum bo`ladi.

So`z ma`nosining torayishi sifatida esa sobon so`zini keltirib, ayni so`zning qo`shga nisbatan ham, omochga nisbatan ham - har ikkala boshqa-boshqa predmetlarga nisbatan ishlatilgani, so`ng esa faqat omochni anglatish uchun qo`llanishini tushuntiradi.

«Devon»dagi morfologiyaga oid tadqiqotlarga kelganda, asarda so`zlar, o`sha davr arab tilshunosligi an`analariga ko`ra, uch turkumga ajratiladi. Ya`ni bular ot, fe`l va yordamchi so`zlar. So`z turkumlaridan, ayniqsa, fe`l bilan bog`liq qator masalalar atroflichcha o`rganiladi. Bunda u fe`l yasalishi, fe`l nisbatlari, fe`l mayllari, fe`l zamonlari masalasiga alohida e`tibor beradi, qimmatli ma`lumotlar keltiradi.

Xullas, Mahmud Koshg`ariy o`z davrining ulkan tilshunosi sifatida jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk allomadir.

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az - Zamaxshariy

Musulmon Sharqida «Ustod ul-arab va-l ajam» (Arablar va g`ayri arablar ustoz), «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo`lgan O`rta Osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az - Zamaxshariydir (1075-1143).

Mahmud az - Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog`ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy qilgan davrga to`g`ri keldi. Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatga sazovor ziyoli oilalardan edi. SHunga ko`ra u dastlabki bilimini Zamaxsharda-o`z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo`ladi. Mahmud o`z bilimini oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo`lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so`ngra esa Buxoroga) yo`l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o`zining ma`naviy-ma`rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog`dod, Makka, Marv, Nishapur, SHom, Hijoz va Iroq kabi ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo`ladi, yetuk allomalardan, olimu fozillardan ilm-fan sirlarini o`rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo`ladi. SHunga ko`ra Mahmud az - Zamaxshariy o`z zamonasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong`i ketgan mashhur kishisiga aylandi.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug`atshunoslik, jo`g`rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fikh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko`plab she`rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al-Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: «Xudo rahmat qilg`ur az - Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug`at bobida o`zgalarga misol (namuna) bo`ladigan alloma edi», desa, Misr tarixchisi ibn Tag`ribi shaharida esa Mahmud Zamaxshariy «shayx, buyuk alloma, o`z davrining yagonasi, o`z asrining eng peshvosi va imomi bo`lgan»,

deydi.

Buyuk imom Zamaxshariy tilshunoslik bobida ham qator asarlar yaratdiki, bu asarlar dunyo tilshunosligi fanida alohida qadrlanadi.

Mahmud az - Zamaxshariyning tilshunoslikka oid asarlari quyidagilar:

1. «Al - mufassal fi san'at il-i'rob» («Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob»)
2. «Al - muhojat bil - masoil an - naxviya av al- axajiy an - nahviya» («Grammatik masalalarga oid jumboqlar»)
3. «Al-unmuzaj fi-n-nahvi» («Grammatik namunalar haqida»)
4. «Samiym ul-arabiya» («Arab tilining negizi»)
5. «Al-mufrad va-l-muallif fi-n-nahvi» («Gramma-tikada birlik va ko`plik»)
6. «Al-mufrad va-l murakkab fi-l-arabiya» («Arab tilida birlik va ko`plik»)
7. «Al-amaliy fi-n-nahvi» («Grammatik qoidalarda orfografiya»)
8. «Diyvon ut-tamoyil» («Assimilyatsiya haqida devon»)

Arab tili grammatikasiga oid asarlar ichida Zamaxshariyning bir yarim yil davomida Makkada yaratgan «Al - mufassal» (1121) kitobi alohida o`rin tutadi. Ayni asar arab tilining morfologiysi va sintaksisiga oid tadqiqot bo`lib, u musulmon olamida mashhur bo`lgan va yuksak baholangan.

Zamaxshariyning «Al-Mufassal» asarida grammatikaga oid masalalar so`z turkumlari-ot, fe'l va Yuklamalar orqali o`rganilgan. Asarning har bir bo`limida morfologiya va sintaksis masalalari ko`rib chiqilgan. Asar fonetika bo`limi bilan yakunlanadi.

Ushbu asarning bir qo`lyozmasi Toshkentda, O`zFAning Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» («Adabiyot muqaddimasi» 1137) yirik asari ham bo`lib, alloma bu asarda o`z davridagi arab tilining iste'molda bo`lgan qator so`z va iboralarini jamlashga harakat qilgan, ularning etimologiyasi haqida qimmathi ma'lumotlar bergen. Zamaxshariyning «Muqaddimat ul - adab» asari besh bo`limdan iborat bo`lib, unda so`zlar ism (ot), fe'l, bog`lovchi, ot o`zgarishlari (otlarning turlanishi) va fe'l o`zgarishlariga (fe'llarning tuslanishiga) bo`linadi va har bir bo`lim haqida alohida fikr yuritiladi.

Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asari fors, chig`atoy (o`zbek), mo`g`ul, turk keyinchalik esa fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan. Ushbu asarning qo`lyozmalari O`zFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Alloma «Alfoiq fi g`arib il-hadis» («Hadisdagi notanish so`zlarni o`zlashtirish») lug`atini ham yaratadi. U asarda so`z masalasiga, aniqrog`i, ma`nosini tushunish, anglash murakkab, qiyin bo`lgan so`zlarga to`xtaladi. Ayni so`z ma`nolarini sharhlaydi, tushuntiradi, ularning o`zlashishi uchun yo`l ochadi.

Zamaxshariyning «Asos ul-balogs`a» («CHechanlik asoslari») asari ham bo`lib, ushbu manba, asosan, lug`atshunoslikka oiddir. Kitobda arab tilining mukammalligi haqida, so`z, so`zlarning ma`no xususiyatlari, so`zlarning ko`chma ma`noda qo`llanishi, ko`chma ma`nolarning paydo bo`lish sabablari, Shuningdek, nutqning asosiy birligi sifatida faqat so`z emas, balki frazeologik birliklar ham olinib, ulardan nutq faoliyatida foydalanish usullari haqida atroflicha ma'lumotlar beriladi.

Mahmud Zamaxshariy butun islom ma`naviyati va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo`lgan «Navobig` ul-kalim» («Nozik iboralar») asarini ham yaratdi. Manbada, asosan, hikmatlar-aforizmlar qayd etilgan bo`lib, ular g`oyaviy va badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi.

O`rta Osiyoning XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk mutafakkiri, allomasi, she`riyat sultonasi, o`zbek adabiy tilining homiysi va targ`ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501)

hazratlari tilshunoslik tarixida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biridir.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari, asosan, «Muhokamat ul-lug`atayn» (1499) asarida o`z ifodasini topgan.

Ikki til-o`zbek va fors tillarining qiyosiy (solishtirma) tahliliga bag`ishlangan ushbu asarda Alisher Navoiy turli til oilalariga mansub bo`lgan tillarning umumiyligi va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlari to`xtaladi, ularni tahlil qiladi, muhim ma'lumotlar beradi. Aniqrog`i, tillarni muhokama qilish orqali o`zbek tilining o`ziga xos jihatlariga, adabiy-badiiy ijodda - asarlar yaratishda o`zbek tilining ham ustuvor, ulug`vor til ekanligini, shunga ko`ra fors tili bilan bemalol raqobat qila olishini, hatto ayrim o`rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtai nazaridan esa undan ilgari keta olishini bayon qiladi, asoslaydi.

U mazkur asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so`z ma'nosi, so`zlarning shakl va ma'no munosabatlari ko`ra turlari, so`z yasalishi, morfologik kategoriylar, fonetikaga oid-tovush bilan bog`liq qator hodisalar haqida chuqr fikr yuritadi, bunday hodisalarni atroflicha tahlil qiladi.

Navoiy asarda fonetik sistema haqida fikr yuritar ekan, ayni sistemaning qurilish a'zolari bo`lgan tovushlar haqida, tovushlarning artikulyatsion xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi, o`zbek tili tovushlarining qo'llanilishidagi o`ziga xosliklarini alohida qayd etadi.

Ushbu fonetik o`ziga xosliklar haqida prof. S.Usmonov va prof. A.Nurmonovlar o`z tadqiqotlarida bir qator ma'lumot-larni keltiradilar. Masalan, tovush va harf munosabati haqida fikr yuritilar ekan, ular bir-biriga hamma vaqt ham mos kelmasligi, bir harf bilan bir necha tovushni anglatish mumkinligi aytildi. Anig`i, Navoiy eski o`zbek adabiy tilining unlilar sistemasiga to`xtalib, o-ö, u-ÿ oppozitsiyasi asosida misollar keltiradi qiyoslang: ot (olov), öt (harakat); to`r (tuzoq), to`r (uyning to`ri); o`t (yutmoq), o`t (kallani o`tga tutib, tukini kuydirish). Shuningdek, bиргина yey (s) harfi bilan uchta tovush: i, cho`ziq i va e tovushlari ifodalanishi qayd etiladi.

Qofiya masalasida o`zbek va fors tillari qiyoslanar ekan, bunda o`zbek tili imkoniyatlarining kengligi, bu jihatdan o`zbek tili fors tilidan ustun ekanligi bayon qilinadi. Anig`i aro so`zini saro, daro bilan ham, boda bilan ham, erur so`zini esa hur, dur bilan ham, g`urur, surur so`zleri bilan ham qofiya qilish mumkinligini, fors tilida esa bunday imkoniyat yo`q ekanligini ta'kidlaydi.

Xullas, Alisher Navoiy tovushni, hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan baholashda, fonema sifatida olib, uning eng muhim xususiyati bo`lgan ma'no farqlash qobiliyatiga ega ekanligini bayon qiladi.

Navoiy islom ta'limotiga asoslangan holda insonga til-nutq qobiliyati, nutq faoliyati Ollohamonidan berilganligini, bu jarayon faqat insongagina tegishli ekanligini aytadi. Ayni vaqtda ushbu qobiliyatga ega bo`lgan insonlar so`zlarni o`zleri yaratishini, o`zleri ijod qilishini qayd etadi va so`z masalasiga alohida urg`u beradi.

Navoiy so`z haqida fikr yuritar ekan, dastavval, mutlaqo maqsadga muvofiq, so`zning ma'no quvvatiga katta e'tibor qaratadi. Chunki Navoiy g`oyalarining eng birinchi va eng qudratli poydevori, moddiy asosi so`z ekanligi – so`zning ma'no jihatlari ekanligi aniqdir.

Navoiy so`zni ma'no, tushuncha tashuvchi, inson g`oyalarini, ruhiy dunyosini ifoda etuvchi, shunga ko`ra o`zgalarga ta'sir qiluvchi kuchli vosita sifatida tushunadi va shunday tushuntiradi. U ona tilining leksik boyligi haqida o`tkir tilshunos sifatida qimmatli fikrlar, ma'lumotlar keltiradi, semantik-funksional jihatdan forsiy tildan ustun turuvchi qator lisoniy birliklarni birma-bir sanaydi, ularni ma'no jihatdan tahlil qiladi, so`zlarning-fe'llarning nozik ma'no farqlarini, «qirralarini» qayd etadi. Turkiy tilning so`z qo'llash bobida ham o`ziga xosliklarga, ustunliklarga egaligini asoslaydi, she'riyat-baytlar orqali ishonch hosil qiladi.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug`atayn» asarida eski o`zbek tilining imkoniyatlarini, boyligini ko`rsatish maqsa-dida shu tilning o`ziga xos bo`lgan 100 ta fe'lni keltiradi. Bular: quvormoq, quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o`ngdaymoq, chikirmak, dumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmoq, egarmoq, uxranmoq, toriqmoq, aldamoq, arg`adamoq, ishonmoq, iglanmoq, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo`zg`almoq, sovrilmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg`onmoq, nikamoq, saylanmoq, tanlamoq, qimirdanmoq, serpmak, sirmamak, ganorgamak, sig`riqmoq, sig`inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevramak, qing`aymoq, shig`aldamoq, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, ko`ngranmak, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, kuymanmoq, ingramoq, tushalmoq, mung`aymoq, tanchiqamoq, quruqsamoq, bushurg`anmoq, bo`xsamoq, kirkinmak, sukadamak, bo`sмоq, burmak, turmak, tamshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o`rtanmak, sizgurmoq, gurpushlamak, chiprutmak, jirg`amoq, bichimoq, kikzanmoq, singurmak, kundalatmak, kumurmak, bikirmak, ko`ngurdamak, kinarkmak, kezarmak, do`ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg`anmoq, qichig`lamoq, gangiramak, yadamak, qadamoq, chiqanmoq, ko`ndurmak, so`ndurmak, suqlatmoq.

Navoiy qayd etilgan fe'llarni semantik jihatdan tahlil qiladi, differensial-semantik metod asosida ularning ma'no umumiyliklariga, farqli belgilariga, ma'no nozikliklariga e'tibor beradi, misollar bilan asoslaydi. Omonimik va sinonimik munosabatdagi so`zlarni aniqlaydi, polisemantik so`zlarining mayjudligini qayd etadi. Masalan, omonim so`z sifatida ot, tuz, ko`k kabi so`zlarni keltirib, ot so`zining nom-ism ma'nosida, hayvon ma'nosida va harakat ma'nosida qo`llanishini ta'kidlaydi. Aytiganlar Navoiyning so`z masalasiga o`ta jiddiy e'tibor bergen, o`z davrining buyuk so`zshunos-leksikolog olimi ham bo`lganidan darak beradi.

Navoiy mazkur asarida morfologiya masalasiga ham to`xtaladi, so`z yasalishiga oid ayrim fikrlarni qayd etadi.

Prof. S.Usmonov va prof. A.Nurmonovlarning xabar berishicha, ushbu ishda so`z yasovchi affikslar sifatida quyidagilar keltiriladi:

- chi: qushchi, xolvochi, kiyikchi, qo`ychi;
- vul: bakovul, qarovul, yasovul, jig`ovul;
- l: yasol, kabol, tunqol, sevarg`ol va boshqalar.

Ma'lum bo`ldiki, affikslar asarda so`z yasovchi vositalar sifatida so`z tarkibida qo`llanib, yangi so`z yasash, asosan, ot yasash-shaxs otini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Alisher Navoiy morfologiya oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy, yetakchi so`z turkumi sifatida, maqsadga to`la muvofiq, fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birlıklarning ma'no jihatdan, shakl va qo`llanishi jihatdan eski o`zbek adabiy tilining o`zigagina xos, Ya'ni forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Aniqrog`i, u fe'llarning nisbat bilan bog`liq tomonlariga alohida e'tibor berar ekan, fe'lning o`zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko`makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi.

Navoiy fe'lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi-t qo`shimchasi orqali hosil bo`lishini aytadi, qator misollar keltiradi. Qiyoslang: yogurt, yashurt, chiqart va boshqalar.

Alisher Navoiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo`lgan ulkan ilmiy va adabiy merosini o`rganish-lisoniy yo`nalishda u yaratgan asarlarni tahlil qilish-so`zlarga, so`z ma'nolariga e'tibor berish, ularni izohlash, ma'naviy qamrovini, matn-dagi quvvatini ochib berish, o`zga tillarga tarjima qilish kabilar, XV asrdan boshlab, filologik tadqiqotlarning –leksikografik ishlarning asosiy maqsadi, vazifasi bo`lib qoldi. SHunga ko`ra, ayniqsa, ushbu davrdan

boshlab, ko`plab lug`atlar yaratila boshlandiki, bu lug`atlar ichida Eron shohi Nodir shohning kotibi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al Husayni as Safaviyning – Mirzo Mehdixonning (XVIII) «Sangloh» (1760) lug`ati alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu asarning o`ziga xos tomoni shundaki, ayni lug`atga «Maboni ul - lug`at, Ya’ni sarfi va nahvi lug`ati chig`atoy» nomli eski o`zbek tilining grammatikasiga oid tadqiqot ham kiritilgan.

Ma'lum bo`ldiki, Mirzo Mehdixonning «Sangloh» asarida ham leksikologiyaga, leksikografiyaga, grammatica-morfologiya va sintaksisiga oid masalalar yuzasidan fikr yuritiladi.

Asarning lug`at qismi, asosan, she'riyatdagi hamda Lutfiy, Bobur asarlaridagi tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlar izohiga, ularning fors tiliga tarjima qilinishiga qaratilgandir.

Asarga qo`shimcha kiritilgan «Maboni ul - lug`at» ikki qismdan: muqaddima va tarsif (grammaticika) dan iborat.

«Muqaddima»da asarning yozilish sabablari beriladi. Ishning tarsif-grammatikasi esa olti bo`limni o`z ichiga oladi. Ushbu bo`limlarda fe'l - fe'lning turli nisbat shakllarining kelishi, fe'l zamonalari, fe'lning funksional shakllari (sifatdosh, ravishdosh), fe'l mayllari, fe'llarning yasalishi, affikslar olishi, olmoshlar, ularning turlari, qo`shimchalar, ko`makchi fe'llar, so`zlar imlosi va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

Mirzo Mehdixon o`zbek tilining morfologiyasiga to`xtalar ekan, u beshta kelishik shaklini qayd etadi. Bular: 1. faratqich kelishigi (-ning). 2. Tushum kelishigi (-ni, -n). 3. Jo`nalish kelishigi (-ka, -ga, -g`a). 4. Chiqish kelishigi (-dan). 5. O`rin-payt kelishigi (-da).

Mehdixon, shuningdek, egalik qo`shimchalari, sonlar-ularning turlari: tartib (-nchi, -inchi), jamlovchi (-ov, -ovla, -lon) –birov, ikkov, uchchovlon, taqsim sonlar (-ar, -in) - yuzar, birin haqida, olmoshlar-kishilik (man, san, biz, siz), ko`rsatish: (bu, ul, shul, o`shal, mun, anlar, alar), qo`makchilar (uchun, ila, ilan, bilan, birla, birlan) hamda fonetik hodisalar (eliziya-bo`yun-bo`yni, og`iz-og`zi) haqida ma'lumot beradi.

Mirzo Mehdixon, yuqorida aytilganlarga ko`ra, asarini o`zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi deb ataydi.

5-ma'ruza

Yevropada uyg`onish davridagi tilshunoslik. Komparativistika. V. fon Gumbold ta`limoti.

Reja:

1. Por-Royal grammatikasi.
2. Rus tilshunosligi. M.V.Lomonosov asarlari.
3. Komparativistika
4. V.fon Gumboldt ta`limoti.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Qiyosiy lug`atlar, «Ratsional yoki falsafik grammatika» tushunchasi, sun`iy xalqaro tillar, esperanto sun`iy tili, «Rossiya grammatikasi» (1755yil) asari haqida, komparativistika - **qiyosiy – tarixiy tilshunoslik**, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining 4 davri, agglyutinatiya hodisasi, «bobo til» tushunchasining mohiyati. V.Gumboldtning “til falsafasi”; «Yava orolidagi kavi tili haqida»; til antinomiyalari; til - faoliyat, nutq - faoliyat mahsuli, tilning ichki formasi, tilning tashqi formasi haqida; til xalq ruhining tashqi

ko`rinishi; til jamiyat rivojining asosiy belgisi.

Uyg`onish davri tilshunosligi XV-XVIII asrlarni o`z ichiga oladi. Uyg`onish davrining boshlanishi bilan cherkovning obro`-e'tibori susayib, antiq davrga bo`lgan e'tibor, qiziqish, uni qadrlash kuchaya bordi. Anig`i, Uyg`onish davrining vakillari, ziyolilari yunon va rimliklarning boy milliy madaniyatiga murojaat qila boshlashdi.

Uyg`onish davri kapitalizmning feodalizm ustidan bo`lgan g`alabasi bilan yakunlandi. Shunga ko`ra ushbu davrda insoniylik g`oyalari, milliy o`zini anglash, san'at va adabiyotga bo`lgan qiziqish, fanga bo`lgan jiddiy qarash, e'tibor kuchaydi, o'sdi.

Yangi asr yevropada Kolumb, Magellan, Galilei, Kopernik, Dekart, Nyuton, Leybnits, Lomonosov kabi dastlabki kashfiyotchilarni va ulkan olimlarni yuzaga chiqaradi.

Uyg`onish davrida, dastavval, dunyo tillari haqidagi ma'lumotlar ancha ko`paydi. Tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti uchun muhim va zarur bo`lgan lisoniy materiallarni, faktlarni to`plash, yig`ish jarayoni amalga oshirildi.

Kapitalizmga o`tish, uning rivoji, millatlar va milliy tillarning yuzaga kelishi, milliy iftixor kabilar qator tillarning grammatikasini tuzishga, yaratishga undadi. Ayni davrda arman, fors, venger, yapon, koreys, ispan, niderland, fransuz, ingliz, polyak, chek, nemis, ukrain va boshqa tillarning grammatikasi hamda leksikasiga oid asarlar yaratildi.

Ushbu davrda lisoniy materiallarni to`plab, yig`ib borish ularning mohiyatini tushunish, mazmunini anglash bilan birgalikda olib borildiki, natijada til haqida e'tiborli fikrlar o`rtaga tashlandi. Jumladan, faylasuf Bekon tildan boshqa aloqa vositasi mavjud desa, faylasuf Lokk tovush bilan tushuncha o`rtasida tabiiy bog`lanish yo`q, degan asosli fikrni ta'kidladi. Faylasuf Leybnits mantiqiy-matematik asosga qurilgan xalqaro til yaratish masalasini ko`tardi.

Ovrupo olimlarining – yunon va rimliklarning boy madaniy va ma'rifiy merosini egallashlari juda katta mehnat natijasida va lotin tiliga oid qator asarlarning-matnlarning nashr qilinishi hamda ularni sharhlash natijasida mumkin bo`ldi.

Antik (Yoki klassik filologiya) davrining adabiy asarlarini nashr qilish va ularga lisoniy sharhlar yozishda, ayniqsa, quyidagi olimlarning xizmatlari, mehnatlari katta bo`ldi. Bular: Jyul sezar Skaliger (1484-1558), Robert Stefanus (1503-1559), uning o`g`li Genrix Stefanus (1528-1598), Gerhardt Iogann Fossiy, Sharl Dyukanj, Iogann Reyxlin, Iogann Melanxton va boshqalar.

J.Skaliger «Lotin tili asoslari haqida» (1540) asarini yaratgan bo`lsa, R. Stefanus «Lotin tili xazinasi» (1553) tadqiqotini e'lon qiladi. G.Stefanus esa yunon tiliga bag`ishlab, «Grek tili xazinasi» asarini chop ettirdi.

Ayni vaqtida Sharq tillarini, ayniqsa, semit tillarini o`rganishga bo`lgan qiziqish kuchaydi, semit filologiyasi maydonga keldi. Ya`ni qadimgi yahudiy, aramiy, arab, efiopiya tillari tadqiq qilindi. Qator asarlar yaratildi. I.Reyxlin qadimgi yahudiy tili grammatikasini (1506) yaratib... unda birinchi bo`lib, «affiks» terminini qo'lladi va bu termin XVI-XVIII asrlarda faol ishlatila boshlandi. P.de Alkam arab tili grammatikasiga oid asarlarini (1506) e'lon qildi. Yakov Xolius va Erleniylar arab tili tadqiqi bilan shug`ullangan bo`lsalar, Iov Ludolf efiopiya tili yuzasidan ish olib bordi.

Ayniqsa, XVI asrda qator tillarning – nemis (1527), fransuz (1531), ingliz (1538), venger (1539), chek (1567), polyak (1568), slavyan (1596) va boshqa tillarning grammatikasiga oid asarlar maydonga keldi.

1696 yilda Angliyada (Oksford) Genrix Vilgelm Ludolfning lotin tilida tuzilgan «Rus

grammatikasi» asari yaratildi. Birinchilardan bo`lib, italyan (1612) va fransuz (1694) tili lug`atlari chop etildi.

Agar o`rta asr va Uyg`onish davrida klassik filologiyaning g`oyalari taraqqiy ettirilgan bo`lsa, XVII va, ayniqsa, XVIII asr tilshunosligida tubdan o`zgarish bo`lib, yangi tipdagi grammatika, lug`atlar-ko`p tomlari katta lug`atlar maydonga keldi.

Ana shunday lug`atlardan biri rus sayyohi akademik Pyotr Simon Pallasning «Barcha tillar va shevalarning (lahjalarning) qiyosiy lug`ati» asaridir. 272 tilga oid to`rt tilli bu lug`at Peterburgda 1786-1791 yillarda nashr qilingan bo`lib, unda ruscha so`zlarning 272 tilga qilingan tarjimasi beriladi va qiyoslanadi. Bu lug`at qiyosiy-tarjima lug`at sifatida e`lon qilinadi. Mazkur lug`atga Osiyo, yevropa, Afrika va Amerika tillari kiritiladi, ushbu tillarga oid materiallar beriladi.

Yana bir katta lug`at ispaniyalik Lorenzo Gervasning «Ma'lum xalqlar tillarining katalogi» (Madrid 1800-1804) asaridir. Ushbu lug`at 307 tilga oid leksik va grammatik ma'lumotlarni berishi bilan ajralib turadi.

Leksikografik tadqiqotlar yo`nalishida ma'lum bo`lgan ishlardan biri nemis olimlari I.K.Adelung va I.S.Faterlarning «Mitridat Yoki umumiyl Tilshunoslik» lug`atidir. Ushbu lug`at 500 ta tilni qamrab olishi, ular haqida ma'lumotlar berishi bilan e'tiborga loyiq bo`lgan.

Xullas, ko`plab tillarni o`z ichiga olgan qator lug`atlarning nashr qilinishiga, ulardagi ma'lumotlarning to`liq va mukammal emasligiga qaramay, bunday ishlar tillarni taqqoslab, qiyosiy o`rganishga - qiyosiy – tarixiy tilshunoslikka zamin yaratdi.

Por-Royal grammatikasi (“Umumiy ratsional grammatika”).

O`rta asrlardayoq (XVI-XVII) lisoniy hodisalarning to`g`riligi mantiqiy mezonlar asosida aniqlana boshlandi. Bu esa, o`z-o`zidan, tilning mantiqqa bo`ysindirilishiga va barcha tillar uchun umumiyl qonunlar mavjudligini tan olishga majbur qilardi. Boshqacha aytganda, ushbu asrlarda lotin tilini o`rganish mantiqiy tafakkur qonun va qoidalarini bilish deb ham tushunildi. Til hodisalari mantiq asosida izohlandi. Mantiq grammatikadan ustun qo`yildi. Bu davorda barcha tillarning yagona, bitta mantiqiy asosi bo`lishi-bitta grammatika bo`lishi kerak, degan ta`limot yaratildi. Natijada mantiqiy grammatika yaratish g`oyasi maydonga keldi.

Mantiqiy grammatika yaratish ta`limotining eng muhim g`oyaviy asosi bo`lib, ma`rifat asrining (XVII-XVIII) yetakchi falsafiy yo`nalishi bo`lgan ratsionalizm maydonga chiqdi. Ya`ni aql - idrok asosida ish ko`rish - ratsionalizm tilshunoslikka ham jiddiy ta`sir ko`rsatdi. Shunga ko`ra har qanday tillarning grammatik kategoriylarini mantiqiy kategoriyalarning namoyon bo`lishi, yuzaga chiqishi sifatida tushunish kuchaydi. Natijada ratsionalizm ta`limotining talablari asosida umumiyl (ratsional, falsafiy Yoki mantiqiy) grammatika yaratish g`oyasi amalga oshirila boshlandi.

1660 yilda Parij atrofidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lansolar ilk bor «Umumiy ratsional grammatika» asarini fransuz tilida yaratib, Parijda nashr qildilar.

Por-Royal grammatikasi qadimgi yunon, qadimgi yahudiy, lotin va fransuz tillari materiallari asosida yaratildi. Ammo u qiyosiy Yoki chog` ishtirma grammatika emas, balki mantiqiy-tipologik grammatika hisoblanadi. Ushbu grammatika o`z oldiga «barcha tillarga xos umumiyl prinsiplarni va ularda uchraydigan farqlarning sabablarini» aniqlash vazifasini qo`yadi.

Por-Royal grammatikasida birinchi bor grammatika bilan mantiq o`rtasidagi aloqa, bog`lanish nazariy jahatdan asoslab berildi. Agar til tafakkurni ifoda etsa, demak, til kategoriylarini tafakkur kategoriylarining namoyon bo`lishidir. Shunga ko`ra tilni o`rganuvchi grammatika mantiqqa asoslanishi lozim. Grammatika ratsional, mantiqli bo`lishi kerak. Mantiq barcha uchun yagona, bitta ekan, binobarin, grammatika ham umumiyl va

universal bo`lishi lozim. Yagona grammatika alohida tilning grammatikasi bo`lishi mumkin emas, u faqat umumiy bo`lishi mumkin, degan g`oyalar, ko`rsatmalar ilgari surildi.

Por-Royal grammatikasi ikki qismdan-fonetika va grammatikadan iborat bo`lib, olti bobdan tashkil topgan brinchi qismda tovush va harf, urg`u va bo`g`inga ajratish kabilar haqida ma'lumotlar beriladi. Grammatikaning yigirma to`rt bobdan iborat ikkinchi qismining yigirma uch bobida esa morfologiya masalalari - ot, sifat, olmosh, fe'l, sifatdosh, ravish, bog`lovchi, undov - ularga xos xususiyatlar, kategoriyalar; faqat oxirigi yigirma to`rtinchini bobida esa sintaksis masalalari - so`z birikmasi va gap kabilar haqida fikr yuritiladi.

Mantiqiy grammatika yohud grammatikadagi mantiqiy yo`nalish so`zsiz fikr (ma'no), fikrsiz (ma'nosiz) so`z yo`qligi tushunchasidan kelib chiqib, grammatik va mantiqiy kategoriyalarni - so`z bilan tushunchani - ularni aynan bir narsa deb biladi.

Albatta, mantiqiy kategoriyalar bilan grammatik kategoriya-larning o`zaro muvofiq kelishi, teng bo`lishi mavjud hodisa. U shubha uyg`otmaydi. Ammo bu mantiqning barcha kategoriyalari tilda to`g`ridan - to`g`ri o`z aksini topishi shart degani emas (masalan, tushunchaning so`z ma'nosiga, hukm va xulosaning esa turli tipdagisi gaplarga mos bo`lishi, muvofiq bo`lishi kabilar). Fransuz tilshunosi Sh.Balli to`g`ri aytganidek, «til orqali ifodalangan har bir fikr mantiqiy, psixologik va lisoniy jihatdan aniqlanadi», baholanadi. Ushbu fanlarning har biri gapni o`z nuqtai nazaridan o`rganadi. Bu – aksioma. Aristotel to`g`ri qayd etganidek, «har bir nutq (gap-R.R.) fikr ifodalaydi, ammo hamma nutq ham o`zida hukmni tashimaydi».

Til va tafakkur o`zaro bog`liq, ammo ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga, jihatlarga ega.

Har bir tilda mantiqiy tushunchalarni aks ettirmaydigan, ifodalamaydigan, ammo his - hayajon, xohish - istak - mayl ifodalovchi so`zlar bo`ladiki, bunday so`zlar mantiq tomonidan «tan olinmaydi».

Har qanday tilda bir tarkibli gaplar, gapning ikkinchi darajali bo`laklari, so`roq va undov gaplar mavjudki, bunday gaplar mantiqiy tushunchalarga zid keladi.

Mantiqiy grammatika grammatik kategoriyalarni mantiqiy kategoriyalar bilan teng holda olib, ularni aynan bir narsa sifatida qaraydi va lisoniy hodisalarini mantiq va mantiqiy kategoriya terminlari orqali tasvirlashni o`z vazifasi deb biladi.

Tafakkurning umumlisoniy shakl va qonuniyatlarini tekshiruvchi, o`rganuvchi mantiq fani inson ongingin hissiy va irodaviy tomonlari bilan ham, lisoniy ifodalarning shakllari bilan ham qiziqmaydi, bu jihatlarga e'tibor bermaydi. Mantiqiy grammatikada til hodisalariga tarixiy yondashish ham mutlaqo mavjud emas.

Mantiqiy hukmda hamma vaqt ikkita bo`lak-sub`ekt va predikat mavjud bo`ladi. Lisoniy birlik bo`lgan gapda esa bitta (keldi), ikkita (bola uxladi), uchta va undan ortiq (2005 yil sihat va salomatlik yilidir) bo`lak bo`lishi mumkin.

Hukm umuminsoniy xarakterga ega, gap esa hamma vaqt milliy shaklda namoyon bo`ladi.

Xullas, mantiqiy (Yoki falsafiy, ratsional) grammatika ayni bir mazmunning turli tillarda turli vositalar bilan ifodalishini hisobga olmadi. Shuningdek, ushbu grammatika ifoda vositalarining qonun va kategoriyalari har xil bo`lishi mumkinligini tushunmadid. Mantiqiy grammatika tilga o`zgarmaydigan, bir xilda turuvchi hodisa sifatida qarab, ayni grammatika har doim mantiq qoidalariga bir xilda mos keladi, deb hisoblaydiki, bunda g`ayri tarixiylik mavjuddir.

Aytilgan kamchiliklarga qaramasdan Por-Royal grammatikasi o`z davri uchun ijobjiy ahamiyatga ega bo`ldi. Ya`ni asar shu tipdagisi qator grammatikalarning yaratilishi uchun asos

bo`ldi, xizmat qildi.

O`z davrida katta shuhratga ega bo`lgan falsafiy - mantiqiy grammatika o`zigacha yaratilgan grammaticalar kabi ilmiy grammatikagacha bo`lgan grammatika sifatida baholanadi.

Komparativistika (qiyosiy – tarixiy tilshunoslik)

XVIII asrgacha til o`zgarmas hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o`zgardi. Ya`ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o`zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog`i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan-Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g`oyasini qo`llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g`oyasi qatiy tus oldi. Ya`ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig`ish, ularga e`tibor berish g`oyasidan qiyosiy-tarixiy g`oyaga-nuqtai nazarga burilish, o`tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtai nazarlarning o`zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo`ldi. Aniqrog`i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o`rtasida o`xhashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o`xhashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o`xhashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslari deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o`rtasidagi sistematik o`xhashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan - bir umumi qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o`rtasida o`xhashlik mavjudligi g`oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g`oyalaring ta`siri, Ya`ni jonli tillarning o`tmishini o`rganishga undash g`oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o`rtasidagi o`xhashlikni ularning qarindoshligiga ko`ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz Sharqshunosi va huquqshunosi Vilyam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o`rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qatiy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) esa o`zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug`at tarkibida, balki grammatic munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko`ra umumi asosga egaligini qayd etadi.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qatiy tan olinishiga zamin yaratdi.

Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lib, qiyoslash tillarni o`rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g`oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo`ldi.

Takidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o`rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g`oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo`ldi.

Eslatish joizki, Mahmud Koshg`ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo`lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, YAkob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo`lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslari sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo`lib, o`z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o`rganib, u Yoki bu tilning tarixini, undagi o`zgarishlarni, lisoniy hodisalarining mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarini ko`rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo`yadi.

Hind-Evropa tillarini qiyosiy-tarixiy o`rganish tarixi to`rt davrni o`z ichiga oladi:

1. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo`lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870 y.).
2. Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 y.).
3. Yosh grammatikachilar davridan to F de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o`qib, ma`nosini oolib berishgacha bo`lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o`n yilligi).
4. F. de Sossyur g`oyalardan bizning davrimizgacha bo`lgan davr.

Vilgelm fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik

Germaniyaning eng buyuk olimlaridan biri bo`lgan V.Gumboldt (1767-1835) har tomonlama bilim sohibi edi. U tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, falsafa, davlat huquqi, siyosat va diplomatik faoliyat bilan shug`ullanadi, Berlin universitetining asoschisi hamda davlat arbobi hisoblanadi.

V.Gumboldtning til bilimi nihoyatda keng bo`lib, ulkan olim nafaqat hind-Evropa tillarini bilar, balki dunyoning boshqa tillari - bask tilidan tortib, Amerikaning kichik Polineziya va mahalliy aholisining (indeyeslarning) tillari haqida ham chuqur bilimga, ma'lumotga ega edi.

V.Gumboldt asarlari, g`oyalari, konsepsiyalari bilan umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. Buyuk olim tilshunoslikning, idealistik ruhda bo`lsada, qator eng muhim va murakkab muammolarini hal qilib berdi, ta`limotlar yaratdi. Shu tufayli u jahon tilshunosligining keyingi taraqqiyotiga juda katta ta`sir ko`rsatdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo`lgan F.Bopp uni hurmat bilan tilga olsa, G.Shteyntal, A.Shleyxer, K.Fosler, A.Pott, G.Kursius, A.Potebnya, B.de Kurtene kabi taniqli va mashhur tilshunoslari o`zlarini uning shogirdi deb hisoblaganlar.

Agar F.Bopp umumiy, nazariy g`oyalardan, qarashlardan chetlashib, asosan, faktlar yig`ish, ularni qiyoslash, ular orasidagi munosabatlarni, bog`liqliklarni aniqlash bilan shug`ullangan bo`lsa, V.Gumboldt nazariy, falsafiy g`oyalari bilan, tilning ilmiy nazariyasini yaratish bilan mashg`ul bo`ldi. Aniqrog`i, V.Gumboldtning tilshunoslikdagi ahamiyatini, o`rmini I.Kant va Gegellarning jahon falsafasi taraqqiyotiga ko`rsatgan ta`siri bilan qiyoslash mumkin.

V.Gumboldtning umumiy tilshunosligini til falsafasi deb aytish mumkinki, bu falsafa eng oliy lisoniy umumlashmalarni va uzoq davrlarda ham tilshunoslik rivojiga jiddiy ta`sir ko`rsatadigan xulosalarni qamrab oladi.

V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro`-e'tiborini ko`tardi va ayni falsafaga

butunlay yangi yo`nalish berdiki, bu yo`nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zich bog`langan holda, uning asosida yuzaga keldi. Aniqrog`i, V.Gumboldtgacha bo`lgan nazariyalar bo`sh, mustahkam asosga ega bo`lmagan, shunchaki, yuzaki nazariyalar edi. V.Gumboldt esa tilning ilmiy nazariyasini, til falsafasini til hodisalariga qiyosiy-tarixiy metodni qo`llash asosida qurdi, yaratdi. Natijada uning ta`limoti, lisoniy qarashlari tilshunoslik fanining taraqqiyotiga uzoq yillar davomida samarali xizmat qildi.

V.Gumboldt 1820 yilda Berlin akademiyasida «Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy o`rganish haqida» degan mavzuda ma`ruza qiladi. Ushbu mavzudagi ma`ruza uning tilga oid dastlabki tadqiqoti bo`lib, muallif unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi g`oya-sini o`rtaga tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim ma`ruzasida qarindosh va qarindosh bo`l-magan tillarning tipologik qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdoi bo`lib chiqadi. U o`zigacha bo`lgan, Ya`ni har bir tilning o`ziga xosligini, mustaqilligini tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikani – Por Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Gumboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani - fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Gumboldt hayotining oxirgi yillarda o`zining eng muhim uch tomli «Yava orolidagi kavi tili haqida» nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafo-tidan so`ng akasi A.Gumboldt tomonidan 1836-1840 yillarda nashr qilindi.

V.Gumboldtning qayd etilgan tadqiqotlarining bevosita nazariya bilan bog`liq kirish qismi nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Ishning kirish qismi «Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma`naviy taraqqiyotiga ta`siri» deb nomlanib, turli tillarga - 1859 yilda esa rus tiliga tarjima qilinadi.

V.Gumboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida o`zining tilga bo`lgan nazariy - falsafiy qarash-larini mukammal bayon etadi.

U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmet-larni anglatish vazifasini bajaruvchi sifatida baho berdi. Ayni vaqtida olim tilning murakkab o`zaro qarama - qarshi xususiyatlardan iborat ko`p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi.

V.Gumboldt tilni mukammal o`rganishda, unga xos belgi-xu-susiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o`ziga xosli-gini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, Ya`ni o`zaro zid, qarama-qarshi qo`yish usulini qo`llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini bir-ma-bir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta`limotlarni, g`oyalarni yaratadiki, bu ta`limot va g`oyalarni nazariy tilshunoslikning taraqqiyotida yangi-yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondash hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog`liq jarayonlarning o`zaro dialektik munosabatda ekanligi ma`lum bo`ldi.

Xullas, V.Gumboldtning tilni o`rganish jarayonida belgi-lagan, qayd etgan antinomiyasi – til hodisalariga dialektik zidlik asosida yondashishi jahon tilshunosligilisoniy tafak-kur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

V.Gumboldtning til antinomiyasi (o`zaro zidligi va bir-ligi) quyidagilarda namoyon bo`ladi:

1. Ijtimoiylik (sotsiallik) va alohidalik (individuallik) antinomiyasi. Ya`ni til bir vaqtning o`zida ham ijtimoiy, sotsial, ham alohida, individual hodisa. Til bir vaqtning o`zida ham yakka, alohida shaxsga, ham ko`p shaxsga, umumga tegishli. Tilning ijtimoiyligi jamiyat bilan, shaxslar bilan - xalq mahsuli sifatida belgilansa, tilning alohidaligi bir shaxs bilan, yakka individ bilan - ayrim shaxs mahsuli sifatida belgilanadi.

Alovida shaxslar o`zlarigacha bo`lgan avlodlar, xalqlar tomo-nidan yaratilgan lisoniy mahsulotdan, «hosil»dan foydalanadi.

Demak, yuqorida aytilganlardan tildagi umumiylit va xususiylik dialektikasi, antinomiyasi namoyon bo`ladi.

2. Til va tafakkur antinomiyasi. Til tafakkursiz, tafakkur esa tilisiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alovida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o`zaro bog`liqlikda «yashaydi», insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtida ularning har biri o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati - o`zaro ajralmasligi, bog`liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama - qarshiligi g`oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiyiligi, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma'lum bo`ladi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo`lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, «tashqi» hodisaligida, tafak-kurning esa ruhiy, «ichki» hodisaligida ko`rinadi. Ya`ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o`zaro ajralmas va ayni vaqtida o`zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

3. Til va nutq antinomiyasi. Til muayyan sistemadir, «or-ganik butunlikdir». Shuningdek, u nutqiy faoliyatning alovida aktidir (harakatidir). Boshqacha aytganda, til nutqiy faoliyatning alovida aktlar (harakatlar) ko`rinishidagi voqe bo`lishidir. Til ayrim nutq aktidan farq qiladi va ayni vaqtida u nutq aktida, jonli nutqda mavjud bo`ladi, yashaydi.

Til - faoliyat, nutq - faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyon bo`lishidir. Demak, til faoliyatni til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, farqlanadi.

V.Gumboldtning til va nutq antinomiyasi, ularning farqlanishi, til va nutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo`shilgan juda katta hissa bo`ldi.

4. Nutq va tushunish antinomiyasi. Til va nutq antinomiyasiga bevosita aloqada bo`lgan ushbu dialektik bog`liqlikda, «birlikda» nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli shakllaridir, nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. Ya`ni so`zlar individ nutqidagina - nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma`noga ega bo`ladi.

Nutq tashqi, bevosita ta'sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo`lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

5. Til holati va taraqqiyoti antinomiyasi. Tilning statikligi (turg`unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiyasi. Til taraqqiyotining tugallanganligi va til taraqqiyotining to`xtovsizligi antinomiyasi. Til tugal tashkil topgan va ayni vaqtida doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi - tashkil topishiga ko`ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, «o`sishdagi», yangi - yangi birliklarning, shakllarning paydo bo`lishidagi «qaynayotgan» jarayondir.

6. Tildagi ob`ektivlik va sub`ektivlik antinomiyasi. Til ob`ektiv, ayni vaqtida sub`ektivdir.

Til o`zining haqiqiy «hayotini» insonlar orasida qo`llanishidagina topsada, ammo uning mavjudligi, «hayotiyligi» alovida shaxslarga bog`liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida ob`ektiv mavjud. Til bir vaqtning o`zida insonga ham bog`liq, ham bog`liq emas. Bir tomonidan inson tilni an'anaga ko`ra qabul qilsa, o`zlashtirsa - ob`ektiv ravishda, ikkinchi tomonidan, uning o`zi doimo tilni yaratadi, yangidan «quradi», barpo qiladi. Har gal individ nutqida til birliklari, vositalari, til «xom ashyosi» harakatga keladi, jonlanadi – sub`ektiv ravishda.

7. Fikrni ob`ektivlashtirish va fikrni rag`batlantirish antinomiyasi. Ushbu

antinomiyada til tinglovchi fikrini ob'ektivlashtiruvchi va rag`batlantiruvchi, yuzaga keltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo`ladi.

Til sub'ektda paydo bo`lgan fikrni ob'ektivlashtiradi, reallashtiradi, umumga yetkazadi – ta`sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni ob'ektivlashtirish jarayoni fikrni o`zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo ayni vaqtda har bir nutq, har bir fikrni ifodalash sub'ektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs – tinglovchi nutqni go`Yoki qaytadan o`zida yaratadi.

V.Gumboldt asarlarida tilning so`z va grammatik qoidalardan iboratligini, til birligi bo`lgan so`zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini to`g`ri qayd etadi.

U har bir xalqning tilida o`sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo`lishini ta`kidlaydi.

V.Gumboldt lisoniy ta`limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta`limot Yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir.

V.Gumboldt ta`limotiga ko`ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil topishidir. Ya`ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistema sifatida namoyon bo`lishidir. Ya`ni har bir til elementi, birligi boshqa elementga ko`ra mavjuddir, u bilan o`zaro bog`liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog`liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, xom-ashyosidir, uning tovush sistemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir.

Nutq tovushlari muayyan ma`no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo`llanadigan, ishlatiladigan shaklidir.

Tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda ob'ektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ikki formasi haqidagi ta`limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog`laydi. Ya`ni ichki forma xalq ruhining qandayligini ko`rsatadi hamda so`z orqali ifodalanadigan ma`nodir.

V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir.

V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta`limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g`oya bilan bog`laydi. Ya`ni u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning konkret tarixiy taraqqiyotiga bog`liq shart - sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o`zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog`liq holda tushuntirmaydi. Balki tilning ichki formasini, tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo`lmagan, yetarli darajada aniqlanmagan, o`rganilmagan ruhiy ibtidoning namoyon bo`lishi bilan tushuntiradi. Aniqrog`i, V.Gumboldt nemis faylasufi I.Kant kabi ongi, ruhni alohida mavjud bo`lgan ibtido deb, biladi va uni ob'ektiv mavjud bo`lgan moddiy tabiatga bog`liq bo`lmagan hodisa deb, izohlaydi. Shu ta`limotdan kelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat deb, ta`riflaydi va til ruhga xos bo`lgan qonunlar asosida rivojlanadi, deb biladi. Uning fikricha, tilda xalqning ma`naviy qiyofasini aks ettiradigan ma'lum bir dunyoqarash ifodalanadi. Boshqa tilni o`rganish bilan go`yo dunyoqarash ham o`zgaradi. Shu fikr asosida V.Gumboldt tilning «ichki formasi» haqidagi ta`limotini yaratadi. «Ichki forma», uning fikricha, bir tomonidan, xalqning ruhi qandayligini ko`rsatsa, ikkinchi tomonidan, so`z yasalishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan ma`nodir.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb, so`zning nutqda qo`llangandagi qiyofasini so`zning grammatik formasi deb, ta`riflaydi. Uning bu fikrlari hamda «ichki forma» haqidagi ta`limoti, ayni ta`limotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar

umum tilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir.

Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning ko`pgina lingvistik g`oyalari XIX va XX asr tilshunosligening rivojiga jiddiy ta`sir qildi.

Xullas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy -tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot usuli bo`lgan qiyosiy-tarixiy metodga asos solgan bo`lsalar, V.Gumboldt umumiylazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

Naturalizm. Psixologizm. F.de Sossyur ta`limoti.

Reja:

1. Naturalizm oqimi.
2. Psixologizm oqimi.
3. F.de Sossyur ta`limoti haqida.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Til jonli organizm, biologik hodisa sifatida; ichki va tashqi lingvistika haqida, tilning analitik va sintetik qurilishi. “Umumiylazariy tilshunoslik kursi” asari, til sistem xarakterdagi ijtimoiy hodisadir; til g`oya tashuvchi belgilar sistemasidir; tilning sinxron va diaxron aspektlari; til - ijtimoiy, nutq individual hodisa ekanligi; til birliklari orasidagi paradigmatic va sintagmatik munosabatlar.

Tilshunoslik taraqqiyotidagi birinchi davning ikkinchi bosqichi Avgust Shleyxer va Geyman Shteyental nomlari va ularning ta`limotlari bilan bog`lanib, ayni bosqich XIX asrning taxminan 50-60 yillarini o`z ichiga oladi.

Umumiylazariy tilshunoslikning – til falsafasining asoschisi bo`lgan V. Gumboldt tomonidan tilning sistema sifatida talqin qilinishi, tilning organizm, organik bir butunlik sifatida berilishi A. Shleyxer, F. de Sossyur, Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta`limotlariga ta`sir qildi, ularning lisoniy g`oyalarda kuzatildi.

XIX asrning o`rtalarida Yevropa tilshunoslida naturalizm oqimi paydo bo`ldi. Ushbu oqimning mashhur vakili nemis olimi Avgust Shleyxer (1821-1863) edi.

A.Shleyxer tilshunoslikdan tashqari botanika va falsafa kabi fanlarni ham o`rgandi. U dastlab Bonn, so`ngra Praga, Iyen universitetlarining dotsenti va professori sifatida ma`ruzalar o`qidi, 1858 yilda Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a`zosi bo`ldi.

A.Shleyxer hind-Evropa tillarining umumiylazariy masalalari bilan shug`ullandi, Litva tilini o`rganib, jonli nutq bo`yicha tadqiqotlar olib bordi, xalq og`zaki ijodiga oid materiallar to`pladi. U, shuningdek, qiyosiy – tarixiy va tipologik yo`nalishda german, slavyan, boltiq tillari bilan ham shug`ullandi. A.Shleyxer tillarni qiyosiy o`rganishda tovushlarning qonuniy o`zgarishlariga e'tibor berishni talab qildi. U fonetikani fonologiya deb atadi va so`zda tovush, shakl hamda funksiyani farqladi.

Olim ayni vaqtida umumnazariy fikrlarni ham ilgari suradiki, bu fikrlar tilshunoslardan tomonidan e'tibor bilan qabul qilindi. Ushbu fikrlar tovush qonuni, analogiya, tilning sistem xarakterga egaligi, so`zning shakli va vazifasi haqidagi g`oyalari bilan bog`lanadi. A.Shleyxerning mazkur nazariy qarashlari «Nemis tili» (1860) asarida bayon qilinadi.

A.Shleyxer hind - yevropa tillarining bitta bobotildan kelib chiqqanligi g`oyasini ilgari surdi. U hind – yevropa tillarining taraqqiyotini «shajara daraxti» jadvali orqali tushuntirdi. Ya`ni , uning fikricha, qachonlardir hind – yevropa bobotili mavjud bo`lgan, uning tarqalib ketishidan hozirgi hind – yevropa tillari kelib chiqqandir.

A.Shleyxerning eng mashhur asari «Hind – german tillari qiyosiy grammatikasining kompendiumi»dir (1861). Bu asar o`tgan yarim asr davomida hind – yevropa tillarini qiyosiy o`rganishning yakuni sifatida maydonga keldi va 15 yil ichida to`rt marta nashr qilindi.

Kompendium (kompendium-lot. qisqartirish degani. U yoki bu fanga oid muhim, asosiy qoidalarni, tushunchalarni ixcham, lo`nda bayon etish)

da A.Shleyxer hind – yevropa tilini (bobo tilni) qayta tiklab, uning har bir shoxobchasi qanday rivojlanishini ko`rsatmoqchi bo`ldi.

Umumiy tilshunoslikda A.Shleyxer dastavval naturalistik oqimning yo`lboshchisi, tashkilotchisi sifatida tan olinadi. Uning naturalistik falsafasi «Darvin nazariyasi va til haqidagi fan» (1863) hamda «Insonning tabiiy tarixi uchun tilning ahamiyati haqida» (1865) kabi asarlarida o`z ifodasini topgan.

A.Shleyxer naturalizmining - naturalistik falsafasining mohiyati uning tilni jonli, tabiiy organizm sifatida tushunishida ko`rinadi. U tilni jonli organizmlar kategoriyasiga kiritadi. Aniqrog`i, A.Shleyxer tilning hayoti boshqa barcha jonli organizmlar - o`simliklar, hayvonlar hayotidan jiddiy farq qilmaydi. Tillar ham ular kabi o`sib rivojlanadigan yetuk davrga, so`ngra esa o`sishning eng yuqori darajasiga yetgan nuqtasidan borgan sari uzoqlashib, qariydigan davriga ega bo`ladi, deydi.

A.Shleyxerning tilga naturalistik qarashi – biologizmi, ayniqsa, Ch.Darvinnинг «Turlarning paydo bo`lishi va tabiiy tanlash» (1859) nomli eng muhim asarining e`lon qilinishi bilan yana ham kuchaydi. «Tillar, -deydi Shleyxer, - insonning xohishidan tashqari paydo bo`lgan, o`sgan va ma'lum qonunlar asosida rivojlanadigan tabiiy organizmdir. Ular o`z navbatida qariyi va o`ladi». «Tillar tovush materiyasidan tashkil topgan tabiiy organizmlardir... tillarning o`sishi ma'lum qonuniyatlar asosida yuz beradi».

Takidlash lozimki, tilga nisbatan «jonli organizm» birikmasining qo`llanishi aslida Shleyxergacha ham mavjud bo`lgan. Masalan, XVIII asr mutaffakirlari, ayniqsa, V.Gumboldt tilni to`xtovsiz o`zgarib boruvchi sistema sifatida Yoki jonli organizm sifatida tushuntiradi. Ammo olim bu o`rinda tilga nisbatan organizm tushunchasini biologik ma'noda emas, balki falsafiy ma'noda qo`llaydi. Ya`ni til o`lik mexanizm, alohida til belgilarining mexanik birlashuvi emas, balki doimo rivojlanadigan, o`zaro bog`liqlikda bo`lgan sistemadir.

A.Shleyxer organizm terminini tilga bog`liq holda to`g`ri ma'noda – biologik ma'noda talqin qiladi va shu o`rinda xatoga yo`l qo`yadi. U tilning ijtimoiy ahamiyatiga yetarli e'tibor bermaydi. Haqiqatda esa prof. S.Usmonov aytganidek, «Tillar tug`ilmaydi, balki urug` tilidan qabila tiliga, qabila tilidan elat (xalq) tiliga, undan esa millat tiliga tomon taraqqiy eta boradi. Bu tarixiy jarayonda ayrim urug`, qabila va elat tillari boshqa tillarga aralashib, singib ketishi ham mumkin. Bunday tillarni o`lik tillar deb atashadi. Ammo o`lik til organizm kabi butunlay o`lmaydi, uning elementlari boshqa tilda ma'lum darajada saqlanib qoladi». Boshqacha aytganda, tillar ham paydo bo`ladi, taraqqiy qiladi va ba`zan «o`ladi». Ammo bu «o`lim» biologik emas, balki ijtimoiy – tarixiy xarakterga ega. Til «o`ladi», qachonki shu tilda so`zlashuvchi jamiyat, xalq yo`q bo`lib ketsa.

O`z davrida qator tilshunos olimlar: Madvig (1842), Maks Myuller (1861), Potebnya (1862), Boduen de Kurtene (1871) tilni jonli organizm deb atalishiga, tilni biologik ma'nodagi organizm bilan tenglashtirilishiga qat`iy qarshi chiqadilar va shunday fikrlarni qat`iy tanqid ostiga oladilar. Jumladan, «Til organizm emas» (Boduen), «Tilni organizm deb atash, demak, u haqda hech narsa demaslikdir» (Potebnya). «Organizm mustaqil yashaydi, so`z (til – R.R.) esa faqat inson bilan bog`liq holda uning nutq a'zosi orqali yashaydi»

(Potebnya) va boshqalar.

Demak, til – tabiiy organizm emas, balki u ijtimoiy hodisa. Tillar shu tillardan foydalanuvchi jamiyat bilan, xalq bilan birga paydo bo`ladi va taraqqiy qiladi. Til yo`q bo`lishi, «o`lishi», aloqa quroli sifatida qo`llanmasligi mumkin, agar shu tilning egasi bo`lgan jamiyat, xalq yo`q bo`lsa Yoki boshqa tilga o`tsa, boshqa tilni aloqa quroli sifatida qabul qilsa. Binobarin, u - til aloqa quroli sifatida o`z vazifasidan butunlay «ozod bo`ladi».

A.Shleyxer ta`limotida naturalizmdan tashqari yana tilning «hayoti» va taraqqiyotidagi ikki davr haqidagi muvaffaqiyatsiz, asossiz farazlar, g`oyalar ham bo`lgan. Ya`ni A.Shleyxer til hayotida ikki davrni ajratadi; 1) taraqqiyot davri (tarixgacha bo`lgan davr) va 2) inqiroz davri (tarixiy davr). Aniqrog`i, u tilning «hayotini», taraqqiyotini 1) tillarning rivojlanish davri va 2) tillarning inqiroz davri kabi ikki asosiy davrga bo`ladi.

Tillar taraqqiyotiga, ularning «hayotiga» bunday qarash aslida naturalizm ta`limotidan kelib chiqadi. Qolaversa, u V.Gumboldt kabi tillarning taraqqiyotini inson ruhi, psixikasi bilan bog`laydi: «Tarix va til... - bu inson ruhining birdan-bir almashtirib turadigan faoliyatidir», deydi.

Xullas, A.Shleyxerning tilning ikki davri haqidagi ta`limoti, Ya`ni tilning taraqqiyoti uning inqirozi, tanazzulidir, degan g`oyasi qator tilshunoslar tomonidan tanqid ostiga olindi.

A.Shleyxer, uning ayrim xato g`oyalariga qaramasdan, o`z davrining buyuk tilshunosi edi. Uning umumiy va qiyosiy – tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi, tilshunoslik tarixidagi xizmatlari nihoyatda kattadir.

A.Shleyxerning lisoniy ta`limoti, asosan, haqqoniy, materialistik edi. U o`zining «fiyosiy – lisoniy tadqiqotlar» va «Nemis tili» asarlarida til va tafakkurni dialektik munosabatda olib, tilni «talaffuz qilingan tovushlar orqali fikr ifodalash» deb ta`riflaydi. «Til bu fikrning tovush orqali ifodalanishidir», deydi. Ayni fikrlardan til va tafakkurning o`zaro bog`liqligi, «bir butunligi», ajralmas munosabatda ekanligi, Shuningdek, tovushning moddiy hodisa sifatida til va nutqning materiali, moddiy asosi, moddiy «quvvati» ekanligi kabi fikrlar, xulosalar kelib chiqadiki, bu o`z davri uchun yukasak, ilg`or g`oyalar edi.

A.Shleyxerning o`z ta`limotida tilni jonli organizmga tenglashtirishi aslida tilni o`z tuzilishiga (strukturasiga) ega bo`lgan ob`ekt - sistema sifatida tushunishga, shunday fikrning qaror topishiga imkon beradi, tilni sistema va struktura deb tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, hind – yevropa tillarining shajara daraxti sxemasining yaratilishi hamda tillarning morfologik tasnifining ishlab chiqilishi ham Shleyxer nomi bilan, uning lisoniy ta`limoti bilan bog`lanadi.

Xullas, A.Shleyxer ta`limotida, aytilganidek, xato g`oyalarning, qarashlarning mavjudligiga qaramay u va uning izdoshlari – naturalizm yo`nalishi, naturalizm maktabi tilga tabiiy – materialistik qarashni, g`oyani olib kirdi va tilshunoslikda til o`z tuzilishiga (strukturasiga) ega bo`lgan qismlardan iborat bir butun ob`ektdir – sistemadir, degan g`oyaning qat`iy qaror topishiga, tasdiqlanishiga xizmat qildi.

Psixologizm. Falsafiy tilshunoslikning asoschisi bo`lgan Vilgelm Gumboldt tomonidan tilning alohida shaxslarning ruhiy hayoti va tafakkuriga munosabati jihatidan o`rganilishi Geyman Shteyntal, Potebnya, Boduen de Kurtene kabi tilshunoslarning ta`limotlarida – umuman tilshunoslikdagi psixologik yo`nalishda davom ettiriladi. Tilshunoslikdagi psixologik oqimning – psixologizmning eng yirik vakili, asoschisi nemis nazariyotchi tilshunos olimi Berlin universiteti professori G.Shteyntaldir (1823 - 1899). U umumiy tilshunoslik sohasida o`zini Gumboldtning shogirdi, uning g`oyalarini davom ettiruvchi deb hisoblaydi. Psixologizm sohasida esa u Logann Gerbert (1776 - 1841) ta`limotining – assotsiativ psixologiyaning davomchisi edi. Ayni ta`limotga ko`ra narsa - hodisalar inson psixikasida o`zaro bog`liq holda bir – birlarini eslatadilar, esga tushiradilar.

Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi naturalizmni qattiq tanqid ostida oldi. Psixologizm naturalizmdan farqli unga zid holda tilni xudoning Yoki odam ruhining aksi, ko`rinishi, ifodasi deb talqin qildi. SHunga ko`ra til sof psixik, ruhiy hodisa sifatida bayon qilindi. Psixologistlar tilning taraqqiyotini alohida shaxslarning tafakkuridagi, ruhiyatidagi taraqqiyot bilan bog`liq deb hisobladilar.

Demak, tildagi hodisalarning asosida ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy taraqqiyot – jamiyat taraqqiyoti emas, balki individual faoliyat, individual taraqqiyot, inson psixikasi, uning fikriy faoliyati yotadi, ular hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Ana shunday g`oyalar, qarashlar bilan qurollangan psixologizm vakillari, jumladan, G.Shteyntal ta`limotidagi eng muhim g`oya nutqning individual akti insonning faoliyatidan, ijtimoiy jarayondan ajralganligidir.

G.Shteyntalning lisoniy qarashlari, ta`limoti uning quyidagi qator ishlarida bayon qilinadi. Bular «Tillarning tasnifi til g`oyasining taraqqiyoti sifatida» (1850), «Tilning paydo bo`lishi» (1851), «Grammatika, mantiq va psixologiya» (1855), «Til qurilishining eng muhim tiplari xarakteristikasi» (1860), «Psixologiya va tilshunoslikka kirish» (1871), «Gumboldtning tilshunoslikka oid asarlari va Gegel falsafasi» (1848), «Falsafa, tarix, psixologiya va ularning o`zaro munosabati» (1863) va boshqalar.

Tilshunoslikdagi psixologik oqim vakillari tilni individual psixika faoliyatining maxsus mexanizmi, alohida inson ongidagi tasavvurlarning mexanizmi sifatida Yoki xalq psixologiyasining spetsifik namoyon bo`lishi sifatida talqin qilishlarini talab qiladilar.

Ushbu g`oyaning dastlabkisi individual psixologizm bilan bog`lanib, bunda alohida individ va uning psixikasi asos bo`lib hisoblanadi. Ushbu g`oyaning keyingisi esa ijtimoiy psixologizm bilan bog`lanadi. Ijtimoiy psixologizmning diqqat markazida xalq, jamiyat, millat turadi.

Xullas, tilshunoslikdagi psixologik yo`nalish naturalistik yo`nalish ta`limotiga qarshilik ko`rsatuvchi oqim sifatida, qiyosiy – tarixiy tilshunoslikning psixologik yo`nalishi sifatida yuzaga keldi va tilshunoslikdagi lisoniy biologizmni chetlashtirdi.

G.Shteyntal individual psixologizm vakili sifatida maydonga keldi.

G.Shteyntal lingvistik ta`limotining psixologik asosi bo`lib, I.Gerbertning assotsiativ psixologiyasi hisoblanadi. Assotsiativ psixologiya inson ongingin barcha faoliyatini tasavvurlar munosabatiga, psixik assotsatsiyalar, aloqalar mexanizmiga bog`laydi, so`zni esa tasavvurlar kompleksi bilan, assotsatsiyalar bilan bog`liq deb hisoblaydi.

Insonning psixik faoliyati fikrlash jarayoni sifatida tasavvurlar assotsatsiyasidir, aloqasidir, bog`lanishidir.

Psixologizm tilni faqat tafakkur quroli va fikrni ifodalash vositasi sifatida belgilaydi.

Til psixologik konsepsiyanining jiddiy xatosi tasavvurlar rolining oshirib yuborilishi, tushunchalar rolining esa pasaytirilishi, kamaytirilishidir. Psixologizm tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi o`ziga xosligini inkor qiladi.

Tilshunoslikda XX asr boshlarigacha faollik ko`rsatgan qator lisoniy oqimlarga: yosh grammaticachilar talimotiga, naturalizm va psixologizm kabi yo`nalishlarga, ularning qarashlari hamda g`oyalariga zid bo`lgan yangi talimot, mukammal bir g`oya maydonga keldi. Bu yo`nalishga tilshunoslikdagi sotsiologik talimot - sotsiologik maktab nomi berildi. Ayni talimot tilning ijtimoiy hodisa ekanligini takidlab, uning ijtimoiy vazifasini aloqa vositasi sifatida qat`iy belgiladi.

Eslatamiz, sotsiologik lingvistika o`z - o`zidan, bevosita paydo bo`lgani yo`q. U qadim davrdan boshlab, tilga - til va ja-miyat masalalariga bo`lgan turlicha qarashlarning, yondashishlar-ning ijobiy natijasi, ob`ektiv mahsuli sifatida qaror topdi .

Tilshunoslikdagi sotsiologik talimotning asoschilar F. de Sossyur va Antuan Meyelardir. Mana shu olimlar qayd etilgan yangi yo`nalishga «sotsiologik lingvistika» nomini berdilar.

Ferdinand de Sossyur

Ferdinand de Sossyur (1857-1953) buyuk tilshunos, orginal nazariyotchi, til haqidagi fan taraqqiyotiga juda katta va chuqur ta'sir ko`rsatgan donishmand olim. SHuning uchun ham F. de Sossyurni tilshunoslik olamida mashhur Frans Bopp, Vil-gelm fon Gumboldt, Avgust Shleyxer, Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorga qo`yishadi.

F. de Sossyur SHveysariyada (Jenevada) tug'ilgan, millati fransuz – shveysariyalik fransuz. U Jeneva, Leypsig va Ber-linda talim oldi.

F. de Sossyurning 20 (bazi manbalarda 21) yoshida elon qilgan mashhur asari hind – Ovrupo tillarini – ulardagi un-lilar sistemasini o`rganishga bag`ishlangan bo`lib, ushbu tillar vokalizmini o`rganishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu asar «Hind - yevropa tillaridagi dastlabki unlilar sistemasining tadqiqi» deb nomlanib, 1879 yilda nashr qilindi. Ushbu asar hind - Ovrupo tillarini o`rganishga, qiyosiy – tarixiy metod taraqqiyotiga jiddiy ta'sir qildi.

F.de Sossyur ilmiy - tadqiqot ishlari bo`yicha 1880 yilda Leypsigda doktorlik disertatsiyasini himoya qildi. U 1881 yilda Parijga kelib, german tillari, hind - Ovrupo tillarining qiyosiy grammatikasi bo`yicha ma'ruzalar o`qidi. 1891 yildan boshlab, u Jenevada professor lavozimida ilmiy - amaliy, pedagogik faoliyatini davom ettirdi.

1906 yildan boshlab, F. de Sossyur umumiy tilshunoslik kafedrasiga rahbarlik qildi. 1906 - 1911 yillarda uch marta umumiy tilshunoslik kursi bo`yicha ma'ruzalar o`qidi.

F. de Sossyur vafotidan keyin 1916 yilda uning shogird-lari SHarl Balli va Albert Seshelar o`zları yozgan qo`lyozmalar asosida ustozlarining ma'ruzalarini to`plib, tartibga solib, kitob holida nashr qildilar. SHunday qilib, F. de Sossyurni dunyoga tanitgan, uni buyuk tilshunoslar qatoriga qo`yan, hozirgi zamon tilshunosligining taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan «Umumiy tilshunoslik kursi» fundamental asari maydonga keldi. Ayni asar 1931 yilda nemis tilida, 1933 yilda esa rus tilida e`lon qilindi

F. de Sossyur lisoniy talimotining muhim jihatlari quyidagilar:

1. Tilshunoslik fanining birdan - bir haqiqiy ob'ekti tildir. Demak, tilni psixologiya, mantiq, fiziologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan emas, balki bevosita tilshunoslik fani asosida tekshirish lozim.

2. Til sistemadir. Til sistem tuzilishiga ega bo`lgan, sistem xarakterdagи ijtimoiy hodisadir. Demak, til hodisa-lari, til faktlari o`zaro dialektik bog`liq bo`lib, bir – birini talab etadigan, taqozo qiladigan belgilardir. Anig`i til belgilari til sistemasining elementlari, birlilikleri sifa-tida bir-birini belgilaydi. Ular o`zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga, aloqaga kirishib, bir butunlikni – til sistema-sini hosil qiladi.

3. Til g`oya (fikr, ma`no) tashuvchi belgilari sistemasidir. Til belgisi (birligi, elementi) ikki tomoniga: a) ifoda tomo-niga (ifodalovchiga) b) mazmun tomoniga (ifodalanuvchiga) ega-dir. Til belgilari shartli, ixtiyoriydir. Demak, til belgilari (birliklari) moddiy (material) va ruhiy (psixik,ideal) tomonlarning, tovush va manoning birligidan iborat bo`lib, biri ikkinchisisiz bo`lmaydi, ular o`zaro dialektik bog`liq holda, nisbiy bir butun holda ijtimoiy vazifa bajaradi, jamiyatga xizmat qiladi, fikr almashuvni – kommunikativ jarayonni taminlaydi.

4. F. de Sossyur tilshunoslikni ikkiga: ichki lingvistika va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni o`zaro bir - biriga qarama - qarshi qo`yadi. U ichki lingvistikaga tilning sistem xarakterga egaligini, tilning tuzilishini (strukturasini) kiritadi. Tashqi lingvistikani esa tilning rivojlanish jarayonidagi, taraqqiyotidagi real shart - sharoitni: jamiyat bilan, jamiyat tarixi,

madaniyati, tarixiy voqealar, tilning jo`g`rofiy joylashishi, jamiyatning siyosiy qarashlari, manaviy olami kabilalar bilan bog`liq holda oladi.

Demak, ichki tilshunoslik tilning sistem tabiatini, uning tuzilishini tekshirsa, tashqi tilshunoslik tilni jamiyat taraqqiyoti bilan bog`liq holda tekshiradi. Negaki jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini ko`rsatadi. SHunga ko`ra til va jamiyat munosabatini tekshirish tilshunoslik fanining – umumiy tilshunoslikning doimiy dolzARB muammosi bo`lib hisoblanadi.

5. F. de Sossyur tilda ikki aspektni: sinxroniya va diaxro-niyani farqladi. Sinxroniya, sinxronik aspekt tilning hozir-gi, real mavjud holati bo`lsa, diaxroniya, diaxronik aspekt tilning tarixiyligi, tarixiy rivojlanish holatidir. Demak, tilning muayyan vazifa bajarishdagi real holati bilan tari-xiy rivojlanishdagi holati, «qiyofasi» - har biri o`z kuchini, quvvatini saqlaydi, ularning aralashib ketishiga yo`l qo`yil-maydi. Boshqacha aytganda, sinxroniya - til mavjudligining, ta-raqqiyotining hozirgi vaqt, tilning aloqa vositasi sifa-tidagi xizmat qilish davri bo`lsa, diaxroniya – tilning, til faktlarining zamon (vaqt) nuqtai nazaridan ketma – ketligi, Ya`ni tarixiy bosqichma - bosqichligi, etapliligidir.

Prof. Ya. V. Loya fikricha «til sistemasi va strukturasini o`rganishda sinxronik aspekteining ahamiyati kattadir. Tilshu-noslik fanining eng dastlabki, bosh vazifasi sistem tabiatga ega bo`lgan til hodisalarini zamonaviy, shu kundagi, holatini tekshirish, o`rganishdir. Tilning shu kundagi, hozirgi sistemasi bilan tanishish uning tarixini va boshqa tillar bilan qiyosini o`rganishdan avval bo`lishi kerak». Biz ham shu fikrdamiz.

6. F.de Sossyur jamiyatning fikrni ifoda qilish sistemasini til va nutqqa ajratadi.

Til so`zlarning jami va nutqni qurish, tuzish qoidalaridir. Nutq esa til sistemasining so`zlashuvda Yoki matnda (yozuvda) aniq berilishi, qo`llanishidir.

F.de Sossyurning fikricha, til nutqdan quyidagi beshta belgisiga ko`ra farqlanadi: 1. Til – ijtimoiy, nutq- individual. 2. Til – sistem, nutq – asistem. 3. Til – potensial (imkoniyat, yashirin), nutq - real (voqelik, namoyon bo`lish).

4. Til - sinxron (zamonaviy, hozirgi), nutq – diaxron (tarixiy, o`tgan). 5. Til – mohiyat, nutq – hodisa.

Tilning sistemaliligi aksioma. Nutqchi?

Fikrimizcha, nutq ham sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo`lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. Shuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ishtirok etuvchi birliklar (lisoniy faktlar) o`zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunlikni- sistemanı, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutqdagi – fikr ifodalash jarayonidagi so`z ham, so`z birikmasi ham, gap ham - matn ham o`ziga hos mikro va makrosistemalardir.

7. F. de Sossyur til (nutq) birliklari orasidagi muno-sabatni, o`zaro bog`lanishni paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga ajratadi.

Paradigmatik munosabatda til birliklari bir paradigmaga joylashadi. Masalan, ular bir paradigmaga - so`z o`zgarishi, so`z tuslanishi paradigmasisiga (qatoriga) birlashib, asosiga-umumiy manosiga ko`ra bir xil, qo`shimchasiga – xususiy manosiga ko`ra farqli bo`ladi. SHunga ko`ra til birliklari o`zaro muayyan sistem munosabatga kirishadi. Qiyoslang: olam, olamni, olamning, olamda, olamga, olamdan...

Paradigmatik munosabat til birliklarining nutqqacha bo`lgan munosabati, imkoniyat sifatidagi til hodisasi.

Sintagmatik munosabatda esa til birliklari, masalan, so`zlarning biri ikkinchisi bilan

semantik - sintaktik munosabatga kirishib, so`z birikmasini Yoki gapni hosil qiladi. Qiyoslang: istiqlol bayrami, manaviyat yulduzları, milliy g`urur, biz terrorizmni qoralaymiz. Bunda til birliklari ketma - ket kelishi, gorizontal chiziqqa joylashishi bilan ajralib turadi.

Sintagmatik munosabat til birliklarining nutqdagi-nutq faoliyatidagi - fikr almashish jarayonidagi o`zaro mantiqiy, zaruriy munosabatidir, fikr ifodalash uchun xizmat qilishi-dir. Ushbu munosabat nutq hodisasi sifatida belgilanadi, nutq bilan o`lchanadi va boshqalar.

Xullas, XX asr tilshunoslik fanidagi keskin burilishga, ushbu fanning yuksak darajada, keng miqyosda rivojlanishiga muhim sabab tilning sistemaliligi g`oyasi hamda til va nutqni farqlash, til va nutq dialektikasi bo`ldi. Albatta, bu o`rinda

F. de Sossyurning talimoti, xizmatlari beqiyosdir.

Takidlash shart. F. de Sossyurning qarashlari, g`oyalari tilshunoslik fanida nafaqat sotsiologik lingvistikaning – sotsiologizmning, balki struktural lingvistikaning – strukturalizmning ham yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo`ldi. Anig`i F.de Sossyur o`zining mashhur «Umumiyl til-shunoslik kursi» asarida (1916) strukturalizmning eng asosiy, bosh g`oyalarini takidlab o`tdi. Bular: 1.Til spetsifikasi (o`ziga xosligi). YAni tilshunoslikning mutlaq tekshirish ob`ekti tildir. 2. Til sistemasi. YAni til o`ziga xos tuzilishga, «qiyofaga» ega bo`lgan sistemadir. 3. Til formasi. YAni til mohiyat emas, balki formadir. Til u Yoki bu mazmunni, fikrni ifodalash vositasidir. 4. Til munosabati. YAni, tilning har bir holatida, ko`rinishida, qo`llanishida barcha jarayonlar til birliklarining o`zaro munosabatiga, mantiqiy bog`lanishga asoslanadi, shu munosabatga quriladi.

Xullas, F.de Sossyur talimotidagi ushbu muhim g`oyalar, aytilganidek, strukturalizmning keng miqyosda alohida bir yo`nalish, maktab sifatida maydonga kelishiga xizmat qildi.

7-ma'ruza

Tilshunoslikning nazariy masalalari. “Lingvistika” termini. Lingvistika turlari. Tilning ta’riflari

Reja:

1. Atomistik va struktural lingvistika.
2. Ichki va tashqi lingvistika
3. Makro- va mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika tushunchalari, ularning mohiyati.
4. Tilning ta’riflari haqida

Asosiy tayanch tushunchalar:

Dinamik lingvistika, ctatik lingvistika, atomistik lingvistika, struktural lingvistika, cinxronik lingvistika, diaxronik lingvistika, intralingvistika, ekstraliningvistika, makrolingvistika, mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, matematik lingvistika, neyrolingvistika

Jahon tilshunosligi tarixi bir ummonki, undan imkoniyatga, talab va maqsadga ko`ra xabardor bo`lish, shu yo`nalishda bilimga ega bo`lish, undan foydalanish va tadqiqotlarda ushbu «ummonga» asoslanish har bir jiddiy tadqiqotchi uchun, tilshunos uchun sharafdir. CHunki tilshunoslik fanining kelajagi aslida til-shunoslik tarixidan, lisoniy bitmas - tiganmas xazinadan boshlanadi. SHuningdek, tilshunoslikning ilmiy-nazariy muammolarining assosi, poydevori ham man-tiqan tilshunoslik tarixidadir. Ayni tarixni mukam-mal bilmasdan, uni tasavvur qilmasdan,

uni ang-lamasdan turib, tilshunoslikning nazariy - falsafiy masalalari haqida fikr yuritish maqsadga mutlaqo muvofiq emasdir, diletantlikdir.

Aytilganlarga ko`ra, biz umumiy tilshunoslik soha-sidagi dastlabki qadamni tilshunoslik tarixidan, li-soniy o`tmishdan boshladik.

Lingvistika termini qator yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo`llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so`zning o`zagi lingua bo`lib, til degan ma`noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o`zbek tilidagi muqobili, ma`nodoshi tilshunoslik bo`lib, ular o`zaro sinonimik munosabat kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o`ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo`lgan aloqa qurolini — tilni sistema sifatida — bir butun ob`ekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko`ri-nishlarda, shakllarda namoyon bo`ladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o`rganish, tekshirish lozimligidan va bu il-miylik nuqtai nazaridan mutlaqo to`g`ri ekanlididan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma`naviyat belgisi, millat boyligi bo`lgan tilni o`rganish jarayonida quyi-dagi ko`rinishlarda namoyon bo`ladi:

1. Dinamik lingvistika.
2. Statik lingvistika.
3. Atomistik lingvistika.
4. Struktural lingvistika.
5. Sinxronik lingvistika.
6. Diaxronik lingvistika.
7. Intralingvistika.
8. Ekstralinguistika.
9. Makrolinguistika.
10. Mikrolinguistika.
11. Paralingvistika
12. Psixolinguistika.
13. Sotsiolinguistika.
14. Etnolinguistika.
15. Matematik lingvistika.
16. Neyrolinguistika va boshqalar.

1. Dinamik lingvistika. Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, turlicha vazifalarni faol bajarishda, «taraqqiyotda», o`zgarishda tadqiq qi-ladi.

2. Statik lingvistika. Statik lingvkstika til taraqqiyotidagi to`liq sinxronlashgan muayyan bir davr-ni (bo`lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunos-likning ushu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o`zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi — zamonaviy davri bilan bog`liq ma`lum bir «qotgan» qismini - holatini tekshiradi.

3. Atomistik lingvistika. Atomistik lingvistika diqqat-e'tiborini har bir individual til birlik-larining taraqqiyotini, o`sishini alohida o`rganishga qaratadi.

4. Struktural lingvistika. Struktural lingvistika til sistemasidagi ichki munosabat va aloqalarni tad-qiq qiladi.

U til sistemasining struktural qatlamlari (fone-tik, leksik, morfologik, sintaktik sathlari) orasi-dagi o`zaro tabiiy, zaruriy bog`liqliklarni, munosabat-larni o`rganadi.

5. Sinxronik lingvistika. Sinxronik lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog`liq bo`lib, tilning ma`lum bir davrdagi «qotgan», «turg'un» holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

6. Diaxronik lingvistika. Diaxronik lingvistik dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog`lsh bo`lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa ri vojlanish qonuniyatlarini hamda natijalarini o`rganadi.

7. Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki ling vistika til birliklarining sistem aloqasini, muno-sabatini ekstralinguistik faktorlarga bog`liq bo`lma-gan holda o`rganadi. Ichki

lingvistikaning tadqiqo[^] manbai bo`lib fonologiya, leksikologiya va grammatikg hisoblanadi.

8. Ekstraliningvistika (tashqi lingvistika). Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijti-moiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo`g`rofiy kabi faktorlar bilan bog`liq holda o`rganadi. SHunga ko`ra ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifa-tida tekshiradi.

9. Makrolingvistika. Makrolingvistika tilni keng doirada, «katta hajmda» olib, uni statistik usullar asosida tadqiq qiladi. Aniqrog`i, ushbu soha tilni statistik usullar, statistik usullar orqali tahlil qiladi.

10. Mikrolingvistika. Mikrolingvistika til sistemasi tarkibidagi (strukturasidagi) aloqalar, o`zaro munosabatlar va qarama-qarshiliklarni o`rganadi.

11. Paralingvistika. Paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog`liq bo`lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtida yuzaga keluvchi, so`zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo`lgan qo`l va yuz harakatlarini (imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo`yoq kabi qator jihat-larni o`rganuvchi sohadir.

12. Psixolingvistika. Psixolingvistika psixolo-giya YOa lingvistika fanlarining umumlashmasi (sin-tezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtai naza-ridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo`naltirilganligi, shungamuvofikdigi jihatidan o`rganadi. U nutqsagi — fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e`tibor beradi.

Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o`xhashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta`sirchanlik, so`zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alo-hida e`tibor beradi.

13. Sotsiolingvistika. Sotsiolingvistika sotsiolo-giya va lingvistika fanlarining zaruriy va mantiqiy bog`liqligidan hosil bo`lib, jamiyat va til (til va jamiyat) munosabati masalasi bilan shug`ultanadi. U tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. SHunga ko`ra sotsiolingvistikaning eng muhim, asosiy muammosi tilni-til tabiatini ijtimoiy hodisa sifatida tekshirish, uning jamiyatdagi, tilshunoslik fanidagi o`rni va ahamiyatini belgilashdir.

Sotsiolingvistika, asosan, til va ijtimoiy muno-sabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o`rtasidagi bog`liqlikni, ushbu bog`likdikning sabablarini o`rganadi. Anig`i mazkur soha jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya`ni tashqi-ekstraliningvistik faktorlarning (omillarning) ta`siri natijasida hosil bo`lgan hodisalarni, jarayonlarni, o`zgarishlarni tahlil qilib boradi. De-mak, sotsiolingvistika ijtimoiy faktorlarning tilga qanday ta`sir qilishi, til sistemasida (strukturasida) qanday namoyon bo`lishi, qanday shaklda aks etishi kabilarni tadqiq qiladi.

Eslatamiz, sotsiolingvistika statistik ma'lumot-lar, aholi ro`yxati va anketa ma'lumotlari usulikasi bilan o`z faoliyatini kengaytirib boradi.

14. Etnolingvistika. Etnolingvistika etnografiya va lingvistika fanlarining o`zaro munosabatidan shakllanib, etnik belgi bo`lgan tilga xalq tarixiy taraqqiyotining, rivojlanishining, xalq turmush, urf-odatlarining, moddiy va ma`naviy madaniyatining ta`sirini, ularning tilda voqe bo`lishini o`rganadi. Etnolingvistika til va jamiyat munosabatini tadqiq qilishda etnik faktorlarning o`rni, ahamiyati, roli kabilarni aniqlaydi, etnik va lisoniy omillarning o`zaro ta`sirini, bog`likdigini aks ettiradi.

15. Matematik lingvistika. Matematik lingvistika tilni o`rganish va tasvirlash jarayonida matematik usullarning (masalan, statistik usul, informatsiya na-zariyasi kabilarning) qo`llanish imkoniyatlarini tek-shiradi.

16. Neyrolingvistika. Neyrolingvistika neyron va lingvistika so`zlarining o`zaro birikuvidan, qo`shi-lishidan hosil bo`lib, inson miyasidagi nerv hujay-ralarining, neyronlarning tilni-so`zlarni hosil qi-lishdagi vazifasini o`rganadi. Neyron nerv (asab) sistemasining asosiy qismi, tarkibiy elementi sifatida tilni-til va nutq birliklarini yaratishda faol xizmat qiladi, yetakchi hisoblanadi. SHunga ko`ra neyrolingvistika inson nerv sistemasi bilan aloqa quroli-til orasidagi uzviy, doimiy, zaruriy muno-sabatni yoritadi. SHuningdek, u afatik nutqni, ya`ni tushunib bo`lmaydigan, buzilgan, «kasallangan» nutqni, uning turlarini aniqlash va tasnif qilish,

fizio-logik nerv sistemasi, nutq faoliyati kabilar doira-sida tadqiqot ishlarini olib boradi.

Xullas, lingvistika fani umumiylig sifatida, qayd etilganidek, turlicha xususiyliklari, sohalari orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi bilan, kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tad-qiq qiladi. U ayni jarayonda qator fanlar bilan o`zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi yta dolzarb va murakkab masalalarining yoritilishida faol ishtirok etadi.

8-ma'ruza **Til va nutq**

Reja:

1. Til va nutqning dialektik munosabati.
2. Til tarkibi.
3. Tilning ijtimoiy mohiyati, til materiali

Asosiy tayanch tushunchalar: til va nutq dialektik munosabati, psixik material, **moddiy** material, til va nutq ham ijtimoiy, ham individual

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo`lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining — sistem tilshunoslik-ning brsh, asosiy mezoni til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliliklarini farkdash bo`ldi.

Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, professor H.Ne'matovning ma'lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o`zaro farqlash dastlab VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o`rganish usullarida ko`rish mumkin. Professor A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o`zbek tilshunosligi-ning sardori bo`lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqlangani, alloma shu masalaga alohida e'tibor bergani qayd etiladi.

Til va nutq muammosi umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi bo`lgan Vilgelm fon Gumboldtning tildagi energeo (harakat, jarayon, kuch) va ergon (mahsulot), tilshunoslikdagi psixologizm oqimining asoschisi G.SHteyntalning tildagi «barqaror mohiyat» va «harakatdagi kuchlar», buyuk nazariyotchi va amaliyotchi tilshunos Boduen de Kurtenening «tildagi barqarorlik va o`zgaruvchanlik» haqidagi ta'limotlarida ham beriladi.

Ta'kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o`zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy - nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Demak, til va nutq masalasi nafaqat sistem tilshu-noslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi - ham diaxron, ham sinxron bosqichlaridagi eng jiddiy nazariy muammosi bo`lgan va bundan keyin ham shunday bo`lib qoladi. Negaki, tilshunoslikning ushbu o`ta murakkab va o`ta dolzarb muammosisiz nafaqat nazariy-umumiy tilshunoslikning, balki xususiy-amaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to`liq, mukammal va ob'ektiv hal qilib bo`lmaydi. Shunga ko`ra til va nutq dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri sifatida qolaveradi.

Sho`ro davri tilshunosligida, ayniqsa, 60 -yillardan boshlab, til va nutq masalasiga alohida e'tibor berila boshladi. Aniqrog'i, F. de Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning bir-biridan farqlanishi olimlar o`rtasida fikrlar qarama-qar-shilagini tug'dirdi.

Bir qator olimlar til va nutq o`zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta ob'ekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash, albatta,

kerak, bular farqlanadi, degan g'oyani ilgari suradi. Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o`rin egalladi.

Til va nutq dialektikasida til o`ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo`lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko`rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaqo to`g`ri ta`kidlaganidek, til sistemadir.

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog`langan tovush tomoni, lug`at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo`lib, ular birgaliqda bir butunlikni, sis-temani tashkil qiladi. Tilning sistem xarakteri asli-da qays etilgan sathlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtida ushbu sathlarning har biri o`ziga xos sistema-ichki sistema bo`lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi-supersistema, makrosistema sifati-da jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`ladi, ijtimoiy - amalii vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-ara-lashuv quroli bo`lishida ko`rinadi. SHunga ko`ra professor. S.Usmonov «Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lishi lozim. CHunki bunday munosabat, aloqa ks»llektiv ichida-jamiyatda voqe bo`ladi», deydi.

Tilming material mohiyati haqida fikr yuritil-ganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, professor V.M.Solnsev «Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasi...» desa, tilshunos B.V.Kosovskiy «til o`zining material mohiyatiga ko`ra belgilar sistemasini yoki semiotik sis-temani hosil qiladi», deb alohida qayd etadi.

Xullas, til supersistema-sistemalar sistemasi sifatida jamiyat uchun tarixan mukammal yaratilgan, barchaga birday xizmat qiladigan va barcha uchun umumiyl bo`lgan, asosan fikr ifodalash, fikrni moddiy qilish uchun ishlataladigan alohida so`zlar, gaplar nutq birliklaridan, ifoda vositalardan, ularnish o`zaro mantiqiy bog`lanishi uchun, nutqni qurish uchun xizmat qiladigan qonun-qoidalardan tashkil topadi.

Til o`zining jamiyatdagi kommunikativ (infor-mativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va boshq.) vazifasini qanday ko`rinishda, qanday «qiyofada», qanday shaklda amalga oshiradi?

Ijtimoiy-psixik jarayon bo`lgan til o`zining ja-miyatdagи kommunikativ, umuman har qайдай vazifasini nutq shaklida, nutq ko`rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so`zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdag-i-magn dagi muayyan ifodasidir, ko`rinishidir, holatidir. SHunga ko`ra, S.Usmonov «Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nugq sifatida namoyon bo`lgandagina ma'lum funksiyani bajarishi mumkin», deydi.

Miyamizda (ongimizda) ob`ektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo`lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan til (nutq) orqali voqelashadi. Yana ham aniqrog'i, har qanday fikrni ifodalash, bosh :;alap bilan aloqada bo`lish, faqat til materiali orqali amdlga oshadigan real, jonli nutq jarayonida sodir bo`ladi. Til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb baholanganida til materialiga asoslangan... nutq ko`zda tutiladi.

Ichki - ideal jarayon, tashqi-material voqelikka o`tar ekan, aylanar ekan, bu o`tish-jarayon faqat nutq asosida, ya`ni hamma vaqt til materialiga suyanadigan nutq orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o`taydi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo`ladi:

1. Psixik material. Bu-so`z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).
2. Moddiy material. Bu-nutq yaratish chog`ida belgili tovush qobig`iga ega bo`lgan, aniq talaffuz qi-linayotpn so`zlar, morfemalar va tovushlar.

Demak, real jonli nutqning real til birlik-laridap tashkil topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Qiyoslang. *Bizning davrimiz bozor iqtisodiyotiga o`tish divridir*, gapi real nutq bo`lib, u tovush materiya-siga ega bo`lgan real til birliklaridan tashkil topadi. Aniqrosh, ushbu gap: *biz, ning, davr, i, miz, bozor, iqtisod, i, yot, i, ga, o`t, ish, davr, i, dir* kabi aniq til birliklaridan-so`z (leksema) va affiksal morfemalardan tarkib topgan. Demak, ayni gapni qayd etilgan til

birliklariga-so`z (leksema) va affiksal morfemalarga ajratish, aslida, uni real til birliklariga ajratish demakdir. «Ammo ajratishdan hosil bo`lgan har bir element o`sha nutq o`tib ketganidan keyin o`z material qobig`ini yo`qotib, ma`lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo`lmay, psixik hodi-sadir. Psixik hodisadan esa lozim bo`lganida nutq a`zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilish mumkin».

Ma`lum bo`ldiki, psixik hodisa bilan real nutq orasidagi rraliq hodisa xotiradagi real til elementlarining til birliklarining nutq tuzish vaqtida talaffuz orqali ro`ebga chiqariladigan real ekvivalentlaridir.

Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqtida real til elementlariga aylanadi. Zotan real elementlar aslida birlamchi bo`lib, ularning ongdagi (xotiradagi) obrazlari shasilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo`ladi.

Til «tashqi» jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligi-tovush materiyasi bo`lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko`rinadi. Tildagi moddiylik so`z, so`z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o`ralganligida namoyon bo`ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Ma`lum bo`ldiki, tildan fikr almashuv-kommuni-katsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Hozir-gi vaqtda nutqning til materiali orqali aloqa kilish jarayoni ekanligi tajriba yo`li bilan ham isbotlandi. Masa.an, psixolog V.A.Artemov «Eksperimental — fonetik va eksperimental — psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko`pchilik ... psixologlar, usulist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan». Demak, til nutq orqali, nutq esa til materiali orqali amalgalashadi.

Akademik I.P.Pavlov tomonidan ikkilamchi sig-nallar sistemasi deb nom olgan tilning nugg bilan chambarchas bog`likligini yana shundan ham bilish mum-kinki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida, odam-larning nutq vositasi bilan aloqa bog`lash jarayonida vujudga keladi. Til va nutq o`rtasidagi bog`liqlik, o`zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma`lum bo`ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali realla-shadi. Til bir vaqting o`zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu mate-rialdan fikr shakllantirishdir. F. de Sossyur ayt-ganidek, til bizga nutq tushunarli bo`lishi uchun zarur bo`lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakl-lanishi uchun zarur. Tarixiy jihatdan nutq faktlari tildan oldin keladi.

Shu o`rinda professor. B.A.Serebrennikovning fikrini ham keltirish maqsadga to`la muvofiqdir. U ta`kidlaganidek «...til nutq jarayonida foydalaniladi. Har bir nutq faoliyatida til elementlari ishtirok etadi. Agar til sistem xarakterga ega bo`lsa, nutq ham til elementlari asosida namoyon bo`lgandan keyin sistem xarakterga ega bo`ladi».

Bizningcha ham nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbatan ikkinchi darajali sistema bo`lib, tid sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifatida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrni ifodalash sistemasi yuzaga keladi. SHuningdek, nutq (nutqiy faoliyat) fikrni ifodalash jarayoni ekan, ayni jarayonda ishtirok etuvchi birliklar o`zaro mantiqiy, zaruriy munosabatga kirishib, bir butunlikni-sistemani, masalan, nutqni, gapni hosil qiladi. Qolaversa, nutqdagi — fikr ifodalash jara-yonidagi so`z ham, so`z birikmasi ham, gap ham, matn ham o`ziga xos mikro va makrosistemalardir.

Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqa-li bo`ladi. Masalan, men o`z nutqimda o`zbek tilidan foydalanib gapiryapman, demak, bu o`zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko`rinishi real nutqdir, nutq faoliyatidir.

Jonli nutq yoki real nutq bu tilning mavjudligi, uning faol harakatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalardan iborat xazinadir. Nutq esa ushbu birliklarning muayyan qoidalar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, ya`ni nutq jarayondir, amaliyotdir. Til ham, nutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalgalashadi, ya`ni til nutq orqali, nutq esa til orqali voqelashadi, namoyon bo`ladi.

Til va nutq o`zaro aloqador, bir-biri bilan bog`liq, biri ikkinchisiz mayjud bo`lmaydigan,

ammo bir-biridan farqli bo`lgan ijtimoiy hodisalaridir. Demak, til va nutq o`zaro bog`liq bo`lgani bilan aynan bir xil narsa emas. Psixolog P.I.Ivanov: «Biz biror kishiga: siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o`z nutqida qanday til (yoki tillar) dan foydalanishini aniq bilamiz», deydi.

Har bir kishining o`z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. SHu bilan birlgalikda har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma`naviy-madaniy saviyasiga qarab, o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi. Bundan esa nutqning individual-hodisa ekanligi kelib chiqadi. Lekin biz yuqorida til ham, nutq ham ijtimoiy hodisa degan edik. Gap shundaki, nutq haqiqatan ham individual. Nutq individual o`zining bajarilishiga, sodir bo`lishiga ko`ra, ya`ni u individ, alohida kishi tomonidan amalga oshadi. Ammo o`zining vazifasiga ko`ra esa nutq ijtimoiydir.

Demak, nutq - individual deganda, uning individ -alohida shaxs tomonidan amalga oshirilishi, bajari-lishi ko`zda tutilsa, nutq - ijtimoiy deganda, uning ahamiyati, vazifasi, ommaviyligi tushuniladi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan tilni ham ma'lum ma'noda individual deyish mumkin. Chunki til materiali (elementlari, birliklari) psixikada, xotira-mizda mavjud. SHuning uchun ham S.Usmonov: «Til elementlari jamiyat a'zolarining xotirasida... mav-jud», deydi.

Demak, til individual nutq shaklida faoliyat ko`rsatadi. Til va nutq ham ijtimoiy, ham individual. Tildagi ijtimoiylik nutq orqali namoyon bo`ladi. «Tildagi ijtimoiylik yashirin, ichki hodisa bo`lsa, nutqsagi ijtimoiylik tashqi, real hodisadir».

Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya`ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko`ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo`lib, muayyan o`rinda (joyda) va muayyan vaqtida yuz beradi. Nutq so`zlovchining, tinglov-chining va predmetning — fikr yuritilayotgan pred-metning mavjud bo`lishini talab qiladi.

Nutq akti - hamma vaqt ijodiy akt. Chunki har bir kishi o`z fikrini muayyan shakl — so`z, nutq orqali ifodalayotganida o`zining bilimiga, lug`at xazinasiga, hayot tajribasi va madaniy saviyasiga suyanadi.

Nutq - alohida shaxsga, individga bog`liq. Til esa alohida shaxsga, individga bog`liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. AA.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo`l harakati bilan (jest) yoki qo`l harakatisiz, aniq yoki noaniq bo`lishi mumkin, tilga bunday ta`rif-tavsif to`g`ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo`la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo`la olmaydi.

Til — aloqa quroli, nutq — aloqa usuli.

Til - imkoniyat, nutq - voqelik, ta'sirchanlik.

Til - umumiylilik, nutq-xususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko`ra birlamchi, ya`ni oldin nutq — nutq tovushlari paydo bo`lgan, til esa ikki-lamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til tahlil qilish yo`li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning hayoti uzoq xalqning hayoti bilan bog`liq, nutq-ning hayoti esa qisqa, ya`ni aytilgan vaqtdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo`lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va boshq), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o`rganadi), informatsiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til — tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semi-otika va boshqa fanlar tomonidan o`rganiladi.

Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq faoliyatida-nutqda kuzatganimizdagina uning ijgimoiy-amaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq faoliyatidagina til va nutqning o`zaro ta`siri, bog`liqligi, aloqasi amalga oshadi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq

shakllanadi.

9-ma’ruza

Til va nutq birliklari (Til birliklari)

Reja:

1. Til va nutq birliklari haqida umumiy ma’lumot.
2. Fonema, morfema, leksema va model

Asosiy tayanch tushunchalar: *Fonema (tovush) tilning eng kichik qurilish materiali, moddiy birligi, morfema ma’noga ega bo`lishiga ko`ra tilning eng kichik ma’noli birligi hisoblanadi, morf (morfa) va allomorf (allomorfa) tushunchalari, Til birligi bo`lgan leksemaning tashqi-ifoda tomoniga uning shakli, tovush jihatni — nomema kirsa, leksemaning semema, ma’no — mazmun tomoniga denotatlar — narsa, hodisa, harakat, holat, belgi — keng ma’nodagi muayyan predmetlar kiradi.*

Til va nutq o`zaro dialektik bog’liq bo`lib, ijti-moiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik hamda ijtimoiy-individual jarayon - hodisalar sifatida jamiyatga tengi yo`q aloqa quroli va aloqa usuli bo`lib xizmat qiladi. SHunday ekan, til va nutq jarayoni qanday amalga oshadi? Qanday birliklar bilan «ish ko`radi»? Umuman, til va nutq birliklariga qanday birliklar kiradi-yu ularga xos xususiyatlar nimada? Ular orasidagi o`zaro munosabat, bog’liqlik qanday kechadi?

Hozirda tilshunoslikda, xususan o`zbek tilshu-nosligida til va nutqning asosiy birliklari sifatida fonema, morfema, leksema, model va tovush, so`z (so`z formasi), so`z birikmasi hamda gap kabilar qayd etiladi. Aniqrog’i, til birliklariga: fonema, morfema, leksema va modellar; nutq birliklariga: tovush, so`z (so`z formasi), so`z birikmasi, gap va boshqalar kiritiladi.

Til va nutq o`zaro bog’liq ekan, bundan o`z-o`zidan -mantiqiy ravishda til va nutq birliklarining ham o`zaro bog’liqligi, o`zaro «ajralmas» aloqada ekanligi tushunchasi kelib chiqadi. Boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Negaki, til va nutqning bog’liqligi, jamiyatdagi vazifasi ular birliklarining faoliyati, faolligi sababli yuz beradi. Til va nutqning o`zaro munosabati aslida ular birliklarining o`zaro bog’liqligidan, munosabatidan kelib chiqadi. Til va nutq jamiyatdagi o`z «operatsiyalarini», ta’sir qilish quvvatini muayyan birliklari orqali amalga oshiradi.

Aslida til birliklari muammosini hal qilish nutq birliklarisiz, nutq birliklari muammosini hal qi-lish esa til birliklarisiz amalga oshmaydi. Ularning dialektik bog’likdigi, munosabati ham shunda. Boshqacha aytganda, nutq birliklari nutqda til birliklaridan hosil bo`ladi, ya’ni nutq birliklari asosida til bir-liklari mavjud bo`ladi. Til birliklari nutq bir-liklari uchun moddiy asos vazifasini o`taydi. Nutq birliklari (tovush, so`z, so`z birikmasi, gap kabilar) aslida tilning - til birliklarining harakatdagagi ko`rinishi, faolligidir.

Til va nutq dialektikasi quyidagi birliklar orqali namoyon bo`ladi.

I. Fonema

Til birligi bo`lgan fonema fonologik sath ob’ekti sifatida muayyan jihatlari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi, nisbiy mustaqillikka ega bo`ladi.

Fonema tilning boshqa birliklariga nisbatan, ay-tilganidek, eng kichik (minimal) birligi bo`lib, til sistemasida (strukturasida) eng katta (maksimal) vazi-fa bajaradi. Boshqacha aytganda, fonema hajm taqozo-siga ko`ra minimal, ammo vazifasiga, «amaliga», til strukturasida tutgan mavqeiga ko`ra tengi yo`q maksimal birlik hisoblanadi. Aniqrog’i, fonema moddiy birlik-tovush sifatida tilni ham, uning qator birliklarini, shuningdek, nutq birliklarini ham «yaratadi», «yasaydi», ya’ni u ushbu birliklarning moddiy ashyosi, qurilish materiali hisoblanadiki, fonemalarsiz-tovushlarsiz na til (nutq), na uning birliklari mavjud bo`ladi, muayyan vazifa bajaradi. Demak, til birligi muammosini yoritish mantiqan fonemasiz (tovushsiz) uning xususiyatlarini aniq-lamasdan amalga oshmaydi, to`liq, mukammal bo`lmaydi. Bu — aksioma.

SHunday ekan, fonemaning o`ziga xosligi nimalarda ko`rinadi? Bular:

1. Fonema (tovush) tilning eng kichik qurilish materiali, moddiy birligi bo`lib, ta'sir qilish, sezgi uyg'otish quvvatiga ega.
2. Til va nutq birliklari-morfema, leksema, so`z kabilar asosida fonema (tovush) yotadi. Fonema ushbu birliklarning tovush qiyofasini tashkil qiladi.
3. Fonema morfema va so`zlarni tovush jihatidan farqlaydi. Qiyoslang: bot — bor-bir-kir; gul - kul-kel-kim va boshqalar. SHunga ko`ra mazkur so`z ma'nolarida o`zgarish, farqlanish yuz beradi. Boshqacha ayt-ganda, fonema muayyan birliklarning mazmun (ma'no) jihat bilan bog`lanadi. Demak, fonema til (nutq) bir-liklarini tashkil qilishiga, ularni tovush jihatidan farqlashiga, mazmun jihatiga ta'sir qilishiga ko`ra ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy birlik hisoblanadi.
4. Fonema faqat bir tomonlama birlik-ifoda to-moniga ega. U til birligi sifatida muayyan belgi hi-soblanmaydi.
5. Fonema so`zlovchilarning xotirasida o`zining ti-pik farqlovchi belgilari yig'indisi zaminida shakl-langan maxsus ideal «akustik nazorat» yoki «tovush obraz» sifatida saqlanadi. Fonemaning farqlovchi belgilari esa artikulyatsion (nutq a'zolarining avto-matlashib yoki standartlashib qolgan tipik harakati, holati haqidagi tasavvur) va aqustik (fonema aloqador bo`lgan tovush tipiga xos talaffuz sifati: o`ziga xos balandligi, kuchi, tembri, cho`ziq - qisqaligi kabi) bel-gilar haqidagi tasavvurlar asosida qaror topadi.
6. Fonema inson nutq a'zolari yordamida hosil qilinadigan tovush tiplarining andozalari bo`lib, ular psixik — akustik obrazlar «galereyasi», qatori sifatida bizning xotiramizda saqlanadi. So`zlovchilar ushbu psixik — akustik obrazlar asosida nutq a'zo-larini harakatga keltiradi va natijada, fonema-larning nutqiy ko`rinishlarini (tovushlarni) hrsil etadi.
7. Fonema invariant sifatida namoyon bo`ladi, ya'ni u til birligi sifatida umumiylilik hisoblanadi, nutqdan tashqaridagi-nutqqacha bo`lgan — reallashmagan birlik bo`ladi, «nofunktional» holat.
8. Fonemaning nutqsagi - so`z (so`z formasi), so`z birikmalari tarkibidagi ko`rinishi, qurshov tovush-lari ta'sirida paydo bo`lgan qiyofasi uning vari-antidir. Demak, bunda fonemaning variantlari ma'no farqlamaydi. CHunki ular bir fonemaning turli so`z tarkibida namoyon bo`lishi, qo'llanishi hisoblanadi. Qiyoslang: *uyim, tun, turmush, yugur, urg'u, quruvchi* va boshqalar. Ushbu so`zlardagi u bir fonemaning — u fonemasining - invariantning turlicha variantlari, xususiyliklari bo`lib qayd etiladi.

Aytilganlardan ma'lum bo`ldiki, tilning eng kichik qurilish materiali sifatida fonemalarning eng muhim, bosh vazifasi — fonologik xususiyati morfema, leksema, so`z kabi ma'no ifodalovchi birliklarni hosil qilish — ularning tovush tomonini shakllantirish hamda o`rni bilan tovush jihatini farqlash kabi ijtimoiy vazifalarini bajarishdir.

II. Morfema

Til birligi bo`lgan morfema morfologik birlik sifatida o`zining moddiy asosi, qurilish materiali bo`lgan fonemadan - tovushdan farqlanadi. Dialektik falsafaning umumiylilik va xususiylik kategoriyasi nuqgai nazaridan morfema ham, fonema ham til birliklari sifatida umumiylilikka ega. Ayni vaqtida xususiylik umumiylikning voqelanishi, umumiylikning muayyan vaziyatda aniq namoyon bo`lishi ekan, morfemaning umumiylididan xususiylikka o'tishi, fonemadan farq qilishi, o`ziga xosligi nimada? degan haqli savol tug'iladi.

Eslatamiz, morfema termini tilshunoslikka Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan bo`lib, so`zning eng kichik ma'noli qismini ifodalash uchun qo'llan-gan. Demak, ushbu fikrdan morfemaning muayyan ma'noga egaligi, ma'no ifodalash tushunchasi kelib chiqadi. Aynan mana shu nuqtada morfema fonemadan farq qiladi. SHuningdek, morfema ma'noga ega bo`lishiga ko`ra tilning eng kichik ma'noli birligi hisoblanadi. Bu o'rinda morfemaning tilning eng kichik ma'noli birligi ekanligi ma'no ifodalash mezonidan kelib chiqadi. Demak, fonema til birligi sifatida hajm taqozosiga ko`ra eng kichik birlik hisoblansa, morfema til birligi sifatida ma'no ifodalash xususiyatiga ko`ra eng kichik birlik sanaladi, ya'ni morfema ma'noli birlikning eng so`nggi, oxirgi chegarasi hisoblanadi. Shunga ko`ra, u boshqa ma'noli qismlarga ajralmaydi.

Qiyoslang: kitoblar: *kitob+lar*; temirchi: *temir+chi*; mustaqillik: *mustaqil+lik*; yurtim: *yurt+im* kabi so`zlardagi umumiylilik xususiyatiga ega bo`lgan — lar, -chi, -lik, -im kabilar.

Ma'lum bo`ldiki, morfemalar, qayd etilganidek, shakl va mazmun, moddiy va ma'noviy, tashqi va ichki tomonlarning o`zaro bog'liqligidan, bir butunligidan iborat ikki jihatli til birligidir.

Morfema til birligi bilan bevosita bog'liq bo`lgan, muayyan vazifa bajaruvchi morf (morfa) va allomorf (allomorfa) tushunchalari — terminlari ham mavjud.

Morf (morfa) nutq jarayonida qo`llanayotgan so`zning — so`z shaklining (formasining) tarkibida ishtirok etayotgan morfemaning «qiyofasi», varianti, ko`rinishidir. Morf bevosita muayyan so`z bilan — so`z shaklida qo`llanishi, voqelanishi bilan, uning tarki-biy qismi ekanligi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang: *tonggi, kechki; tomga, yo`lakka, yotoqqa*. Demak, qayd etilgan so`z formalarida qo`llanayotgan — gi, — ki; —ga, — ka, — qa morflarning jami bir morfemani tashkil qiladi, ya`ni —gi, -ki bitta morfema; —ga, —ka, —qa bitta morfema hisoblanadi. Ayni vaqtida ushbu morfalar biri ikkinchisiga nisbatan allomorf (a) — morfe-maning varianti - so`z shakli tarkibidagi ko`rinishi hisoblanadi.

Ma'lum bo`ldiki, allomorf(a) morfemaning vari-anti bo`lib, alohida morf(a) sifatida o`ziga mos, muvofiq keladigan so`z shakli tarkibidagina ishtirok etadi. Allomorf sifatida kuzatiladigan har bir morf(a)ning ko`llanish imkoniyati chegaralangan bo`lib, u faqat o`zi uchun qulay bo`lgan sharoitda yuzaga chiqadi, tanlab qo`shiladi. Morfning — allomorfning biri o`rnida ikkinchisi ishlatilmaydi. Qiyoslang: *tonggi-tongki, kechki - kechgi*. Bunga fonetik vaziyat, fonetik shakl va semantika yo`l qo`ymaydi. Demak, allomorflar qo`llanadigan so`z formalari qanday qabul qilingan bo`lsa, shunday shaklda namoyon bo`ladi.

Xullas:

1. Morfema fonema bilan til birligi sifatida umumiylikka ega.
2. Morfema tilning muayyan ma'noli birligi sifatida fonemadan farq qiladi, o`ziga xoslikka, xususiylikka ega bo`ladi.
3. Morfemalar ifoda va mazmun tomonlarining birligidan tashkil topadi.
4. Morfema so`z kabi nutqiy — sintaktik mustaqillikka ega emas. U nutqda leksema, so`z (so`z forması) tarkibida funksional qism sifatida qo`llanadi.
5. Morfema so`z forması tarkibida morf va allomorf kabi ko`rinishlarda — variantlarda ham namoyon bo`ladi.

III. Leksema

Til birligi bo`lgan leksema fonema va morfema kabi til birliklaridan, umumiylididan til va nutq dialektikasida o`ziga xos voqelanishi, muayyan belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning o`ziga xosligi shundaki, u ham til birligi, ham nutq birligi bo`la olishi, shunga ko`ra murakkabligi bilan xarak-terlanadi.

Ushbu lisoniy hodisa til birligi sifatida leksema-umumiy bo`lsa, ammo nutq birligi sifatida esa u so`zdir, xususiydir.

Leksemaning til birligi sifatidagi o`ziga xosligi nimada?

Leksema til birligi sifatida o`zaro uzbek bog'liq ikki tomonning yaxlitligidan, bir butunligidan ibo-ratdir. «Bu butunlikning bir tomonini leksemaning fonematik — akustik strukturasi (nomema), ikkinchi tomonini esa ideal birlik — ma'lum tushuncha zami-nida shakllangan ma`no (vazifa) - semema tashkil etadi».

Demak, leksema ham morfema kabi ikki tomonning: tovush va ma'noning, ifoda va mazmunning o`zaro bog'liqligidan, bir butunligidan tashkil topadi.

Til birligi bo`lgan leksemaning tashqi-ifoda tomoniga uning shakli, tovush jihat — nomema kirsa, leksemaning semema, ma`no — mazmun tomoniga denotatlar — narsa, hodisa, harakat, holat, belgi — keng ma`nodagi muayyan predmetlar kiradi. Demak, leksema ularni-keng ma`nodagi muayyan predmetlarni nomlaydi. Boshqacha aytganda, «Ob'ektiv olamda (daraxt) deb nomlanuvchi qattiq tanali o'simlik turlari (deno-tatlar) mavjud. Bu denotatlar bizning ongimizda da-raxt tushunchasini shakllantirgan. O`z navbatida (daraxt) tushunchasi esa (daraxt) leksemasining ma`nosiga asos bo`lgan, bu ma'noning o`z navbatida (d), (a), (r), (a), (x), (t)

fonemalar tizmasi (kompleksi) bilan tarixiy -ijtimoiy bog'lanishi til birligini yuzaga keltirgan. Albatta, (daraxt) tushunchasi (daraxt) leksemasining ma'nosi bilan aynan teng emas, lekin u bilan aloqada, munosabatdadir.

Til birligi bo`lgan leksemaning mazmun tomoni semema ham leksemaning tashkil etuvchi tomoni (to-vush substansiysi) kabi tarkibiy qismlardan iborat. Masalan, (*aka*) va (*uka*), (*opa*) va (*singil*) leksemala-rining ma'no komponentlarini - semalarini olib ko`raylik:

(*aka*) - qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, erkak, katta.

(*uka*) - qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, erkak, kichik.

(*opa*) - qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, ayol, katta.

(*singil*) - qon-qarindosh, bevosita, bir avlod, ayol, kichik.

Ko`rinib turibdiki, bu leksemalar ma'nosida o`zaro o`xhash, farqlanuvchi va takrorlanuvchi qismlarni — semalarni ko`rish mumkin. Bu semalar o`zaro birikib, yangi butunlikni, sememani — leksemaning ichki tomo-nini hosil qilgan». Leksemaning eng muhim, yetakchi xususiyati uning jamiyat a'zolari uchun tayyorligi, nakdligi, umumiyligi va yaxlitligidir. Qiyoslang: *vatan, zamon, ish, dunyo, rasm, kitob, ok, kuch, shamol, o'n, yuz, ol*, ko`k kabi minglab tayyor birliklar voqeliqdagi muayyan narsa, belgi, miqdor, harakat, holat, xususiyatlarni nomlab, atab, ifodalab keladi. Demak, leksemalar nutq faoliya-tida o`zlariga grammatik qo`shimachalarni, umumlashma ma'noli turlicha affiksal morfemalarni birlash-tirib, so`z formasi shaklida nutq birligiga aylanadi, nutq birligi hisoblanadi. Qiyoslang: *Bog'imda gullar o'sdi gapida bog'*, gul, o`s leksemalari muayyan affiksal morfemalarni olib, turlicha vazifalarni bajarib kelmoqda.

Professor SH.Rahmatullayev ta'kidlaganidek «lekse-ma-asosiy, birlamchi til birligi bo`lib, til qurilishi-ning lug'at boyligiga mansub, shunga ko`ra lug'at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi».

Leksema umumiyligi aslida til umumiylidan ke-lib chiqadi. CHunki til nutqqa nisbatan umumiylib, uning birliklari ham o`z-o`zidan, mantiqan umumiylilik sifatida voqelanadi.

Xullas,

1. Leksema til birligi sifatida tayyorligi, yaxlitligi va jamiyat a'zolari uchun umumiyligi, ular xotirasida mavjudligi bilan o`ziga xosdir.
2. Leksema ifoda va mazmun tomonlarning bog'liq-ligidan, bir butunlikdan tashkil topib, muayyan predmetlarni atash, nomlash vazifasini bajaradi.
3. Leksema fikr almashish jarayonida so`z birik-masi va gap kabi nutq birliklari uchun material vazifasini o`taydi.
4. Leksema nutq faoliyatida so`z (so`z formasi) sifatida voqelashib, nutq birligi bo`lish imkoniga ega bo`ladi. U til sistemasining leksik birligi, lug'at boyligi hisoblanadi.
5. Leksemaning til birligi sifatidagi umumiyligi til umumiylidan kelib chiqadi. CHunki til va nutq dialektikasida til umumiyligi, nutq esa xususiy hisob-lanadi.

IV. Model

Til birligi bo`lgan modellar muayyan qolip, lisoniy (lingvistik) formula, tayyor qurilma, andaza sifa-tida tilga xosligi bilan ajralib turadi.

Ushbu modellar - qoliplar asosida leksemalar birikadi, leksemalar va morfemalar birikadi, so`z formalari, so`z birikmalari, gap kabi nutq birliklari hosil bo`ladi. Anig'i, «til birligi hisoblanadigan modellarga, asosan, so`z yasalishi, so`z birikmasi va gap qurilishiga oid bo`lgan mavhum qoliplar, chizmalar kiradi».

Demak, til birligi bo`lgan modellar turlicha bo`-lib, ular asosida yuzaga kelgan til (nutq) birlik-larining mazmun jihatni ham turlicha bo`ladi. Masalan, so`z birikmalari modellari leksik-semantik bosqich-dagi nominatsiyadan sintaktik-kommunikativ bosqich-dagi nominatsiyani vujudga keltiradi. O`z navbatida gap modeli esa birlamchi sintaktik-kommunikativ nominatsiyani, ya'ni ma'lum voqealari yoki vaziyatning mu-rakkab atamasini hosil qiladi. Masalan, [[ot]+ [sifat]] gap modeli ma'lum sub'ekt yoki predmetning biror vaziyat bilan bog'liq situativ belgiga egalik holati haqidagi fikrni anglatishga xizmat qiladi. Qiyoslang: *Gul qizil, Osmon tiniq, CHO'l katta* kabi. Demak, modellar qoliplar til birliklarining o`zaro birikish yo`li, usulidir.

Xullas, til sistemasi fonema, morfema, leksema va model kabi tilning sistem xarakterdag'i ichki turlicha yaruslariga (sathlariga) oid bo'lgan ruhiy — psixik birlik sifatida xotirada yashovchi o'zaro dialektik bog'langan til birliklaridan tashkil topadi.

10-ma'ruza
Til va nutq birlklari
(Nutq birlklari)
Reja:

1. Tovush
2. So`z
3. So`z birikmasi
4. Gap

Asosiy tayanch tushunchalar: tovush - nutqning eng kichik (minimal) birligi, Har bir leksema nutqda muayyan so`z sifatida namoyon bo`ladi, so`z birikmasi nutq mahsuli, nutq birligidir, gap kommunikativ jarayon.

Til imkoniyat, nutq esa voqelik-ushbu imkoniyatning namoyon bo`lishi ekan, til imkoniyati til birlklari orqali mavjud ekan, demak, imkoniyat sifatida mavjud bo`lgan til birlklari nutqda - nutq birligi sifatida voqelashadi, namoyon bo`ladi. Negaki, voqelik imkoniyatning voqelanishi, moddiy «qiyofasi»dir. Shunga ko`ra nutq birlklari bo`lgan tovush, so`z (so`z formasi), so`z birikmasi va gap kabi hodisalarining o`ziga xosligi, muhim jihatlari nimada? degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

I. Tovush

Tilning eng kichik (minimal) birligi fonema ekan, demak, nutqning eng kichik (minimal) birligi tovush hisoblanadi. Negaki, tovush fonemaning nutqdagi aniq namoyon bo`lishi, muayyan ko`rinishi, harakatidir.

Fonema fonologik birlik sifatida fonetik birlik bo`lgan tovush bilan uzviy aloqada — munosabatda bo`ladi. Bu mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Nutq birligi bo`lgan tovushlar xususiylik sifatida tilning ashyosi, moddiy materiali bo`lib, fizik, akustik, fiziologik hamda lingvistik (lisoniy) kabi qator belgilarga egaligi bilan o`ziga xosdir. Anig'i, tovushning talaffuzi, ta'sir qilishi, sezgi uyg'otishi, balandligi, kuchi, tembri, cho`ziqligi, aniqligi kabi qator xususiyatlari borki, bular fonetikaning fizik -akustik, anatomik -fiziologik, perseptiv va ling-vistik — funksional aspektlari deb qaraladi.

Tovushning til sistemasidagi eng muhim xususiyati uning til (nutq) birliklarining: morfema, leksema, so`z (so`z formasi) kabilarning moddiy qiyofasini, ifoda tomonini, shaklini qurishdir, shakkantirishdir. Demak, tovush til sistemasining eng asosiy, eng dastlabki qurilish materiali, moddiy asosidir. Boshqacha aytganda, masalan, so`zning moddiy tomoni uning tovush qobig'ini tashkil qiladi. Tovush qobig'i esa muayyan narsa, predmet, xususiyat bilan bog'lanib, ijti-moiy ahamiyatiga ega bo`ladi.

Tovush o`zi yaratgan, «qurban» so`zni tovush jihatdan farqlash, demak, ma'no jihatdan farqlash, fonetik-semantik differensiatsiya qilish uchun xizmat qilsa, u fonema - til birligining ko`rinishi, voqelanishi sifatida baholanadi.

Har bir tovush til birligi — fonema bo`lish qobiliyatiga ega. Qiyoslang: *bor-bol; bor-bir; bor-tor* va boshqalar. SHuningdek, har bir fonema nutq birligi -tovush bo`lish imkoniyatiga ega. Qiyoslang: *u — tun, tush, tut, tuz, tur; o-ol, ot, osh, oy, ona, ota* va boshqalar.

Demak, fonemaning tovushga, tovushning fonemaga o'tishi mantiqiy - zaruriy jarayon bo`lib, til va nutq dialektikasining fonema va tovush orqali voqelani-shidir.

Fonema va tovush nisbiy butunlik, nisbiy yaxlit-lik sifatida til va nutkda, aytilganidek, ijtimoiy vazifa bajaradi.

Fikrimizcha, tarixiy - etimologik jihatdan tovush birlamchi. CHunki u talaffuz qilinish va eshitilish jarayoni bilan bog'liq, ya'ni dastlab nutq - nutq tovushlari paydo bo`lgan, nutq yuzaga

kelgan. Tovushning fonema sifatida baholanishi esa ikkilamchi bo`lib, jamiyat taraqqiyotining — til (nutq) taraqqiyotining muayyan davrida, keyingi bosqichlarida yuzaga kelgan, «yaratilgan».

Xullas, tovush nutq birligi sifatida nutqiy faoliyatni, nutqiy jarayonni ta'minlovchi moddiy birlik-dir.

Shunday qilib,

1. Tovush — nutq birligi, fonemaning nutqdagi voqelanishi, harakati, uning moddiy asosi.
2. Tovush - xususiylik sifatida fizik, akustik, fiziologik va lisoniy (lingvistik) belgilarga ega.

3. Tovush — til (nutq) birliklarining (morfema, leksema, so`zlarning) moddiy qobig'i, ifoda tomoni sifatida muayyan predmet bilan bog'lanadi.

4. Tovush fonemaning voqelanishi sifatida muayyan birliklarni fonetik-semantik jihatdan farkdaydi, ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`ladi.

5. Har bir tovush fonema bo`lish qobiliyatiga ega. Tovush fonemaga, fonema tovushga o`tib turadi.

6. Tovush tarixiy - etimologik — kelib chiqishi, paydo bo`lishi jihatidan birlamchi, fonema ikkilam-chi.

II. So`z

Nutq birligi bo`lgan so`z (so`z formasi) nutq faoliyati bilan bevosita bog'lanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shunga ko`ra u nutq birligi, nutq «boyligi» hisoblanadi. Aslida so`z (so`z formasi) nutq birligi bo`lgan tovushdan — tovush kompleksidan iborat ijtimoiy belgidir. So`z (so`z formasi) real birlik, xususiylik, aniqlik sifatida mavjud bo`ladi. Boshqacha aytganda, «Leksema — til birligi tayyor va turlicha imkoniyatlar majmuasi bo`lsa, so`z uning voqelanishi, ro`yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko`rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so`z sifatida namoyon bo`ladi». Demak, leksema va so`z umumiylilik va xususiylik dialektikasi bilan bog'langan bo`lib, so`z xususiylik sifatida umumiylilik-ning — leksemaning amaldagi ko`rinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir.

SHunday qilib, til birliklari bo`lgan lekse-malarning «... nutqda voqelashgan aniq shakl, mazmun va vazifaga ega ko`rinishiga so`z deyiladi».

Xulosa shuki, leksema va so`z munosabati aslida til va nutq bog`liqligining, o`zaro aloqadorligining muayyan birliklardagi aniq ko`rinishi, tasdig`idir.

Nutq birligi bo`lgan so`z, aytiganidek, tovushdan tashkil topgan ijtimoiy - individual belgi bo`lib, shunga ko`ra u moddiyligi bilan — dastavval tovush tomoni (perseptiv vazifasi) bilan ajralib turadi.

So`zning nutq faoliyatidagi asosiy vazifasi atama-nominativ vazifa bo`lib, u ob`ektiv bordiq-dagi turlicha muayyan narsa-predmetlar, voqe-a-hodisa-lar, harakat-holatlar, belgi-xususiyatlar bilan bog`la-nadi, ularni ifoda etadi, anglatadi, ular haqida muayyan ma`no, tushuncha beradi. Ayni vaqtida so`z jamiyat a`zolari xotirasida muhrlanib, ular tomoni-dan bir xilda qabul qilinadi, bir xidda tushuniladi. Shunga ko`ra u gapda, matnda qayd etilib, kuzatishda beriladi.

Ma'lum bo`ldiki, so`z tovush tomoniga (perseptiv vazifasi), atamalik xususiyatiga (nominativ vazifasi) hamda ma`no, tushuncha ifodalashiga (signifikativ vazifasi) ko`ra nutq birligi sifatida mukammalligi, fonema (tovush) ea morfema kabi til birliklarini o`z tarkibko olishi, kommunikativ jarayo, da yetakchilik qilishi byalan ajralib turadi, muhim sanayaadi. SHuningdek, so`z tovush va ma`noga ega bo`lishidan, o`z tarkibiga fonema va morfema kabi alohida til birliklarini olishidan tashqari u gapning vazifasi bo`lgan fikr ifodalashni ham bajaradi. So`z gap bo`lib kela oladi. So`zga xos bu xususiyat, ayniqsa, fe'llarda kuzatiladi. Qiyoslang: *keldi* — *u keldi*, *mudradim* — *men mudradim*, *borsang* — *sen borsang*, *yozdik* — *biz yozdik* va boshqalar. Demak, nutq birligi bo`lgan so`zda nutqning boshqa birligi bo`lgan gapni ham ko`rish mumkin.

So`z har qanday so`z birikmasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi materiali sanaladi. Fikr almashish jarayoni aslida so`zlardan, ularning semantik-sintaktik bog`lanishidan — valentlik munosabatiga kirishuvidan sodir bo`ladi. Shunga ko`ra so`z o`zining

asosiy nominativ vazifasini nutq jarayonida bajaradi. Shu jarayonda u ma'no aniqligiga, pozitsion mustaqillikka ega bo`ladi, muayyan sintaktik vazifada namoyon bo`ladi.

Demak, so`z semantik-morfologik jihatdan shakllanganligi bilan, sintaktik birlik bo`lish imkoniga egaligi bilan o`ziga xosdir.

Xullas:

1. So`z nutq jarayonida voqelanishiga ko`ra nutq birligi hisoblanadi.
2. So`z leksemaning - til birligining nutqsa muayyan shakl va mazmunda namoyon bo`lishidir, amaldagi hara-kati, nutqiy ko`rinishidir.
3. So`z va leksema o`zaro umumiylilik va xususiylik dialektikasi bilan bog`langan bo`lib, so`z xususiylik sifatida voqelanadi. So`z xususiyligi nutq xususiyligining mantiqiy davomidir.
4. So`z va leksema munosabati asosida til va nutq munosabati, bog`liqligi yotadi.
5. So`z peretseptiv, nominativ va signifikativ vazifalariga ko`ra ajralib turadi.
6. So`z nutqsa gapning vazifasi bo`lgan fikr ifodalashni ham bajaradi. So`z gap bo`lib kela oladi.
7. So`z o`zaro bog`liq bo`lgan fonetik, grammatik va semantik jihatlarning jamidir.

III. So`z birikmasi

Nutq birligi bo`lgan so`z birikmasi nutqiy hosila sifatida til va nutq birliklarining — leksema va so`zlarning nutq faoliyatida erkin birikuvidan, man-tiqiy — ma'noviy munosabatga kirishuvidan yuzaga keladi. Aniqrog'i, so`z birikmasining o`ziga xosligi, yaratilishiga ko`ra eng muhim jihat shundaki, u nutq jarayonida «etishtiriladi», hosil bo`ladi, aktual birlikka aylanadi.

So`z birikmasi mustaqil ma'noli so`zlarning (leksemalarning) o`zaro bog`lanishidan yuzaga kelib, gap bilan so`z orasidagi oraliq nutqiy birlik — nutq mahsuli sifatida baholanadi. U gap uchun qurilish materiali bo`lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda so`z birikmasi so`zga nisbatan ham shaklan - miqdoran, ham mazmunan-sifat jihatdan boyligi, kengligi, mukam-malligi va aniqligi bilan ustun turadi.

Ma'lum bo`ldiki, so`z birikmasining yaratilishida so`zlar xizmat qiladi, gaplarning yaratilishida esa so`z birikmalari xizmat qiladi.

So`z birikmasi muayyan mazmun jihatiga ega bo`lib, ushbu mazmun jihatni birikma tarkibidagi so`zlarning ma'nolariga asoslanadi. Shunga ko`ra so`z birikmasi semantikasi so`z semantikasiga ko`ra aniqroq, chuqur-roq, murakkabroq va to`laroq bo`ladi. Negaki, u bir nechta so`z ma'nosining o`zaro «qolishuvidan», ichki munosabatidan, zanjirli bog`lanishidan yuzaga keladi. So`z birikmasi ham, aslida so`z kabi, atash vazifasini — nominativ vazifani bajaradi. Anig'i, so`z birikmasidagi atash vazifasi bir nechta so`zlarning (leksemalarning) o`zaro erkin sintaktik aloqaga, munosabatga kirishuviga ko`ra amalga oshadi. «Erkin sintaktik aloqa deganda esa so`zlarning muvaqqat, faqat nutq ehtiyoji va zaruriy atash vazifasini bajarish uchun tobe - hokim munosabatlariga kirishishi tushuniladi». Qiyoslang: *hayot — yoshlar hayoti; davlat — buyuk davlat; hikoya - hikoyani o`qimoq; sovuq - qorning sovug'i; gapirmoq - tez gapirmoq; olmoq - qo`l bilan olmoq; kirmoq - uyga kirmoq; imtihon — imtihondan o`tmoq va boshqalar.*

So`z birikmasi ham, aytiganidek, ifoda va mazmun, moddiy va ma'noviy jihatlarga egaligiga ko`ra morfema, leksema va so`z kabi til (nutq) birliklari bilan umumiylikni hosil qiladi.

So`z birikmasining o`ziga xosligi yana shundaki, u sintaktik birlik sifatida so`zdan farq qilsa, boshqa sintaktik birlik bo`lgan gap bilan umumiylikka ega bo`ladi. Ammo bu umumiylilik asosida muayyan xususiyliklar, farkdi jihatlar yotadi, ya'ni so`z birikmasi fikr ifodalamaydi. SHunga ko`ra u gapga xos fikri tugallik intonatsiyasiga ega emas. So`z birikmasini tashkil qilgan a'zolar, aytiganidek, tobe-hokim munosabatida bo`lib, hokim so`z qaysi so`z turkumiga tegishli bo`lsa, u shu turkum nomi bilan ataladi. Demak, so`z birikmasining nomlanishida morfologik belgi-hokim tegishli bo`lgan turkum asos hisoblanadi. Qiyoslang:

1. Otli birikmalar: *baland bino, hashamatli saroy, sport zali, turon kurashi.*
2. Fe'llli birikmalar: *chirojni yoqmoq, soatni taq-moq, qo`l bilan olmoq, tez o`qimoq.*
3. Sifatlri birikmalar: *otdan baland, uydan kichik, temirdan qattiq, loydan yumshoq.*
4. Ravishli birikmalar: *peshindan keyin, o`qdan tez, bolalardan ko`p.*
5. Sonli birikmalar: *o`quvchilarning biri, o`ndan to`qqizi, uchdan ikki.*

6. Olmoshli birikmalar: *tadbirkorlarning barchasi, daraxtlarning hammasi, o`yinchilarning uchovi*.

7. Modal so`zli birikmalar: *uyda bor, qo`limda yo`q*. So`z birikmalari hokim komponentiga ko`ra, o`zaro farqlanishidan, muayyan nomga ega bo`lishidan tashqari tuzilishiga ko`ra ham — tarkibida nechta mustaqil so`z (leksema) qatnashishiga ko`ra ham tavsiflanadi: so`z bi-rikmasi tuzilishiga ko`ra sodda — ikki mustaqil so`zdan va murakkab — uch va undan ortiq mustaqil so`zdan tarkib topadi. Demak, so`z birikmalarini sodda va murakkab birikmalarga bo`lishda nutq birligi tarkibidagi mustaqil so`zlarning miqdori asos bo`lib xizmat qiladi. Qiyoslang: *mustaqillik ramzi, istiqlol tyasi, Prezidentimiz tabrige, tunning yarmi, tog`dan baland, ruhiyatiga tegishli, fiziologik jarayon; kunduzgi bo`lim talabalari, imtihon sessiyasi yakunlari, oraliq nazorat savollari, minglab tomoshabin sig`adigan bino, hikoyani tezlik bilan qiziqarli yozmoq, Vatanimiz chegaralarini mardonavor qo`riqlayotgan yoshlar; mustaqillik yillari hashamatli qurilgan sport zali va boshqalar*.

SHunday qilib, nutq bmrligi bo`lgan so`z birikmasi ^utqiy faoliyat mahsuli sifatida aslida-mohiyatan tarkibidagi so`zlardan, ularnint ma`no mezoni asosida o`zaro birikuvidan-valentlik munosabatiga kirishuvi-dan yuzaga keladi Bunda so`zlarning o`zdro birikib, so`z birikmasini (yoki gashsh) hosil qilish asosida so`z-larning valentlnk mkoniyati-so`z valentligi yotadi.

So`z birikmasi tarkibidagi muayyan so`z - hokim so`z o`z ma`nosini to`la ochish, xususiyashtirish uchun muayyan boshqa bir so`zi - tobe so`zni talab etadi, ushbu so`z bilan birikadi — valentlik aloqasiga, munosabatiga kirishadi. Demak, valentlik so`zning xususiyati bo`lib, so`zning o`z ma`nosini asosida boshqa so`zlar bilan sintaktik munosabatga kirishuvini amalga oshirishdir. Boshqacha aytganda, valentlik nazariyasida muayyan so`zning bir yoki bir nechta so`zni o`ziga biriktirish-so`z birikmasini hosil qilish xususiyatlari umumlashtiriladi.

SHunday qilib, so`zlarning birikib, so`z birikma-sini hosil qilishi, dastavval, birikma tarkibidagi so`zlarning ma`no imkoniyatiga ko`ra amalga oshadi. So`zlar orasidagi semantik munosabat esa bevosita sin-taktik munosabatni yuzaga keltiradi. SHunga ko`ra birikma konstruksiyasi tuziladi.

So`z birikmasi ham fonetik, leksik-grammatik va semantik jihatlarning birligidan tashkil topadi.

Xullas:

1. So`z birikmasi nutq mahsuli, nutq birligidir.
2. So`z birikmasi birdan ortiq mustaqil ma`noli so`zlarning o`zaro birikuvidan tashkil topib, nisbatan aniq ma`no ifodalaydi, nutqda nominativ vazifa ba-jaradi.
3. So`z birikmasi komponentlari o`zaro tobe-hokim munosabatida bo`ladi.
4. So`z birikmasi hokim komponentining qaysi so`z turkumiga tegishligiga ko`ra turlicha nomlanadi (o`sha turkum nomi bilan ataladi).
5. So`z birikmali tuzilishiga ko`ra, sodda va murakkab birikmalarga bo`linadi.
6. So`z birikmasi asosida so`z valentligi-so`zning valentlik imkoniyati yotadi.

IV. Gap

Gap ifoda va mazmun jihatlarga ega nominativ (alohida olinganda) va kommunikativ (matn ichida berilganda) birlik sifatida morfema, leksema, so`z va so`z birikmasi kabi til hamda nutq birliklari bilan umumiyligli hosil qiladi. Ammo gap nutq jarayoni sifatida qayd etilgan lisoniy birliklardan farqli jamiyatda kommunikativ vazifa bajaradi, kommuniki-katsiya akti birligi hisoblanadi. Til aloqa quroli bo`-lish vazifasini gap orqali amalga oshiradi. CHunki gap fikr ifodalash vositasi sifatida faqat o`ziga xosligi bilan, semantik-grammatik, prosodemik shakllanganligi bilan boshqa lisoniy birliklardan ajralib turadi. Anig`i gap fikr ifodalash — axborot (xabar) berish va axborot (xabar) olish birligidir. YUqorida qayd etilgan boshqa barcha birliklar gap uchun qurilish materiali bo`lib xizmat qiladi.

Gap mazmun jihatida ob`ektiv borliq aniq holda emas, balki umumlashtirilgan holda ifodalanadi. SHu-ningdek, gap mazmunida ob`ektiv borliqdan tashqari kishining mazkur borliqqa bo`lgan munosabati — modallik-kommunikativ modallik ham mavjud bo`ladi.

Modallik esa predikativlikning muayyan ko`rini-shi, tarkibiy qismi sifatida voqelanadi.

Boshqacha aytganda, gapning grammatik asosini predikativlik — muayyan narsa-predmetning muayyan belgi-xususiyatini tasdiqlash yoki inkor qilish tashkil qiladi.

Xullas, gap predikativlik ifodasiga ega bo`lib, bu uning grammatik belgisi sifatida zamon, shaxs, modallik, mayl kabi grammatik sistemalarni-kategoriyalarni o`z ichiga oladi. Ayni vaqtida gapning predikativlikka ega bo`lishining o`zi bu birlikuvning o`ziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud bo`lgan joyda, albatta, intonatsion shakllanish ham bo`ladi. CHunki intonatsiya gapning tashqi shaklidir. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini ko`rsatadi, jumladan, delshitativ (chevara-lash, ajratish) funksiyani bajaradi. Kishilarning o`zaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonatsiya ham predikativlik kabi kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita bo`lib, u gapning uchinchi muhim belgisidir.

SHunday qilib, gap ob`ektiv borliqni kishining unga munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunliqsan iborat bo`lgan alo-hida nutqiy formadir, nutq faoliyatidir. Qiyoslang: *O`zbekiston — kelajagi buyuk davlat*. Ushbu gapda tasdiq, munosabat, intonatsion tugallik mavjud. Demak, gapni gap qiluvchi muhim jihatlar predi-kativlik va into-natsiyadir.

Gap nugga birligi-sintaktik birlik sifatida ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko`ra muayyan turlarga ajraladi. Gap mazmun tomoni orqali darak (*Vatan go`zal va tabiiy moddalarga boy*), *so`roq* (*Terrorizmni qoralamagan xalq bormi dunyoda?*), *buyruq* (*Bugungi ishni ertaga qoldirma*) kabi xabarlar voqelanadi. Ushbu jarayonlar gap mantiqiy tomonining asosini tashkil qiladi.

Gaplar tuzilishga ko`ra sodda (Men keldim) va qo`shma (Tun chekindi, kun boshlandi) gaplarga bo`linadi.

Xullas:

1. Gap ifoda va mazmun jihatlariga ega nutq bir-ligidir.
2. Gap kommunikativ jarayon - fikr ifodalash birligi bo`lib, semantik, grammatik va prosodemik shakllangandir.
3. Gapning grammatik asosini predikativlik tashkil qiladi.
4. Gap intonatsion shakllanganligi bilan ham o`ziga xosdir.
5. Gap ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko`ra, muayyan turlarga ajraladi.

11-ma’ruza

Substansiya va forma. Sistema va struktura

Reja:

1. Substansiya va shakl aloqadorligi
2. Sistema va struktura munosabati

Asosiy tayanch tushunchalar: *sistema* yunoncha “elementlardan, qismlardan, bo`laklardan iborat butunlik” bo`lsa, *struktura* yunoncha “o`zaro bog`liqlik, ichki aloqa, tuzilish, qurilish” demakdir. Moddiy sistemalar o`zaro munosabatdagi muayyan elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi xususiyatlariga ko`ra farqlanadi.

Dialektik falsafa o`z qonun va kategoriyalari bilan ob`ektiv voqelikni ilmiy bilish jarayonida bir-biridan va bir-biriga metodologik asos bo`lib xizmat qiladi.

SHunga ko`ra, barcha fanlar dialektikaning qonun va kategoriyalariga asoslanadi. Dialektik kategoriylar ob`ektiv voqelikka, tabiat va jamiyatga tegishli bo`lgan hodisa, predmet va narsa-jarayonlarni ular harakatining umumiyligini qonuniyatlarini o`zaro aloqadorligi, tuzilishi, rivojlanishi, belgi- xususiyatlari kabilarni aks ettiradi. Substansiya predmetlarning eng muhim ichki jihatlarini, xususiyatlarini, ularda sodir bo`layotgan jarayonlarni qayd etadi. Substansianing ajralmas qismi bo`lgan shakl—ularning ko`rinib turgan qismini aks ettiradi.

Muayyan mohiyati, muayyan qiyofasini turli ko`rinishlarda namayon bo`luvchi va shunga

ko`ra ajralib turuvchi jihatini ifodalaydi.

Mohiyat—ichki yashirin, shakl esa tashqi va realdir. U mohiyatning moddiy ko`rinishi, qobig'idir.

Mohiyat predmetning belgi va xususiyatlarida ko`rinadi. U predmetning ichki jihatdan qanday ekanligini ifodalaydi. Falsafadagi mohiyat va hodisa dialektikasi tilshunoslikda, til va nutqda, til va nutq birliklari, shakl va mazmun munosabatlarda kuzatiladi.

Tilshunoslikda, til tizimida shakl odatda lisoniy birliklarning moddiy tomoni bilan, mazmun esa til birliklarining ichki tomoni, ma'nosi bilan ifodalanadi.

Nazariy tilshunoslikning muhim va murakkab tuzilishlaridan bo`lgan *sistema* butunlik, yaxlit ob'ekt sifatida qabul qilindi.

Struktura esa sistemaning—butunlikning tarkibiy qismi bo`lgan sistemani sistema qiluvchi, bir-biri bilan zaruriy bog'langan elementlar, bo`laklar o`zaro bog'langan.

Boshqacha qilib aytganda, *sistema* yunoncha “elementlardan, qismlardan, bo`laklardan iborat butunlik” bo`lsa, *struktura* yunoncha “o`zaro bog'liqlik, ichki aloqa, tuzilish, qurilish” demakdir. Sistema elementlari orasidagi munosabatlarning jami sistemaning strukturasi hosl qiladi.

Sistema va struktura sinonim tushunchalar bo`lmay, har biri o`ziga xos xususiyatlarga, jihatlarga ko`ra o`zaro farqlanadi. Nisbiy mustaqil hisoblanadi.

Sistema va struktura o`zaro dialektik bog'liq bo`lgan falsafiy kategoriyalardir. Sistema struktura munosabatida bir butun ob'ekt va shu ob'ektning tuzilishini ta'minlovchi, uni atributi bo`lgan elementlar aniq ob'ektiv namoyon bo`ladi.

SHunga ko`ra har bir sistema, undagi elementlar, qismlar mavjudligiga va ajralishiga ko`ra alohidalik har qanday sistemaning eng muhim xususiyatidir.

Qiyoslang: Quyosh sistemasi, o`simliklar sistemasi, ta'lif sistemasi.

Sistema muayyan butunlik, ob'ekt sifatida elementlarni, qismlarni, bo`laklarni va ularning o`zaro aloqasini tarkibiga olsa, struktura – ayni ob'ektning ichki tuzilishi, tartibi, tashkil topishi sifatida farqlanadi.

Ob'ektiv borliq sistemalardan iborat ekan ayni sistemalarni mohiyatan ikkiga ajratish mumkin:

- 1) moddiy
- 2) ma'naviy sistema

Moddiy sistemalar o`zaro munosabatdagi muayyan elementlardan iborat sistemadir. Material sistemalar belgi xususiyatlariga ko`ra farqlanadi.

Har qanday materialdan tayyorlangan inshoot, binoni material sistema deb hisoblash mumkin, chunki u o`zaro qismlardan tashkil topgan.

Til va nutq o`zaro dialektik bog'liq bo`lib, ijtimoiy - tarixiy, ijtimoiy - psixik hamda ijtimoiy individual jarayon - hodisalar sifatida jamiyatga tengi yo`q aloqa quroli va aloqa usuli bo`lib xizmat qiladi. Shunday ekan, til va nutq jarayoni qanday amalga oshadi? Qanday birliklar bilan ish ko`radi? Umuman til va nutq birliklariga qanday birliklar kiradi ularga xos xususiyatlar nimada? Ular orasidagi o`zaro munosabat, bog'liqlik qanday kechadi?

Hozirda tilshunoslikda, xususan o`zbek tilshunosligida til va nutqning asosiy birliklari sifatida fonema, morfema, leksema, model va tovush, so`z (so`z formasi), so`z birikmasi hamda gap kabilar qayd etiladi, Aniqrog'i, til birliklariga: fonema, morfema, leksema va modellar; nutq biriklariga: tovush, so`z (so`z formasi), so`z birikmasi, gap va boshqalar kiritiladi.

Til va nutq o`zaro bog'liq ekan, bundan o`z-o`zidan mantiqiy ravishda til va nutq birliklarining ham o`zaro bog'liqliga, o`zaro "ajralmas" aloqada ekanligi tushunchasi kelib chiqadi. Boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Negaki, til va nutqning bog'liqligi, jamiyatdagি vazifasi ular birliklarining faoliyati, faolligi sababli yuz beradi. Til va nutqning o`zaro munosabati aslida ular birliklarining o`zaro bog'liqligidan, munosabatidan kelib chiqadi. Til va nutq jamiyatdagи o`z "operatsiyalarini", ta'sir qilish quvvatini muayyan birliklari orqali amalga oshiradi.

Aslida til birliklari muammosini hal qilish nutq birliklarisiz, nutq birliklari muammosini hal

qilish esa til birliklarisiz amalga oshmaydi. Ularning dialektik bog'liqdagi, munosabati ham shunda. Boshqacha aytganda nutq birliklari nutqda til birliklaridan hosil bo'ladi, ya'ni nutq birliklari asosida til birliklari mavjud bo'ladi. Til birliklari nutq birliklari uchun moddiy asos vazifasini o'taydi. Nutq birliklari (tovush, so'z, so'z birikmasi, gap kabilar) aslida tilning - til birliklarining harakatdagi ko'rinishi, faolligidir.

Til va nutq dialektikasi quyidagi birliklar orqali namoyon bo'ladi.

I. Fonema.

Til birligi bo`lgan fonema fonologik sath ob'ekti sifatida muayyan jihatlari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi, nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi.

Fonema tilning boshqa birliklariga nisbatan, aytilganidek, eng kichik (minimal) birligi bo`lib, til sistemasida (strukturasida) eng katta (maksimal) vazifa bajaradi.

Til va nutq o`rtasidagi munosabatlarni o`rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalaridan birdir. Bu masala alohida bir milliy tilni yoki umuman tillarni nazariy ta'riflashdagi boshlang'ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman.

F.Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo`lagi deb hisoblab, ularni «bir paytning o`zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor» jarayonlar deb ta'riflagan edi (Sossyur 1977: 48).

Til, Sossyurning fikricha, nutq faoliyatining ijtimoiy va psixik tomonlaridir, nutq esa uning individual va psixofizik tomonlari, yoki «odamlar nimani gapirsa, o`shalarning yig`indisidir».

«Til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatning o`zidir» (Zeginsev 1964, ch. 1: 91) degan g`oyani ilgari surgan V. fon Humboldt dan farqli o`laroq, Sossyur «til faoliyat emas, balki so`zlovchi tomonidan passiv qayd qilinadigan tayyor mahsulot, nutq mahsulidir» deydi. Uning ta'kidlashicha, «tilning voqeligi, o`z tabiatiga ko`ra nutqqa nisbatan kam emas» (Sossyur 1977: 53).

L.V.Herba xuddi F.de Sossyur singari nutq faoliyatini alohida hodisa sifatida ajratib, uni «gapirish va tushunish jarayoni» deb tushunadi. Olimning fikricha, tajribadan biz faqat nutq faoliyatini kuzatamiz va keyinchalik undan «til materiali» ajratib olinadi. Til materialiga esa «gapiriladigan va tushunadiganlarning barchasi», shuningdek, «matnlar», ya'ni adabiyot, qo`lyozmalar, kitoblar ham kiradi.

Bu o`rinda L.V.Herbaning til materiali haqidagi tushunchalari Sossyur «nutq» deb ta'riflagan tushunchaga yaqin ekanligini payqash qiyin emas.

L.V.Herba yana shuni ta'kidlaydiki, gapirish va tushunish aktlari materiali va shuningdek, keyin mutaxassislarining ilmiy xulosalari asosida lug'atlar va grammatisklar yaratiladi. Ularni oddiygina til deb e'tirof etsak ham bo`laveradi, biroq biz ularni «til sistemalari» deb ataymiz (Herba 1974: 25).

Sossyurdan farqli o`laroq, Herba tilni yoki til sistemasini konkret emas, balki mavhum hodisalar qatoriga kiritadi, biroq har ikkala tilshunos til ijtimoiy hodisa ekanligini qayd etishadi.

A.I.Smirnitskiy til va nutq munosabatlarini tahlil qilar ekan, nutqiy faoliyat tushunchasini chetlab o`tadi, ammo u Sossyur va Herbaga qaraganda umumiy insoniyat nutqi tushunchasiga ko`proq mazmun bag'ishlashga harakat qiladi. Jumladan, olim nutq quyidagi shakllarda mavjudligini alohida ta'kidlaydi:

- 1) tashqi tovushli belgili og'zaki nutq;
- 2) tashqi grafik belgili yozma nutq;
- 3) hech qanday real belgilarga ega bo`lmagan botiniy nutq (Smirnitskiy 1957: 10).

A.I.Smirnitskiyning fikricha, nutqning og'zaki va yozma shakllarda mavjud bo`lishi uning ob'ektiv tomonini tashkil etadi va ular tashqi nutqqa tegishli bo`ladi, ichki nutq esa faqat sub'ektiv shaklda mavjud bo`ladi va tafakkurdagi fikrni ifodalaydi. SHuningdek, «inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli-tuman nutqiy harakatlar natijasidir» va uning turlicha ko`rinishida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning qo'llanishidagi qonuniyatlar aniqlanadi. Turlicha nutq bo`laklarining majmuasi va bu komponentlarning

ishlatilishi to`g`risidagi qonuniyatlar va qoidalar umumiylikda muayyan bir sistemani tashkil qiladi, ya`ni o`zaro bir-birlariga bog`langan birliklar majmuasini va ular orasidagi munosabatlarni hosil qiladi. Birliklarning bunday tizimi tildir (Smirnitskiy 1957: 11-12).

Olimning fikricha, nutq umuman olganda «tadqiqot uchun xom materialdir», til esa bu «materialga asoslangan tadqiqot predmetidir».

F. de Sossyur, L.V.Herba va A.I.Smirnitskiylar faqat bir masalada hamfikrdirlar, ya`ni til nutqdan hosil bo`ladigan mahsulotdir va u tilshunoslar uchun ilmiy tadqiq predmetidir.

Ayrim tadqiqotchilar til va nutq munosabatiga boshqacha yondashadilar. Ularning fikricha, nutq tildan hosil bo`ladi, ya`ni til mutaxassislarining lingvistik faoliyatining natijasi emas, balki nutqda o`z ifodasini topadigan ob`ektiv mavjud hodisadir. Masalan, T.P.Lomtevning fikricha, «Til shunday ma`no-mazmunni anglatadiki, uning mavjud bo`lishi va ifodalanishi nutq orqali amalgaga oshadi» (Lomtev 1976: 58).

O`rganilayotgan masala bo`yicha bildirilgan turli-tuman nuqtai nazarlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til nutqiy faoliyatning hosilasidir, biroq turli tushunchalarni ifodalovchi bu atamalar turli ma`nolarda ishlatilib kelinmoqda. Til bir tomondan nutq hosil qilinadigan va tushuniladigan qurilma sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislar nutq faktlaridan xulosa qiladigan qoidalar tizimi, birliklar majmuasidir. Bu tushunchalarning har ikkalasi ham o`zaro bir-birlariga bog`liqdir, chunki til qurilma sifatida mohiyatni anglatadi, bu mohiyatni unda mavjud bo`lgan qoida va birliklar orqali bilish mumkin.

Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u til qurilmasi faoliyati natijasidir.

Til va nutq haqida bildirilgan bunday fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ular o`zaro bog`liq, bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir va ayni paytda, ular o`rtasida muayyan farqlar ham mavjudki, bularni alohida eslatish lozim bo`ladi.

Til potensial hodisa bo`lib, kishilar ongida bolalikdan o`zlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud bo`ladi.

Nutq esa mavjud imkoniyatni voqelantirish va so`zlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalgaga oshirish jarayonidir.

Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biridir. Insonlar muloqoti nutq orqali amalgaga oshiriladi. Uning yordamida odam o`z fikrini, hissiyotlarini, kayfiyatini, istaklarini ifodalaydi. Nutq individual hodisa bo`lsa-da, aksariyat hollarda biz bir-birimizni tushunamiz. Tushunish so`zlashish faoliyatida ayrim o`ziga xos va umumiyy xususiyatlarning mavjudligi tufayli yuz beradi. Bunday xususiyatlar muayyan til jamoasi ishlatadigan birliklar (fonemalar, morfemalar, so`zlar, gaplar) va ulardan foydalanish qoidalarining umumiyligidadir. Umumiyy birliklar va qoidalar til tizimiga mansub bo`lib, ularning individual nutqda ishlatilishi nutqning strukturaviy asosini tashkil qiladi. Aynan shu asosda nutqning muloqot jarayonidagi vazifasi amalgaga oshiriladi.

Gapirish va tushunish jarayoni odamlar orasida fikr almashinuv, hissiyotlarini bildirish, axborot uzatish ehtiyoji tufayli ro`y beradi va bularning hammasi ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Nutqning aynan mana shu ijtimoiy asosini til tizimi tashkil qiladi. Demak, nutq umumiyy va ijtimoiy xususiyatga ega bo`lgan tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir.

SHunday qilib, nutq «hamma vaqt ma`lum maqsadga yo`naltirilgan va vaziyatga bog`liqdir» (Zveginsev 1973: 238). Ayni paytda, til birliklari va qoidalar vaziyatga bog`liq emas. Ular nutqiy birliklarni tashkil qilish vositasi bo`lib xizmat qiladi va o`z navbatida so`zlochidan muloqot vaziyatidagi ekstralengvistik shart-sharoitlarga moslashuvni talab qiladi. Nutqning maqsadga yo`naltirilganlik xarakteri suhbатdoshga va uning tushunishiga asoslangan. Xullas, nutqning maqsadga yo`naltirilganligi ekstralengvistik vaziyatga bog`liq, ammo til bunday xususiyatlarga ega emas.

Til ko`p o`lchamli hodisadir. Uning birliklari o`rtasidagi bog`liqliklar, aloqalar ham turli-tumanmdir. Til birliklari o`rtasida bunday munosabatlarning mavjudligi uni yaxlit bir butunlikka, sistemaga aylanishga olib kelgan.

Til birliklari orasidagi bog`liqliklarning turli-tumanligi til tizimida behad ko`p jumlaviy

tuzilmalar yasash imkonini beradi va nutqda aynan bir fikrni vaziyatga qarab turlicha usullarda bayon qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Tilning ko`p o`lchamliligiga qarama-qarshi holda nutq ketma-ketlik xususiyatiga ega, ya`ni u ma'lum zamonda (og`zaki nutq) va makonda (yozma matn) amalga oshirilishi mumkin. Nutq elementlari ifodalanayotgan fikr kechishiga qarab jumlalar matnda ma'lum bir tartibda ketma-ket joylashadi. Xuddi shunday ketma-ketlik nutqni idrok qilish jarayonida ham kuzatiladi. Biz nutq axborotini aynan ana shunday ketma-ketlikda, birlıklarning ma'lum qoidalarga bo`ysungani holda ifodalanishi asosida idrok qilamiz va to`g`ri tushunamiz.

12-ma'ruza

Tilni informatsiya nazariyasiga ko`ra kod bilan tenglashtirish.

Tilning ikki jihatni

Reja:

1. Tilni informatsiya nazariyasiga ko`ra kod bilan tenglashtirish.
2. Semiotika
3. Tilning ikki jihatni: ifoda va mazmun jihatlari

Informatsiya nazariyasi "matematika" fanining nisbatan mustaqil, alohida ahamiyatga ega bo`lgan tarmog'i, sohasi sifatida mavjud. U statistika fani bilan bog'lanib, aloqa sistemalari orqali informatsiyani uzatish jarayonini o`rganadi. Aniqrog'i informatsiya nazariyasi (informatika) informatsiyani uzatish va saqlashnnng mazmun tomonini emas, balki uning statistik qurilishi bilan shug'ullanadi, qiziqadi, ya`ni informatsiya nazariyasi axborot matnini statistik struktura sifatida o`rganadi.

Statistik struktura axborotdagi signal (simvol) va signallar birlashuvining voqelashish chastotasi soni, miqdori sifatida tushuniladi:

Signalning ko`p marta takrorlanishida signal orqali uzatiladigan axborotning miqdorini aniqlash juda muhimdir.

Demak, informatsiya nazariyasi muayyan axborotdagi ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning tabiatiga mazmuniga bog'liq bo`laman holda miqdorini o`lchash (tekshirish) yo`llarini, usullarini ishlab chiqadi. Shunga ko`ra informatsiya nazariyasining muhim va asosiy sulosalari tilshunoslikda ham o`z ifodasini topadi.

Informatsiya nazariyasi ma'lumotlarni o`rganish jarayonida maxsus terminlardan tushunchalardan foydalanadi. Bular quyidagilar:

1. Kod axborotni yozib olish vositasi (usuli).
2. Matn (tekst) - muayyan axborotni berish, uzatish jarayonidagi belgilarning (til birliklarining, simvollarnikn) izchilligi, ketma - ket kelishi.
3. Kanal - axborot beriluvchi, uzatiluvchi muhit, sharoit.

Tilni informatsiya nazariyasiga ko`ra yuqorida qayd etilgan uchta tushunchalardan qaysi biri bilan tenglashtirish, qaysi biri bilan "baholash" mumkin?

Tilni kod bilan tenglashtirish, kod bilan parallel quyish mumkin. CHunki kod, aytilganidek, axborotni yozib olish usuli, vositalaridan biridir. Demak, til - tilning har bir belgisi (til birliklari) kod sifatida muayyan axborot tashiydi, uzatadi, yetkazadi. Binobarin, ayni paytda, ushbu axborotni hisoblab chiqish, statistik ma'lumot to`plash mumkin.

Xullas, til informatsiya nazariyasiga ko`ra kod sifatada namoyon bo`ladi. Til orqali fikr almashish jarayonida ifodalanadigan, beriladigan axborotlarni statistik tahlil qilish, ma'lumot to`plash mumkin, zarur va muhimdir.

Semiotika (yoki semiologiya) belgilarni sistemasi haqidagi fandir. SHunga ko`ra semiotika belgilarni sistemasiga xos bo`lgan umumiyl xususiyatlarni, jihatlarni o`rganadi. Semiotika belgilarni nazariyasi haqidagi ta'limot sifatada belgilarni, belgilarni sistemasiga kiruvchi hodisalarini, ularning tabiata, mohiyati, turlari, ko`rinishlari, amal qilishi kabilarni tekshiradi.

Semiotika, aytilganidek, belgilarni nazariyasi haqidagi ta'limot bo`lib, uning muayyan

yo`nalish sifatada tilshunoslik va semiotikaning o`zaro maqsadli aloqaga, Munosabatga kyrishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllanadi. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasi sifatida semiotikaning lingvosemiotikaning tekshirish ob`ekti hisoblanadi, ya`ni lingvosemiotika tilning belgi tabiatiga egaligini, informatsiya uzatuvchi til birliklarini xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ma'lumki, til - til (nutq) birliklari (so`z, so`z birikmasi, gap va boshqalar) muayyan belgilar sifatada ma'no, tushuncha, fikr ifodalaydi. Ular ma'no, tushuncha, fikr kabilarning simvoli (ramzi) yoki belgisi bo`lib hisoblanadi. SHunga ko`ra Ferdinand de Sossyur til g'oya, fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasidir, deydi.

Semiotikaning tekshirish ob`ekti jamiyat tomonidan faol qo'llanadigan belgilar sistemasi bo`lib, ular inson paydo bo`libdiki, jamiyatga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, belgilar sistemasi ham jamiyat kabi qadimiydir. Demak, belgilar sistemasi jamiyat bilan birga paydo bo`lib, jamiyat bilan birga "qadam tashlaydi". CHunki ular inson faoliyat tufayligina hosil buladi, shu faoliyat orqali harakatga keladi, muayyan vazifa bajaradi, inson faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ma'lum bo`ldiki, semiotika belgilar haqidagi, belgilar nazariyasi haqidagi keng qamrovli nazariy - falsafiy fan bo`lib, tilni belgilardan iborat butunlik sifatida o`rganadi. CHunki til birliklari, tilning tarkibini tashkil qiluvchi struktural elementlar - morfema, so`z, so`z birikmasi, gap, matn va boshqalar muayyan informatsiyani berish, yetkazish - ijtimoiy vazifani bajarish uchun xizmat qiluvchi belgilar sistemasi sifatida tadqiq qilinadi. SHunga ko`ra til jamiyatda mavjud bo`lgan boshqa belgilar bilan umumiylikka, o`xshashlikka ega bo`ladi. SHunga ko`ra til semiotika fanining - lingvosemiotikadagi tadqiq qilish, o`rganish ob`ektiga aylanadi.

Tilning tabiatini, mohiyatini, jamiyatdagi o`rni va rolini bilish uchun uni faqat u yoki bu til bilan qiyoslashning o`ziga Xullas, til belgilar sistemasi bo`lib, uning belgilari so`z, so`z birikmasi, til kabi birliklar va ularning turlicha bog`lanishidan tuziladigan konstruksiyalar lingvistik belgilar sifatida voqelashadi, jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

Til sistemasi - o`ta murakkab sistema sifatida jamiyatda ijtimoiy-amaliy vazifa bajarar ekan, ushbu jarayonda til sistemasining struktural birliklari, qurilish "a'zolari" faol harakatga keladi. Til sistemasining elementlari, birliklari bo`lgan fonema, morfema, so`z kabilalar o`zicha alohida, yakka holda emas, balki o`zaro bog`liq holda, o`zaro munosabatda, mantiqiy uyushgan, bog`langan holda ob`ektiv borliq, predmet, voqe - hodisalari haqida muayyan xabar beradi. Demak mazkur birliklar o`zaro zaruriy, mantiqiy aloqaga kirishib, til sistemasini shakllantiradi, uning ob`ektivligini, bir butunligini ta'minlaydi, tilning ijtimoiy vazifa bajarishi uchun imkoniyat beradi, shart - sharoit yaratadi.

Ushbu jarayonda tilning yuqorida qayd etilgan birliklarining har biri o`ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan, nisbiy mustaqilligi bilan, umumiyligini farqlanadi.

Til sistemasi struktural birliklarining eng dastlabki o`ziga xosligi muhim jihatni nimada ko`rinadi?

Til sistemasining asosiy birliklari bo`lgan fonema, morfema va so`zlarning ijtimoiy vazifa bajarishidagi eng muhim jihatni ularning ikki tomoniga, ikki planga egaligida ko`rinadi. Ushbu birliklar ifoda va mazmun jihatga egaligi bilan, shu nuqtai nazaridan umumiyligini farqlanadi.

Umuman olganda, til birliklarga ifoda va mazmun plani nuqtai nazaridan qarash ilmiylik prinsipiiga to`la muvofiq keladi, tilning jamiyatda kommunikativ vazifa bajarish mohiyatini, xususiyatini ochib beradi.

Eslatamiz, tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud har bir narsa, hodisa - falsafiy ma`nodagi predmet shakl (tashqi) va mazmun (ichki) tomonlariga ko`ra baholanadi, muayyan ahamiyatiga ega bo`ladi, turli fanlar nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi.

Tilning eng kichik birligi bo`lgan tovush (fonema) shakl va mazmun jihatiga ko`ra o`ziga xos bo`lib, morfema va so`zlardan farqlanadi. Tovush (fonema), qayd etilgan xususiyati nuqtai

nazaridan, faqat bir tomonga - ifoda tomoniga egadek ko`rinadi. U morfema va so`z kabi muayyan tushuncha - mazmun bilan bog'lanmaydi, ma'no ifodalamaydi. SHu nuqtai nazaridan tovush (fonema) bir tomonlama birlikka o`xshaydi. Ammo tovush (fonema) faqat ifoda jihatiga, moddiylik xususiyatiga egaligidan tashqari, ayni vaqtda, u dastavval til birliklarining tashqi - ifoda jihatini tashkil qiladi va ularni shaklan - tovush tizimiga ko`ra farqlaydi. SHunga ko`ra til birliklarining ma'nosini o`zgaradi, o`zaro farqlanadi. Demak, tovushlarning (fonemalarinin) ma'no farqlash xususiyati aslida til birliklarining ifoda jihatlarini farqlashdan, ajratishdan kelib chiqadi. Aytiganlarga ko`ra tovush (fonema) tlning ma'no farqlash, xususiyatiga, qiymatiga ega bo`lgan minimal birlik hisoblanad. Demak tovush(fonema) muayyan ma'noga ega bo`lmagan ammo ayni vaqtda muayyan ma'noga ega til birliklarining (morfema va so`zlarning) differensiatsiyasi uchun, ularni o`zaro farqlash uchun xizmat qiladi. SHunga ko`ra tovush (fonema ijtimoiy vazifa bajaruvchi til (nutq) birliklari so`z va morfemalar nuqtai nazaridan u ham jamiyatda ijtimoiy vazifa bajaradi.

Demak, - til birligi bo`lgan tovush (fonema) kommunikativ jarayonda ijtimoiy vazifa bajarishiga, tilning eng asosiy "birlamchi qurilish materiali", moddiy ashyosi ekanligiga, so`z hosil qilish, so`z yasash, ma'no farqlash kabi ijtimoiy - lisoniy xususiyatlarga egaligiga ko`ra alohida baholanadi. SHunga ko`ra tovush (fonema) til birligi sifatida tilshunoslikning "alohida sohasi "bo`lgan fonemalar haqidagi ta'limotning fonologiyaning tadqiq va tahlil ob'ekti hisoblanadi.

Sistemalar sistemasi bo`lgan tilning minimal qurilish birligi bo`lgan tovush (fonema) asosida hosil bo`luvchi morfemal va so`z ifoda va mazmun, tovush va ma'no, tashqi va ichki, material va ideal jihatiga ko`ra o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aytmoqchimizki, tilning har ikkala birligi ham ikki tomonga - ifoda va mazmun planlariga egaligi bilan xarakterlanadi, umumiylukka ega bo`ladi. Ular qayd etilgan ikki jihatiga ko`ra belgi - til belgisi, til (nutq) birligi sifatida qayd etiladi.

Til birligi bo`lgan morfema ifoda (moddiy) va mazmun (ruhiy) jihatlarining bir butunligidan iborat bo`lib, tilning muayyan ma'noga ega eng kichik birligi hisoblanadi. Aytiganlarga kura, u muayyan belgi - ramz hisoblanadi. SHunday qilib, morfema tovush va ma'no kabi ikki muhim jihatga egaligi bilan xarakterlanadn.

Muayyan birlik bo`lgan so`z (leksema) ikki planli belgi sifatida tovush va mano, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog`liqligidan iborat bo`lib, nominativ birlik holatida ijtimoiy vazifa bajaradi. So`z (leksema) muayyan birliklar ichida ham shaklan, ham mazmunan - sifat jihatdan mukammal bo`lib, tilning ijtimoiy vazifa bajarishida semantik - funksional yetakchilik qiladi, qudratli vosita - mikrosistema hisoblanadi.

Til sistemasida so`zning tashqi tomonini tovush, ichki - mazmun tomonini esa uning ma'nosini tashkil etadi. Tovush va ma'no orasidagi bog'lanish shartli (semiotik) bog'lanishni hosil qiladi.

Demak, so`z tovush va ma'no jihatlaridan, tomonlaridan iborat o`ziga xos butunlidir (mikrosistemadir).

So`zning ifoda plani uning tashqi - tashqi tomoni bo`lib, bunda so`zning belgisi sifatida uning tovush tomoni xizmat qiladi. So`z ifoda planiga ega deyilganida, so`zni formal shakllantiruvchi, uni moddiy birlik sifatida sezgi a'zolarimizga ta'sir qilishini ta'minlovchi tovushlar nazarda tutiladi.

So`zning mazmun plani uning ichki, ma'no tomoni (leksik ma'no, leksik tushuncha, ramziy axborot, signifikat semema) bo`lib, u ob'ektiv borliq elementlarining kishi ongida aks etishi, ayni elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuv natijasida yuzaga keladigan ideal (psixik) strukturadir. Demak, ma'no in'ikos kategoriyasidir.

Ma'no ob'ektiv borliq elementi yoki ushbu elementlar guruhining kishi ongidagi shartli ramzi (belisi, ishorasi) emas, balki bu element (yoki - elementlar guruhining) kishi ongida mavhumlik kasb etgan obrazni, umumlashgan in'ikosi hisoblanadi.

So`zning ifoda jihatni tovush tomon ob'ektiv borliq elementi haqidagi xabarniig - so`z mazmun tomonining, ma'noning (tushunchaning) ramzi, ko`rsatkichi bo`lib voqelashadi.

So`zning mazmun tomonini o`zicha biron shaxsga ma'lum qilish mumkin. bo`lmaganligi uchun uning tovush jihatni, ramzi talaffuz qilinadi. Bu ramz (belgi) tinglovchi ongida tegishli tushuncha, tasavvur uyg'otadi.

Demak, til sistemasida ramziy munosabat tovush va ma'no orasidagi shartli bog'lanish tarzida yuzaga chiqadi. Ma'noda aks etadigan aniq narsa yoki hodisa tasavvuri (denotat) ikkinchi planda bo`ladi. Denotat so`z ma'nosi emas, balki so`z yordamida ko`rsatiladigan, nomlanadigan, ataladigan hodisadir. Ma'no esa, qayd etilganidek, ob'ektiv borliq elementlariga xos bo`lgan xususiyatlarning inson ongida mavhumlik kasb etishi umumlashuvi natijasida shakllanishidir.

So`zda tovush ifodalovchi (ramz, belgi) bo`lsa, ma'no ifodalanuvchi bo`ladi.

So`z mazmun planida ikki hodisa farqlanadi: leksik mano (signifikat) va denotat.

Nutqda so`z denotatning (ob'ektiv borliq elementining) lingvistik (lisoniy) vazifasini bajaradi.

Demak, so`z ikki: moddiy va ruhiy (ma'noviy) jihatlarning bog'liqligidan, diaxron - sinxron zaruriy, "tabiiy" aloqasidan iborat bo`lib, ayni bog'liqlikning bir tomonini so`zning ifoda jihatni, ikkinchi tomonini esa uning ma'no jihatni tashkil etadi.

So`zdan yirik so`z birikmalari va gaplar ham ifoda va mazmun planlariga ega bo`lib, ularning mazkur ikki jihatni ko`proq grammatika va semantikaning aloqasi doirasida qaraladi. Ushbu nutq birliklari ham aslida ifoda va mazmun planiga ega so`zlarning birikuvidan, o`zaro bog'lanishidan yuzaga keladi. SHu sababli ularni o`rganish, ularni hosil qilgan suzлarni o`rganishdan, ilmiy tadqiq qilishdan boshlanadi.

SHunday qilib:

1. So`z tovush va ma'no, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog'liqligidan iborat bo`lgan nominativ birlikdir.

Til sistemasida so`zning tovush tomoni ramz, mazmun tomoni esa uning in'ekosini tashkil etadi. Bu elementlar orasidagi bog'lanish shartli (semiotik) bog'lanish hisoblanadi.

So`zning mazmun (ma'no) tomoni ob'ektiv borliq elementlarining kishi ongida aks etishi, ushbu elementlarga xos xususiyatlarning umumlashuvi natijasida yuzasa keladigan ideal (psixik) strukturadir.

So`z mazmun planida ikki hodisa: leksik ma'no (semema, signifikat) va denotat farqlanadi.

13-ma'ruza

Til sistemasi, til birliklari o`rtasidagi munosabatlar.

Sintagmatika va paradigmatica

Reja:

1. Til sistemasi o`rtasidagi munosabatlar
2. Sintagmatik munosabatlar
3. Til sistemasidagi birliklarning paradigmatic munosabati

Asosiy tayanch tushunchalar:

Til ikkilamchi material sistema sifatida ideal sistemalarning, yani g'oyalar, fikrlar, tushunchalarning "moddiylashishi", voqelashishi uchun xizmat qiladi.

Til sistemasi - bu lisoniy (lingvistik) birliklar va ularning jamiyat talabiga - kommunikativ jarayonga mos holda o`zaro bog'lanishi, mantiqiy munosabatga kirishishi uchun xizmat qiladigan muayyan qoidalar xazinasidir, imkoniyatdir.

Til sistemasi tarkibidagi moddiy kommunikativ birliklar muayyan qoidalar asosida o`zaro zaruriy aloqaga, munosabatga kirishadilar, muayyan guruhlarni (paradigmalarini) tuzadilar, nutq birliklarini - hosilalarini yaratadilar. Bu aloqa munosabatlar mutlaqo mantiqiy, ob'ektiv, ijtimoiy bo`lib, ikki yo`nalishda paradigmatic va sintagmatik bog'lanishlarda kuzatiladi, reallashadi. Ushbu aspektlarda tadqiq va tahlil qilinadi, o`rganiladi. Anig'i, til birliklari orasidagi bog'lanish,

aloqa paradigmatic va sintegmatik munosobatni hosil qiladi. Demak, til sistemasi tarkibidagi birliklarning asosiy munosabatlari paradigmatic va sintagmatik munosabatlar hisoblanadi. Til sistemasi faoliyati, amaliyoti, harakati, mavjudligi aynan mana shu paradigmatic va sintagmatik munosabatlar asosida yuz beradi. SHunga ko`ra til sistemasi bilan bevosita — tabiiy bog'liq paradigmatica - paradigmatic munosabat va sintagmatika sintagmatik munosabat kabi tushunchalarni aniqlash, ularning til sistemasidagi mavqeini, ahamiyatini, o`rnini belgilash nazariy tilshunoslukning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Eslatamiz, paradigmatica, paradigmatic munosabat (assotsiativ aloqa) va sintagmatika, sintagmatik munosabat tushunchalari Ferdinand de Sossyur tomonidan tilshunoslik nazariyasiga kiritilgan.

Paradigmatika til birlıklarini til sistemasining elementlari sifatida, struktural birliklarning jami sifatida tekshirish aspekti hisoblanadi. Aytmoqchimizki, paradigmatica til sistemasining struktural birlıklari muayyan paradigmalarga birlashib, o`zaro bir-biri bilan taqqoslanishiga, qiyoslanishiga ko`ra xarakterlanadi. Demak, paradigmatica ayni vaqtida paradigmalar sistemasidir. Paradigmalar sistemasi esa aytiganidek, til birlıklariga aniqrog'i, ularning umumiy va xususiy ma'nolariga ko`ra - ular asosida tashkil topadi, ya'ni paradigmalar o`zaro mantiqiy munosabatga kirishgan qator til birlıklarinnng umumiy ma'nolariga ko`ra birlashib, xususiy ma'nolariga ko`ra esa farqlanadi. Masalan: otlarning kelishik bilan turlanishi hamda grammatic son va egalik shakllari paradigmasi, fe'llarning shaxs-sonda tuslanish paradigmasi va boshqalar.

Demak, parigma hosil qilgan ayni birlıklar leksik (umumiy) ma'nosiga ko`ra bir xil grammatic (xususiy) ma'nosiga ko`ra esa farqlanishi bilan o`ziga xosdir. SHuningdek, paradigmalar sistemasi ko`pincha tik (vertikal) joylashishi bilan ham ajralib turadi.

Ma'lum bo`ldiki, muayyan paradigmaga birlashuvchi til birlıklarining o`zaro munosabati paradigmatic munosabat sifatida namoyon bo`ladi.

Paradigmatik munosabat bir parigma bir birlıklari doirasidagi - orasidagi munosabatdir, ichki jarayondir.

Til va nutq dixotomiyasiga ko`ra paradigmatica-paradigmatik munosabat tushunchasi til bilan - til imkoniyati bilan bog'lanadi. CHunki paradigmatic munosabat birlıklari ham aslida imkoniyat sifatida nutqda - Nutq birlıklarida vogelashadi, muayyanlashadi, nutq uchun ashyo, zaruriy, material vazifasini o'taydi, nutqqacha bo`lgan jarayon hisoblanadi. SHunga ko`ra ular sintagmatik munosabatdan farqlanadi, ular kabi bevosita ruhiy - fikriy ta'sir qilish quvvatiga — kommunikativ aloqa imkoniga ega bo`lmaydi, umumiylit sifatida mavjud bo`ladi.

Paradigmatik munosabat tushunchasi keng bo`lib, lisoniy birlıklarning, masalan, so`zlarning muayyan bog'lanishlarini sinonimlar (bo`kmoq, ivimoh, ozmoq, oriqlamoq, ozg'inalamoq, shalpaymoq, shalvaymoq, shalviramoq) tematik guruhlari (suv, ariq, kanal, ko`l, daryo, dengiz, okean), (shimol, janub, sharq, g'arb), (tepalik, balandlnk, tog', cho`qqi) so`z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish); antonimlar (keng-tor, kun-tun, qattiq-yumshoq, oq-qora, yaxshi-yomon, achchiq-shirin, yosh-qari) kabilarni ham o`z ichiga oladi.

Demak, paradigmatic munosabatlar lisoniy birlıklarning o`xshash, umumiy belgi-xususiyatlari ko`ra bog'langan, birlashgan gururuuhlaridir, sistemasidir. Ular til birlıklari orasidagi o`xshashlik va farqlanishga asoslanadi.

Paradigmatik munosabat til bnrlıklarining nutqqacha bo`lgan munosabati, imkoniyat sifatada til hodisasi bo`lib, tilshunoslikda assotsiativ munosabat, assotsiativ aloqa nomi bilan ham yuritaladi.

Paradigmatik (assotsiativ) munosabatni tashkil qiluvchi til birlıklarining miqdori chegaralanmagan, nisbatan noaniq, davomiyidir. SHuningdek, paradigmatic munosabatdagি birlıklar o`zaro hokim-tobelik aloqasiga kirishmaydi, kirisha olmaydi. CHunki ular muayyan umumiy belgi asosida bog'langan alohida teng huquqli mustaqil birlıklar-paradigma birlıklari sifatida paradigmatic munosabatni hosil qiladi. SHunga ko`ra paradigmatic munosabat til birlıklarining nutqqacha-nutq faoliyatigacha bo`lgan munosabati, aytiganidek, imkoniyat sifatidagi til faktidir. Demak, til va nutq dialektikasi nuqtai nazaridan paradigmatica-paradigmatik munosabat umumiylit sabab, imkoniyat sifatidagi, til hodisasi hisoblanadi.

Paradigmatika, paradigmatisk munosabat bilan bog'liq bo`lgan sintagmatika sintagmatik munosabat esa til va nutq dixotomiyasiga ko`ra ularning qaysi biri bilan bog'lanadi?

Til sistemasi o`z mavjudligi va amaliy qudratini, ijtimoiy harakatin ushbu tayanch, eng asosiy munosabatlarga ko`ra amalga oshirar ekan, qayd etilgan savolning berilishi mutlaqo mantiqiyidir.

Ta'kidlaymiz, til sistemasi uning birliklari va qoidalari paradigmatica-paradigmatik munosabat birliklari-paradigma a'zolari til hodisasi, til fakti sifatida o`zining ta'sir kuchini, harakatini, ijtimoiy-amaliy faolligini va faoliyatini-kommunikativ vazifasini sintagmatikada-sintagmatik munosabatda namoyon qiladi, ko`rsatadi. CHunki paradigmatic mutosabat birliklari ijtimoiy amaliyot natijasi, fakti, hodisasi sifatida sintagmatik munosabat orqaligina til birliklarining valentlik munosabatiga kirishuvi semantik-sintaktik bog'lanishiga ko`ra amalga oshadi. Demak, sintagmatika, sintagmatik munosabat nutq bilan, nutq jarayoni bilan bog'lanadi, nutq hodisasi, nutq fakti hisoblanadi. CHunki nutq, nutq faoliyatni kommunikativ faoliyatdir, fikr almashish jarayonidir, til sistemasining. noperadigmatik munosabati birliklarning jamiyatdagi faolligidir, harakatidir.

Nutq hodisasi, nutq fakti bo`lgan sintagmatika, sintagmatik munosabat tushunchalari o`ziga xos xususiyatlari, muayyan "shaxsiy" jihatlari bilan ajralib turadi. Aniqrog'i, sintagmatika til sistemasi birliklarining nutq faoliyatida muayyan tartibda, ketma-ketlikda joylashishi o`zaro mantiqiy munosabatga kirishishidir.

Ma'lum bo`ldiki til sistemasi birliklarining faollashishi, nutqning aniq birligiga aylanishi sintagmatika, sintagmatik munosabat tufayli yuz beradi. Bundan mantiqiy ravishda paradigmaticaning sintagmatika bilan bog'liqligi kelib chiqadi. Aytish mumkinki, sintagmatika paradigmaticaning mavjudlik va namoyon bo`lish shaklidir.

Sintagmatika til birliklarining nutq jarayonida o`zaro bog'langan holda qo'llanishini tekshiradi.

Demak, lisoniy birliklarning - masalan, so`zlarnnng nutq faoliyatida ketma-ket kelishi muayyan tartibda joylashishi sintagmatika sifatida namoyon bo`ladi.

Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi.

Qiyoslang: Men istiqlol tufayli gullab yashnayotgan Vatanning farzandimani.

Ko`rinib turibdiki, nutq faoliyati muayyan "yotiq chiziqqa" joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta'sir qilishi insonda lisoniy sezgi uyg'otishi bilan ham o`ziga xosdir.

Sintagmatik munosabatlar nutq faoliyatidagi birliklar aloqasi, munosabati sifatida, paradigmatic munosabat birliklaridan farqli, bir gurux birliklari orasida ham, shuningdek, turli guruh birliklari orasida ham mavjud bo`lishi mumkin.

Qiyoslang: Bugun ustoz va shogirdlar kuni.

Ushbu birliklardan (so`zlardan) har biriga tegishli bo`lgan guruhning paradigmaticaning vakili hisoblanadi. Demak, sintagmatikadagi munosabatlar muayyan birliklar (so`zlar) munosabati sifatida emas, balki guruhlar-sinflar (paradigmalar sistemasi) munosabati sifatida iamoyon bo`ladi.

Demak, nutq birliklari nutqiy hosilalar sintagmatik munosabatlarning namoyon bo`lishidir. SHunnngdek, nutq birliklari muayyan sinflar, guruhlar paradigmalar) orasidagi munosabatlarning voqelashishidir.

SHunday qilib, sintagmatik munosabat til birliklarining nutqdagi - fikr almashish Jarayonidagi o`zaro mantiqiy, zaruriy munosabatidir, fikr ifodalash uchun xizmat qilishidir. SHunga ko`ra ushbu munosabat nutq hodisasi sifatida belgilanadi, nutq bilan o`lchanadi.

Sintagmatik munosabat lisoniy birliklar, masalan, so`zlarning biri ikkinchisi bilan sintaktik munosabatga kirishib, so`z birikmasini yoki gapni hosil qilishidir.

Qiyoslang: milliy iftixor, Vatan mustaqilligi, ma'naviyat allomalari, O`zbekiston mustaqil diyor, yoshlarni sportga jalb qilish zarur.

Bunda lisoniy birliklar muayyan tartibda, ketma-ketlikda kelib, gorizontal chiziqqa joylashishi bilan ajralib turadi.

Eslatamiz, sintagmatikada sintagmatik munosabatda ishtirok etuvchi har bir lisoniy birlik o`zining muayyan o`rniga (pozitsiyasiga) ega bo`ladi. SHunga ko`ra u tavsiflanishi bilan ham ajralib turadi. Muayyan pozitsiyadagi birlik ayni vaqtda muayyan nutqda vazifaga - egaligi bilan ham muhimdir. Nutq jarayonidagi lisoniy birlikning o`rni (pozitsiyasi) ayni vaqtda uning nutqdagi nisbiy joylashishidir.

Qiyoslang: 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni. Vatan mustaqilligini mustahkamlash har birimizning vijdony burchimizdir.

YUqorida aytilganlardan kelib chiqib, qat'iy xulosa shuki, sintagmatik munosabatlar tilning bosh vazifasini-kommunikativ vazifasini ta'minlaydi.

Sintagmatik munosabatlarning reallashishiga ko`ra til birliklaridan axborot tashuvchi gaplar - nutq birliklari, nutqiy "asarlar", hosilalar shakllanadi, hosil bo`ladi.

Demak, sintagmatik munosabatlar shunday munosabatlarki, ularga ko`ra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi, ya'ni tilning kommunikativ vazifasi sintagmatik munosabatda namoyon bo`ladi va shu munosabatga tayanadi.

Xullas, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar o`zaro dialektik bog'liqlikda, bir butun, yaxlit holda sistemalar umumiyligi, jami sifatida tilning aloqa quroli bo`lib xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faoliyatini ta'minlaydi.

1. Til sistemasi lisoniy birliklar va qoidalar xazinasi bulib, ular paradigmatic va sintagmagik aspektlarda o`rganiladi.

2. Paradigmatica paradigmalar sistemasidir. Paradigmalar sistemasi til birliklarining umumiyligi va xususiy ma'nolariga ko`ra tashkil topadi.

3. Paradigmalar sistemasi birliklarining o`zaro ichki munosabati paradigmatic munosabatdir.

4. Paradigmatica - paradigmatic munosabat til bilan - til imkoniyati bilan bog'lanadi. Ushbu munosabat til birliklarining nutqqacha-nutq faoliyatigacha bo`lgan munosabati til faktidir.

5. Sintagmatika til sistemasi birliklarining nutqda muayyan tartibda ketma-ketlikda joylashishi, kelish jarayoni bilan bog'lanadi.

6. Nutq faoliyatida o`zaro mantiqiy aloqaga kirishgan birliklar orasidagi munosabat sintagmatik munosabatdir. Nutq birliklari - nutqiy hosilalar sintagmatik munosabatning voqelashishidir.

7. Sintagmatik munosabat tilning kommunikativ vazifasini namoyon qiladi. Sintagmatik munosabatga ko`ra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi.

8. Sintagmatik munosabat nutq bilan, nutq faoliyati bilan bog'lanadi, nutq fakti hisoblanadi.

9. Sintagmatikada - sintagmatik munosabatda ishtirok etayotgan birliklarning har biri o`zining muayyan o`rniga (pozitsiyasiga) ega.

10. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar, til va nutq kabi, o`zaro dialektik bog'liq bo`lib, tilning jamiyatda aloqa quroli sifatida xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faolligini ta'minlaydi.

13-ma'ruza

Tipologiya va lingvistik tipologiya. Lisoniy metodlar. Dioxron tadqiqot metodlari

Reja:

1. Tipologiya va lingvistik tipologiya
2. Lisoniy metodlar
3. "Metod" tushunchasi haqida
4. Tasviriy metod
5. Qiyosiy- tarixiy metod
6. CHog'ishtirish metodi

7. Tarixiy –qiyosiy metod
8. Tipologik metod

Tayanch tushunchalar:

Tarixiy-qiyosiy metod - bir tilni yoki bir necha qarindosh tillarni, ularga teshoi birlıklarni, hodisalarni tarixiylik prinsipi asosida qiyoslaydi, ular orasidagi tarixiy umumiylilikni, o`xshashlikni va farqlarni aniqlaydi.

CHog'ishtirish metodi - ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo`lman tillarni o`zaro qiyoslab, chog'ishtirib o`rganadi. Tipologik metod - o`zaro qarindosh va qarindosh bo`lman tillar, struktur jihatdan qiyosiy o`rganilib, ular tuzilishiga xos xususiyatlar - umumiy va farqli tomonlar aniqlanadi.

Har bir fan kabi tilshunoslik fani ham tarixiy taraqqiyoti davomida lisoniy hodisalarni o`rganishda, tadqiqot ob`ektini (manbaini) ilmiy tahlil qilib, uning ichki "sirlarini", muayyan jihatlarini ochishda, tabiatini, tarkibini aniqlashda, ilmiy xulosalar chiqarishda muayyan metodlar asosida ish olib boradi. Bu – mutlaqo tabiiy. CHunki metod tadqiqot manbaining (ob`ektining) biror jihatini, tomonini (qismini, bo`lagini) o`rganish, aniqlash, bilish usulidir. Boshqacha aytganda, tabiat va jamiyat hodisalarining, jarayonlarining mohiyatini bilish, ularning o`ziga xosliklarini, jihatlarini, belgi-xususiyatlarini aniqlash va ular haqida ob`ektiv ilmiy-falsafiy g`oyalar, umumlashmalar chiqarish faqat muayyan tadqiqot metodlari faolligida, ularni qo`llash orqali amalga oshadi. Demak metod fanining mavjudligi, uning ajralmas tarkibiy qismi, mantiqiy bo`lagi (komponenti) bo`lgan ilmiylik degan tushunchaga xizmat qiladi. U fan ilmiyligini, taraqqiyotini ta'minlaydi, fanning ijtimoiy ongning qudratli bir qismi, turi ekanligini asoslaydi,unga xizmat qiladi.

Aytish mumkinki, har bir fan muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda, ta`limotlar yaratishda bevosita asos bo`lib xizmat qiluvchi qator faktlar, hodisalarga ega bo`lishdan tashqari u ushbu faktlarni tadqiq va tahlil qiluvchi metodlarga ham ega bo`lishi shart. Demak har bir fanning mavjudligi, xulosalari, faolligi uning tadqiqot ob`ekti (manbai), tadqiqot maqsadi va, ayni vaqtida, tadqiqot metodlari bilan belgilanadi, o`lchanadi. SHunday ekan, fandagi ilmiylik prinsipi uchun xizmat qiladigan metod nima? Metod termini nimani anglatadi? Nimani ifoda etadi? Degan savolning tug`ilishi mantiqiydir, tabiiydir.

Metod etimologik jihatdan grekcha "methodos" so`zidan olingan bo`lib, "tadqiqot", "o`rganish" degan ma`noni anglatadi.

Metod bilish nazariyasiga ko`ra voqeilikka yondashish –tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurini bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma`noda ob`ektiv voqeilikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo`lidir. Ayni vaqtida metod umumiyl-falsafiy ma`noda qo`llanishdan tashqari u tor (xususiy) ma`noda ham qo`llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni fanning tadqiqot ob`ektini (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo`lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiy va xususiy, falsafiy va sohaviy ko`rinishlariga egaligi bilan xarakterlanadi.

Xullas, metod mohiyatan falsafiy va fanning (fanga oid) "qurol" sifatida mavjudligi bilan o`zaro dialektik munosabatda, bog`liqlikda bo`ladi.

Falsafiy metod barcha fanlarga xosligi, barcha fanlar uchun umumiyligi bilan nisbiy mustaqillikka, alohidilikka ega bo`lib, u dialektik metod nomi bilan yuritiladi. Mazkur metod muayyan fanning ilmiy-tadqiqot metodidan farqli o`zining keng qamrovligi, barcha fanlar doirasida ish olib borishi bilan alohida muhim ahamiyatga egadir. Prof. H.Ne'matov ta`kidlaganidek, "...dialektik bilish (dialektik metod – R.R.) tadqiq manbai mohiyatiga bosqichma-bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddarroq (oddiyoq) mohiyatdan murakkabrog`iga qarab siljish demakdir". SHuningdek ayni metodning qayd etilgan muhim, asosiy jihatlari qatorida uning ilmiy izchillik prinsipiga qat`iy amal qilish g`oyasi ham turadi.

Aytilganlarga ko`ra dialektik metod jamiki fanlar uchun metodologiya-metodologik asos vazifasini o`taydi. Boshqacha aytganda, umumfalsafiy metod – dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, ya`ni turli fanlarga oid metodlarga ta`sir qiluvchi umumiyligi ta`limot bo`lgani uchun uni metodologiya, ya`ni ilmiy tadqiqot usuli bo`lgan metodlar haqidagi ta`limot deb yuritadilar.

Ammo hozirgi kunda (davrda) metodologiya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi ma'lum bir fanda qo'llanilgan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta`limot emas balki tadqiqotchining tadqiq manbaini ob'ektini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi tadqiqotdan qanday maqsadni ko`zlash, boshqacha aytganda tadqiqotchining dunyoqarashi nazarda tutiladi. Aniq aytadigan bo`lsak, metodologiya, birinchidan, tadqiqotchining o`z tadqiq manbai haqida qay turdagisi bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug'illanishdir. Ma'lumki, falsafada narsa o`rganish ob'ekti haqida tadqiqotchi ikki turdagisi bilimlar hosil qilishi mumkin:

- a) fahmiy (hissiy, empirik...) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik...) bilimlar.

Har bir turdagisi bilimni hosil qilish yo`l, vosita va usullar ham, maqsadlari ham boshqa-boshqadir.

Ikkinchidan, tadqiqotchining tadqiq manbai // narsaga qanday usul bilan yondashishidir. Falsafada narsaga yondashishning ikki usuli bor. Ular:

- a) metafizik (nominalistik) yondashish
- b) dialektik yondashish.

Uchinchidan, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtai nazarda turishi va shu nuqtai nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishidir.

Eslatamiz, har bir metod- hoh u falsafiy (umumiyligi) metod bo`lsin, hoh u fanga oid (xususiy) metod bo`lsin, har birining ish olib borish, ish yuritish metodikasi, tadqiqot manbaini, ob'ektini (predmetini) tekshirish usuli bo`ladi. Demak ilmiy- tadqiqot metodidan muayyan ish olib borish metodikasi farqlanadi. Boshqacha aytganda, metod voqeilikni, ob'ektni (predmetni), hodisa-yu jarayonlarni – haqiqatni bilish, aniqlash yo`li bo`lsa, metodika shu yo`lni ochish va qurish qurolidir. Metodika olimning amaliy ravishda ishlash sistemasi bo`lib, u faktlarni to`plash, o`rganish, umumlashtirish usullarini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, metodika til va nutq birliliklarini umumlashtirish, tahlil qilish, tasnif qilish, kartalashtirish, amalda sinab ko`rish yo`llari bilan maqsadga yetishdir.

Tilshunoslik fani ham o`zining qator ilmiy-tadqiqot metodlariga ega bo`lib, bu tilning o`ta murakkab ijtimoiy- tarixiy, ijtimoiy- psixik, ijtimoiy-individual, ijtimoiy- fiziologik hodisa ekanligidan kelib chiqadi. SHunga ko`ra tilni tadqiq qiluvchi lisoniy tadqiqot metodlari ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtida metodlar qanday, qanaqa metod bo`lishidan, qachon yaratilgan yoki qachon yaratilishidan, miqdoriy belgilaridan, tuzilishidan qat`iy nazar ularning barchasi bir maqsadga (strategiyaga) ya`ni lisoniy hodisalarining mohiyatini yashirin imkoniyatlarini, "sirlarini" ochish, aniqlash, topish va shu asosda ilmiy nazariy, falsafiy xulosalar chiqarishga qaratilgan. Lisoniy tadqiqot metodlari ob'ektning xarakteridan, tadqiqot maqsadi va tilshunos tomonidan tanlangan tadqiqot aspektidan kelib chiqqan holda nafaqat turlicha bo`ladi, balki, vazifasiga ko`ra, lisoniy materialning tadqiq qilish jihatiga qarab, o`zgarib turadi. Masalan, notanish tillardan matnlarni "ochishda" qo`llanuvchi alohida, metodlar, til tovushlarining fonetik xususiyatlarini o`rganuvchi maxsus metodlar, dala amaliyotida til materiallarini yig`uvchi metodlar, lisoniy sotsiologik (lingvosotsiologik) metodlar va b. Demak, tilning har bir jihatini, tomonlarini, xususiyatlarini uning butun murakkabligi bilan tekshirishda turlicha metodlarning bo`lishi, faollik ko`rsatishi mutlaqo tabiiy, nafaqat tabiiy, balki mutlaqo zaruriy, qonuniy holdir.

SHu o`rinda prof. H.Ne'matovning quyidagi fikrini keltirishni lozim topdik: "...tadqiq metodlari ham fan tarixida bir-birini almashtirib turadi. Bir metod asosida ochilgan qonuniyatlar boshqa bir metoddan aniqlangan hukmlarni rad va inkor etgan hollarda ham bunday inkorni to`g`ri – dialektik tushunmoq lozim – bu qat`iy, mutlaqo inkor yemas, balki nisbiy, dialektik inkor – inkoring inkori, narsa mohiyatiga chuqurlasha borishning bir bosqichidir xolos. Buni bir

oddiy hayotiy misol bilan tushuntirishga harakat qilaman. Tilning turli qirralari haqida turli usullar (metodlar) bilan hosil qilingan bilimlar va ochilgan qonuniyatlar bir katta binoning oldi, orqa, yon, ust tomonlaridan olingan suratlari bilan qiyoslanishi mumkin. Bu fotosuratlar bir-biriga mutlaqo o`xshamasa-da ularning barchasi bitta zotda – bir binoning shaklida birlashadi; bu fotosuratlar bir-birini to`ldirib, bino shakli haqida bilimlarimizning mukammal bo`lishiga xizmat qiladi. Binoning to`rt tomonidan suratin chizgan olimlarning birortasi ham xato yoki noto`g`ri ish qilmagan. Xatoga binoning bir tomonidan olingan tasvirini (tilning bir qirrasi haqida ma`lum bir metod bilan o`rganiladigan qonuniyatni) binoning o`zi bilan tenglashtirishdadir – kim bunga yo`l qo`yan bo`lsa, albatta, xato qilgan bo`ladi”.

Tilshunoslik fanida mavjud bo`lgan amaldagi metodlarni ikkiga bo`lish mumkin:

1. Daxron – tadqiqot metodlari.
2. Sinxron – tadqiqot metodlari.

Daxron tadqiqot metodlari miqdoran chegaralangan bo`lib, ular tarixan tashkil topganligi, ya`ni qo`llanishiga ko`ra uzoq davrlarga borib taqalishi – uzoq tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar jahon tilshunosligi amaliyotida ko`p asrlardan beri tillar tabiatini, tarkibini tekshirishda, tadqiq va tahlil qilishda faol xizmat qilganligi va jahon tilshunos olimlari tomonidan to`la tan olinganligi sababli ular an'anaviy, ya`ni traditsion metodlar deb ham yuritiladi.

Daxron metodlarda vaqt, zamon belgisi – ularning tarixan o`tmishda yuzaga kelganligi tushunchasi mezon vazifasini o`taydi. Aynan mana shu jihatiga ko`ra biz ularni daxron – tarixiy (an'anaviy emas) metodlar deb nomladik.

Daxron metodlarga, asosan quyidagilar kiradi:

1. Tasviriy metod
2. Qiyosiy- tarixiy metod
3. CHog`ishtirish metodi
4. Tarixiy –qiyosiy metod

Jahon tilshunosligi fanining eng tarixiy, eng qadimiy va eng dastlabki asosiyligi, yetakchi metodi tasviriy metod hisoblanadi. Ushbu metod asosida qadimgi arab, yunon, hind, xitoy va rim kabi tillarga oid asarlar–grammatikalar yaratilgan bo`lib, ular tasviriy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Ildizlari XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida shakllangan Moskva (formal) lingvistik maktabiga (buyuk namoyandalari Philipp Fortunatov, Aleksey SHaxmatov, Aleksey Peshkovskiy, Viktor Vinogradov) borib taqalgan, Nikolay Dmitriev, Nikolay Baskakov, yevgeniy Polivanov, Aleksandr Borovkov, Andrey Kononovlar tomonidan turkiy tilshunoslikka olib kirilgan tasviriy metod XX asrning 40- yillardan boshlab deyarli hozirgacha o`zbek tilshunosligida – darslik va qo`llanmalar yaratishda faoliyat ko`rsatmoqda.

Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarini tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o`rnini, qo`llanishini, tuzilishini, o`ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Masalan, mazkur metod asosida u yoki bu tilning tovush sistemasi, masalan, tovushlarning talaffuz xususiyatlari, morfemalar tarkibi, tuzilishi, grammatik kategoriylari, leksik birliklar, ularning shakli va ma`nolari, so`z birikmasi va gap turlari – ularning tuzilishi, mazmuniy jihatlari, faolligi kabilalar tadqiq va tahlil qilinadi.

Tasviriy metod asosida turlicha tillarga oid tasviriy grammatiklar, lug`atlar, ta`lim tizimi uchun nihoyatda zarur bo`lgan o`quv adabiyotlari, qo`llanmalar va darsliklar yaratilmoqda, monografik xarakterdagи ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Ayni vaqtida tasviriy metodning muayyan kamchiliklari ham bo`lib, bu uning “intizomi”, ya`ni atomitik xususiyatga egaligidir. Bu holda muayyan tilga oid aniqlangan va tasvirlangan hodisa (fakt) alovida olinishi, o`zicha o`rganilishi, boshqa hodisalar (faktlar) bilan bog`lanmasligi tushuniladi. Vaholanki, tahlil qilinayotgan lisoniy birlik yoki hodisa boshqa yondosh birliklar, hodisalar bilan bog`liq holda, o`zaro munosabatda olinganida, tadqiq

qilinganida o`rganilayotgan hodisaning tabiatini, mohiyati yana ham aniq namoyon bo`lardi, uning o`rta xosliklari ko`proq, yakkaroq voqealashadi yuzaga chiqadi. Demak, bu holda tahlil qilinayotgan hodisa haqidagi ilmiy axborot, ma'lumot, nazariy umumlashma, xulosalar yana ham chuqurroq va yana ham batafsilroq bo`ladi.

Hozirda til hodisalari tadqiqida tasviriy metoddan foydalanish jarayonida lisoniy tajriba (eksperement)larni qo'llash orqali ushbu metod chuqurlashib, takomillashib bormoqda. Bunda tajriba o`ziga xos kuzatish jarayoni, usuli, yo`li sifatida xizmat qilmoqda.

Tasviriy metod o`z faoliyati davomida lisoniy hodisalarni tadqiq qilish jarayonida o`z tarkibidagi muayyan usullardan –“ichki metodlardan” foydalanadi. Aytish mumkinki, bunday holda tasviriy metod umumiylilik sifatida, muayyan usullar (ichki metodlar) esa xususiylik sifatida voqelashadi.

Tasviriy metod tarkibidagi “ichki metodlardan” biri kuzatish usulidir. Bu jarayonda mo`ljalga olingan lisoniy ob`ektlar, masalan, fonema, morfema, leksema, so`z, so`z birikmasi, gap, matn kabilarning tildagi xususiyatlari –vazifikasi, qo'llanishi, tuzilishi, ahamiyati kabilalar aniqlanadi. Ko`pincha ularning har biri alohida olinib, har birining o`ziga xosliklari, jihatlari o`rganiladi. Demak, kuzatish jarayoni tasviriy metod faoliyatidagi dastlabki zaruriy bosqich sifatida xizmat qiladi. SHunga ko`ra ushbu bosqich –kuzatish jarayoni tadqiqotchidan til bilimining to`liq, mukammal bo`lishini talab qiladi. Bu yesa o`z navbatida o`rganilayotgan hodisalar haqidagi fikrlarning, xulosalarning ilmiyligi, puxtaligi, ob`ektivligini ta'minlaydi.

Tasviriy metodning navbatdagi usullaridan (ichki metodlaridan) yana biri qiyoslashdir. Bu holda qiyoslash usuli orqali birdan ortiq faktlar, □na□ aniqlangan faktlar ma'lum bo`lgan faktlar bilan o`zaro qiyoslanadi, muayyan ilmiy xulosalar chiqariladi. Demak, qiyoslashda lisoniy hodisalarning birdan ortiq bo`lishi muhim hisoblanadi. Masalan, kelishik qo'shimchalarining, sifat darajalarining, fe'l zamonlarining gap tuzilishi va ma'no turlarining o`zaro qiyoslanishi kabilalar.

Tasviriy metodning sifat jihatdan o`zgacha rivojlangan usullaridan –“ichki metodlaridan” yana biri taksonimik usul (metoddir). Taksonimik metod asosida tillar, til faktlari, hodisalari ilmiylik prinsipi nuqtai nazaridan o`rganiladi, tasnif qilinadi, bir va bir qancha tillardagi o`xshash, umumiylilik hodisalar qiyoslanadi.Ushbu metodning asosiy vazifikasi til (yoki tillar) sistemasini tasvirlashdir. SHunga ko`ra u tasviriy metoddan, o`z asosidan –umumiylikdan farq qiladi. Ma'lumki, tasviriy metod lisoniy hodisalarni muayyan sinxron holatda olib, o`rganib, tahlil qilib, ularning xususiyatlarini aniqlaydi. Taksonimik metod esa, aytilganidek, asosan til sistemasini tasvirlash uchun xizmat qiladi. SHunga ko`ra taksonimik metod manbalarda structural metod sifatida baholanadi, beriladi.

Qiyosiy-tarixiy metod lingvistik metodlarning biri –eng faoli, eng asosiysi, eng ko`p xizmat qiladigan sifatida jahon tilshunosligi tarixida alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi

Ushbu metod XIX asrning boshlarida –Sanskrit (qadimgi hind adabiy tili)da yaratilgan yozma manbalar tilini (yozma nutqni) o`rganish, uni yevropa tillariga qiyoslash, ular orasida umumiylilik-o`xshashlik borligini aniqlash natijasida yuzaga keldi.

Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari: Frans Bopp (1791-1867);Rasmusk Rask (1787-1832); YAkov Grimm (1787-1863); Aleksandr Vostokov (1781-1864)lardir.

Qiyosiy-tarixiy metod asoschilari o`z asarlarida mazkur metoddan faol foydalangan ushbu olimlar hind va qator yevropa tillari tarixan bitta asos, umumiylilik tildan–bobo tildan ajralib chiqqan, ushbu tilning bo`linishi turli tomonlarga tarqalishi natijasida yuzaga kelgan, shakllangan degan g`oyani ilgari suradilar. Demak, ushbu tillar, ya`ni hind (Sanskrit va qator yevropa, masalan, grek) tillari orasida oilaviy munosabatlarga o`xshash qarindoshlik aloqalarini mavjud bo`lib, tillararo o`xshashlik shu qarindoshlik aloqalarining natijasi ekanligi tabiiy holdir.

Xullas qiyosiy-tarixiy metod asoschilari ayni metod bitta bobo tildan paydo bo`lgan, kelib chiqqan tillarni, demak, o`zaro qarindoshlik munosabatidagi tillarning hodisalarini, birliklarini –so`z va qo'shimchalarini, ularning shakllarini, qiyofasini tiklashga xizmat qilishini ta'kidladilar.Bunda qiyosiy-tarixiy metod orqali qarindosh tillarga,masalan,qadimgi hind

(sanskrit) va yunon tillariga oid yozma yodgorliklardagi til materiallari, aniqrog'i, dastlab so`zlarning talaffuzi hamda ma'nosи qanday bo`lganligi aniqlanar, shundan so`ng ular qiyoslanar edi. Natijada tahlil qilinayotgan so`zning eng qadimgi shakli (etimologik shakli) –tashqi tomoni (qiyofasi) hamda ichki tomoni –ma'nosи (etimologik ma'nosи) haqida ma'lumot berilar edi. Maslan, F. Bopp qadimgi hind –Evropa tillarida fe'llarning tuslanishi (paradigmatikani) taqqoslab, qiyoslab o`rganishi natijasida bu tillarning qarindosh ekanligini isbotlab berdi. Hind-Evropa tillarida fleksianing yuzaga kelishi tarixini o`rganib, tilshunosligida “aglyutinasiya” nazariyasini yaratdi.

YA.Grimm esa qiyosiy-tarixiy metod orqali german tillari bilan hind-Evropa tillarining tovush sistemasi o`rtasida o`xshashlik borligini aniqlab, “Grim qonuni”ni yaratdi. Bu qonunga binoan hind-Evropa tillaridagi jarangsiz portlovchi [p, f, k] tovushlariga german tillaridagi jarangsiz sirg'aluvchi [f, g, h] tovushlari mos keladi. Hind-Evropa tillaridagi jarangli portlovchi [b, d, t] tovushlari german tillaridagi [p, t, k] jarangsiz portlovchi tovushlariga mosdir.

YUqorida aytiglanlardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosaga kelish mumkin: 1. O`zaro qarindosh tillar orasida tovush mos kelishi qat'iy qonunlari mavjud bo`lib, bu qonundan har bir mustasno (chechinish–R.R), albatta, sharhanishi lozim. 2.Tillarning o`zaro qarindoshligi mana shu tovush mos kelish va tillararo umumiy qadimiylar o`zaklar (asoslar) asosida belgilanadi.

Demak, qiyoslash uchun faktlar faqat qarindosh tillardan – genetik tenglikka ega bo`lgan tillardangina olinadi. Masalan: ruscha svetok, polyakcha kwiatok “gul” ; nov (nov), ruscha nov(ыи), nemischa pel, inglizcha new “yangi”, grekcha pater, patros, lotincha pater, sanskretcha piter, nemischa pater, forscha padar, ruscha papa, hindcha baba “ota” demakdir.

Ma'lum bo`ldiki, qiyosiy-tarixiy metod asosida tadqiqot ishlari olib borilganda,

- 1) ikki va undan ortiq tilda mavjud bir-biriga o`xshash hodisalar qiyos qilinadi;
- 2) qiyoslash orqali ayni jarayongacha ma'lum bo`lmagan lisoniy birliklarning (masalan, morfema va so`zlarning) tarixiy qiyofasini qayta tiklashga erishiladi.

Qiyosiy-tarixiy metodning qo`llanishi natijasida uning bajarilishi, amalga oshirilishi mumkin bo`lgan to`rta turi vujudga keldi: a) qiyoslash uchun material to`plash; b) qator qiyoslanadigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash; v) fonetik o`zgarishlarning nisbiy xronologiyasini belgilash; g) arxetip rekonstruksiyasini aniqlash (so`z va morfemalarning eng qadimgi shakli va ma'nolarini tiklash).

Eslatamiz, qiyosiy-tarixiy metod asosida, odatda o`zaro qarindoshlik munosabatida bo`lgan tillarning qiyosiy fonetikasi va qiyosiy morfologiysi yaratiladi. So`z yasash masalalari ham bu metod asosida tahlil qilinishi mumkin. Ammo qiyosiy leksikologiya, semantika va sintaksis sohalarida qiyosiy-tarixiy metod kam mahsul bo`ladi.

Xullas, qiyosiy-tarixiy metod asosan hind-Evropa tillariga nisbatan qo`llanishi bilan va u Hindistondan-Evropagacha bo`lgan tillarni qiyoslash va eng qadimgi shakllarini tiklash uchun xizmat qiladigan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning-komparativistikating jahon tilshunosligi tarixida mustahkam o`rin egallashida poydevor vazifasini o`tadi.

SHu o`rinda umumlashtiruvchi muhim xulosa sifatida tilshunos olim H.Ne'matovning quyidagi fikrini keltiramiz: “Evropa fanida yevropada haqiqiy ilmiy tilshunoslik shu metodning shakllanish va rivojlanishi bilan bog'liq deb sanaladi. Bu bejiz emas–tilshunoslikning barcha zamonaviy yo`nalishlari shu metodning u yoki bu ko`rinishda o`zgartirish asosida shakllangan va rivojlangan. Jumladan, strukturalizm asoschilari deb sanaladigan Ferdinand de Sossyur va Ivan Boduen de Kurtene shu yo`nalishning yosh grammatiklar tarmog'idan yetishib chiqqanlar. Filipp Fortunatov nomi bilan bog'liq bo`lgan formal tahlil yo`nalishi ham o`z maqsadini shu tilshunoslik namoyandalardan oladi.

Turkiyshunoslikda V.V.Radlov maktabi nomini olgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bu metodning yosh grammatiklar yo`nalishi tamoyillari bilan ish ko`rgan”.

CHog'ishtirish metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo`lmagan tillarni- til hodisalarini o`zaro qiyoslash usulidir. Ushbu xususiyatga ko`ra mazkur metod faqat qarindosh tillarni qiyoslab, qiyoslab o`rganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, bir qancha tillarga oid chog'ishtirilayotgan, taqqoslanayotgan lisoniy hodisalarni tasvirlashda,

tavsiflashda, tillararo o`xhash (anlogik) hodisalaridan umumiy va farqli jihatlarni aniqlashda, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli, ayni tillarning –chog’ishtirilayotgan tillarning tarixiga ularning kelib chiqishiga – genetik jihatlariga, taraqqiyotiga e’tibor bermaydi, ularga asoslanmaydi.

CHog’ishtirish metodi qayd etilgan o`ziga xos jihatlariga, tomonlariga ko`ra u muayyan bir til tabiatiga, tuzilishiga, tarkibiga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun xizmat qiladigan tasviriy metoddan ham farq qiladi.

Tillarni chog’ishtirish metodi asosida o’rganish natijasida ularning fonetik va leksikografik xususiyatlari, tomonlari atroflicha yoritiladi, ma’lum bo`ladi. Bu esa, o’z navbatida, qiyosga asos bo`lgan tillarning tuzilishini, ichki tomonlarini chuqurroq o’rganish imkonini beradi.

CHog’ishtirish metodi, ayniqsa, chet tillarni o’rganishda ham keng qo’llaniladi. Demak, ayni metod nafaqat nazariy fikrlarni, qoidalarni belgilash uchun, balki amaliy maqsadlar uchun ham faol xizmat qiladi. SHuningdek, “bir tildan boshqa tilga tarjima qilish texnikasi va nazariyasi uchun ham chog’ishtirish metodi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari katta ahamiyat kasb etadi”.

Eslatamiz, XVII–XVIII asrlardayoq tillarni chog’ishtirish orqali o’rganish ikki tilli lug’atlarning, barcha tillar uchun umumiy grammatikalarning yaratilishiga olib keladi.

Demak, tillarni o’zaro chog’ishtirish, taqqoslash har bir tildagi o’rganilayotgan hodisalarining nafaqat spetsifik jihatlarini, o`ziga xosliklarini, balki ularning umumlisoniy yoki individual lisoniy jihatlarini aniq yoritib berish imkonini beradi.

SHuningdek, chog’ishtirish (yoki qiyosiy chog’ishtirish) metodining o`ziga xosliklari tasviriy-tavsiyiy jihatlari, yo`nalishlari quyidagilar bilan ham belgilanadi: 1. So`zlarning turli-tuman qo’shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so`z va qo’shimchalarni farqlash. 2. Sheva va o’zaro yaqin bo`lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarini tavsiflash. 3. Qat’iy belgilangan adabiy til me’yorlarini ishlab chiqish va ularga rioya qilish va o’rgatish metodikasini shakllantirish. 4. Rasmiy diniy til, talaffuz, imlo bilan shevalar va boshqa tillar orasidagi farqlarni **Tilni informatsiya nazariyasiga ko`ra kod bilan tenglashtirish** ilg’ay olish va chog’ishtirma - bir tilda ifodalangan ma’no yoki vazifani boshqa tilda qanday usul va vosita bilan berilishi mumkinligini aniqlash ustida izlanishlar olib borish. 5. Birtilli (izohli) va ko’p tilli tarjima lug’atlari tuzish.

SHuningdek prof. H. Nematovning ma’lumot berishicha, arab tilshunosligi yutuqlari va an’alarida ta’lim olgan Mahmud Qoshg’ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunoslar ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflarini berishgan.

X-XIU asrlarda arab (islom) tilshunosligi doirasida shakllangan va rivojlangan eronshunoslik va mo’g’ulshunoslikda ham yetakchi tadqiq usuli qiyosiy-chog’ishtirma metod edi.

XIX-XX asrlarda turkiy xalqlar va ularning tillari rus davlati va tili bilan yaqin munosabatlarga kirishgach, turkiy va rus tillarining qiyosiy-chog’ishtirma o’rganish jarayonida bu metod zamonaviy (o`z davri) tahlil va tafsif talablari bilan mukammallashtirildi va sovet sog’ishtirma tilshunosligida ma’lum bir taraqqiyot bosqichini belgiladi - 1930-70-yillarda rus tilshunosligida rus va muayyan turkiy tillarni, milliy turkiyzabon tilshunosliklarda (o’zbek, tatar, boshqird, qozoq, ozorbayjon, chuvash v.h. tilshunosliklarda) milliy turkiy tillar varus tili qurilishini chog’ishtirma o’rganish yo`nalishlari rivojlandi.

Tarixiy - qiyosiy metod

Tarixiy - qiyosiy metod qiyosiy tarixiy metod kabi lingvistika metodlar guruhiiga tegishli bo`lib, unda tarixiylik prinsipi yetakchilik qiladi. Aynan mana shu xususiyatiga, ya’ni tarixiylik jihatining birinchi planda turishiga - qiyoslash jarayonida yetakchilik qilishiga ko`ra mazkur metod qiyosiy-metoddan nisbatan farq qiladi. Aslida har ikki metod ham tarixiylik va qiyoslash prinsipiga qat’iy amal qiladi, shu yo`nalishda tadqiqot ishlarini olib boradi. CHunki har ikki metodning mavjudligi, faoliyati, o`ziga xosligi, alohida metodlar sifatida tan olinishi va boshqa o`nlab metodlardan farq qilish, ahamiyati til sistemasiga (strukturasiga), lisoniy hodisalar tadqiqa tarixiylik va qiyosiylik (yoki qiyosiylik va tarixiylik) nuqtai nazaridan yondashish, murojaat

qilish bilan o`lchanadi. SHunga ko`ra ayrim manbalarda ushbu metodlar orasiga chegara qo`yilmaydi, aynan bir metod sifatida tushuntiriladi .

Tarixiy - qiyosiy metod qiyosiy-tarixiy metod asosida, uning negizida paydo bo`lib, u ayrim, alohida tillar hamda qarindosh tillar tarixini, ularning tarixan kelib chiqishini o`rganadi, lisoniy birliklarning tarixiy shaklini, ko`rinishini, qiyofasini tiklaydi.

Tarixiy-qiyosiy metod muayyan tilning tarixiy taraqqiyotini o`rganadi, uning ichki va tashqi qonuniyatlarini ochish maqasadida ishlataladi. Ushbu metodning prinsipi-nuqtai nazari, (bosh maqsadi) bir til tovushlari, so`z va konstruksiyalari orasidagi tarixiy umumiylilikni, o`xshashlikni aniqlaydi. SHuningdek, ular orasidagi tarixiy farqlarni ham belgilaydi. Demak, ushbu jarayonda tahlil ishlari tarixiylik asosida amalga oshadi, lisoniy birliklarga tarixan yondashgan holda ular qiyoslanadi, natijada o`xshats1 va farqli jihatlar ma'lum bo`ladi. Masalan, eski o`zbek tili tarixiga oid ozoz, adaq, ayoq so`zlarida z,d,yo tovushlarining - harflarining o`zaro tarixiy munosabati, tarixiy aloqasi kabilar.

Eslatamiz, tarixiy-qiyosiy metod bir xil va bir necha tillarni-qarindosh tillarni o`rgana, qiyosiy-tarixiy metod esa bir nechta tillarni-qarindosh tillarni qiyosiy o`rganadi.

Tipologik metod

Tipologik metod turli-qarindosh (o`zaro genetik bog'liq) va qarindosh bo`lmagan (o`zaro genetik bog'lanmagan) til oilalariga tegishli bo`lgan tillarni qiyoslash asosida o`rganadi. Ushbu xususiyatiga ko`ra mazkur metod faqat bir til sistemasiga, ya`ni qarindosh tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, «baholovchi» qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.

Tipologik metod qiyosiy-tarixiy metod bilan hamkorlikda ish olib boradi, uni to`ldiradi, chuqurlashtiradi.

Tipologik metod chet tillarni ona tiliga qiyoslab o`rganish jarayonida ushbu tillardagi fonetik, leksik-grammatik va uslubi (stilistik) xususiyatlarini aniqlaydi va ilmiy xulosalar chiqaradi.

Tipologik metodning mohiyati shundan iboratki, bunda tillar genetik jihatdan qaysi til oilalariga mansubligidan qat'iy nazar ular o`z strukturalaridagi o`xshash va farqli jihatlariga ko`ra qiyoslanadi, ya`ni o`rganilayotgan, qiyosga olingan tillarning struktur - qurilish xususiyatlari aniqlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi.

«Tipologik metodning paydo bo`lish sababi shundaki, barcha tillar tashqi jihatdan farqli bo`lsada, ammo ichki tuzilishiga ko`ra o`xshashdir, ya`ni ular tuzilishi (strukturasi) asosida aynan bir xil prinsipi yotadi».

Tillarni tipologik o`rganish maqsadini belgilashda bir qancha yoshdashuvlar, qarashlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Klassifikatsion (tasnifiy) yondashuv.
2. Xarakterologik yondashuv.
3. Belgili (priznakovsh) yondashuv.
4. Ichki sistem yondashuv.
5. 1. Klassifikatsion (tasnifiy) yondashuv.

Tillarni tipologik o`rganish jarayonidagi klassifikatsion, ya`ni tasnifiy yondashuvning mohiyati shundan iboratki, bunda dunyodagi barcha tillar qaysidir jihatiga, biron belgisiga ko`ra til oilalariga (guruqlariga) ajraladi. Natijada tillarning morfologik tasnifi paydo bo`ladi.

Morfologik tasnif, o`z nomidan kelib chiqqan holda, tillarning morfologik xususiyatlarini - o`zak va qo`shimchalarni o`zaro zid olgan holda qiyoslab o`rganadi. Shunga ko`ra til tiplari hosil bo`ladi.

2. Xarakterologik yondashuv.

Tiplarga xarakterologik yondashuv natijasida har bir tilning o`ziga xos, muhim (xarakterli) xususiyatlari jihatlari ma'lum bo`ladi. Ushbu xususiyatlari, tomonlari orqali tilga baho beriladi.

3. Belgili yondashuv.

Tillarga muayyan belgilarga ko`ra yondashuv natijasida alohida til hodisalari va sathlari (yaruslari)ning tipologiyasi yaratiladi. Masalan, fonetik tipologiya, leksik tipologiya, morfologik tipologiya, sintaktik tipologiya va b.

4. Ichki sistem yondashuv.

Tillarga ichki sistem yondashuv natijasida muayyan tildagi alohida hodisalar (masalan, fonetik, leksik, morfologik va b.) orasidagi o`zaro munosabatlar, boG'liqliklar tadqiq qilinadi. Bunda muayyan tilda qanday hodisalar, birliklar, elementlar namoyon bo`ladiyu qanday hodisalar

voqelashmaydi, qanday hodisalarning, elementlarning mavjudligini boshqarish inkor qiladi, yuzaga keltirmaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Chog'ishtirish metodi qanday metod?
2. Chog'ishtirish metodining qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?
3. Chog'ishtirish metodining tasviri metoddan farqi nimada?
1. Tipologik metod qanday metod?
2. Tipologik metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?
3. Tillarni tipologik o`rganishda qanday yondoshuvlar mavjud?
4. Tarixiy-qiyosiy metod qanday metod?
5. Tarixiy-qiyosiy metodning qiyosiy-tarixiy metoddan farqi nimada?
6. Tarixiy-qiyosiy metodning bosh maqsadi nima?

15-ma'ruza
Lisoniy metodlar. Sinxron tadqiqot metodlari

Reja:

1. Sinxron tadqiqot metodlarining xususiyatlari
2. Distributiv tahlil metodi.
3. Statistik tahlil metodi.
4. Bevosita tashkil etuvchilar ajratib tahlil qilish metodi.
5. Transfaromatsion tahlil metodi
6. Komponent tahlil metodi.
7. Valentlik tahlil metodi.
8. Eksperimental - fonetik tahlil metodi.
9. Avtomatik tahlil metodi

Tayanch tushunchalar:

Sinxron tadqiqot metodlari - hozirgi metodlar bo`lib, vaqt jihatidan yuzaga kelishiga (qo`llanishiga) ko`ra nisbatan yangiliqi, shu zamonga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar XX-XXI asrlar maxsuli sifatida amaliyatga xizmat qilmoqda.

Distributiv tahlil metodi - bunda nutq faoliyatidagi muayyan lisoniy birliklar (fonema, morfema, so`z, so`z birikmasi va boshqalar) aniqlanib, ularning joylashish o`rni, oldinma-keyin kelishi belgilanadi. SHuningdek til (nutq) birliklarining o`zaro bog`lanishi - semantik-sintaktik munosabatga kirishuviga ham alohida e'tibor beriladi.

Deskriptiv tilshunoslik - lisoniy birliklarning o`zaro, bir-biriga nisbatan joylashishini, nutqda ularning qo`llanish, tarqalish imkoniyatini o`rganuvchi fandir. Qiyoslang: distributiv tahlil metodi.

Distributsiya - lisoniy birliklarning nutqda qo`lanish doirasi, joylashish o`rni, boshqa birliklar bilan o`zaro birikish imkoniyati - ularning uchrashi mumkin bo`lgan jamiki qurshov.

Transformatsiya - qayta tuzish, o`zgartirish.

Transformatsion tahlil metodi - muayyan markaziy (yadro) sintaktik birlik (masalan, gap) asosida yaritilgan, hosil qilinadigan qator boshqa gaplarni aniqlaydi, ularning transformatsiyalanish mexanizmini o`rganadi.

Sinxron tadqiqot metodlar sifat jihatdan chuqur, murakkab, keng qamrovli bo`lib, miqdoran ko`pligi, turli-tumanligi, «o`sib borayotganligi» bilan ajralib turadi. Ular zamonaviylik xususiyatiga ko`ra alohida ahamiyat kasb etadi.

Sinxron tadqiqot metodlarning ko`payib, «o`sib» borishi, zamonaviylik xususiyati tilning jamiyatga bevosita bog`liqligidan, uning jamiyat tomonidan har tomonlama chuqur o`rganilib borayotganligidan, tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan bevosita munosabatidan - ular orqali ham keng miqyosda o`rganilishi natijasi ekanligidan kelib chiqmoqda. Demak, zamonaviy tadqiqot metodlarining ko`payib borishi tabiiy, zaruriy jarayon sifatida, maqsadga to`la muvofiqdir.

Eslatamiz, sinxron tadqiqot metodlari diaxron tadqiqot metodlariga nisbatan olinganda, paydo bo`lishiga, yaratilishiga ko`ra vaqt jihatdan yangiligi bilan, zamonaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar diaxron tadqiqot metodlari kabi yaratilishiga ko`ra uzoq tarixga, uzoq davrlardan beri amaliy qo`llanishga ega emasligi bilan shunga ko`ra sinxron tadqiqot metodlari deb yuritilishi jihatidan alohida katta guruhni tashkil qiladi va fanimizda alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, sinxron tadqiqot metodlari tilshunoslikda vaqt jihatdan keyingi davrlarda, masalan, XX - XXI asrda shakllanganligi bilan, amaliyotga xizmat qilayotganligi bilan, davr nuqtai nazaridan farqliligi, o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Aytiganlarga ko`ra biz ularni sinxron tadqiqot metodlari deb nomlab vaqt tushunchasi mezoniga ko`ra ularni diaxron tarixiy metodlardan farqladik, ularga zidladik.

Sinxron tadqiqot metodlari quyidagilar:

1. Distributiv tahlil metodi.
2. Statistik tahlil metodi.
3. Bevosita tashkil etuvchilar ajratib tahlil qilish metodi.
4. Transfaromsion tahlil metodi
5. Komponent tahlil metodi.
6. Valentlik tahlil metodi.
7. Eksperimental - fonetik tahlil metodi.
8. Avtomatik tahlil metodi va b.

Distributiv tahlil metodi

XX asming 20 yillarda jahon tilshunosligi maydonida paydo bo`lgan struktural lingvistika hozirgi zamon tilshunosligining yetakchi, muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib, u til strukturasi ni til nazariyasining asosi deb hisoblaydi¹.

Bir qator struktural oqimlar: Amerika, Praga va Kopengagen struktural maktablari ichida Amerika strukturalizm jahon tilshunosligida tan olingen bo`lib, u deskriptiv, ya`ni tasviriy metodiga ko`ra deskriptiv tilshunoslik deb ham yuritiladi.

Deskriptiv tilshunoslik muayyan til biroliklarining o`zaro, bir-biriga nisbatan joylashish tabiatini yoki ularning tarqalish (distributiya)

munosabatini tasvirlovchi fandir. Mazkur usul bilan tilni tahlil qilish deskriptiv metod deyiladi.

Deskriptiv metod eng ixcham va tugal ifoda qilishni talab qiladigan tasvirlash metodidir. Deskriptiv asosini distributsiya-distributiv tahlil tashkil qiladi .

Distributiv tahlil muayyan til birliklari bilan bevosita bog`liq holda amalga oshadi. Ushbu jarayonda fonema, morfema, leksema, so`z, so`z birikmasi va gap kabi lisoniy birliklarning distributsiyasi-joylashish o`rni (pozitsiyasi), tartibi, oldinma - keyin kelishi, qo`llanish imkoniyatlari aniqlanadi. Ayni vaqtida ushbu lisoniy birliklarning o`zaro muayyan aloqaga - semantik - sintaktik munosabatga kirishuvi, bog`lanishi-birikishi ham o`rganiladi. Boshqacha aytganda, til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma'lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir².

Xullas, distributiv tahlil metodi - distributiv tahlil orqali, birinchidan, nutq oqimidagi muayyan lisoniy birliklar chegaralanadi, anirqlanadi, ikkinchidan, ushbu birliklarning joylashish o`rni, qaysi pozitsiyada kelganligi belgilanadi, uchinchidan, til birliklarining o`zaro bog`lanish imkoniyatlariga, birikishiga alohida e'tibor beriladi.

Distributiv tahlil metodi fanologiya, morfologiya va sintaksisida keng qo'llaniladi. SHuningdek, u leksik sathga nisbatan ham ishlatalishoqda. Demak, fonologiyada fonemalar, morfologiyada morfemalar, sintaksisda esa sintaktik birliklar: so'z birikmalari va gaplar aniqlanadi va ularning (har birining) bir-biriga o'zaro munosabati o'rganiladi.

Ma'lum bo'ldiki, lisoniy birliklarning distributivni muayyan til (yoki nutq) birligining boshqa birliklar bilan birikishi usullari, qo'llanish doirasi, joylashish o'rni kabilardan iboratdir.

Distributiv tahlil metodining asosiy xususiyati shundaki, tilshunos til elementlarini (birliklarini), ularning ditributsiyasini aniqlashda til elementlarning joylashish o'rni, qo'llanish pozitsiyasiga qarab ish olib boradi

Distributsiya har bir lisoniy birlik uchrashi, qo'llanishi mumkin bo'lgash barcha qurshovlarning (kontaktlarning) jami sifatida tushuniladi.

Statistik tahlil metodi

Statistik tahlil metodi jahon tilshunosligi amaliyotda eng faol ishlataladigan metodlardan biri bo'lib, lisoniy birliklarning-til va nutq birliklarining takror va takror qo'llanilishini, tez-tez ishlatalish darajasini, chastotasini, tarqalish doirasini belgilaydi. Boshqacha aytganda, ushbu metod lisoniy birliklarning, masalan, tovush, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap kabilarning ishlatalish miqdorini arifmetik sonini aniqlash uchun xizmat qiladi. Demak, lisoniy hodisalar, birliklar na faqat sifat belgisiga, balki miqdoriy belgiga egaligi bilan ham ajralib turadi.

Ma'lum bo'ldiki, statistik tahlil metodi lisoniy birliklarning nutq faoliyatidagi, asosan, matndagi qo'llanish miqdorini, ba'zan zarur hollarda esa fikr almashish jarayonidagi tarqalish chegarasini ham tadqiq qiladi, o'rganadi.

Xullas, statistik tahlil metodi til sathlarining deyarli barchasiga: fonetik-fonologik, leksik, morfologik va sintaktik yaruslariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Statistik tahlil metodi, ayniqsa, leksemalogiya sohasida keng qo'llanilmoqda. Ushbu jarayonda statistik tahlil natijasida qo'lga kiritigan statistik ma'lumotlar orqali u yoki bu tildagi ishlatalishiga ko'ra eng faol va eng nofaol so'zlar aniqlanmoqda, so'zlarning me'yoriy va me'yoriy bo'limgan qo'llanishi belgilanmokda, uzual qo'llanishning okkazional-nutqiy qo'llanishidan miqdoriy farqi ko`rsatilmoqda.

Leksik birliklarni-muayyan til leksemasini statistik tahlil metodi asosida o'rganish, ayniqsa, chastotali luatlar yaratishda juda qo'l kelmoqda. Bunday lug'atlar nazariy va amaliy tilshunolik uchun qimmatli ma'lumotlar beradi, ushbu tilshunosliklarning tadqiqot ishlarini olib borishida ishonchli usul hisoblanadi.

CHastotali lug'atlar so'zlarning nutqda qo'llanish miqdori, foizi haqida ma'lumot beradi (masalan, I.A.Kassenning «Slovar naibolle upotrebitelelnx slov sovremennoogo uzbeksogo literaturnogo yaznka» lug'ati).

Transfarmatsion tahlil metodi.

Struktural tilshunolik metodlari «oilasiga» (guruhiba) tegishli bo'lgan transfarmatsion tahlil metodi, ayniqsa, sintaktik konstruksiyalar -nutq birliklari tadqiqida faol qo'llanishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Transfarmatsion tahlil metodiga ko'ra sintaktik konstruksiyalar (qurilmalar) muayyan qoidalar asosida o'zgaradi, ya'ni boshqacha shaklga, ko'rinishiga ega bo'ladi, tranfaratsionlashadi. Bunday transfarmatsionlar orqali muayyan sintaktik konstruksiyaning -qurilmaning bir nechta shakllari aniqlanadi, o'zaro farqlanadi, ularning mohiyatiga, tarkibiga chuqurroq kiriladi. Natijada transfarmatsiyaga (o'zgarishga) uchragan har bir sintaktik konstruksiyaning o'ziga xos semantik jihatlari ham namoyon bo'ladi. Masalan, talaba kitob oldi gapining nutqiy turlicha ko'rinishlari, variantlari-transfarmatsiyasi quyidagilar:

1. Talaba olgan kitob.
2. Talaba tomonidan olingan kitob.
3. Kitob olgan talaba.
4. Talabaning kitobi.

Demak, transfarmatsion tahlil metodi muayyan asos (yadro) gaplardan (masalan, talaa kito

oldi) tuzilgan-transfarmatsiyalashgan gaplarni, ya’ni muayyan sintaktik model (masalan, ot+fe’l) asosida yaratilgan qator gaplarni o’rganish, tranfaratsiyalanish mexanizmini, tranfarmatsiyalarning hosil bo`lish qoidalarini oishdir.

Aytish mumkinki, transfarmatsion tahlil metodining asosiy maqsadi nutqimizda voqe bo`ladigan turlicha gaplarning asosida yadro vazifasini bajaruvchi asos gaplar mavjudligini, ushbu gaplar esa mana shu yadro gaplardan kelib chiqqanligini, tashkil topganligini, ularning o`zaro semantik-grammatik munosabatlarini aniqlash vazifasini bajradi. Demak, transfarmatsion tahlilda faqat transformatsiyalashgan (o`zgarishga uchragan) gaplar emas, balki ushbu gaplarga asos bo`lgan yadro gaplar aniqlanadi, u o`z asosida kelib chiqqan «yangi» gaplar bilan qiyoslanadi, umumiy va xususiy jihatlari belgilanadi.

Xullas, transfarmatsion tahlil metodi til sistemasi sintaktik sathning, uning qator ichki mikrosistemalarini tadqiq qiladi. Ushbu mikrosistemalardan biri asosiy, yadro gaplar bo`lib, boshqalari esa mazkur gaplardan hosil bo`lgan transfarmalar hisoblanadi. Mana shu transformalarning yadro gaplardan hosil bo`lishini o`rganish jarayoni transfarmatsion tahlil jarayoni transfarmatsion tahlil deyiladi. Transfarmatsion tahlil metodining asosiy vazifasi muayyan tilda (rus, o`zbek, nemis, ingliz va b.) mavjud bo`lgan yadro gaplarni aniqlash, uning sintaktik sistemadagi mohiyati, tabiat, muayyan maqsadga ko`ra turlicha shakllarda namoyon bo`lish imkoniyatlarini ochishdir.

Ma’lum bo`ldiki, transformatsion tahlil metodida markaziy, yadroviy birlik, sintaktik qurilma aniqlanib (yoki tanlanib), ushbu qurilmadan boshqa ma’no (mazmun) va vazifaga ega qurilmalarning hosil bo`lish chizmalari (sxemalari) masalan, ko`chirma gapli qurilmalardan o`zlashtirma gapli qurilma hosil qilish chizmasi aniq belgilanadi, kodlashtirib modelllashtiriladi. Bu tahlil metodi mashina tarjimasida, matnlarni avtomatik tahlil jarayonlarida keng qo`llaniladi. Ko`p holda injener (kompyuter) lingvistikasi va matematik lingvistika bilan qorishib ketadi.

SHunday qilib, distributiv tahlil metodi muayyan lisoniy birliklar: fonema, morfema, so`zlarni, ularning qo`llanishini, joylashishini, o`rnini o`rgansa, bevosita tashkil etuvchilarga ajrab tahlil qilish metodi esa, asosan, muayyan nutq birligining - gap konstruksiyasining ichki, juft holdagi birliklarining sintaktik munosabatlarini aniqlaydi. O`z navbatida transfarmatsion tahlil metodi esa distributiv va bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodlaridan farqli holda na faqat fonema, morfema, so`z, gap kabi lisoniy birliklarni, ularning joylashishini, balki sintaktik konstruksiyalarning (strukturalarning, qurilmalarning) boshqa sintaktik birliklar (strukturalar, qurilmalar) bilan formal - semantik aloqasini, munosabatini, o`xshashlik va farqli jihatlarini tadqiq qiladi². SHunga ko`ra transfarmatsion tahlil metodining qo`llanishi doirasasi, qo`llanish imkoniyatlari keng, chuqur bo`lib, u deskriptiv va bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish strukturasi tilshunoslik - struktural metodlarning mantiqiy va zaruriy davomi sifatida jahon tilshunosligi amaliyotida keng qo`llaniladi, mustahkam o`rin egallaydi.

Komponent tahlil metodi

Umum tilshunoslikda (masalan, turkiy-o`zbek tilshunosligida) lisoniy birliklarni tadqiq qilishda faol qo`llanayotgan metodlardan biri komponent tahlil metodidir. Komponent tahlil metodi til birliklarini paradigmatic birlik sifatida, paradigmatic munosabatda, aloqada oladi, paradigmatic qatorda o`rganadi.

Ushbu metodning o`ziga xos xususiyati shundaki, u, asosan, so`zga-so`z ma’nosiga nisbatan qo`llaniladi, so`z ma’nosini mukammal tahlil qilishda, uni tarkibiy qismlarga-komponentlarga ajratishda keng foydalaniadi. Demak, komponent tahlil metodi so`zning mazmun jihatni bo`lgan ma’noni (sememani) muayyan semantik sistema sifatida tekshirishda, ayni sisemani tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini, ma’noviy bo`laklarni, ya’ni semalarni anikdashda, ularning semantik sistemadagi - sememadagi mohiyatiga, o`rniga, ahamiyatiga, imkoniyatiga, o`ziga xosliklariga alohida e’tibor beradi, ularni aniqlaydi, qo`llanish doirasini belgilaydi.

Demak, so`z ma’nosini komponent tahlil metodi orqali o`rganishda so`z ma’nosi-semema mantiqan va zaruran muayyan bo`laklarga, komponentlarga ajralib ketadi. Anig’i, so`z ma’nosini shu ma’noni - sememani tashkil qilgan ma’noviy bo`laklarga ajratish jarayoni, ajratilgan bo`laklarning har birini alohida o`rganish, ularning so`z ma’nosi tarkibidagi «quvvatini», nutqda

qanday vazifani bajarishi kabilarni o`rganish jarayoni komponent tahlil metodi asosida amalga oshadi.

Eslatamiz, nazariy tilshunoslikda so`z ma`nosini tashkil qiluvchilarga nisbatan sema termini faol qo`llaniladi. Demak, komponent tahlil metodining faollik ko`rsatadigan asosiy «quroli» sifatida sema termini xizmat qiladi. Sema sememaning tarkibiy qismi, butunning bo`lagidir. Sema va semema (yoki semalar va sememalar) o`zaro dialektik bog`liq bo`lib, butun va bo`lak kategoriysi nuqtai nazaridan baholanadi.

Masalan, "qiz" leksemasining ikki sememasidan biri quyidagi tarkibiy qismlarga - semalarga ajratilishi mumkin:

"SHaxs/inson" + "ayollik" + "yosh" + "er ko`rmagan".

Ushbu leksemasining ikkinchi sememasi esa semalarga avvalgisidan farqli - boshqacha ajraladi. Qiyoslang:

"inson" + ayol + qon-qarindosh - +bevosita + " 1 avlod+kichik"

Leksik paradigmada semenaning ikki asosi - differensial va integral turlari ajratiladi. Integral semalar asosida so`zlar ma`lum bir paradigmaga birlashtiriladi. CHunonchi, o`g'il-qiz so`zlar "inson+yosh" semalari asosida bir qatorga birlashadi va bu semalar bu holda integral sema mavqeida bo`ladi. Ayni paragma uchun "ayollik" - "erkaklik" semalari differensialdir. Lekin xotin-qiz qatorida (sirasida) esa integral semaldandan biri sifatida "ayollik", differensial sema sifatida esa "erli-ersizlik" semalari namoyon bo`ladi, yuzaga chiqadi.

Sememani tahlil qilish, semalarni o`rganish, demak, semalar mohiyatini o`rganish, sememani o`rganishdir, sememaning semalar tarkibini belgilash, aniklashdir.

SHunday qilib, so`z leksik ma`nosi semema uni tashkil qiluvchi komponentlardan - semalardan tarkib topadi. Ma`lum bo`ldiki, so`zning semantik tuzilishi (strukturasi) bevosita ma`no (semema) bilan bog`lanadi. CHunki semantik komponentga ega bo`lmagan ma`no-semema yo`q va bo`lishi ham mumkin emas.

So`zning ma`nosi, ma`no tarkibi muayyan ma`noviy bo`laklardan, tarkibiy qismlardan (semalardan) tashkil topadi. Bu tarkibiy qismlar so`z ma`nosini shakllantirib, har bir ma`noning alohida til «birligi» sifatida mavjudlikni ta'minlaydi. So`z ma`nosining tarkibiy qismlari nutkda muayyan xabar (darak) tashiydi. Demak, so`z ma`nosining kichik tarkibiy qismlari o`zaro barqaror butunlik (sistema) munosabatida bo`lib, ma`noning nutqiy «ifodasi» sifatida xizmat qiladi.

Xullas, so`z ma`nosini tarkibiy qismlarga ajratib o`rganish usuli-komponent tahlil metodi so`z ma`nosini-uning tarkibini, tuzilishini aniqlashda eng asosiy va eng qulay, ob`ektiv usul hisoblanadi.

Valentlik tahlil metodi

Til sistemasi muayyan lisoniy birliklardan iborat bo`lib, ushbu birliklar ham sistem tabiatga egaligi bilan ajralib turadi. Aniqrog`i, masalan har bir so`z o`z belgi va xususiyatlarning birligidan iborat muayyan element, qirra, tomon, imkoniyatlarga ega o`ziga xos sistemachadir.

Ma`lumki, mikrosistem xarakterga ega bo`lgan so`zning til sistemasidagi ahamiyati katta, qo`llanish doirasi va imkoniyatlari juda keng bo`lib, u jahon tilshunosligi miqyosida doimo turli lingvistik yo`nalishlarning tadqiqot ob`ekti bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Valentlik tahlil metodi ham, asosan, so`z muammosi bilan shug`ullanadi, so`zning nutq faoliyatidagi-nutq birligi sifatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini o`rganadi, tekshiradi, uning ichki-mazmun jihatni bilan bog`liq imkoniyatlarini, xususiyatlarini ochib beradi. Aniqrog`i, valentlik tahlil metodi orqali muayyan so`zning o`z ma`nosi asosida boshqa so`zlar bilan sintaktik (semantik-sintaktik) munosabatga kirishuvi, aniqlanadi, ya`ni so`zning turli ma`noga ega qator so`zlarni o`ziga biriktirish xususiyatlari yoritiladi. Valentlik tahlil metodining ob`ektivligi ilmiy-amaliy mohiyati, zarurligi so`z bilan - so`zning leksik - semantik kuchi, mavqeい bilan belgilanadi. Demak, so`zning «ruhi», «joni» bo`lgan semantikasi uning boshqa so`zlar bilan birikishi ta'minlaydi, birikma, gap kabi nutq birliklari so`zning fikr ifodalash jarayonida boshqa so`zlar bilan birika olish semantik imkoniyatining, valentlik munosabatining natijasi sifatida yuzaga keladi.

Murakkab tushuncha ifodalovchi nutq birliklaridan tortib, fikr ifodalovchi nutq birliklarining hosil bo`lishi bevosita so`z valentligi bilan bog`liqidir.

Valentlik tahlil metodi orqali so`zlarning birikishi-so`zlar orasidagi mantiqiy aloqa dastavval ularning semantik imkoniyatiga (substansial xususiyatiga) ko`ra amalga oshish, so`zlarning semantik bog`lanishi asosida esa ular sememalarining (semalarining) semantik munosabati mavjudligi aniqlanadi.


Valentlik tahlil metodi orqali so`zlar orasidagi semantik munosabat bevosita semantik munosabatni yuzaga keltirish, ya`ni semantik sintagmalarini, sintaktik konstruksiyalarni (qurilmalarini) hosil qilish ma`lum bo`ladi.

Ushbu metod orqali so`zlar orasidagi sintaktik aloqa asosida so`zning valentlik imkonini mavjudligi, sintaktik aloqa so`zning valentlik qobiliyati egaligini, valentlik umumiyy xususiyatining nutkda, so`zlar orasidagi turlicha bog`lanishlarda - xususiyliklarda namoyon bo`lishini ko`rsatadi.


Valentlik tahlil metodi orqali, masalan, so`z semantik valentligining muayyan ko`rinishi bo`lgan fe`l (yoki ot, sifat va b.) valentliklarni, uning nutkda qaysi so`zlar bilan birika olishini, sintaktik munosabatga kirishishini aniqlash mumkin.

Fe`l valentligining o`ziga xosligi shundaki, u valentlik semantik imkoniyatiga ko`ra gapning ko`rinishini (tuzilishini) belgilaydi, uning qanday so`zlardan tarkib topishini ma`lum qiladi. Masalan, o`qtalmoq fe`lning semantik imkoniyati - valentlik qobiliyati gapda quyidagi aktantlar (ishtirokchilar, qatnashuvchilar) orqali namoyon bo`ladi. Qiylang:

o`qtaldi: kim, nimani, kimga, nima sababdan, qayerda va b.



To`xtadi: nima, qayerda, kachon, nima sababdan?



CHimirdi: kim, nima sababdan, nimani va b.

U asabiylashib qoshini chimirdi

U

Chimirdi asabiylashib
qoshini

Xullas, valentlik tahlil metodi nutq faoliyatini, uning muayyan lisoniy birliklaridan, ularning o`zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishuvidan tarkib topishini, nutqning hosil bo`lishi mexanizmni diferensial - semantik metod-komponent tahlil metodi bilan hamkorlikda yoritib berishiga ko`ra muhim ahamiyati egadir.

Eksperimental - fonetik tahlil metodi

Fonetik sistemaning eksperimental fonetika sohasi bo`lib, u nutq tovushlarini maxsus texnik vositalar, asboblar yordamida o`rganish bilan muhimdir. Eksperimental fonetika nutq

tovushlarini tadqiq qilishda

Eksperimental (yoki instrumental) fonetik metodidan foydalanadi. Eksperimental fonetik metod nutq tovushlarini, prosedemik hodisalarini (masalan, intonatsiya, pauza, ritm) o'rganishda tovushlarni yozib oluvchi, ularni, mohiyatidan kelib chiqib, tahlil qiluvchi maxsus texnik vositalardan, asboblardan foydalanadi.

Ushbu metod tilning tovush sistemasini tekshirishda bir qator maxsus usullarni, qo'llaydi. Mazkur usullar nutq tovushlarini tadqiq qilish maqsadi va vazifasidan, qo'llanadigan, foydalaniladigan tahlil vositalarining xarakteridan kelib chiqib, o'z ichida bir nechta turlarga bo'linadi.

Eksperimental – fonetik metod o'z iida somatik, pnevmatik va elektrokustik (yoki elektrografik) turlarga bo'linadi.

1. Somatik usulning o'ziga xosligi shundaki, u gapirish (so'zlash) fiziologik jarayonlarining somatik (jismoniy, tana bilan bog'liq) ifodasini tekshirish orqali fonetik hodisalar haqida ma'lumot beradi, a'zolarini suratga olish, nutq apparatining rentin tasvirini tushirish, nutq faoliyati davomida nafas olish va chiqarish holatini o'lchash kabi jarayonlar somatik usulning fonetik hodisalarini - nutq tovushlarini tekshirish yo'llari (priyomlari) sifatida xizmat qiladi. Demak, somatik usul, umumiylilik sifatida, qayd etilgan yo'llar, xususiyliklar orqali ish olib boradi.
2. Pnevmatik usullar orqali esa nutq a'zolarining talaffuz jarayonidagi harakati, havo oqimining og'iz, burun va bo`g'iz bo`shlig'idagi harakati natijasida hosil bo`luvchi asosiy ovoz, tovush (ton) va shovqinlarning o'zgarishi aniqlanadi.
3. Elektrokustik usullar esa nutqning tovush xususiyatlarni elektr tebranishga o'zgartirishga asoslanadi. Demak, elektrokustik usullar nutq faoliyatidagi, fikr almashish jarayonidagi tovushlarni, ularga xos turlicha xususiyatlarni, (masalan, cho'ziqlik, qisqalik, Balanu-pastlik, ohangdorlik, shovqin kabilarni) elektr tebranishlarga o'zgartirib, o'tkazib yoki elektr tebranishlari nuqtai nazaridan, uning me'yordi asosida tahlil qiladi va mazkur yondashuvidan kelib chiqib, ular asosida nutq tovushlarini «baholaydi», tavsiflaydi. SHunga ko`ra, ayni usul elektrokustik usul nomi bilan yuritiladi.

Xullas, eksperimental - fonetik yoki instrumental - fonetik metod nutq tovushlarining armtsulyatsion va akustik jihatdan aniq, ishonchli va ob'ektiv ta'rifini, talqinini beradi.

Avtomatik tahlil metodi

Avtomatik tahlil metodi davr talabi bilan yaratilgan zamonaviy tahlil metodlaridan biridir. Elektron - hisoblash mashinalarini (EHM), kompyuterlarning paydo bo`lishi tilshunoslik fanida ham ilmiy - tadqiqot ishlarining amaliyoti oldiga yangi vazifa va muammolarni qo`ydi. Tilshunoslikda bunday muammolar sifatida avtomatik tarjima, matnini elektron-hisoblash mashinalari yordamida tuzish, qisqartirish kabilarni ko`rsatish mumkin. Demak, fanning taraqqiyoti, texnikadagi yangiliklar, yangi texnik vositalarning (EHM) paydo bo`lishi kabilar avtomatik tahlil metodining «tuzilishiga», shakllanishiga olib keldi, sabab bo`ldi.

Avtomatik tahlil metodining o'ziga xosligi shundaki, u tilni - lisoniy birlıklarni muayyan bo`laklarga, formal qismlariga ajratadi. Ajratishdan hosil bo`lgan tilning ushbu qismlari, ya'ni formal elementlari boshqa tilning shunday ma'nodagi bo`laklariga-formal elementlariga muvofiq, mos keladi, ekvivalent bo`ladi. Demak, tillararo muayyan lisoniy birlıklarning (masalan, matnning, gaplarning, so`z birlıklarining) - formal qismlarning mazmuniy - fikriy mosligi, mazmunan - fikran muvofikligi asosida ushbu tillarning biridan ikkinchisiga - bir tildan boshqa tilga elektron hisoblash mashinalari yordamida tarjima qilish imkonini beradi . . . Boshqacha aytganda, bir tildagi - lisoniy birlıklardagi mazmun boshqa bir tilga - shu til birlıklari, vositalari orqali EHM yordamida tarjima qilinadi.

EHM orqali matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun:

1. Maxsus tanlangan so`zlar bilan birgalikda matnni mexanik (mexanistik) ravishda tarjima

qilish imkonyatini beradigan qoidalar sistemasini yaratish kerak.

2. Bu qoidalarni va so`zlarni «mashina tilida» yozish. YA’ni mazkur qoidalarni amalga oshiruvchi dastur (programma) tuzish kerak.

Programma va lug’at maxsus shartli belgilar bilan yoziladi va mashinaga kiritiladi, natijada mashina tarjimaga tayyor bo`ladi.

II bo`lim. O`zbek tili uslubistikasi

1-ma’ruza

Uslubshunoslikning asosiy kategoriya va tushunshalari

Reja:

1. Uslubshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Stil so`zining ma’nolari.
3. Uslub turlari.
4. Nutq stilistikasi yoki tilning vazifadosh uslub turlari:
 - a) so`zlashuv uslubi
 - b) rasmiy uslub
 - v) ilmiy uslub
 - g) publististik uslub
 - d) badiiy uslub

Asosiy tayanch tushunchalar:

Stilos – suyakdan qilingan tayoqcha

Uslub – bo`g`in, nutq uslubi ma’nosida qo`llanilgan

Uslub – stilet (ingichka hanjar va uslubo-avtoruchka so`zlari kelib chiqqan)

Struktural stilistika – tilning vazifadosh uslublarini o`rganuvchi uslubshunoslik.

Lingvistika – til.

Adabiy me’yor – tilning eng yuksak, ishlangan, sayqallangan ko`rinishi.

Funkstional – vazifadoshlik.

Okkazionalizm - har bir ijodkorning uslubiga hos bo`lgan, u yaratgan so`zlar.

Leksik va frazeologik me’yor – hamma tomonidan ishlatiladigan, hammaga tushunarli bo`lgan so`z va iboralarning qo`llanishi.

Mushtarak – barcha uslub uchun umumiy bo`lgan.

Uslubshunoslik-stilistika terminining tarjimasi. Stilistika - grekcha «stylos» so`zidan olingan bo`lib, suyakdan qilingan uchli tayoqcha degan ma’noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan tahtachaga shunday uchli tayoqcha bilan yozar edilar. Bu tayoqchaning tepe tomoni kurakchaga o`xshar edi. Xato yozilgan so`zni tayoqchaning kurakchaga o`xshagan tomoni bilan tahtachadagi mumni tekislash yo`li bilan o`chirar edilar va uchli tomoni bilan to`g`rilab yozardilar.

Stil so`zidan stilet – ingichka hanjar va stilo – avtoruchka so`zlari kelib chiqqan.

Qadimdanoq uslub so`zi «bo`g`in, nutq uslubi» ma’nosida qo`llana boshlangan. Gorastiyning «Agar sen o`qish uchun loyiq narsa yozmoqchi bo`lsang, uslubingni tez - tez almashtirib tur. Dunyoqarashi tor odamlarni qoyil qoldira olmasang, kuyinib o`tirma, ozgina bo`lsa ham tushungan odamlar bilan qoniq» deb yozib qoldirgan jummalari ichidan «stilingni tez-tez almashtirib tur» degan ifodasi keyinchalik greklarda maqloga aylanib ketgan.

Demak, odamlarning ko`ngliga urmaydigan, foydali ma’lumot beradigan biror narsa yozish uchun stilni tez-tez almashtirib turish lozim ekan. Stil so`zining izohli lug`atlarda bir necha ma’nolari berilgan. 1935-1940 yillarda D.N.Ushakov tahririda nashr etilgan «Tol’koviy slovar`

russkogo yazыка» kitobida uslub so`zining 4 hil ma’nosi berilgan. Bu ma’nolar 1981 yilda chop etilgan «O’zbek tilining izohli lug’ati»da ham tarjima qilinib, izohlangan. Ular quyidagilar:

Uslub 1 – biror san’at asarining, biror ijodkor, davr, millatning o`ziga hos belgilari yig`indisi. Masalan: Arxitekturadagi sharqona uslub (naqshinkorlik, gumbazli binolar).

Ko`rinadiki, uslub so`zining 1 – ma’nosi juda keng tushunchani ifodalaydi, Ya’ni badiiy ifodalar yig`indisi Yoki badiiy ifodalarning umumiy tizimi. Bunda adabiyot nazarda tutilmaydi.

Uslub 2 – biror adabiy asar, adabiy yo`nalish, adabiy janr Yoki biror muallifga hos bo`lgan g`oya va til vositalarining tizimi.

Masalan: A. Qahhor uslubi, Oybek uslubi. Poetik uslub, romantik uslub va h.k.

Bunda fikr ifodalash ctillari ham tushuniladi. Masalan: ko`tarinki uslub, lo`nda uslub va boshqalar. G`G`ulomning «Sen yetim emassan» she’ri ko`tarinki uslubda yozilgan. A.Qahhorning uslubi fosh qiluvchilik xususiyatiga ega. Uning asarlarida zaharhanda iboralar, maqol va matallar ko`plab uchraydi. Masalan: «Sinchalak» qissasida Arslonbek Qalandarov shunday deydi: «Sinchalak degan oyog`i ipday ingichka qush bor. U kechasi oyog`ini osmonga ko`tarib yotadi, osmon tushib ketsa, ko`tarib qolaman, deb. Saida esa unga javoban deydi: “Ho`roz ham «men qichqirmasam, tong otmaydi , der ekan.” «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida fosh qiluvchi bunga o`hshagan jumlalar juda ko`p.. Yozuvchi Oybekka esa keng ko`lamlilik xos masalan Oybekning “Navoiy” romanidan parcha:

SHoir “Xiyobon ko`chasini o`tib,”Bog’izag`on”ning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib,darrov otning jilovidan ushladilar.SHoir klarning yordamisiz otdan tushdi-da,”Bog’i zag’on”ga kirdi.Bu –turli qasrlar,ko`shklar va boshqa go`zal binolar va ajoyib hiyobnlarga boy g`oyat katta bog` edi. Darhtlar oralab ketgan keng,toza va quyosh nurlari bilan ola chalpoq yo`ldan borib,bir necha tanob joyni ishg`ol etgan katta gulzorlarga chiqди.Bu yerga go`yo butun dunyoning gullari to`plangan edi.Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko`zlarini qamashtirardi.Navoiy gulni,rangni juda sevar edi.Har kungidek,to`htab,zavq bilan tomosha qildi.Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga –devorlari,ustunlari,eshiklari naqqoshlar qo`li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan tomon yurdi.Oltin qubbachalar,o`ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib,kichikroq,lekin serhasham bir honaga kirdi.Bu yerda uni do`sti Xo`ja Afzal qarshi oldi.Bu –past bo`yli,tiyrak ko`zli,hush muomila,qariyb o`zi bilan tengdosh kishi edi.

Uslub 3 – ko`chma ma’noni ifodalaydi. Bunda hulq, ahloqqa hos bo`lgan xususiyatlар yig`indisi, faoliyat metodi, biror ishni amalga oshirishning yo`l-yo`riqlari kabilar tushuniladi..

Uslub 4 – bu ma’no adabiyotga ham, tilga ham hos emas. Bu davrga, yil hisobiga nisbatan ishlatalidi. Masalan: melodiy yil hisobi, hijriy yil hisobi.

Uslub so`zining ma’nolari bilan tanishishdan ma’lum bo`ldiki, 2 – ma’no bilan bog`liq holda stilistika fani vujudga kelgan.

Stilistika fanini o`rganish ob’ekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir – biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko`rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funkstional uslublarini o`rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikating vazifasi uning struktural elementlari bo`lgan rasmiy, ilmiy, publististik, badiiy uslublarning o`ziga hos xususiyatlari va ifoda vositalarini o`rgatishdir.

2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv – uslubistik) ma’no va tez ta’sir qilish tomonlarini hamda og`zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikaci. Uning vazifasi tilning barcha uslublar tizimi bilan birga yozma va og`zaki shakllari, adabiy va so`zlashuv nutqi ko`rinishlarini tekshiradi. U til birlilikidan qaysi biri yozma va og`zaki nutqda ko`proq ishlatalishi, fikr ifodalashda til vositalarining to`g`ri tanlangan Yoki noto`g`ri olinganligi, shu vositalarni o`rnida ishlatalish yo`llarini o`rganadi.

3. Adabiy yo`nalishlar, badiiy asar hamda Yozuvchi uslubini tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda Yozuvchining ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir. Stilistika fani akademik V.Vinogradov ko`rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning

ob'ektidir. Aslini olganda, badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko'rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko`rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq uslublaridan anchagina farqli jihatlarga ega. Badiiy adabiyot uslubi keng qamroviligi, Ya'ni barcha uslublarni ham o`zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Demak, stilistika ikki hil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so`zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publististik va badiiy uslub kiradi.

2. Lingvistik, Ya'ni til stilistikasi. Uning turlari:

a)fonetik stilistika.

b)leksik stilistika.

v)grammatik stilistika.

Nutq uslubiyati

Bu tushuncha adabiyotlarda funkstional stilistika Yoki funkstional uslub turlari deb ham yuritiladi.

Nutq uslublari bir-biriga bog`liq vositalarning tuzilishidan tashkil topadi. Ular tilning vazifasi bilan chambarchas bog`liqdir. SHuning uchun ham ular nutq uslublari deyiladi. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog`liq va uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi.

Nutq uslubi tizimini tashkil etuvchi ifodalar faqat bir uslub doirasida cheklanib qoladi. Masalan, ilmiy uslubda ishlatiladigan terminlar badiiy, publististik, rasmiy va so`zlashuv uslublarida ishlatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir nutq uslubi o`zining barcha vositalari bilan yagona bir maqsad uchun bo`ysungan muayyan til vositalarining majmuasiga ega.

Nutq uslublari til taraqqiyotining ma'lum bir davrida asta-sekin shakllanadi va o`zgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining kengayib ketishi bilan bog`liq tarzda O`zbekistonda publististik uslub vujudga kelgan.

Nutq uslublari og`zaki va yozma nutq shakllari bilan chambarchas bog`liq. Demak, har bir nutq uslubi og`zaki va yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, so`zlashuv uslubi, asosan, og`zaki nutqqa hos. Lekin badiiy adabiyotda bu uslub yozma shaklga ega bo`ladi. Shuningdek, ilmiy uslubning og`zaki ko`rinishi dars jarayonida ma'ruza o`qilganda, ilmiy ma'ruzalar bayon qilinganda namoyon bo`ladi, yozma shakli esa dissertasiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar tarzida ifodalanadi.

Nutq uslublari o`ziga hos belgilari va farqlaridan qat'i nazar, adabiy til me'yordagi asosida umumiylikka ega.

Adabiy me'yordagi nima? Adabiy me'yordagi atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da sharh beriladi:

"Adabiy me'yordagi til tovush tizimini, grammatik ko`rinishi va lug`at tarkibidagi eng hayotiy va zaruriy vositalarni tanlab olish demakdir. Adabiy me'yordagi tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlangan shaklidir".

Adabiy me'yordagi tilning faqat yozma ko`rinishigagina emas, balki og`zaki shakliga ham hosdir. SHuning uchun ma'ruza o`qilayotganda, radio va televideniedagi chiqishlarda ham adabiy me'yorga rioya qilish talab qilinadi. SHu bilan birga, uning adabiy me'yordan chetga chiqadigan tomonlari ham mayjud. Masalan, so`zlashuv uslubida shevaga hos so`zlar ham ishlatiladi. Bu adabiy me'yorga zid, lekin uslub me'yori hisoblanadi, Yoki badiiy uslubda Yozuvchi Yoki shoir shunday so`zlarni yaratishi mumkinki, ular hali me'yorlashtirilmagan bo`lishi mumkin, lekin uslub me'yori sifatida qolaveradi. Adabiy me'yordagi uslub me'yoringning o`zaro munosabati, Ya'ni mushtarak va farqli xususiyatlari bo`yicha dissertasiyalar yaratilgan. Masalan, A.E.Mamatov, "Hozirgi zamondagi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari", doktorlik dissertasiyasi, T., 1991 yil. S.Toshalieva, "O'zbek tilida okkazionalizmlar", nomzodlik dissertasiyasi, T., 1998 yil kabi.

Funkstional uslub turlari quyidagilar;

1. So`zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.

3. Ilmiy uslub
4. Publististik uslub.
5. Badiiy uslub.

SAVOLLAR:

1. Uslubshunoslik fani nimalarni o`rganadi?
2. Uslub so`zi qanday ma`nolarni bildiradi?
3. Akademik V.V.Vinogradov stilistika fanining vazifalarini nechta aspektga bo`ladi va ular qaysilar?
4. Uslubshunoslik necha xil ko`rinishga ega?
5. Nutq uslubi nima?
6. Adabiy me`yor nima?

2-ma’ruza

So`zlashuv uslubi. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub.

Reja:

1. So`zlashuv uslubining fonetik xususiyatlari.
2. Leksik – frazeologik hamda grammatik xususiyatlari.
3. Rasmiy uslubning o`ziga xos xususiyatlari.
4. Rasmiy uslubning fonetik, leksik – frazeologik hamda grammatik xususiyatlari.
5. Ilmiy uslubning turlari. Ilmiy uslubning o`ziga xos xususiyatlari.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Sub`ektiv baho – muallifning munosabati.

Ritorik so`roq gaplar- javobi mazmunidan ifodalanadigan gaplar

Stilistik bo`yoq –qaysi stilda qo`llanishini ko`rsatish belgisi.

Fraza- mazmunan tugal fikr anglatadiga gapga teng bo`lgan fonetik birlik

Takt- frazaning bir qismi bo`lib yarim to`htam bilan ajraladigan bir yoki bir necha so`zdan iborat bo`lak.

So`zlashuv uslubi nutqning dialogik shaklidir. Bu uslub yozma nutqqa qaraganda ta’sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so`z qo`llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so`zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo`ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo`shib gapiradi. Bunda turli imo – ishora va qo`l harakatlaridan foydalanadi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo`lgan so`z va iboralarning o`rnini to`ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. Bu uslubda to`liqsiz gaplar ishlataladi, chunki tushirilgan qism boshqa bir replikada yoki boshqa bir nutq vaziyatida ifodalanishi mumkin. So`zlashuv uslubining ikki hil ko`rinishi bor;

1. Adabiy so`zlashuv uslubi.
2. Oddiy so`zlashuv uslubi.

Adabiy so`zlashuv uslubida o`qituvchilar, suhandonlar, jurnalistlar, ilmiy hodimlar, Yozuvchi va shoirlar, rahbar hodimlar, artistlar gaplashadilar. Bu uslub` dars jarayonida, sahna nuqtida, kino san’atida, telefil`mlar, ahborotlar, teleocherklar, radioinstenirovkalarida ishlataladi. Adabiy so`zlashuv uslubida jargon va sheva so`zlar bo`lmaydi.

Oddiy so`zlashuv uslubida betakalluflik bilan erkin muomala qilinadi. Bunda shunday so`zlar ishlataladiki, ular adabiy tilda bo`lmasligi mumkin. Lekin bunday so`zlar badiiy nutqda ayrim personajlar nutqining o`ziga hosligini ta’minlash uchun qo`llanishi mumkin. Oddiy

so`zlashuv nutqi dialektal nutqni ham aks ettiradi. So`zlovchi qaysi dialekt vakili bo`lsa, shu dialektda gapirishi mumkin. Masalan, *ashi, mashi, qaydam, qaytayin, shulaymi, jaa, bo`pti* kabilar oddiy so`zlashuv uslubiga hos.

Har bir uslub` turi fonetik, leksik – frazeologik va grammatik xususiyatlarga ega. Shuningdek, so`zlashuv uslubining ham shunday tomonlari bor.

SO`ZLASHUV USLUBINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Bu uslubda ham adabiy tilga, ham og`zaki nutqqa hos talaffuz xususiyatlarini ko`rish mumkin. Bu uslubga hos talaffuz me`yorlarini 2 turga bo`lish mumkin:

Birinchisi - aktyorlar, o`qituvchilar, suhandonlar, notiqlar nutqiga hos bo`lib, bunda har bir so`z dona – dona talaffuz qilinishi, nutqning fonetik bo`laklari: fraza, takt to`g`ri ajratilishi lozim.

Ikkinchisi - oddiy so`zlashuv nutqiga hos bo`lib, adabiy talaffuzdan farqlanuvchi va unga qarama-qarshi bo`lgan xususiyatlar ifodalanishi mumkin.

Ular quyidagilar:

1. So`z boshidagi **i** tovushi juda qisqa talaffuz qilinishi mumkin; *(i)p, (i)lon, (i)t, (i)sh* kabi.
2. So`z ohiridagi **q** tovushi **v** tarzida aytildi; *qoshiq-qoshuv, so`roq-so`rov, oshiq-oshuv kabi.*
3. Kishi ismlari qisqartirib aytildi: *Muazzam – Muaz, Nozima – Nozi, Salima – Sali, Bahodir – Boho, Bahtiyor – Bahti kabi.*
4. So`z tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: *Bo`lsa-bo`sса, tashlamoq – tashamoq, qulflamoq – quflamoq kabi.*
5. So`z tarkibidagi tovushlarning o`rin almashishi: *La`nat – na`lat, sharpa – shapra, Sarvi – Savri, Saltanat – Santalat kabi.*
6. So`zlarda tovushlarning orttirilishi: *Ayvon – hayvon, yechmoq – chechmoq, yangidan – yangitdan, qamchi – qamchin kabi.*
7. So`zlarda bir tovush o`rniga boshqasining qo`llanishi: *nusha – nusqa, qamish – qamich, munchoq – mo`nchoq Yoki bo`nchoq, bog`lamoq – boylamoq kabi.*
8. Qo`shimchalar qo`shilishi natijasida o`zak negizlarning qisqarishi: *olibdi – opdi, kelibdi – kepti, bo`libdi – bo`pti kabi.*

Bunday holatlarni ko`plab uchratish mumkin.

SO`ZLASHUV USLUBINING LEKSIK-FRAZEEOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bu uslubda ishlatiladigan faol so`zlar lug`at tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Bunday so`zlar uyda, ko`chada, ishhonada, bozorda, to`y-tomoshada ishlatiladi. So`zlashuv uslubida qo`llanadigan asosiy so`zlar; *osh, non, suv, don, ovqat, tuz, shakar, go`sht, yer, osmon, quyosh, ona, bola, ota* kabilar uslubiy bo`yoqsiz bo`lgani uchun neytral so`z hisoblanadi. Lekin bu uslubda yana shunday so`zlar ishlatiladiki, ular yo ijobjiy Yoki salbiy bo`yoqqa ega bo`ladi. Masalan, *churvaqa, turq, bashara, kekkaymajon, jinqarcha, qaqajon, oyimtilla, pashshaho`rda, itvachcha, tirrancha* kabilar salbiy bo`yoqqa, *jujuq, jiji, tabassum, oyim, begin, polvon, do`ndiqcha, bolatoy* kabilar ijobjiy bo`yoqqa egadir.

So`zlashuv uslubida qo`llanadigan juda ko`p fe'llar salbiy bo`yoqqa ega bo`ladi: *akillamoq, ming`illamoq, to`ng`illamoq, valdiramoq, bobillamoq, do`g`illamoq, andavalamoq* kabilar.

Sifatlarning ham so`zlashuv uslubidagina qo`llanadigan variantlari mayjud: *po`rim, pismiq, mumsik, isqirt, so`tak, homkalla, humpar, zumrasha, qoqbosh, go`rso`hta* kabilar.

Shuningdek, *churq etmaslik (lom-lim demaslik), kallasi g`ovlab ketdi (miyasi g`ovlab ketdi), ta`bi nomozshom (ta`bi hira)* kabi iboralar ham so`zlashuv uslubiga hos.

- SO`ZLASHUV USLUBINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Bu uslubda ritorik so`roq gaplar, so`roq mazmuni ifodalanadigan darak gaplar, his-hayajon gaplar ko`plab ishlatiladi. Fe'lning -i(b), -gan qo`shimchali shakli -uvdi, -ovdi tarzida qo`llandi. Masalan, *so`rab edi – so`rovdi, kelib edi – keluvdi, qolgan edi – qoluvdi, bilgan edi – biluvdi* kabi. Affikslardan *-jon, -hon, -vachcha, -tillo* kabilar bilan yasalgan sub`ektiv baho bildiruvchi otlar ham so`zlashuv uslubida ko`plab qo`llanadi; *tirrancha, qaqqajon, oyimtillo, baloho`r, kekkaymahon, pashshaho`rda, jinnivachcha* kabi.

- *lar* qo`shimchasi ham so`zlashuv uslubida -la, -na, -nar shaklida qo`llanilishi mumkin: *oliyla (olinglar), keliyna (kelinglar), boringnar (boringlar)* kabi.

So`zlashuv uslubi ikki va undan ortiq odamlar orasida bo`ladigan muloqotda ishlatiladi. Bunda dialog rol` o`ynaydi. SHuning uchun, gaplar to`liqsiz shaklda bo`ladi. ishlatilmayotgan gap bo`laklarining o`rnini nutq vaziyati to`ldirib turadi. Masalan, *ismingiz?, keldimi?, ketdikmi?, boshlandi kabilar sizning ismingiz nima?, ustoz keldimi?, uyga ketdikmi?, kecha boshlandi* tarzida to`liq bo`ladi. Nutq vaziyati esa, bu jumlalarni to`liq aytmaslikni taqozo qiladi.

Shuningdek, *gapiрган bo`ldi, ovqatdan tatigan bo`ldi, gapga qulоq solgan bo`ldi* kabi ifodalar ham so`zlashuv uslubida ishlatiladi.

Diplomatik yozishmalarda, iqtisodiy, yuridik munosabatlar ifodasi bo`lgan hujjatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir muomalalarda rasmiy uslub` ishlatiladi. Rasmiy uslub` ish yuritish hujjatlarida qo`llanadi. Bunga ariza, tushuntirish hati, e`lon, tarjimai hol, ishonch qog`ozi, tilhat, hisobot, notalar, buyruq va farmonlar, farmoyishlar, taklifnomma, rasmiy hatlar, tijorat yozishmalari kabilar kiradi. (Bu qog`ozlarning qanday yozilishi haqida M.Aminov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, N.Mahmudovlarning «Ish yuritish» degan kitobidan har tomonlama ma`lumot olish mumkin).

Bu uslubda adabiy me`yorga qat`iy rioya qilinadi, shevaga hos so`zlar, jargonlar, har hil uslubistik bo`yoqqa ega bo`lgan so`zlar ishlatilmaydi. Bu uslub` qisqa, aniq, lo`ndaligi bilan o`ziga hoslikni ko`rsatib turadi. Jumlalar ham inversiyasiz bo`lishi lozim. Gaplarda ta`sirchanlik bo`lmaydi. Rasmiy uslubda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o`xshash mahsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy hatlar, ariza, tushuntirish hati, bildirgi, ma`lumotnomalar, qarirlarni ko`rsatish mumkin.

Hujjatlar uslubida ot turkumiga oid so`zlar ko`p qo`llanadi. Hatto, fe'l so`zlar ishlatilganda, uning otga yaqin shakli harakat nomidan foydalaniladi. Masalan, *qabul qilishingizni so`rayman, qarorning bajarilishi, stipendiya tayinlash, talabalar safiga tiklash* kabilar.

Fe'lllar majhul nisbatda va buyruq-istak mayli shaklida qo`llanadi. *Bajarilsin, tayinlansin, amalga oshirilsin, qaror qilindi, ko`rib chiqildi, eshitildi* kabilar. Agar pul, byum miqdori ko`rsatilishi lozim bo`lsa, oldin raqam bilan qavs ichida harflar bilan yoziladi.

Hujjatlarda fikr aniq, lo`nda bayon qilinishi lozim. Bunda hatboshi (abzast) ning o`rni muhimdir. Har bir yangi, alohida fikr hatboshi bilan ajratilishi, bir hatboshi bilan ikkinchi hatboshi o`rtasidagi matn to`rt-besh jumladan oshmasligi me`yorga mosdir.

Hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Hujjatning nomi bosh harf bilan yoziladi. Agar bosma matn bo`lsa, hujjat nomining har bir harfi bosh harf bilan yozilishi mumkin. Hujjatning nomidan so`ng qo`yilmaydi.

Diplomatik hujjatlar shakliga va so`z qo`llanishi jihatidan o`ziga hos ko`rinishga ega. Ularni yozishda hujjatning qay shaklda bo`lishi muhimdir. Ma'lumki, diplomatik yozishmalar bir davlatdagi oddiy korhonalar yoki tashkilotlar orasida bo`lmaydi. Ular boshqa – boshqa davlatlar o`rtasida bo`lgani uchun hujjat yuborilayotgan mamlakat an'analari hisobga olinadi. U Yoki bu davlatga hujjatning qaysi turi yuborilayotgan bo`lsa, huddi shu turi bilan javob qaytariladi. Diplomatik hujjatlarga bayonot, nota, rasmiy hatlar, ilova hatlar, yarimrasmiy shahsiy hatlar, diplomatik protokol qaydnomalar, memorandumlar va boshqalar kiradi.

Diplomatik yozishmalarda hujjat yuborilayotgan mamlakatning nomlanishida, shahsning ismi-sharifi va lavozimini yozishda, unga qilinayotgan murojaat ifodalarida hatoga yo`l qo`yilishi mumkin emas. Chunki, hatolar bepisandlik, humatsizlik sanaladi. Bu hujjatlar tashqi ko`rinish jihatidan ham nuqson siz bo`lishi, fikr aniq, to`g`ri, mantiqiy, izchil, asosli va ikkinchi tomonning xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etilishi zarur.

Rasmiy uslubda fonetik xususiyatlar bo`lmaydi. Chunki unda talaffuzga hos belgilar uchramaydi, adabiy me'yorga qat'iy rioya qilinadi.

Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari

Asli rasmiy uslubda bo`yoqdor so`zlar ishlatilmaydi. Lekin diplomatik yozishmalarda bo`yoqdor so`zlar bo`lishi taqozo qilinadi. Unda maqtov ifodalari: ***hurmatli janob, janobi oliylari, Sizga bo`lgan hurmatimga ishonch bildirgaysiz, bosh ustiga, boshimiz ko`kka yetdi, eng samimi tabrik, ezgu tilaklar ila, Sizga chuqur hurmat bilan, minnatdorlik izhor etaman*** kabilalar faol ishlatiladi.

Rasmiy uslubda jargonlar, shevaga oid so`zlar, eskirgan so`z va birikmalar odatda ishlatilmaydi. O`rni bilan arhaizm va istorizmlardan foydalaniladi: ***shahzoda, shoh, malika, janob, hazrati oliylari*** kabilalar

YURidik hujjatlarda konstitustiyada har bir so`z, jumla, fikr va mulohazaning aniq va to`g`ri ifodalanishiga hizmat qilishi lozim. SHuning uchun unda kasb-korga oid, yuridik, diplomatik, ma'muriy va boshqa terminologiyaning mavjudligi bu uslubning o`ziga hosligini ta'minlab turadi: ***akt, guvohnoma, qaror, qidirish, elchi, nota, shartnoma, bayonot, deklarastiya, vizit, kodeks, qonun, modda, poshlina, protest (shikoyat), kassastiya*** kabilalar.

Rasmiy uslubning grammatik xususiyatlari

Bu uslubning ariza, tushuntirish hati, tilhat, taklifnomalar kabi ko`rinishlarida jumlalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Hujjatlardagi nutqiy shtamplar matnga rasmiylik belgisini kiritadi.

Yuridik qonun va hujjatlarda jumlalar juda uzun, ba`zan bir fikr yarim betlik gap orqali ifodalanadi. (Qonunlardan parchalar o`qiladi)

Konstitustiya o`z tuzilishiga ko`ra bob va bo`limlarga bo`linadi. Demak, har bir bo`limdagi fikrlar bir-biri bilan mantiqan bog`lanishi, biri ikkinchisini taqozo qilishi lozim. Shunday ekan, bunda bog`langan qo`shma gaplar, bog`lovchisiz qo`shma gaplar va ergash gapli qo`shma gaplarning ayrim turlari shu vazifani bajarishga hizmat qiladi. CHunki bunday qo`shma gaplarda ketma – ket ro`y beradigan, bir vaqtida yuz berishi mumkin bo`lgan, sabab-oqibatli, ziddiyatli voqealari hodisalar ifodalanadi.

Ba`zi bir yuridik hujjatlarda shahslar o`z nomi bilan atalmasdan ularning muhim belgilari ifodalangan birikmalar ishlatishi mumkin: ***uyni ijara qiluvchi, o`g'il qiluvchi, korhonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdar shahslari yuqori martabali mehmon*** kabilalar.

Hujjatlardan shartnomalar ham murakkab sintaktik qurilishga ega. Uning kirish qismi alohida bandlari ko`rsatuvchi matnlar hat boshlariga ajratilgan bo`ladi. Bunday xususiyat matnni o`qishni va tushunishni bir muncha yengillashtiridi.

Hujjatlarning turiga ko`ra shartli qisqartmalar turg'un birikmalar ko`p ishlataladi. Masalan: harbiy hujjatlarda *Oly Bosh Qo'mondon, Mудofaa vazirligi, Bosh shtab, Qurollı kuchlar, harbiy gospital*` kabilarni ko`rsatish mumkin.

Ilmiy uslub, ilmiy tadqiqotlar uslubidir. Bu uslub fan, tehnika sohasida yaratilgan asarlarda qo`llaniladi. SHunga ko`ra bir necha hilga bo`linadi. Ilmiy tehnik, ilmiy ommabop, ilmiy- o`quv, ilmiy – publististik va ilmiy – hujjat. Ilmiy –tehnikasiy uslubda ilmiy maqola, maqola, ma`ruza va manografiya, disertastiya yoziladi. Ilmiy –ommabop uslubda ahborot ommabop qilib ilmiy jihatdan tushuntiriladi. Bunda ma'lumot sof ilmiylikdan bir oz soddalashtiriladi. Va har bir sohaning ilmiy yutuqlari ommaga ma'lum so`zlar bilan bayon qilinadi. Ilmiy –o`kuv uslubida darsliklar , o`quv qo`llanmalari, uslubiy qo`llanmalar va uslubiy maqolalar yoziladi. Ular o`quvchilar uchun tushunarli so`zlar bilan ilmiy jihatdan bayon qilinishi kerak. Ilmiy- publististik uslubda ommabop risolalar, ommabop ilmiy maqolalar yoziladi. Ularda ilmiy terminlar bo`lishi bilan birga ommanning hissiyotiga ta'sir qiladigan so`zlar ishlataladi. Ilmiy –hujjat uslubida ihtiyoj uchun olinadigan hujjat yoki unga tegishli adabiyotlar tasvirlanadi. Bunday hujjatlarda ilmiy ahborot to`g'risida ma'lumot beriladi va u huquqiy jihatdan himoya qilinadi. Ilmiy uslubning har bir turi bir-biridan farq qiladi. Ammo ularni birlashtiradigan umumiylar mavjud. Bularga boy ma'lumotlarning keltirilishi, ularning ob'ektivligi , aniqligi, ular haqidagi fikrning qisqa va lo`nda ifodalaniishi hosdir. Shuningdek, ularning har birida ilmiy-terminologiyaning faol ishlatalishi muhim xususiyat sanaladi.

Ilmiy uslubning o`ziga hos xususiyati shundan iboratki, bu uslubda fikrlar mantiqiy jihatdan aniq bir ma'noli bo`lishi lozim. Ilmiy uslubda fikrlar faqat tushunchalarni ifodalaydi. Bu tushunchalarning ifodasi muhokama, munozara va hulosalar shaklida bo`lib, ular qat'iy mantiqiy izchillikka asoslangan bo`ladi. Bu uslubda mantiqiylik eng asosiy belgi bo`lsa-da, fikr qat'iy dalillanishi kerak. Tahlil va sintez bir-biridan ajralmagan holda qo`llanadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. SHu orqali qonuniyatlar ochiladi. Mana shu qonuniyatlar ochilishi jarayonida tafakkurning umumiy, mavhum bo`lishi ko`rinadi.

SHu narsani farqlash lozimki, ilmiy uslubda bir tomonidan, ilmiy fikrlash xususiyati mavjud. Ikkinci tomonidan, uni ilmiy uslubda ifodalash. Ilmiy uslubda fikr berilayotganda, Ya`ni yozilayotganda, uning tadqiqot bosqichi bilan birga shakllantirish masalasi ham hisobga olinadi. Bunda isbotlash usullari, lo`ndalik darajasi, oddiy tasvir yoki muhokama ekanligi, ommalashtirish darajasi nazarda tutiladi. SHuning uchun ham ichki va tashqi nutqni bir narsa deb bo`lmaydi. Lekin ular orasida katta farq ham yo`q. Ular bir-birini to`ldirib, biri ikkinchisi uchun zamin bo`ladi. Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, tafakkurning uzil-kesil ifodasi tashqi nutqda bo`ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilmiy uslubning muhim xususiyati deb shuni ko`rsatish lozimki, ilmiy bayon umumiylar va mavhum bo`lib, mantiqiylik yaqqol sezilib turadi. Bundan ikkinchi xususiyat kelib chiqadi, Ya`ni bu uslubda qo`llanadigan til birliklarining ishlatalish darajasi va uslubga hos bo`yog`idir. Ilmiy uslubning tipik bo`lgan xususiyatlari quyidagicha;

1. Terminlarning qo`llanishi.
2. Bir ma'nolilik.
3. Obrazlilikning deyarli bo`lmasligi.
4. Yashirin emostionallik.
5. Bayonning ob'ektivligi.
6. Bayonning quruq va qat'iyligi.

Ilmiy uslubda fanning turli sohalariga oid ramziy belgilar, raqamlar, jadvallar, turli chizmalar va rasmlar qo`llanishi mumkin. Masalan, kimyo fani bo`yicha turli formulalar: *Mg-magniy, Cl- hlor, N₂+O=N₂O-suv* ishlataladi.

Yuqorida ko`rsatilgan belgilar muallifning uslubiga, ilmiy uslubning mavzusiga, uni bayon qilish muhitiga bog'liq holda namoyon bo`ladi.

Ilmiy uslubda emostionallik va uslubiy bo`yoqning bo`lishi fan sohalariga bog`liq. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida bunday xususiyat mavjud. Tabiiy fanlarda bu nisbata kamroq uchraydi. Masalan, *dengiz marjonlari*, *patsimon bulutlar*, *somon yo`li(yulduzlarga nisbatan)*, *vulqon chambaragi*, *marjon qirg'oq*, *oy o`tovi*, *oq tuproq*, *qora tuproq*, *qizil tuproq*, *sariq tuproq*, *qush bozorlari*, *uchar yulduz*, *dumli yulduz*, *geografik burun kabilar*.

Butun dunyoga mashhur bo`lgan fizik olim Al`bert Eynshteyn “Fizika va reallik” degan maqolasida “men tushunchaning hissiy idrokdan mantiqan mustaqil ekanligini tan olmayman” degan edi. U ilmiy tushuntirishda hajv, hazil, askiya, qiziq o`xshatishlar qo`shib yuborardi. (R. Bekjonov. Al`bert Eynshteyn, “Fan”, Toshkent, 1966) Albatta, ilmiy va badiiy uslublardagi obrazlilik farqlanadi. Ilmiy uslubda Yuqorida keltirilgan obrazli nomlar atash vazifasini, badiiy adabiyotda estetik ta`sir ko`rsatish vaifasini bajaradi. Ko`rinadiki, ilmiy - tehnik bayon ilmiy - matematik bayondan Yoki qat’iy ilmiy bayon ilmiy - ommabop bayondan farqlanadi. Masalan, ilmiy- ommabop uslubda yozilgan biror fanga oid kitob, maqola yoki ma’ruzalar shu fan bilan tanish bo`lmagan kishilarga tushunarli tarzda bayon etiladi. Fikr jonli va qiziqarli shaklda ifodalaniladi. Ilmiy terminlar kam ishlataladi. Mavhum ma’noli jumlalar va formulalar o`rniga tasviriy materiallar qo`llaniladi. Ba’zan obrazli va emostional ifodalardan foydalaniladi. SHunga qaramay, ular ilmiy uslub` tushunchasining bir butunligiga, yahlitligiga putur yetkazmaydi

Ilmiy uslub` *fonetik xususiyatlarga* ega emas. Chunki ilmiy uslub` adabiy me’yorda yoziladi.

Ilmiy uslubning leksik xususiyatlari

Ilmiy uslub` ilmiy terminologiya bilan bog`liq. SHuning uchun terminlar ilmiy uslubning leksikasini tashkil qiladi. Albatta, har qanday ilmiy asarda faqat termin qo`llanmaydi. Unda mavhum so`zlar, ko`p ma’nolilikka ega bo`lgan umumhalq so`zları ham qo`llanadi.

Bu uslubda har bir so`z umumiyl tushunchani Yoki mavhum narsani ifodalaydi. Masalan, tilshunoslikka oid ilmiy uslubda yozilgan quyidagi parchani tahlil qilaylik: *Til so`ziga tilshunoslikda turlicha ma’no beriladi. Keng ma’noda til deganda hotirada mavjud ijtimoiy boylik ham,bu boylikdan foydalanish jarayoni ham , shu jarayon natijasida yuzaga keladigan matn(nutq) ham tushuniladi.Til deganda asli hotirada saqlanuvchi ijtimoiy boylikni, nutq hosil etish uchun hizmat qiladigan hodisalarni, shulardan foydalanish qoidalarini tushunish to`g’ri bo`lib,bunda til bilan nutq o`zaro chegeralanadi, tilga mansub birliklarni til birligi deb,nutqning o`zida tuziladigan birliklarni nutq birligi deb farqlash mumkin.*(U.Tursunov, J.Muhtorov, SH. Rahmatullayev.Hozirgi o`zbek adabiy tili,Toshkent,1992,50-b.)

Bu parchadagi *til*, *so`z*, *nutq*, *matn*, *ijtimoiy boylik*, *hodisa*, *qoida*, *birlik* kabilar ko`p ma’nolidir va ular umumiyl tushunchani ifodalaydi.Jurnalistikaga oid quyidagi parchani kuzataylik:

Yangiliklar siyosiy, iqtisodiy- moliyaviy, ta’lim, ilmiy, sport, huquqiy, harbiy, ekologiya va boshqa turlarga bo`linadi. Ular matbuot nashrlari sahifalarida, tele va radio dasturlarida o`z o`rniga ega. Gazetalarda avval siyosiy Yoki shov-shuvga sabab bo`ladigan yangiliklar berailadi. Iqtisodiy va boshqa yangiliklar keyingi sahifalaridan doimiy o`rin egallaydi. Tele, radio yangiliklar dasturlarida ham ketma-ketlik shu tartibda ketadi.

Gazetalardagi yangiliklar ruknida Yoki teleradioning yangiliklar dasturlarida birinchi o`rinda siyosiy mavzudagi yangiliklar beriladi.(Halim Saidov. Yangiliklar yozish va tahrir san’ati. Toshkent, 2002 yil, 38- bet)

Bu matnda *yangilik*, *ta’lim*, *ekologiya*, *matbuot*, *dastur*, *tartib*, *rukni* kabi so`zlar turli ma’noni bildiradi va ular umumiyl tushunchani anglatadi.

Fan, tehnika, san'at, siyosat, diplomatiya sohalarida borliqni mantiqiy jihatdan bilishga qaratilganligi sababli so`z va terminlarning nihoyatda ravshan aniq bo`lishi talab qilinadi. Lekin ular qayta- qayta takrorlansa, bir hillikka olib kelishi mumkin. SHuning uchun olimlar oldida ilmiy bayonning xususiyatiga ziyon yetkazmaydigan va uning jonli ta'sirchanliligini ta'minlaydigan terminlarning sinonimik variantlarini topish masalasi turadi.

Ilmiy uslubning grammatik hususiyatları

Ilmiy uslubning grammatik qurilishi mantiqiy bog'liqlikni, izchilllikni, sintaktik aniqlikni taqozo qiladi. SHuning uchun unda ellipsis (gapdan birorta so`zning tushib qolishi) hodisasi uchramaydi. Bu uslubda gapning kesimi ko`pincha majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalanadi. SHuning uchun unda shahsi noma'lum gaplar, passiv konstrukstiyalar qo'llanadi. Misol: **1. Bir so`z bir necha narsalarga nisbatan ishlatiladi. 2. Harakat va holatni bildirgan so`zlar fe'l deyiladi. 3. Tezkorlik ham muhim xususiyatlardan hisoblanadi. 4. Ahborot olish, albattha, har qanday demokratik davlatda qonunlar bilan kafolatlanadi** kabi.

Demak, ilmiy uslub` o`rganilayotganda, aniq bir fanning: matematika, fizika, biologiya, adabiyot, ona tili, tarix kabilarning uslublariga hos xususiyatlar alohida taddiq etilishi lozim. Albattha, ularga hos bo`lgan farqli va mushtarak tomonlar ham bor. Ularni ham namoyon etib, o`zaro taqqoslab yoki umumlashtirib, umumiylulosa chiqariladi. Bunda ilmiy uslubga hos bo`lgan turli matnlar tahlil qilinadi.

3-ma'ruza **Publitsistik uslub. Badiiy uslub**

Reja:

1. Publististik uslubning o`ziga hos xususiyatlari.
2. Publististik uslubning ommaviy axborot vositalari uslubi ekanligi.
3. Badiiy uslubning o`ziga xos xususiyatlari.
4. Badiiy uslubda so`zning o`rni. Badiiy uslubning boshqa uslublar bilan munosabati.
5. Badiiy uslubda so`z yaratish muammosi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Publististik – (publikuz) ijtimoiy, ommaviy, emostiya – his-hayajon, anafora – gaplar boshida bir hil so`zning takror kelishi, epifora – gaplar ohirida bir hil so`zning takror kelishi, epitet - o`hshatish, pamphlet – xalqaro mavzudagi feleton, okkazionalizm – tasodifyi yaratilgan yoki bir marta ishlatiladigan so`zlar; sillogizm – mantiqiy ifodalar, estetik vazifa – ta'sirchanlik, potensial imkoniyat – zahiradagi imkoniyat, jargonlar – buzilgan so`zlar, argolar - ma'lum bir

guruhgaga tushunarli bo`lgan so`zlar, varvarizmlar – urinsiz ishlatilgan chet tili so`zları, vul`garizmlar – haqorat, qarg'ish, so`kish so`zları.

Publististika – lotincha “publicus” so`zidan olingan bo`lib, ijtimoiy, ommaviy degan ma'nolarni ifodalaydi.

Publististik uslub` siyosiy-g'oyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni aks ettiruvchi asarlarda ishlatiladigan uslubdir. U o`zbek adabiy tilining nutq uslublari tizimida XIX asrning ohiri va XX asrning boshlarida paydo boshldi. Bu davrda o`zbek tilida gazetalar chop etila boshladи. Nashriyot va vaqtli matbuot ishlari yanada rivojlanib ketdi. O`zbek yozuvchilari badiiy publististika janirida ko`plab ijod qildilar. Vaqtli matbuot va nashriyotda zamonalivij ijtimoiy –siyosiy masalalarga bag'ishlangan materiallar ko`plab bosila boshladи.

Radio va televideenie orqali siyosat va ijtimoiy hayot masalalariga doir ma'ruza va suhbatlar muntazam eshitirildi va ko`rsatildi. Bularning hammasi publististik uslubning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi.

Publististik uslubning yozma va og'zaki ko`rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, fel'eton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklarastiyalar publististikaning yozma turiga kiradi.

Og'zaki publististika - notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar ahboroti, radio va televideeneda chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin.

Publististika katta hayotiy masalalarni, mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi, shu bilan birga tinglovchining iroda va his-tuyg'ulariga ta'sir qilishi lozim.

Publististik uslubning asosiy vazifasi shundaki, u jamiyatdagi ilg'or g'oya va fikrlarni ajratib ko`rsatib, unga odamlarni ishontira olishdir. Ma'naviy-ma'rifiy ishimizning yutug'i publististikaning ta'sir kuchiga bog'liq.

Kimki aytayotgan fikriga o`zi ishonsa, boshqani ham ishontira oladi.

Publististikada so`z tanlash bu uslubning janr turlariga ko`ra belgilanadi. Tilning ta'sirchan vositalaridan anafora, epifora, epitet, o`xshatish, jonlantirish, ironiya, apostrofa kabilar publististik maqolalardan ishlatiladi.

Har qanday targ'ibotchi va tashviqotchining san'ati shundaki, auditoriyaga eng yuqori darajada ta'sir qila olish, odamlarga ma'lum bo`lgan haqiqatni yanada aniqroq, yanada ta'sirchanroq va ishonarliroq qilib tushuntirishdir.

Bu uslub`ning o`ziga hos xususiyatlaridan yana biri hissiyotga boyligi va ta'sirchanligidir. Bu xususiyat asosiy e'tiborni nimaga qaratish kerakligini ta'minlab beradi. SHu bilan birga bu xususiyat nutqning tezda tushunarli va esda qolarli bo`lishiga ta'sir etadi.

Har bir uslub`ning o`ziga hos nutq standarti bo`ladi. SHuning kabi publististik uslub`ning ham nutq standarti bor. Buni har qanday gazetaning bosh maqolalarida ko`rish mumkin.

Publististik uslubda so`zlovchi, notiqning o`zi bildirayotgan ma'lumotlarga singishib ketishi muhimdir. Publististikaning yana bir o`ziga hosligi uning ko`p janrliligidir.

Ular quyidagilar:

1. Gazeta janri.
2. Og'zaki publististika.
3. Radio va televideenie janri kabilar.

Publististika materialning ikki hil jihatini o`zida aks ettiradi.

1. Informativ, Ya'ni habar tomoni.
2. Baholash, Ya'ni materialni zamona talabidan kelib chiqqan holda tahlil qilib, bayon qilish, unga o`z munosabatini bildirish.

Publististik asarlar: habar, reportaj, maqola, ocherk, fel'eton, pamflet, bosh maqola va boshqalar o`ziga hos til xususiyatlariga ega. SHuning uchun, ular o`zaro chegaralanadilar.

Publististik uslubning fonetik xususiyatlari

Bu uslubning janrlari hilma -hil bo`lganligi uchun hamma janrda ham fonetik xususiyat bo`lavermaydi. Uning og'zaki ko`rinishi- notiqlikda ayrim tovushlar, so`zlar boshqacha talaffuz qilinishi mumkin. Ocherklarda ishtirokchilarning nutqi berilganda, ularning o`ziga hosligini ta'minlash maqsadida so`zlashuv uslubiga hos bo`lgan jumlalar ishlatilishi mumkin. Bularni aniqlash uchun turli mualliflarning ocherklarini tahlil qilish joizdir.

Publististik uslubning leksik xususiyatlari

Publististikaga hos har bir janrning o`z so`zлari va jumlalari bo`ladi. Habarga neytral so`zлarning ishlatalishi , bayonning ma`lumotlarga boyligi va quruqligi hosdir. Maqola qanday mavzuda yozilganiga ko`ra turli til vositalaridan foydalaniladi. Agar ilmiy-ommabop maqola bo`lsa, ularda ilmiy terminlar bilan birgalikda hissiyatga ta`sir qiladigan birliklar ishlataladi. Agar ommabop maqolaning o`zi bo`lsa, targ`ibot va tashviqot ma`nolarini ifodalarydigan so`z va jumlalar qo`llaniladi.

Pamflet fosh qilish xususiyatiga ega bo`lganligi uchun unda huddi shu ma`noni bildiradigan so`zlar ishlataladi.

Bosh maqolada davlatning ijtimoiy va siyosiy g`oyalari ifodalanadi. SHuning uchun, unda shu ruhni beradigan so`z va jumlalar tanlab qo`llanadi.

Publististik uslub ijtimoiy –siyosiy atamalarni o`zida mujassam etadi. U keng qamrovli bo`lganidan boshqa uslubda qo`llanadigan so`zlar ham uchraydi. Bu uslubda so`z tanlash mantiqiylik va emostionallik talabiga ko`ra belgilanadi. CHunki, vokelikdagi narsa va hodisalarning aniq va to`g`ri ifodalanishi taqozo qilinganda, terminologik leksikadan ham, ekspressiv – uslubistik optenka bilan bog`liq bo`lgan leksikadan ham, o`zining jonliligi, obrazliligi bilan farqlanuvchi idiomalardan ham foydalaniladi. Muallifning so`z tanlashi uning vokea va hodisalarga munosabatini, g`oyaviy nuqtai nazarini ham aks ettiradi. SHu o`rinda O`zbekiston Halq shoiri, akademik G`afur G`ulomning “Quyoshni qutlab” publististik maqolasidan parcha keltiramiz:

Jamiyat davlat tuzimi, oila halk va hukuk butun insoniyatga sheriklik. Insoniyat bu erkak va ayollardan iborat jamiyatdir. Bu ikki juft hayotda mehnatda, oilada bir –biriga mehribon va vafodor bo`lmasa, har ikki jinsda ham jahonga arzirlik , mehnatkashlik, jangovarlik, oilaparvarlik, ishq- muhabbat bo`lmas edi.

O`zbek halqi, o`z pahlavon , botir otalari bilan bir qatorda jasur, qo`rqmas, balolarning ko`ziga tik qaray oluvchi, o`z onalari bilan ham fahrlanib oladi. Bu onalar barcha qarindosh halqlar uchun onadir, yoki holadir, yoki ammadir.

Bu parchada *jamiyat, oila , halq, davlat , huquq, hayotda, mehnatda, oilada, mehribon , vafodor, mehnatkashlik, jangovarlik, oilaparvarlik, ishq-muhabbat, jasur, qo`rqmas, balolarning ko`ziga tik qaray oluvchi* kabi so`z va iboralar qatnashganki, ular jumlalarning ko`tarinki ruhni ifodalashiga hizmat qiladi.

Ko`rinadiki, har bir janr o`z xususiyatiga ko`ra chegaralanib, yopiq bir tizim vujudga keltiradi.

Publististik uslubning grammatik xususiyatlari

Publististik uslub morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ayniqla so`z yasalish sohasiga ko`rinadi. Okkazionalizmlarning vujudga kelishi ko`pincha tildagi mavjud qo`shimchalar vositasida bo`ladi. Masalan, *davlathona (hukumat uyi), gazetahona (muharririyat), barakahona (tug`ruqhona), qo`ng`iroqzorhona (ko`p telefonlari bor hona), shaharsozlar (quruvchilar), da`vatnoma (hukumat notasi), musibatnoma (ta`ziyanoma), dildosh, dunyodosh, ruhshunos, ziyokor kabi*.

Publististikaning qo`llanish doirasidan kelib chiqqan holda gap turlaridan foydalaniladi. Qisqa, lo`ndalikni ifodalovchi sodda gaplar har bir predmetga, tushunchaga alohida tavslif beradi. Qo`shma gaplar esa, mantiqiy bog`liqlikni ko`rsatadi, u Yoki bu voqeа haqida yahlit, umumiylashtirish surʼati hosil qiladi. SHunga ko`ra, matbuotda chop etilayotgan materialning xususiyatiga ko`ra u Yoki bu gap turidan foydalaniladi. Reportajda jumlalarning juda ihchamligi, nutq vaziyatiga ko`ra gap qurilishining o`zgarib turishi kuzatiladi. Chunki reportajda bayon qilinayotgan voqealar tez-tez biri ikkinchisini almashtirib turadi. Shuning uchun, ularga ihcham jumlalar tuzilishi hosdir. Shuningdek, so`z –gaplar, to`liqsiz gaplar,

atov gaplar ko`plab ishlataladi. Radiodan beriladigan eshittirishlarda , radioocherklarda asosan qo`shma gaplar tuzish kerak bo`ladi. Televideenie orqali beriladigan ko`rsatuvlarning hiliga ko`ra u Yoki bu gap qurilishidan foydalaniadi. Teleshoular his-hayajon va so`roq gaplar bo`lishini taqozo qilsa, “Qilni qirq yorib”, “Zakovat” kabi ko`rsatuvlarda qo`shma gaplar qo`llaniladi. Bu uslubning yana bir muhim xususiyati shundaki, gazeta tili muhim o`rin egallaydi. Publististika asosan gazetada o`z ifodasini topadi va gazeta uslubi publististik uslubning bir tarmog'i hisoblanadi. Unda ba`zi gramatik vositalar; ravishdosh, sifatdosh, fe'lning shart mayli shakllarining almashinib ishlatalishi, turli murojaat ifodalari, bir bosh bo`lakli gaplarning qo`llanish darajasi boshqa uslublarga nisbatan ustunroq.

Bu uslubda nutq ko`pincha birinchi shahs nomidan beriladi, chunki, Yuqorida ta'kidlanganidek, bu uslubda yozilgan ma'lumotlarda muallifning bahosi ham ko`rinib turishi kerak. Unda odatda birgina muallifning nutqiy bayoni beriladi. Ba`zi hollarda ko`chirma gap ishlatilsa ham muallif nutqi alohida ajralib turadi. Bu xususiyat muallif nutqining to`g'ri va ochiq oydin ifodalanishiga imkoniyat yaratadi. O`rni o`rni bilan uchinchi shahs tomonidan ifodalanishi mumkin.

Ma'lumki, jumlalarning qoliplangan shakli asosan rasmiy uslubga hos. Publististikada ham odati tusiga kirib qolgan so`z birikmali ishlataladi. Masalan, *vaziyatni keskinlashtirish, ilg'or tajribalarni keng yoyish, iqtisodiy tejamkorlik, ilg'or an'analarga sodiqlik, O`zbekiston sportining kelajak yulduzlari, yangi ming yillik, olimpiada umidlari, yuksak darajadagi uchrashuv, Vatanni sevish, O`zbekiston shuhratini olamga yoyish, dolzarb vazifalar aniqlanib olindi, muammolar yechimi topildi, halqaro minbar, marketing hizmati, biz tanlagan yo`l kabilar.*

Bu uslubda jamiyatdagi ilg'or g'oya va fikrlarni ajratib ko`rsatib, unga odamlarni ishontira olish asosiy maqsad bo`lishi lozim. Shunday qilib, publististika shunday xususiyatlarga ega bo`lsagina, uning oldiga qo`yiladigan vazifa bajarilgan bo`ladi.

Tilning vazifadosh uslublari ijtimoiy hayotning u Yoki bu sohasini aks ettiradi. SHu sohada mehnat qilayotgan inson faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farq qiladi. Badiiy uslub esa hayotning hamma tomonlarini qamrab olishi bilan, barcha nutq uslublarining unda qo`llanilishi bilan farqlanadi. Badiiy adabiyot turli kasb-hunar egalarining , turli kasb egalarining hayotini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o`rnini aks ettirgani uchun unda til va nutq vositalari o`ziga hos holatda qo`llanadi. Yuqorida tavsif berilgan to`rtta uslub' u Yoki bu voqeа –hodisa haqida habar berish uchun hizmat qilsa, badiiy uslub' ma'lumot berish bilan birga estetik va emostional ta'sirni ham ifodalaydi. Badiiy uslub' hikoya , qissa , roman, she'riyat va hattoki kichkina janrdagi afandi latifalarida ham ishlataladi. Unda til – obraz, harakter va manzaralar yaratish vositasi bo`lib hizmat qiladi. Barcha nutq uslublarining uziga hos so`zları va iboralari mavjud. Garchi, rasmiy va ilmiy uslubda iboralar kam darajada ishlatilsada ular nisbatan “hususiyashgan”, badiiy uslubda esa ishlataladigan so`z va iboralar Yozuvchi va shoirning birinchi bor ishlatalganlik ohoriga ega bo`ladi. Chunki, muallif o`zi tasvirlamoqchi bo`lgan manzara, Yoki shahsni o`zi hohlagandek ifodalashi uchun mavjstd so`zlardan foydalamanmay, hali hech kim qo`llamagan, birinchi marta ishlataladigan yangi so`zlarni yaratishi mumkin. Ko`rinadiki, badiiy uslub turmushni aks ettirishning mahsus shaklidir.

Badiiy nutq uslubi adabiy tilning ifodalanishi bo`lib, ayrim hollarda ba`zi maqsadlar bilan boshqa nutq ko`rinishlaridan ham foydalanishga to`g'ri keladi.

Badiiy uslubning fonetik xususiyatlari

Badiiy uslubda ijodkor erkin faoliyat ko`rsatadi. Shuning uchun u hohlasa, so`zlashuv uslubidan, hohlasa, boshqa uslublardan foydalaniadi. Ma'lumki, so`zlashuv uslubida fonetik xususiyatlar talaygina. Yozuvchi yoki shoir asar qahramonlarining faoliyatini ularning nutqi orqali ifodalaydi. Shuning uchun badiiy nutqda dialog, monolog, bayonni qamrab oluvchi

so`zlashuv nutqi keng ishlatiladi. SHunga ko`ra, so`zlashuv uslubida uchraydigan barcha fonetik xususiyatlar bu uslubga ham hosdir. Ayniqsa, asar qahramonlarining qaysi sheva vakili ekanligini ko`rsatuvchi tovushlar talaffuzi bu uslubda aniq ko`rinadi.

Badiiy uslubning leksik xususiyatlari

Yozuvchi yoki shoir tilning yashirin imkoniyatlaridan keng foydalanib, badiiy nutqda yangi so`z va yangi iboralarni yaratadi. Masalan, A.Qahhorning *sinchalak, guldasta* so`zlarini yangi ma`noda ishlatishi, G'.G'ulomning *qopqa, sho`xshanlashmoq, qoralmasin* so`zlarini yaratishi bunga misol bo`ladi:

Sen ko`kning ***qopqasin*** qoqqan chog'ingda

Quyosh ko`z uqalab uyg' onar edi.

Yoki:

SHe'r shunday ***sho`xshanlansin***, bo`lolmasin o`xhashi.

Fikr kunday ravshanlansin, ***Qoralmasin*** quyoshi.

«Baht tongotari» she'ridan

M.Shayhzodaning *nuriston, quyoshiston, nurobod, toshkentnomma* kabi so`zlarni yaratishi, mohir so`z yaratuvchi Oybekning *miljinglamoq, jabrkor, jivilamoq, gavharshunos, korsiz, sohibtdabir, darddosh, ozlimasin, lashkargoh* kabi so`zları ham asarning badiiy estetik qiymatini ta'minlovchi muhim vosita bo`lib hizmat qiladi.

Bunday so`zlarni cheksiz keltirish mumkin. Ijodkorning imkoniyati bilan birga imkonsizligi ham bor.

Ijodkor bu nutq uslubida adabiy til doirasidan chiqib keta olmaydi. (ayniqsa so`z yasalishi va so`z qo`llash sohasida).

Bu nutqda sinonim, omonim, antonim, ko`p ma`nolilik kabi leksikaning barcha qatlamlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi ijodkorning poetik fikrini ifodalashga hizmat qiladi.

Badiiy uslub ta'sirchanligi jihatidan publististik nutqqa yaqin tursa, turli jonli so`zlashuv vositalaridan foydalanishi jihatidan jonli so`zlashuv uslubiga o`xshab ketadi.

Badiiy adabiyot tilini vazifadosh uslublardan tashqari qarovchilar so`zning estetik vazifasini birinchi o`ringa chiqarishadi. So`zning eng muhim va asosiy vazifasi kommunikastiya-aloqani amalga oshirishdir. Bu xususiyatni ular ikkinchi o`ringa tushirishadi. Vaholanki, har qanday tilning, har qanday so`zning birinchi vazifasi-aloqa bo`lgach, bu birinchi bo`lishi kerak. So`z aloqa vazifasini bajargandan keyingina, estetik vazifani bajarishi mumkin. Bunda ular badiiy adabiyotning san'at turi sifatida qaralishini asos qilib olishadi. San'at turi bo`lganda ham estetik zavq so`z orqali ifodalananadi. So`zning kommunikativ vazifasi esa hamisha birinchi o`rinda bo`lishi kerak.

Badiiy uslub`ning bosh muammosi til va obraz munosabati masalasidir. Har bir funkstional uslub` ijtimoiy hayotning qaysidir tomonini aks ettirsa, badiiy uslub` hayotning hamma tomonini, Ya'ni barcha nutq uslub`larini qamrab oladi.

V.G.Belinskiy badiiy uslubni ilmiy uslub` bilan qiyoslab shunday deydi: «filosof sillogizmlar, shoir esa obraz va tasvirlar bilan gapiradi. Ikkalasi ham ishontiradi. Lekin birinchisi - mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi -tasvirlar bilan iqror qiladi».

Bir habarning badiiy va ilmiy uslubda ifodalishini ko`raylik:

Badiiy uslubda:

Kaftlaringda to`q bug'doyning kumushday doni

Yoki mehring chashmasida ungan kurtaklar.

Bu minglarning nasibasi, elu yurt noni.

Bu to`qchilik, to`kinlikdan yorqin daraklar.

Ilmiy uslubda:

Bug'doy doni O`rta Osiyoda besh ming yildan beri ekib kelinmoqda, poyasining uzunligi 30-40sm keladigan bug'doyning 9 xili bizning o`lkamizda ekiladi. O'zbek pazandachiligidagi tehnologiya jarayoni mukammallashib, nonning hillari benihoya ko`paydi. Bu to`kinchilik, ma'murlikdan darak beradi.

Ko`rinadiki, badiiy uslubda habarning *kumushday, mehring chashmasi*, *yorqin daraklar* kabi obrazli ifodalar bilan ta'sirchanligi oshirilsa, ilmiy uslubda *besh ming yil, poyasining uzunligi 30-40 sm, bug'doyning 9 hili* kabi dalillar bilan quruq ma'lumot beriladi.

Til materialini qamrab olish imkoniyatiga ko`ra badiiy adabiyot adabiy til doirasidan chikib ketadi. Va umumhalk tili boyligining deyarli barcha kurinishlarini kamrab oladi. Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlar, vulgarizmlar(dag'al so`zlar), eskirgan so`zlar, oddiy so`zlashuv vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Lekin ular badiiy uslubda o`rni bilan ishlatiladi. Masalan: Yozuvchi Oybek Navoiy romanida kargish, hakorat so`zlaridan foydalanib, asar qahramonlarining o`ziga hos qiyofasini yaratgan. Masalan: *-Qoch, kelma yonimga, baloga yo`luqqur!... Amaldor toifasiga o`zing qirg'in yubor, tangrim. Ha, qaydasen, cho`loq qarg'a! Kalidni ber.*

Badiiy uslubning grammatik xususiyatlari

Tilning grammatik shakllaridan foydalanish ham badiiy adabiyotning janr turlariga bog'liq. Bunda shoir Muqimiy narsalar nomini yasaydigan affikslarni jonli predmetga nisbatan ishlataladi. Masalan:

Do`ronchaga ketdim o`tib

Yoqamni har soat tutib,

Yotdim ul oqshom g'am yutib

Dashti qaroqchizor ekan.

Muqimiy *qaroqchi* so`ziga jonsiz narsalar nomiga qo`shiladigan zor affiksini qo`shib, yangi so`z yasagan. Bu bilan bir tomondan, ko`plik, mo`llik ma'nosi ifodalansa, ikkinchi tomondan, kinoya anglatiladi, chunki qaroqchilarni jonsiz narsalar qatoriga kiritib, achchiq kinoya qiladi.

Bu uslubda gap bo`laklarining odatdagagi o`rni almashtirib berilishi nasirga nisbatan ko`proq she'riyatda uchraydi. Bunda ijodkor ma'lum so`zlarni ta'kidlash, ulraning ta'sirchanligini oshirish maqsadida va she'riyat talabi bilan so`zlarning o`rnini almashtiradi.

Oybek nazarida dabdabali ifodalar, mubolag'a ham qochib qutulmagan. Masalan: *Dorug'ayi kabutarhonai humoyun* (*podsho kabutarhonasining boshlig'i*), *dorug'ayi kutubhonai humoyun*, *sizning ma'rifat daryongizdan bahramand bo`lmoq qadar ulug'* *saodatni tasavvur etmoq imkonsizdir*, *sultanat tojini quyosh yanglig'* *samovat doirasida biling, farmoni humoyun bilan bizni sarafov qilsangiz sultanatimizning siz kabi nodir shahsini amrlik rutbai oliysi bilan sarafov kilmaguncha kunglimiz qaror topmas kabi dabdabali, jargon ifodalarning qo'llanilishi asarning estetik qimmatini oshiradi.*

Shunday qilib, badiiy uslubning o`ziga hos tomonlarini ko`rsatadigan bunday misollarni ko`plab keltiriSh mumkin.

Badiiy uslubning o`ziga hos tomonlaridan yana biri shuki, bunda undov, so`roq, buyruq gaplar keng qo`llanadi. Badiiy nutq lingvistik birliklar orqali estetik ma`no ifodalaSh uchun hizmat qiladi.

Badiiy adabiyotning ko`rinishlari ham hilma-hil: She`riyat, nasr, drama kabilarning har biri o`ziga hos xususiyatga ega. She`riy nutqqa hos bo`lgan uslubiy xususiyat dramada bo`lmasligi mumkin yoki aksincha. Shuning uchun badiiy uslubni o`rganish ko`lami keng, bu uslub` bo`yicha ko`p ilmiy ishlar yaratilgan. Ular bilan taniShib hulosalar chiqariladi.

4-ma`ruza **Fonetik uslubshunoslik.**

Reja:

1. Fonetik stilistika nimani o`rgatadi?
2. Muallifga hos fonetik vositalar
3. Ijro etishga hos vositalar
4. Fonetik stilistikaning ijodkorlar uchun ahamiyati

Asosiy tayanch tushunchalar:

Fonetik stilistika – fonetikaning stilistik imkoniyatlarini o`rganuvchi soha.

Assonans – unli tovushlar uyg`unligi.

Alliterastiya – bir hil undov tovushlar takrori.

Qofiya - she`riy misralardagi ayrim so`zlarning, ba`zan qo`shimchalarning bir hilda o`zaro ohangdosh bo`lib kelishi.

Fonetik stilistika nutq tovushlarining uslubistik imkoniyatlarini o`rgatadi. Bu nima degani? Bunda har bir tovushning nutqni ta`sirchan, e`tiborli qiliShdagi o`rni, maqsadni aniq va to`g`ri ifodalaSh xususiyatiga ega bo`lishi tushuniladi.

Stilistikaning fonetik vositalari ikki hil bo`ladi:

1. Muallifga hos vositalar.
2. Ijro etiShga hos vositalar.

Muallifga hos bo`lgan fonetik vositalarga ritmika, vazn, qofiya, alliterastiya, assonans va boshqa talaffuzga hos vositalar kiradi.

Ijro etiShga hos bo`lgan vositalarga intonastiya, pauza, fraza va logik urg`u, so`zning emostional – ekspressiv xususiyatlari, to`liq va (to`liqsiz) chala talaffuzlar kiradi.

Talaffuzning to`liq va to`liqsiz xususiyatlari uslubisitik vosita sifatida katta rol` o`ynaydi.

Talaffuzning to`liq shakli shifokorlar, notiqlar, ma`ruza o`quvchilar, radio va televideniedagi boshlovchilar, olimlar nutqi, o`qituvchilarning dars jarayonidagi nutqida namoyon bo`ladi.

To`liqsiz talaffuz odamlar orasidagi dialogik nutqda aks etadi.

To`liq talaffuzda so`zning barcha tovushlari, bo`g`inlari aniq aytilsa, to`liqsiz talaffuzda ba`zi tovushlar tortilib, qisqa aytildi va hatto bo`g`inlar tuShib qoladi.

Masalan: Busalima- Busalma

Fotima - Fotma -Potma

Abdujabbor - Abjappor

Muhammadqul – Mahmatqul

Toshmuhammad- Toshmat

To`liqsiz talaffuz o`zbek halq dostonlarida ham uchraydi. Masalan:

Arzim eShit, jon ota

YApaloq quShni ko`rsangiz,

Davlat quShi kelmaymi?

Yutimiz obod bo`lmaymi?

“Boltakay botir”

To`liqsiz talaffuzning yana bir ko`riniShi so`zdagi ba`zi bir tovushlarning o`zgartirib aytiliShidir.

Masalan: Buhojar-Buvajar (h tovushi v ga aylangan)

oq halat-ohhalat (q tovushi h ga aylangan)

tanbur-tambur (n tovushi m ga aylangan)

tramvay-tranvay (m tovushi n ga aylangan) va hokazo.

Muallifga hos bo`lgan fonetik vositalar quyidagilar:

Qofiya.

She’riy misralardagi ayrim so`zlarning, ba’zan qo`shimchalarining bir hilda o`zaro ohangdosh bo`lib keliShi qofiya deyiladi. Qofiyalar a-a-a-b, a-b-a-b, a-b-v-b, va h.k ko`riniShlarda bo`ladi. Masalan:

Do`s bilan obod uying, a

Gar bo`lsa u vayrona ham b

Do`s qadam qo`ymas esa, v

Vayronadir koshona ham b

Fonetik stilistika, asosan, so`zlaShuv uslubini qamrab oladi. So`zlaShuv uslubiga hos so`zlar ko`pincha amaldagi adabiy me’yordan farq qiladigan xususiyatlarga ega:

1. So`z tarkibidagi tovushning o`rin almaShuvi:

qirg’iy-qiyg’ir,
aylanayin-aynalayin,
la’nat-nalat kabi.

2. So`z tarkibidagi ba`zi tovushlarning tuShib qoliShi:

quflamoq-quflamoq
taSha-taShla
bo`sab-o`lsa kabi

3. So`zda biror tovushning orttiriliShi:

echmoq (chechmoq)
ayvon (hayvon)
yangidan (yangittan)

4. So`zdagi biror tovush o`rniga ikkinchisini ishlatish hollari:

munchoq (mo`nchoq)
ko`ylak (ko`nnak)
nuSha (nuSha)
bog`lamoq (boylamoq)

5. O`zak – negizda tushib qoladigan ba`zi qisqartirmalar:

Olibdi (opti)
Bo`libdi (bo`pti)
Kelibdi (kepti)

Bunday holat, ayniqsa, yozma va og`zaki nutq ifodalanadigan dostonlarda uchraydi.

Assonans-misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligidir. Bunda a – o, u-o`, o-o`, i-e tovushlari ohangdoSh bo`lib keladi. Bunday xususiyat nutqning jarangdor bo`liShini ta’minalaydi. Masalan:

Olam aro yurtlarning eng a’losi

Ona yurtim husningning men Shaydosi.

Bahtiyorman muhabbatning qozonsam

SHudir ahdim, Shudir bahtim ma’nosı. (P. Mo`min)

Alliterastiya. Lotinchcha Littera so`zidan olingan. SHe’rdagi har bir misrada bir hil undoSh tovushlarning takror iShlatiliShi alliterastiyadir.

Erkin Vohidovning q bilan boshlanadigan she’rini misol qilib keltiriSh mumkin:

Qaro qoShing, qalam qoShing, qiyiq qayrilma qoShing, qiz,

Qilur qatlimga qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiyinab, qanot qoqmoqqa qo`ymaysan
Qarab qo`ygil qiyoki m, qalbni qizdirsin quyoshing, qiz.

Assonans va alliterastiya birgalikda qo`llanib, nutqning ohangdorligini yanada oShiradi. Bu bilan nutq tinglovchi Yoki o`quvchiga tez ta`sir qiladi. Masalan:

Oymoma cho`milgan oy buloq,
Oy buloq, ko`nglimni soyoy buloq
Kuylagan kuyingdan o`rgilay
Anvoyi kuylarga boy buloq. (T.To`la)

Fonetik stilistikani biliSh ijodkorlar uchun ahamiyatlidir. Ular yaratgan ijod mahsullarida fonetik stilistikaning xususiyatlarini qo`llasalar, o`quvchilar va tinglovchilarning e'tiborini tez jalb qiladilar. Bu bilan matnning o`qiShlilagini ta'minlaydilar va o`z oldilariga qo`yan maqsadlariga eriShadilar. Ayniqsa, jurnalistlar lavha, ocherk, adabiy portret yaratganlarida o`rnini topib, fonetik stilistikadan foydalansalar, asarlari betakror, ta`sirchan, ohangdor bo`ladi.

5-ma'ruza

Leksik, frazeologik uslubshunoslik

Reja:

1. Leksik stilistikaning o`rganiSh ob`ekti.
2. Sinonimlar muhim uslubiy vosita sifatida.
3. Sinonimlarning qo`llaniliShi haqida maShhur kishilarning fikri.
4. Antonimlarning uslubiy xususiyatlari.
5. Omonimlarning uslubiy xususiyatlari.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Leksik stilistika – lug`at boyligining stilistik imkoniyatlarini o`rganuvchi soha.
Sinonimlar – ayni bir tushunchani bildirib, ma`no qirralariga ko`ra farqlanadigan so`zlar.
Antonimlar – o`zaro zid ma`noni bildiradigan til birliklari.
Omonimlar – til birliklarining shaklan teng kelib qolgan ko`rinishi.
Antiteza – qarama-qarshi ma`noli jumlalar

Tilning leksikasi eng nozik ma`no va uslubistik ottenkalar bilan informastiya beriShda juda katta imkoniyatlarga ega.

Hozirgi o`zbek tilida yoki rus tilida necha so`z bor? Bunga javob beriSh juda qiyin. Ayniqsa, neytral va uslubistik bo`yoqli so`zlarni aniqlash undan ham qiyin. Bu vazifani amalga oshirish uchun lingvistlar lug`atlar ustida uslubistik tadqiqot olib boradilar. F.P. Filin “Rus adabiy tilining lug`ati” 7-jildini tahlil qilib, undagi 15530 so`zdan 3925 so`z uslubistik pozitsiyada ekanligini aniqladi. Demak, 75% so`z neytral bo`lib, 25% uslubistik bo`yoqli ekan. Bunday iih o`zbek tilShunosligida hali amalga oShirilmagan.

Leksik stilistikada tilimizning lug`at boyligidagi birliklarning uslubiy xususiyatilari o`rganiladi. Ular ichida ayniqsa, sinonimlar, antonimlar, omonimlar uslubiy imkoniyatga boy vositalar hisoblanadi.

Sinonimlar

Leksik stilistikada sinonimiya hodisasi muhim o`rin tutadi. Uslubistik bo`yoqli so`zlar, ayniqsa, sinonimik qatorda o`z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorning uzunligi turlichadir: bir tomonidan, sinonimik qator faqat ikkita so`zdan tuzilgan bo`lsa, ikkinchi tomonidan, bir necha so`zdan tuziliShi mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator:

*odam-inson, sevinmoq-hursand bo`lmoq
uysiz-joysiz, gapirmoq-so`zlamoq.*
Ko`p qismli sinonomik qator:
yuz, aft, baShara, turq, bet, chehra, siymo

kulmoq, tirjaymoq, irShaymoq, iljaymoq, iShShaymoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq.

Bu sinonimik qatordagi har bir so`z turli nutq vaziyatlarida tanlab iShlatiladi. Masalan: *shamol, sabo, yel, Shabbada, to`fon, dovul, bo`ron* so`zlaridan taShkil topgan sinonimik qatorning turli o`rinda iShlatiliShiga e'tibor beraylik.

1.Derazamning oldida bir tup

O`rik oppoq bo`lib gulladi,
Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytди hayot otini
Va **shabbada** qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

2. Tinmay esar har tomonga *yel*

Qo`ymay sochar o`rikning gulin...

3.Daryo to`lqin **shamol** qo`ynida

Porillamoqdadir kemalar (H.Olimjon)
GulShanda gullarni tebratar **sabo** (Uyg'un)

Nozik ma'nolarni ifodalaSh uchun ham sinonimlar tanlab olinadi. Masalan: Kishining hamma yeri: so`zi ham, kiyimi ham, qalbi ham, *afti* ham go`zal bo`liShi kerak.

Ro`paramda birvarakay uch yuz **bashara** o`tirar edi.

Bu misollarda *aft, baShara* so`zлari o`z o`rnida iShlatilmagan.

Adabiy nutqning asosiy belgilardan biri silliqlik va ravonlikdir. So`zlarni o`rinsiz qaytarish jumlaning ta'sir kuchini kamaytiradi, gap yoqimsiz bo`ladi. Masalan: *Orzu qilib yurgan orzusiga eriShdi. Uning aqli hamma narsaga yetadiki, sir saqlamoqchi bo`lgan narsalar ingizga ham yetadi.*

A. Navoiy so`zni ehtiyyotsiz qaytarishga qarshi shunday degan edi:

Bir deganni ikki demak – ho`b emas

So`z chu takror topdi – dilkaSh bo`lmas.

Maqsud Shayhzoda qaytariq so`z haqida shunday fikr bildiradi:

“Qaytariq so`z nazm uyini qiladi vayron.

Ma`nodoSh so`zlarni ishlatish so`z san`atkori uchun farz. Tilimizning Shu tovlanib turiShida Shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas hazinalar bor”

Antonimlar

Antonimlar nutqda ikki hil maqsad uchun foydalaniladi:

1. Shahx, predmetlar Yoki ularning belgilari orasidagi zidlikni ifodalaSh uchun. Badiiy adabiyotda antonimlardan antiteza hosil qiliSh uchun foydalaniladi. Antiteza adabiyotShunoslikda tazod san`ati deb ham yuritiladi, Bunday san`at, ayniqsa, mumtoz adabiyotda keng iShlatilgan.

Masalan:

Charxi kajraftorning bir Shevasidin dog'men,

AyShni nodon surib, kulfatni dono tortadir. (Furqat)

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki, jafo qilsa jafo topqusidir.

YAhShi kishi ko`rmagay yomonlig' hargiz,

Har kimki, yomon bo`lsa, jazo topqusidir. (Bobur)

Antiteza ayniqsa, maqol va topiShmoqlarda ko`p iShlatiladi. Masalan:

Otdan baland, itdan past. Kunduzi izzatda, kechasi hizmatda. (topiShmoqlar).

YaxShi topib gapirar, yomon qopib. Nodon do`stdan ziyrak duShman yahShi. (maqollar).

2. Antonimlar umumiylaShtiriSh, jamlash ma`nosini ifodalaSh uchun ham iShlatiladi.

Masalan:

SHunga ko`p hursandmiz **yoshu-qarimiz**. (G'.G'ulom)

Badiiy nutqda ko`p hollarda uslubistik maqsad bilan zid ma`no ifodalamaydigan, lekin qisman bir-birini inkor etadigan, bir hil xususiyatga ega bo`lgan so`zlar antiteza hosil qiliSh uchun iShlatiladi. Masalan:

*Do`st achitib gapirar, dushman kuldirib.
 Bir lavhang qon esa,
 Bir lavhangmiSh zar... (G'. G'ulom).
 Qilma zolimlik kishiga, adl ila rom et uni,
 YAhshilik qo`ldanki kelmas, zulm ham qilma chunon*
 (Nizomiy Ganjaviy)

Omonimlar

Omonimlar nutqda tuyuqlar, so`z o`yinlari hosil qiliSh uchun iShlatiladi.

Bir marta gapirsang, o`yla necha bor

Bilmasang, bilganlar huzuriga bor

Burun ko`tarmoqni kim qo`ydi senga

Ahir aqlliroq o`zgalar ham bor. (H. Saloh).

Ayniqsa, omofonlar so`z o`yini yaratishda katta imkoniyatga ega. Masalan:

Kungaboqar, kungaboqar. Umr bo`yi *kunga boqar*

Omonimlardan A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi mashhur Shoirlar unumli foydalanib, tuyuqlar yaratishgan.

Kundalik hayotimizda keng qo`llanadigan, barcha uchun tushunarli bo`lgan so`zlar faol leksikani taShkil etadi.

Nofaol so`zlar esa hayotimizda kam iShlatiladi, hammaga ham tushunarli bo`lavermaydi. Shuning uchun ular qo`llaniShi chegaralangan leksika qatoriga kiradi. Ular eskilik bo`yog`iga ega bo`ladi. Bunday so`zlar arhaizm va istorizmlar deyiladi.

Arhaik so`zlar badiiy asarlarda, fel`etonlarda, tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazah, maShara ruhini berish uchun iShlatiladi.

Masalan:

Faqir jami yozg'uvchilarimizning osor va aSh'oridin bahramand bo`lib, har dasturhon ustida odoi janrlarini qilurmen. Bu mutoalalar hosiyatidin o`zumda ham andek tab'i nazm paydo bo`lib, bir qancha bayt-g'azallar yozdim.

A.Qahhor “Maktub”

Istorizm esa o`tmisSh voqeligini ataSh zaruriyati bilan ishlatiladigan so`zlar. Masalan: *Faqir muddat sakkiz yil, riyozat chekib, 15 yoShimda Kalomi SHarifni hatm qildim va bir jum'a nomozida imomatga o`tdim. A. Qahhor “Maktub”*

Neologizmlarning uslubistik vazifasi juda hilma-hildir.

Ma'lumki, hayotimizda yangi paydo bo`lgan so`zlar faqat ataSh vazifasini bajaradi. Masalan: *jinsi, vilvet, internet, komp`yuter, magistr, bakalavr, supermarket, holding va h.k.*

Lekin yozuvchilar tomonidan yaratiladigan neologizmlarning uslubistik xususiyati katta. Bular okkazionalizmlar deyiladi. Masalan:

G'.G'ulom –doSh so`z yasovchi affaksi yordamida quydagi yangi so`zlarni yaratgan: *eldoSh, yerdoSh, kuraShdoSh, qalamdoSh* kabi. Mirtemir esa *yurakdoSh, to`ydoSh, soqoldoSh* kabi so`zlarni, M. Shayhzoda *nuriston, quyoShiston, nurobod, quyoShobod, halqobod* kabi so`zlarni, E. Vohidov *changiston, balchig'iston* kabilarni yaratgan.

Bunday leksikaga yana dialektizmlar, terminlar, kanstelyarizmlar, jargon va argolar ham kiradi. Bularning hammasi funkstional uslub` turlaridan badiiy, publististik, so`zlaShuv uslublarida uslubistik ma`no ifodalaydi.

Dialektizmlar badiiy asarlarda hayotning realistik tasvirini berishda, personajlar nutqini individuallaShiriShda, mahalliy koloritni saqlab qoliShda uslubistik figura sifatida qo`llanadi. Masalan: *Qating og'riddi?* (Oybek “Bolalik”)

Bu jumlada bosh qahramon Musavoy nutqi berilgan, bu uning toShkentlik ekaniga iShora.

Lekin vaqtli matbuotda Shevaga hos so`zlarning iShlatiliShi ijobiyl hol emas. Masalan: *Otlar, toylar chillada ko`taram bo`lib, kiShnamay qo`ygani hammaga ma'lum. “Jangovar mehnat” gazetasidan.*

Dialektizmlardan taShqari, professionalizm, tehnistizm, terminlar ham badiiy uslubda ma'lum bir maqsad bilan iShlatiladi. Bunday leksika halqimizning iShlab-chiqariShi, faoliyati

ifodalangan asarlarda ko`plab qo`llanadi. Masalan:

Ota-onasi feodal, feodalizmning uyasi , meni cho`ri, uy cho`risi qilmoqchi bo`liShdi! (A.Qahhor “Nurli cho`qqilar”)

Ba`zan gazeta va jurnallarda hech qanday izohsiz iShlatiladigan terminlar nutq ko`rkini oShiriSh o`rniga uni tuShunarsiz so`zlar yig`indisiga aylantirib qo`yadi. Masalan: *Bu svecha zazorlaridan suyuqlik ichida ham uchqunlar chiqayotganligini ko`rib turibdi.*

Jargon franstuzcha so`z bo`lib, buzilgan til degan ma`noni bildiradi.

Jargonlar biror ijtimoiy guruh tomonidan yaratilib, ularning maqsadlarini ifodalaydigan mahsus so`z va iboralardir. Ularning eng muhim belgilari Shundaki, o`zaro so`zlaShuvda so`zlovchining boshqalardan ustunroq ekanligini ko`rsatiShi, buni ta`kidlaShidir. Masalan: bu kishi **niShoni oliv Shon** olib kelibdilar. Dadam **Ollohnning dargohiga maqtul etildilar.**

Argolar esa ma`lum bir ijtimoiy guruh ichida iShlatiladi, faqat ularning o`ziga tuShunarli bo`ladi. Masalan: *loy, yakan – pul, bedana-to`pponcha, havoga bulut chiqdi-o`g'rileydigan narsa bor* (o`g`rilar ichida iShlatiladi).

6-ma’ruza Morfologik uslubshunoslik

Reja:

Asosiy tayanch tushunchalar:

Analistik shakl – ko`makchili shakl. Pleonastik - qo`sha qo`llanish. Omoaffiks – bir qo`shimchaning ikki hil ko`rinishda qo`llanilishi.

Morfologik stilistika quyidagi masalalarni o`rganadi.

1. O`zbek tilida bir grammatik kategoriyaning ikki va undan ortiq ko`riniShlarga ega bo`liShi, ya`ni **grammatik sinonimiya**.
2. Bir necha grammatik Shakllarning o`zaro zid ma`noni ifodalaShi **grammatik antonimiya**.
3. Bir hil grammatik Shakllarning bir necha hil ma`noni ifodalaShi, Ya`ni **grammatik omonimiya**.
4. Morfologik stilistikada hozirgi o`zbek tilida zamon, mayl formalarining, ayrim yasovchi affikslarning bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatda bo`liShi, ularning biri o`rnida ikkinchisini ishlatish imkoniyati masalasi hamda har bir so`z turkumiga hos bo`lgan uslubiy xususiyatlar o`rganiladi.

Masalan: Otlarning uslubistik xususiyati bilan tanishib chiqaylik.

Ma`lumki, ot turkumiga hos kategoriyalar quyidagilar: egalik, kelishik, son. Bularning qo`llaniShida ularga hos bo`lgan sinonimik holatgina emas, balki nutqda ularning tutgan o`rni, bu formalarning o`zaro o`rin almaShib iShlatiliShi va Shunday holatda namoyon bo`ladigan uslubiy tomonlar hisobga olinadi.

Masalan: ko`plik affiksi faqat ko`plik tushunchasini ifodalamaydi. U turli hil uslubiy ma`nolarni anglatiSh uchun hizmat qiliShi mumkin.

Hozirgi o`zbek tilida ko`plik ma`nosi analistik usulda ham ifodalanadi. Masalan: *yuzta kitob, mingta qo`y kabi.*

Lekin ba`zan mana Shu so`zlarga - *lar* affiksini qo`Shib ishlatish hollari uchraydi. Bu uslubiy jihatdan hato qo`llaShdir, chunki otlarning oldidan keltirilgan sonlarning o`zi ko`plik ma`nosini beradi. Buning ustiga *-lar* affiksi qo`Shilsa ma`noda ortiqchalilik keltirib chiqaradi.

Kelishik affikslarining uslubistik xususiyatlari e'tibor bersak, ularning biri o`rniga ikkinchisi biror uslubiy maqsadda iShlatilganining guvohi bo`lamiz. Lekin bu affikslar o`zları qo`Shilib kelgan negizlar bilan birgalikda ma`no ifodalaydi.

Masalan: *otni mindi - otga mindi*

daryoni kechib o`tdi - daryordan kechib o`tdi.

Ba'zan kelishik affikslarining tuShirib qoldiriliShi o`zgacha uslubiy ma'no kelib chiqiShiga sabab bo`ladi. Masalan: *ilon yutgan odam*.

Bu gapda qanday ma'no anglatiliShi intonastiyaga va kontekstga bog'liq. Agar *ilon* yoki *odam* so`ziga - *ni* affiksi qo`Shilsa, ma'no oydinlaShadi qo`yadi: *ilonni yutgan odam – ilon yutgan odamni*.

Morfologik stilistikada kelishik affikslarining belgili Yoki belgisiz qo`llaniShi, ularning qo`Sha qo`llaniSh holati masalalari ham muhim rol` o`ynaydi. Masalan: *bo`ri quvgan odam* gapida bo`ri odamni quvganmi yoki odam bo`rini quvganmi?, bilib bo`lmaydi. Stilistika mana Shunday gaplardagi so`zlardan birida tushum kelishigi affiksi bo`liShi shartligini o`rgatadi. Masalan: *Gul keltirmoq, hat yozmoq.*

*Juda ajoyibdir inson udumi
U suvni juda ham juda ham suyar
Deylik, biror joyda nihol ko`rdimi,
Albatta tagiga suv quyar.*

Yoki :

*Ho`Sh, undan keyin
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida ba'zida sekin
Bir-birin tagiga suv quyar.* (A.Oripov)

Kelishik affikslari biror jumlada takror iShlatilsa, uslubiy aniqlikka putur yetadi. Masalan: **O`zDTU halqaro jurnalistika fakul'tetining talabasi Norova Hosiyatning daftari**. Bu jumlada -ning affiksi bir marta iShlatiliShi kerak. SHunda jumla uslubiy jihatdan to`g'ri bo`ladi.

Kelishiklar ichida tuShum va qaratqich belgili va belgisiz qo`llaniShiga ko`ra rang-barang uslubiy xususiyat kaShf etadi. Masalan: *gulning bargi –gul bargi. Otabekning hati - Otabek hati.*

Bu misollardan –ning iShlatilgani ta'kid ma'nosini ifodalasa, bu affiks ishlatilmaganida esa umumiylilik anglaShiladi.

SHe'riy nutqda qaratqich va tushum kelishiklari bir hil Shaklda bo`lib, qoliShi mumkin. Mana shu o'rinda qaysi kelishik qo`llangani grammatik aloqaga ko`ra aniqlanadi. Masalan:

*Er kurrasin boshin tang'idik
Va tarikhning tomirlariga quydik erigan temir.* (G'. G'ulom)

Bu She'nda **kurrasin, boshin** so`zlari bir hil Shakldadir. Lekin ular turli kelishikka mansub. Bu misrada so`zlarning bunday iShlatiliShi She'riy ko`tarinkilikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Misralardagi **kurrasin, boshin** so`zlaridagi -*ni* affiksi o`zaro omonim bo`lib, u birinchi so`zda qaratqich kelishigi, ikkinchisida esa tuShum kelishigi Shaklini yasaydi.

Qaratqich kelishigi qaraShlilikni bildiradigan -*niki*, -*im* kabi Shakllar bilan o`zaro sinonim bo`lib keladi. Masalan:

*Qanday bahtiyorsan Vatanim endi,
YOp-yorug' kelajak bari seniki.
Sen minglab azamat botirga doya,
Arslon yigitlarning bari seniki* (G'.G'ulom)
*Ona halqim, jon-tanim manim
O`zbekiston-Vatanim manim.* (A.Oripov)

Manim peshonamga nelar yozilgan. Saltanatning taqdiri na bo`lur, qay birini bilasiz. (O.Yoqubov)

Bu misollarda manim so`zidagi -*im*, affiksi -*ning* o`rnida iShlatilgan. CHunki bu o'rinda davr tilini aks ettiriSh maqsadi ko`zda tutilgan.

Misollarda **manim mening** o`rnida ishlatilgan. Bu o'rinda alliterastiya va assonans hosil qiliSh uchun va Shu orqali She'rdagi so`zlarning ohangdorligini ta'minlaSh maqsadi nazarda tutiladi.

Ot so`z turkumining uslubiy imkoniyatlari bu so`z turkumiga hos bo`lgan egalik, kelishik, ko`plik va sub`ektiv baho Shakllarida yana ham qirraliroq ko`rinadi. Jamiyat taraqqiyoti tufayli bu kategoriyalarga hos bo`lgan Shakllarning ba`zilari eskirib, o`rniga yangisi paydo bo`lgan, ba`zilari esa variant sifatida qo`llanilib, ma'lum bir uslubiy vazifani bajaradi.

Masalan: o`zbek tilida yo`naliShni bildiradigan -ga, -ka, -qa, affikslari adabiy tilga hos bo`lib, neytral Shakllarda, -a, -g'a va -na esa ma'lum uslubga hos bo`lib, uslubiy vosita sifatida hizmat qiladi. Masalan:

Sochining savdosi tuShdi boshima boshdin yana

Tiyra bo`ldi ro`zg'orim ul qaro qoShdin yana.

Jonima o`t soldi ul ruhsorai zebo yana

Ko`ngluma ul zulf bo`ldi moyayi savdo yana

Yoki

To yor kimni istaru ko`nglina kim yoqar

TaShviShi bejihatdurur ohr sang, manga (Bobur)

Kelishik affikslari o`zaro sinonimik munosabatga kiriShiSh bilan birga boshqa grammatik Shakllar-ko` makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo`la oladi. Bular fikrning g'aliz chiqmasligi uchun, yozuvchi yoki so`zlovchi ma'qul shaklni tanlab ishlatishi uchun imkon beradi.

TuShum kelishigi affiksining so`zda saqlanishi yoki tuShirib qoldiriliShi ko`p jihatdan uni boshqarib kelgan so`zning xususiyatiga bog'liq.

Qaratqich kelishigi affiksi -ning ham -ni, -ing, -i kabi variantlarga ega. Bu shakllarning iShlatiliShi uslub` turlariga ko`ra belgilanadi. Masalan: so`zlaShuv uslubida -ni, -i.

Dod zolimni dastidan (Hamza Hakimzoda)

Uni kitobi menda. Uzumi mazasi Shirin.

O`rin-payt kelishigi affikssi -da ham *uzra, orqali* ko`makchisi bilan sinonimik munosabatda bo`ladi. Masalan:

SHahar uzra (Shaharda) qanot yozgan havf-hatar sababli, qalandarlarning jazava bilan hu-huylab zikr tuShiriShlari vahimali tuyular edi. (O.Yoqubov)

Radioda e'lon qildi – radio orqali e'lon qildi.

Shuningdek, *uzra* ko`makchisi jo`naliSh kelishigi affiksi -ga, *orqali* ko`makchisi chiqiSh kelishigi affiksi -dan bilan ham sinonimik munosabat hosil qiliShi mumkin. Masalan:

Daryo uzra kech qo`nmoqda

Qirg'oqlari ho`p charog'on

Sevikli yor Shunday chog'da

Tursak biz bunda yonma-yon.

Xorazmga Amudaryo orqali boriSh mumkin – Xorazmga Amudaryodan boriladi.

CHiqiSh kelishigi affiksi -dan, -ni bilan sinonimik munosabat hosil qiliShi mumkin.

Lekin bunda boshqa-boshqa maqsad ko`zda tutiladi. Masalan:

Nondan oling – nonni oling, choydan iching – choyni iching

Birinchi holatda butunning qismi nazarda tutilsa, ikkinchisida esa butun nazarda tutiladi.

-*dan* uchun, bilan, tufayli kabi ko`makchilar bilan ham sinonimik munosabat hosil qiladi.

Masalan:

Zinapoyadan chiqing – zinapoya bilan chiqing. Bizning farovonligimiz mehnatdan – bizning farovonligimiz mehnat tufayli. Tinchlik bo`lgani uchun bahtiyormiz – tinchlik bo`lganidan bahtiyormiz.

Ba`zi hollarda kelishik affikslari pleonastik holatda qo`llanib, ta'kidni kuchaytiriSh uchun hizmat qiladi. Masalan:

- *Mana bunisinikimi? – u barmog'ini nuqib ko`rsatdi.*

Ma'lumki, egalik affikslari mavjud bo`lgan so`z qaratqich kelishigi affiksili so`z bilan birikma hosil qiladi. Masalan: *gulning bargi, mening kitobim*

Bunda aniqlovchi-aniqlanmiSh munosabati ifodalananadi. Lekin qaratqich kelishigi affiksi -niki bilan ifodalanganda, bu munosabat buziladi: *barg gulniki, kitob meniki.*

Bunday hollarda egalik affaksi iShlatilmaydi va endi aniqlovchi-aniqlanmiSh emas, ega-kesim munosabati ifodalanadi, lekin ma'no qaraShlilikni bildiraveradi.

Ba'zan qaratqich-qaralmish munosabatida iShlatilayotgan birikmalarda egalik affaksi tuShib qoladi. Masalan:

Bizning hotinlarga hayo fazilat,

Vafo hunaridir, mehnat odati. (G'.G'ulom)

Bu o'rinda hotinlarimizga deb egalik affaksi bilan qo'llanganda, poetik uslubga hos bo'lgan ko'tarinkilik, umumiylilik ifodalanmas edi.

Bizning ulug' Vatanda

QiSh ham qiladi handa

Quvonamiz oppoq qor

Gupillatib yoqqanda. (Z.Diyor)

Bu to`rtlikda Vatan so`ziga egalik affaksi qo`Shilganda ham misradagi bo`g'inlar soni ortib ketardi, ham qofiya buzilar edi. Shunday bo`lmasligi uchun egalik affksi qo`llanmagan.

Ko`plik affksi -lar ko`plik ma'nosini ifoda qiliShdan taShqari, ta'kid kabi ma'nolarni bildiradi:

Agar jangda iSh bermasang,

Olmasang botir deb nom.

DuShmanni yengib qaytmasang,

Bergan sutlarim harom. (H.Olimjon)

Bu misolda -lar ma'noni kuchaytiriSh uchun hizmat qiladi. Bundan taShqari -lar qo`shimchasi yana ko`pgina uslubiy ma'noni ifodalaShi mumkin:

1.Buvimlar keldilar (*hurmat ma'nosi*)

2.Kelibdilar-da (*piching ma'nosi*)

3.Senlar kimsanlar? (*kamsitiSh ma'nosi*)

4.Nimalar qilding? (*noaniqlik ma'nosi*)

7-ma'ruza

Sintaktik uslubshunoslik

Reja:

1. Sintaktik stilistikarning vazifalari.
2. Sintaktik sinonimiya.
3. Gap bo`laklariga hos uslubiy xususiyatlar.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Elliptik – tushib qolish

Konnotativ – lotin «con+noto», ya'ni ma'no qo`shish

Sintaktik stilistikada sintaksisning o`rganiSh ob'ekti bo`lgan gap, uning bo`laklari, gap bo`laklarining tartibi, gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlarining uslubiy imkoniyatlari o`rganiladi.

Stilistika uchun sintaksis juda muhim soha hisoblanadi. Yirik tilShunos olim M.Verli: «Uslub` so`zga qaraganda ko`proq gapda Shakllanadi», - deb juda to`g'ri ta'kidlagan edi.

L.N.Tolstoy esa adibning mahorati eng mos, zaruriy so`zni eng mos, zaruriy o'rinda ishlatishda ko`riniShini qayd etib o`tgn edi.

Umuman, funkstional uslublarning ShakllaniShida sintaksis muhim rol` o`ynaydi. Ammo ayrim sintaktik hodisalar funkstional uslub` ko`riniShlari bo`yicha chegaralangan holda iShlatiliShi mumkin: sifatdoSh va raviShdoSh oborotlar, ayrim yordamchi so`zlar kitobiy nutqqa hos bo`lsa, elliptik gaplar, to`liqsiz gaplar, so`zlaShuv nutqiga hos:

Asrorqul usta Mo'minning damini bosib, bo`lak iShlarga qaraShib, do`konda yotib yurardi.

U haddan taShqari qizargan, o`zini qayerga qo`yiShini bilmayotganga o`xShardi.

Sintaktik vositalar nutqda boy uslub` imkoniyatlardan hisoblanadi.

Ayniqsa, sintaktik hodisalar sinonimiyasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir uslub`ning o`ziga hos sintaktik belgilari bo`ladi. Ilmiy uslubga hos bo`lgan matn sintaksisini drama asariga hos bo`lgan matn sintaksisidan farqlash oson.

Masalan, ilmiy-ommabop uslubda so`zlovchi fikrini izchil va aniq ifodalaShga e'tibor beradi. Dramatik asoslarda esa so`zlovchi fikrini birdaniga aniq ifodalay olmaydi. Fikrning mazmuni ikki va undan ortiq Shahslarning suhbati davomida aniqlanadi.

Sintaktik stilistika neytral harakterdagi sintaktik vositalar emas, balki funkstional nutq uslublariga hos bo`lgan uslubiy bo`yoqli sintaktik birikmalar o`rganiladi.

Fikrning to`g`ri va ta'sirchan ifodalaniShida sintaktik sinonimiya juda keng imkoniyat beradi.

Sintaktik sinonimiya konnotativ, bir hil ma'noli sintaktik birliklar orasida bo`ladi.

KONNOTATIV – lotincha «con+noto» ma'noni qo`ShiSh degan tushunchani bildiradi.

Sintaktik sinonimiya konnotativ, bir hil ma'noni qo`ShiSh degan tushunchani bildiradi.

Sintaktik sinonimiya gap bo`laklari, so`z birikmasi, sodda va qo`Shma gaplar orasida yuz beradi. Masalan:

Har qadamda bir bo`ston

Har yerda bir guliston (H.O.)

Bu sinonimik misralarda umumlaShgan grammatik ma'no sinonimik gaplarning ma'nosidan kelib chiqadi va bu ma'no turlicha usullar bilan ifodalananadi.

Ba'zi uslublarda Shunday ma'no ifodalaydigan Shakllarning biri tanlab olinsa, boshqasidan sinonim bo`lgan holatlarning hammasi ham iShlatiladi.

«Yuksak nutqiy madaniylilik, - deb yozadi tilShunos G.A.Zolotova, - fikrni turli usullar bilan ifoda qila oliSh, kommunikativ vazifaga ko`ra til vositalaridan aniq va maqsadga muvofig'ini tanlay biliShadir».

Yuqorida aytganimizdek, sintaktik sinonimiya barcha sintaktik vositalar gap so`z birikmasi, ajratilgan gap bo`laklari orasida bo`liShi mumkin.

8-ma'ruza

Sintaktik figuralar. Troplar.

Reja:

1. Sintaktik figuralar va ularning turlari
2. Anafora, epifora, takror va kompozistion bog'laniShlar. Sintaktik parallelizm va antiteza.
3. Ritorik so`roq va gradastiya.
4. Trop so`zining ma'nesi va mohiyati. O`xShaShlikka asoslangan ko`chimlar.
5. JonlantiriSh asosidagi ko`chimlar. Mubolag'a va litota.
6. Istezhodaga asoslangan ko`chimlar. Simvol.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Antiteza-qarama-qarshi qo`yish, **Anafora**- yuqoriga ko`tarilish, **Epifora**- so`zlarning ohirida unli yoki undosh tovushlarning takrorlanishi, **Sarkazm**-achchiq, zaharhanda, **Gradastiya**-kuchaytirish, Ritorik so`roq-so`roqqa javob talab qilinmaydigan gap, **Epitet**-sifatlash, **Antiteza**-o`hshatish, **Anafora**-ko`tarilish, **epifora**- so`zlarning ohirida unli yoki undosh tovushlarning takrorlanishi, **Sarkazm**-achchiq, zaharhanda, **Gradastiya**-zinapoya, **Ritorik** so`roq-so`roqqa javob talab qilinmaydi, **Epitet**-sifatlash, **Metafora** - o`hshatish, **Metonimiya**-boshqa nom berish, **Sinekdoha**-son yoki butun qismlarni orasidagi munosabatni bildiradi, **Jonlantirish**-jonsiz narsani inson kabi harakat qiladigan qilib tasvirlash, **Apostrofa**-jonsiz narsa harakat qilmaydi, **Perifraz**- aylana, atrof, boshqacha gapiraman degan ma'noni bildiradi.

Sintaktik figuralar nutqni ohangdor, ta'sirchan va jozibali qiliSh uchun iShlatiladi. Asosan

tinglovchi tuShuniShiga osonlik yaratadi. SHu jihatdan ular nutq musiqasi deb yuritiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ma'lum: *anafora, epifora, sintaktik parallelizm, kompozistion bog'laniSh, takror, antiteza, gradastiya, ritorik so`roq*

Antiteza (tazod) grekcha so`z bo`lib, qarama-qarShi qo`yiSh ma'nosini bildiradi. Antiteza ifodalikni kuchaytiriSh uchun qarama-qarShi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni, Shahslarning harakterlarini qiyoslaSh Yoki bir hil narsa-hodisalarining daraja jihatidan qarama-qarShi holatini tasvirlaSh uchun foydalaniladi. Ikki qarama-qarShi holatni qo`yilgan belgi Yoki xususiyat esa biri ikkinchisini inkor etadi. Masalan,

*Sen kech turding, lanjsan, senga
Olam zimiston,
Men tong bilan turdim, menga
Borliq nurafShon (E. Vohidov)*

Anafora- Yuqoridaga ko`tariliSh degan ma'noni beradi. Bunda har bir misra, abzast va gap boshida bir hil takrorlanuvchi konstrukstiyalar bo`ladi. Masalan, *Birga tug'ilmoq bor, birga turmoq yo`q.*

Epifora- lotincha so`z bilib, epi-keyin, foros-ma'no degani. So`zlar ohirida unli Yoki undoSh tovushlarning takrorlaniShiga epifora Yoki tovushning tugallaniShi (ohiri) deyiladi. Bunda bor: *harorat, muhabbat, Shafqat va mehnat nonini ko`ramiz baham (G'. G'ulom)*

Sintaktik parallelizm. Bunda strukturasi bir hil bo`lgan ikki Yoki undan ortiq gaplar ketma-ket keladi. Bu gaplarda so`zlarning Shakllari bir hil bo`lib, simmetriya vujudga keltiriladi va ifodalilik kuchayadi. Masalan,

*Bukun o`zgachadir jumlai olam,
Bukun o`zgachadir borliqda handa
Bukun ko`zlarimga go`yo quyoSh ham
SHafaq gulhaniga tarang chirmando (E. Vohidov)*

Sarkazm. Grekcha so`z bo`lib, achchiq zaharhanda, istehzoli ta'na, piching demakdir. Sarkazm so`zlovchining murojaat qilinayotgan kishiga nisbatan ustunlik hissiyotiga asoslanadi.

*Ey, pastlik libosin kiygan odamzod
Qo`rqamanki, noming bo`lajak olchoq,
Kichiklar birla sen bo`lma afsunkor,
Kim ulug'lik noming so`najak mutloq.*

Takror- so`zlovchi o`zi his qilayotgan tuyg'ularga so`zlarni mos emasligini anglaydi va tuyg'ularni aniq ifodalash uchun so`zlarni takror iShlatiladi. Masalan,

*So`nggi so`z, so`nggi so`z, so`nggi bir nafas
Insonga umrdek qimmatli lahza. (J. Jumaniyozov)*

Gradastiya. Lotin tilidan olingan bo`lib, zinapoya (ifodalilikni o'sib boriShi Yoki tuShib ketiShi) ma'nosini bildiradi.

Gradastiya narsa, belgi, xususiyat Yoki harakatni biridan ikkinchisi kuchliroq Yoki kuchsizroq ma'no ottenkali sinonimiya Yoki bir hildagi so`zlar vositasida kuchaytirib boriSh orqali tasvirlaShdir.

Agar ifodalilik asta-sekin kuchayib borsa, bu hodisa klimans, pasayib borsa antiklimans deyiladi.

*Kirdim dedi: - YAna bir farmon,
Bajarilsin tezda begumon:
MaShrab ahta qilib taShlasin!
Erkak ko`zi doim yoShlansin!
Ikki norg`ul bosdi MaShrabni,
Bir kasofat bilmay adabni –
Muhr bosdi o`tda qizitib,
Bandi gardon tomirin sitib,
SHavqat joyin ayladi mahkum,
Zo`r qabohat yuz berdi Shu zum. (To`lan Nizom)*

Ritorik so`roq. Bu ekspressiv funkstiya taShuvchi sintaktik vosita. Bunday gaplarda so`roqqa javob talab qilinmaydi, so`roq orqali hukm ifodalanadi. Misol,

*G'uborlardan holi dil ko`zgusida
Ne aks ettib, nelar edi hukmron!?*

Trop. Trop nutqda so`z Yoki iboralarni ko`chma ma'noda iShlatiliShidir. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyos qiliSh troplarga asos qilib olinadi.

Quyidagi troplarning turlariga to`htalamiz.

Metafora. Grekcha so`z bo`lib, ko`chim degan ma'noni bildiradi. Nutqqa obrazlilik ekpressiv bo`yoq beriSh niyatida narsa va hodisalar o`rtasida o`xShaShlilikka asoslanib, so`z Yoki iboralarni ko`chma ma'noda ishlatish metaforadir. Masalan: "hazon bo`lmoq", "bahor", "g'uncha" kabilar. Misol:

Dunyoga keldi-yu, bir zumda so`ldi.

Metafora tuziShiliShga ko`ra ikki hil: sodda va kengaygan bo`ladi. Sodda metafora birligina so`zdan taShkil topsa, kengaygan metafora ikki Yoki undan ortiq so`zdan taShkil topsa, kengaygan metafora ikki Yoki undan ortiq so`zlardan tuziladi. Masalan, *gumbaz (osmon)*, *ilon (sovuj odam)* va h.k. metaforalar sodda; *po`lat quSh (samolyot)*, *oq oltin (pahta)* kabilar esa kengaygan metaforalardir.

Metonimiya. Grekcha so`z bo`lib, boshqacha nom beriSh degan ma'noni bildiradi. Bundan taShqari Yoki ichki tomongan bir-biriga aloqador narsaga ko`chiriladi. Metonimiya ham so`zlarning ko`chma ma'nosiga asoslanadi. Masalan, 1. Narsa ichidagi narsaning ma'nosini o`Sha narsaga o`tkaziladi. Masalan: Bir tovoqni paqqos tuShirdim. 2. Muallifning nomi asarning nomi bilan qo`llaniladi. Masalan: *Boburni o`qidim, Navoiyni o`qidim*.

Sinekdoha. Sinekdoha narsalarning son Yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. Sinekdohaning quyidagi ko`riniShlari mavjud: 1. Butun o`rnida qism. Misol: "G'ilay" hassasini qidira-qidira zo`rg'a stulining orqa tomonidan topdi. 2. Qism o`rnida butun: 3. Ko`plik o`rnida birlik ishlatish: *Talabaning vazifasi, domlaning so`zini yerda qoldirmaslik*. 4. Jins o`rnida tur: *bedana-quSh, sazan-baliq, kobra-ilon, Mars-planeta*.

Epitet (sifatlaSh). Grekcha so`z bo`lib izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Epitet poetik izohlovchi. U boshqa doimiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qiliShi, ko`chma ma'noda iShlatiliShi bilan farq qiladi. Predmet sifatida tasvirli, obrazli ifodalaSh uchun iShlatiladigan so`z.

Uslubiy epitetedda muallif tasvirlanayotgan narsa Yoki voqeanning o`zi zarur hisoblangan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. Masalan,

*Men bir qora tunda tug'ildi,
Tug'ildimu Shu on bo`g'ildim. (Hamid Olimjon)*

O`xshatish- bunda ikki narsa Yoki voqealari –hodisa o`rtasidagi o`xshashlikka asoslanib ularning biri orqali ikkinchisining belgisi, mohiyati to`laroq, bo`rttiribroq ko`rsatiladi. O`xShatiShda quyidagi tushunchalar bo`ladi:

- 1) O`xshatilgan predmet ;
- 2) O`xshatiladigan narsa;
- 3) O`xshatish asosi;
- 4) O`xshatish vositasi.

*Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdar turna kabi bo`lmasin kamyob.
...Hayoni asrangiz, kuymasin hayo*

OtaShga duch kelgan polapon misol. (A. Oripov)

Bu misollarda *ezgulik* va *hayo* –o`xShatilgan predmet, *turna* va *polapon* –o`xShatiladigan narsa, *kamyob* va *otaShga duch kelishi* –O`xshatish asosi, *kabi* va *misol* –O`xshatish vositasi.

O`xshatish vositalari vazifasida *sifatida*, *kabi*, *go`yo*, *huddi*, *misoli*, *singari*, *qadar*, *aynan*; -*day*, -*dek*, -*simon*, -*ona*, -*omus*, -*larcha*, -*chasiga* kabilar iShlatiladi. O`xshatish chog'iShtiriSh orqali ham ifodalanadi. Bunda O`xshatish vositasi iShtirok etmaydi. Masalan:

Meni Shersiz, deding, yovlar quyondir,

Quyonlarning iShi senga ayondir.

(Uyg'un va I. Sultonov)

Bu misolda o`xShatilgan predmet o`xShatiladigan narsaga hech qanday vositasiz nisbat berilmogda: *Men –Sher bilan, yovlar- quyon bilan chog'iShtirilmogda.*

Ironiya –yunoncha bilib bilmaganga oliSh degan ma'noni bildiradi. Bu tropda muallif voqeani bamaylihotir, jiddiy holda hikoya qiladi, ammo so`zlarni o`z ma'nosiga nisbatan qarama-qarShi ma'noda iShlatadi. Bu bilan o`zining biror kishi yoki hodisa ustidan ustunligini ko`rsatadi. Ironiya Shunday tropki, sirtdan qaralganda, so`zlovchi jiddiy gapirayotganga o`xShaydi, ammo uning tagida kesatiq, piching, yaShirin kulgi yotadi. Uyg'un va Izzat Sultonlarning “AliSher Navoiy” dramasida Navoiy hizmatkorga nisbatan Shunday deydi: “*Qo`rqma! (uzukni olib tomoSha qiladi) Qimmatbaho uzuk. Katta hizmatlar evaziga mukofot qilib bersa, arziydigan uzuk. Ma!*”

Antifraza –ironianing bir ko`riniShi bo`lib,biror Shahs Yoki predmetga hos bo`lgan u Yoki bu xususiyat kulgili intonastiya bilan inkor qilinadi: *Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi –Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko`p achingan bo`ldi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho`kiz berdi, lekin kichkinagini Sharti bor. Bu Shart kuzda ma'lum bo`ladi.* (A. Qahhor) Bu misolda ajratib ko`rsatilgan jumla antifrazadir.

Sarkazm –yunoncha qiynash, ozor beriSh degan ma'noni bildiradi. Bunda tasvirlanayotgan narsa yoki murojaat qilinayotgan kishidan muallifning ustunlik xususiyatiga asoslanib, achchiq zaharhanda, istehzoli ta'na, piching bilan gapiriladi. Sarkazm satirik asarlarda qo`llanib Shahsning voqealari-hodisaning salbiy tomonlari foSh qilinadi. Uyg'un va Izzat Sultonning “AliSher Navoiy”dramasida Navoiy Shunday deydi: “*Rahnamo iblis bo`lgach, yangliShiSh tabiiydir. TuShgan yo`lingiz g'oyat mudhiSh yo`l. Bu yo`ldan boruvchining qonlarni kechib, kallalarnidepsib o`tmay iloji yo`q.*”

Perifraz- grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiramani demakdir. Narsa va hodisaning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko`rsatuvchi vosita yordamida bayon qiliSh perifraz deyiladi. Masalan: *Sohibqiron bobokalonimiz – deganda ko`z oldimizga Amir Temur keladi* Yoki yana bir misol : *tibbiyot olamining asoschisi – Ibn Sino va Shukabilar.*

Bu misolda *Sohibqiron bobokalonimiz, tibbiyot olamining asoschisi* perifrazdir. Bunday perifrazlar nutqda ko`plab iShlatiladi: *g'azal mulkining sultoni- AliSher Navoiy, Shodlik va baht kuychisi – Hamid Olimjon, yor va diyor kuychisi – Z.M. Bobur, Qadimgi So`g'diyonanining markazi –Samarqand kabilalar.*

Mubolag'a va litota.

Mubolag'a yunoncha giperbola so`zidan olingen bo`lib, bo`rttirish, orttirib ko`rsatiSh degan ma'noni bildiradi. Litota esa, uning aksi bo`lib haddan taShqari kichraytirish ma'nosini bildiradi. Litota termini o`rnida mumtoz adabiyotda tafrit san'ati deb iShlatiladi. “AlpomiSh” dostonida shunday mubolag'a bor.

Shomurti yoqalab har yonga ketgan, ichida sichqonlar bolalab ketgan, izidan tuShgan piShak ularga olti oyda yetgan

Litotaga misol:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o`lturur,

G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo`lur. (Atoiyl)

Allegoriya –yunoncha so`z bo`lib qochiriq, kesatiq degan ma'noni bildiradi. Bu trop ham so`zlearning ko`chmia ma'nosiga asoslanadi. Ijodkor mavhum tushunchalar to`g'risida aniq tasavvur hosil qiliSh niyatida uni biror xususiyati bilan yaqinlaShadigan narsalar orqali tasvirlaydi. Mumtoz Shoир Gulhaniyning “Zarbulmasal” asari allegoriyaga asoslangan. Unda “Tuya bilan bo`taloq”, “ToShbaqa bilan chayon”, “Maymun bilan najjar” kabi masallardagi obrazlar allegorik obrazlardir.

Maqollarda allegoriya ko`plab uchraydi. Masalan, *ko`rpangga qarab oyoq uzat, bo`yingga qarab to`n bich, men ne deyman, qo`bizim ne deydi kabilar.*

Simvol- qadimgi yunonlarda mahfiy bir taShkilot a'zolarining bir –birlarini biliShlari uchun

qo`llangan shartli belgi.

Hayotiy voqeа, tushuncha va narsalarning ifodasi uchun so`zlarni ma'lum raviShda ko`chma ma'noda ishlatalishga simvol deyiladi. Ko`chma ma'noda iShlatilgan nom qanedaydir bir xususiyati bilan ma'lum hayotiy voqeа va tushunchalarni eslatib turiShi kerak maalan: tong – qvonoqlik , yoShlik, baht ramzi. Akademik shoir G'afur G'ulomda tong g'alaba ramzi. U “Sen yetim emassan” She'rida

“Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin” deb g'alaba yaqinligiga iShoniShga chaqiradi.Hayotda simvol ko`p ishlataladi.O`zbekiston gerbidagi Humo qushi-baht ramzi. Olimpiadadagi beSh halqa-beShta qit'a ramzi, non-to`qchilik ramzi va hakozo.

Jonlantirish- jonsiz narsalarning inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so`zlaydigan qilib tasvirlaniShi jonlantiriSh deyiladi: Masalan:

Shamollar esmoqda sovuq, berahm.

YAproqlar pariShon kezar darbadar

Qani kim biladi? Qani aytar kim?

Kimning yo`llarini mo`ltirab kutar

Uzilmasdan turgan uzumlar? (Xurshid Davron)

Apostrofa. Bunda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga jonli narsadek murojaat qilinadi. Ya`ni bu o`rinda jonlantirilayotgan narsa murojaat qilayotgan kishiga nisbatan nofaol holatda bo`ladi. Masalan,

Boshin eggay hamisha

Ostonangda Abdullo

Eng oliv bahtim mening,

Onajonim, She'riyat,

Topgan toj-tahtim mening,

Jonajonim, She'riyat (A. Oripov)

Bu misolda She'riyat-apstrofa . Unga Shoir jonliday murojaat qilyapti.

Xorijiy manbalar

1. *Issledovaniye po strukturnoy tipologii. –M., 1963.*
2. *O.S.Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. –M., 1966.*
3. **D.E.Rozental, M.A.Telenkova.** Slovar – spravochnik lingvisticheskix terminov. –M., 1976.
4. **YA.V.Loya.** Istorya lingvisticheskix ucheniy. -M., 1968.
5. **V.I.Koduxov.** Obsheyeye yazo'koznaniye.- T., 1974.
6. **T.A.Amirova, B.A.Olxovikov, YU.V.Rojdestvenskiy.** Ocherki po istorii lingvistiki.-M.,1975.
7. **N.A.Kondrashov.** Istorya lingvisticheskix ucheniy. - M., 1979.
8. **D.M.Nasilov.** Lingvisticheskiye vzglyado' Alishera Navai // Istorya lingvisticheskix ucheniy. Srednevekovoy vostok. -L., 1981
- 9.**Ferdinand de Sossyur.** Trudo' po yazo'koznaniyu.-M.,1977
 - a. **Djon Layonz.** Vvedeniye v teoreticheskuyu lingvistiku.- M.,1978.
- 10.**N.A Kondrashov.** Istorya lingvisticheskix ucheniy. -M., 1979.
1. О.С. Ахманова. Словарь лингвистических терминов. –М.
2. Д. Э. Розенталь, М.А. Теленкова. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М.,
3. В.М. Солнцев. Язык как системно-структурное образование. –М., 1971.

4. Ю. С. Степанов. Основы общего языкоznания –М., 1975ю
- 5.Ф.М. Березин, Б.Н. Головин.общее языковнание. – М., 1979.
6. В.И. Кодухов. Общее языкоznание. –М., 1974.

ANNOTATSIYA

Umumiy tilshunoslik fani tilshunoslik tarixi, ilmiy- nazariy masalalari va tilshunoslik metodlari bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumot beradi.

Fanni o'qitishdan maqsad - bo'lajak o'qituvchilarga tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy- nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha atroflicha bilim berish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi lingvistik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlanadirishdan iborat.

Fanning vazifasi - tilshunoslik fanining tarixi, ilmiy- nazariy masalalari, tilshunoslik metodlari bo'yicha bilimlarga o'rgatishdan iborat. Ushbu fan talabalarni nazariy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Umumiy tilshunoslik o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: jahon tilshunosligining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik metodlarini bilihi; muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Umumiy tilshunoslik fani ixtisoslik fani hisoblanib, 7-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejallashtirilgan tilshunoslik asoslari, hozirgi o'zbek adabiy tili, falsafa, mantiq, informatika va axborot texnologiyalari kabi fanlardan egallagan bilimlarga tayaniladi.

Umumiy tilshunoslik fani bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tilshunoslikning umumiy nazariy asoslari bilan tanishtiradi, talabalarga tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning nazariy masalalari va metodlari bo'yicha puxta ma'lumotlarni beradi.

Talabalarning umumiy tilshunoslik fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik va o'quv qo'llanmalar, seminar ishlanmalari, tarqatma materiallar va elektron materiallardan foydalaniladi.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'limda ma'ruza va seminar (amaliy mashg'ulotlar)ning turli usullaridan foydalanilmoqda. Xususan, ma'ruzaning quyidagi turlari mavjud: kirish ma'ruzasi, ma'ruza-axborot, sharhlovchi ma'ruza,

muammoli ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza, ma'ruza-konferensiya, maslahat ma'ruza.

Seminarlarning esa quyidagi turlari mavjud: bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, seminar-munozara, munozarali seminar, muammoli masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan seminar, mustaqil ishslash ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltirilgan seminar va b. Bunda o'qituvchi o'z faniga mos ravishda kerakli usullarni tanlab olishi mumkin. Xususan, umumiy tilshunoslik fani jiddiy ilmiy-nazariy fan bo'lganligi sabbali unda asosan ma'ruzaning **kirish ma'ruzasi, ma'ruba-axborot, vizual ma'ruba** kabi turlaridan foydalanish mumkin.

Seminarlarning ham barcha turlari ushbu fanga to'g'ri kelmaydi. SHunga ko'ra fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda seminarning **bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, seminar-munozara** kabi turlaridan foydalangan ma'qul.

Umumiy tilshunoslik fani bo'yicha ma'ruba va seminarlarni o'tkazishda mos ravishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham foydalilanadi. Masalan, "Hamkorlikda ishslash", "FSMU", "Birgalikda o'qiyimiz", "Arra", "Fikrlar hujumi", "Tarozi" va b.

Keltirilgan ta'lim texnologiyalariga har bir mavzu bo'yicha slaydlar alohida ilova qilinadi.

Muallif Sharopova Rano Jahonovna haqida ma'lumot

U 2004-yildan buyon

Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Tug'ilgan yili
26.08.1974

Tug'ilgan joyi
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

Millati
O'zbek

Partiyaviyiligi
yo'q

Ma'lumoti
oliy

Tamomlagan
1998- yil, Navoiy davlat pedagogika instituti
(kunduzgi)

Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi: filolog, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

Ilmiy unvoni
Yo'q

Ilmiy darajasi
yoq

Qaysi chet va MDH xalqlari tillarini biladi (to`liq ko`rsatilishi lozim):
rus, ingлиз tillari

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa)
Yo'q

Xalq deputatlari, respublika, viloyat, shahar va tuman kengashi deputatimi yoki boshqa saylanadigan organlarning a`zosimi (to`liq ko`rsatilishi lozim)
Yo'q

MEHNAT FAOLIYATI

1993-1998yy.-

1999-2002 yy.-

2002y.

laboranti

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Navoiy shahar 5-maktab o`zbek tili va
adabiyoti fani o`qituvchisi

Navoiy davlat pedagogika instituti o`zbek tilshunosligi kafedrasи

2004 yildan

Navoiy davlat pedagogika instituti o`zbek tilshunosligi kafedrasи
o`qituvchisi

Manzili

Navoiy shahar, I.Sino ko`chasi

36-uy 1-xonardon, tel:2250190

Foydali maslahatlar

| № | O`quv-uslubiy majmuaning amaliyotga qo'llash uchun tavsiya etilgan natijalari | Tavsiyani amaliyotga tatbiq etilishidan kutilayotgan natija |
|----|--|--|
| 1. | Mazkur o`quv-uslubiy majmuada tavsiya etilgan mavzular va ularga doir materiallar tilshunoslik asoslari fani bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'limi uchun qo'llanmalar yaratish, tanlanma darslar, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda xizmat qiladi. | Tilshunoslik asoslari fanining o'qitilishi natijasida til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq, til va nutq birliklarini o'rganish orqali tushuncha hosil qilish. |
| 2. | O`quv-uslubiy majmuuning ilmiy tahlili uchun obyekt qilib olingan tilning ijtimoiyligi, jamiyatdagi ahamiyati, til va tafakkur, til va nutq til birliklarining xususiyatlari to'g'risida ilmiy-nazariy tushuncha hosil qilishga imkon beradi. | Majmua natijalarining samaradorligi va u asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilishi tufayli talabalarning tilshunoslik asoslari fanida til xususiyatlarni belgilashi va til va uniong ta'rigi, tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi farazlar, tilshunoslik faning vujudga kelishi va rivojlanishi bilishda muhim ahamiyat kasb etadi. |
| 3. | O`quv-uslubiy majmuuning ilmiy natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining o'zbek filologiyasi ta'limi yo'nalishida foydalanish mumkin. | Tatbiq etilayotgan tavsiyalar talabalarda tilshunoslik asoslari bilan bog'liq ilmiy tushunchalarining shakllanishi va rivojiga muayyan hissa bo'lib qo'shiladi, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy va madaniy merosga hurmat, tilshunoslik fanini o'rganishga intilish hissini oshirishga ko'maklashadi. |

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

**Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
Давлат таълим стандартлари**

Олий таълимининг Давлат таълим стандарти

**5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича
бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурӣ билимлар
мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТАНДАРТ УЗБЕКИСТАНА

**Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана**

Государственный образовательный стандарт высшего образования

ТРЕБОВАНИЯ

**к необходимому содержанию и уровню
подготовленности бакалавра по направлению
5111200 –Узбекский язык и литература**

Издание официальное

**Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
Тошкент**

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

Ўзбекистон узлуксиз таълим мининг
Давлат таълим стандартлари

Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти

**5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича
бакалаврларнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар
мазмунига қўйиладиган**

ТАЛАБЛАР

Расмий нашр

Ўзбекистон Республикаси

Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги

Тошкент

I

СЎЗ БОШИ

1. ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ВА КИРИТИЛГАН:

- Олий ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълим мини ривожлантириш маркази;
- Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети.

2. ТАСДИҚЛАНГАН ВА АМАЛГА КИРИТИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг
201_ ийл «___» _____ даги ___ - сонли бўйруғи асосида.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида мазкур стандартни амалга киритилиши (амал қилишининг тўхтатилиши) ва унга ўзгартиришилар киритилиши тўғрисидаги маълумотлар «Узстандарт» агентлиги томонидан нашр этилувчи кўрсаткичларда чоп этилади.

Ўзбекистон Республикаси худудида мазкур стандартни расмий чоп этиш хуқуқи Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигига тегишилдирип

II

УМУМИЙ ҲОЛАТЛАР

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ____ йил ____ даги ____ сонли қарори билан тасдиқланган.

Давлат таълим стандарти Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги томонидан ўрнатилган тартиб асосида ишлаб чиқилган.

Ушбу стандарт Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни ва Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури талабларига таълим стандарти тасдиқланган вақтда амалда бўлган таҳрир талабларига жавоб беради.

III

МУНДАРИЖА

| | | бет |
|-----------|---|-----------|
| 1 | Кўлланилиш соҳаси | 1 |
| 2 | Атамалар, таърифлар, қисқартмалар | 2 |
| 3 | Таълим йўналишининг тавсифи | 3 |
| 4 | 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи..... | 3 |
| 5 | 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр компетентлигига қўйиладиган талаблар..... | 4 |
| 6 | Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари | 20 |
| 7 | Бакалавриат асосий таълим дастурларини ўзлаштириш шарт-шароитларига қўйилган талаблар | 28 |
| 7.1 | Бакалавриатнинг асосий таълим дастурлари ўзлаштирилишига белгиланган умуний талаблар | 28 |
| 7.2 | Таълим дастурини амалга ошириш талаблари | 29 |
| 7.3 | Малакавий амалиётни ташкил этишга қўйиладиган талаблар..... | 29 |
| 7.4 | Ўкув жараёнини педагогик кадрлар билан таъминлашга талаблари | 29 |
| 7.5 | Таълим жараёнини ўкув-методик ва ахборот ресурслари билан таъминлашга талаблар..... | 29 |
| 7.6 | Ўкув жараёнининг моддий-техника базасига қўйилган талаблар | 31 |
| 8 | Бакалавриатнинг асосий таълим дастурларининг ўзлаштирилиш сифатини баҳолаш | 31 |
| 9 | Эслатма | 32 |
| 10 | Давлат таълим стандартининг амал қилиш муддати | 32 |
| 11 | Илова | 33 |
| 12 | Библиографик маълумотлар | 34 |

IV

**Ўзбекистон узлуксиз таълимнинг
Давлат таълим стандартлари
Олий таълимнинг Давлат таълим стандарти
5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврларнинг тайёргарлик
даражаси ва зарурий билимлар
мазмунига қўйиладиган
ТАЛАБЛАР**

**Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана
Государственный образовательный стандарт высшего образования
ТРЕБОВАНИЯ
к необходимому содержанию и уровню подготовленности бакалавра по направлению 5111200 –
Узбекский язык и литература**

**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan
State Educational Standards of Higher Education
REQUIREMENTS**

Necessary for content and level of Bachelors in 5111200 – The Uzbek language and Literature

Амал қилиш муддати «__» _____ 201_йилдан
«__» _____ 201_йилгача

I Қўлланиш соҳаси

1.1 Олий таълимнинг мазкур давлат таълим стандарти (ОТ ДТС) **5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти** таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашда асосий таълим дастурларининг ўзлаштирилишини амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси худудидаги барча олий таълим муассасалари учун мажбурий талаблар мажмуини ифодалайди.

1.2 Мазкур таълим йўналиши бўйича кадрлар тайёрлаш ваколатига эга бўлганда Олий таълим муассасаси унинг асосий таълим дастурини амалга ошириш хукуқига эга деб хисобланади.

1.3 ОТ ДТСнинг асосий фойдаланувчилари:

- мазкур таълим йўналиши ва тайёргарлик даражаси бўйича фан, техника ва ижтимоий соҳа иотукларини ҳисобга олган ҳолда асосий таълим дастурларини сифатли ишлаб чиқиш, самарали амалга ошириш ва янгилашга масъул олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчи жамоалари;
- таълим йўналишининг асосий таълим дастурини ўзлаштириш бўйича ўқув-тарбия фаолиятини самарали амалга оширувчи барча ходимлар ва талабалар;
- олий таълим муассасаларининг ўз ваколат доирасида битирувчиларнинг тайёргарлик даражасига жавоб берадиган бошқарув ходимлари (ректор, проректорлар, ўқув бўлими ва деканат);
- битирувчиларнинг тайёргарлик даражасининг баҳолашнишини амалга оширувчи Давлат аттестация ва имтиҳон комиссиялари;
- олий таълим муассасасини молиялаштиришни таъминловчи органлар;
- олий таълим тизимини аккредитация ва сифатини назорат қилувчи ваколатли Давлат органлари;
- таълим йўналишини ихтиёрий танлаш хукуқига эга бўлган абитуриентлар ва бошқа манфаатдорлар.

2 Атамалар, таърифлар, қисқартмалар

Мазкур стандартда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ҳамда олий таълим соҳасидаги халқaro ҳужжатларга мос равишда атамалар ва таърифлардан фойдаланилган:

бакалавриатнинг асосий таълим дастурлари (бакалавриат дастури) – талабаларнинг тарбияси ва тайёргарлик даражаси сифатини таъминлашга йўналтирилган ўқув режаси, ўқув курслари, фанлари (модуллари)нинг дастурларини қамраб олган ўқув-услубий мажмуалари ҳамда малакавий амалиётлар дастурлари, ўқув жараёни жадвали ва мос равишдаги таълим технологияларини амалга оширилишини таъминловчи методик материаллар;

Интеграллашган курс – таълим дастуридаги ўқув фанлари мазмун жиҳатдан ўзаро боғланган, лекин ўз мустакил фанига эга бўлган фанлар модули.

Касбий фаолият соҳаси – илмий, ижтимоий, иқтисодий соҳаларда, ишлаб чиқаришда намоён бўладиган касбий фаолият объектларининг мажмуаси;

касбий фаолият объекти – касбга йўналтирилган предметлар, воқеликлар, жараёнлар ва тизимлар;

касбий фаолият тури – таълим йўналишига ўзгартишлар киритиш мақсадида касбий фаолият обьектига таъсир қилиш тавсифи методлари ва усуллари;

компетентлик - шахснинг муайян таълим йўналиши ёки мутахассислиги бўйича олган билим, малака ва кўникмалари ҳамда шаклланган шахсий хислатларини меҳнат фаолиятида муваффақиятли қўллай олиш қобилияти.

компетенция – билим, малака ва шахсий сифатларини маълум соҳада муваффақиятли фаолият учун қўллай олиш;

модул – таълим ва тарбиянинг муайян мақсади ва натижасига эришиш бўйича ўзаро боғланган ҳамда мантиқий тугалликка эга бўлган ўқув фанлари ва уларнинг таркибий қисмлари.

йўналиш – асосий таълим дастурининг касбий фаолиятнинг муайян тури ва ёки обьектига йўналганлиги;

таълим дастури – муайян бакалавриат таълим йўналиши ёки магистратура мутахассислигига мажбурий ва танлаб ўқитиладиган фанлар тизими, ўтказиладиган амалиёт турлари ва уларнинг мазмуни.

таълим йўналиши – битта касбий фаолият доирасидаги турли даражадаги таълим дастурларининг мажмуи;

таълим натижалари – ўзлаштирилган билим, малака ва кўникмалар ҳамда ўзлаштирилган компетенциялар;

ўқув туркуми – асосий таълим дастурининг илмий ва (ёки) касбий фаолиятнинг тегишли соҳасида билим, малакаларни ўзлаштириш ва компетенцияларни шакллантиришни таъминлайдиган фанлар (модуллари) йигиндиси;

АРМ- ахборот ресурслари маркази;

ИТИ – илмий -тадқикот ишлари;

ОТМ- олий таълим муассассаси;

ЎММ – ўқув - методик мажмуа.

3 Таълим йўналишининг тавсифи

3.1 Ушбу таълим йўналишини камраб оловчи олий таълимнинг асосий таълим дастурини ўзлаштирган, якуний давлат аттестациясидан муваффақиятли ўтган шахсга «бакалавр» малакаси (даражаси) ҳамда олий маълумот тўғрисидаги давлат намунасидағи расмий хужжат(лар) берилади.

3.2 Асосий таълим дастурининг меъёрий муддати ва мос малака (даражаси) келтирилган.

1-жадвалда

Асосий таълим дастурининг муддати ва битирувчиларнинг малакаси

| Таълим дастурининг номи | Малака (даражаси) | Таълим дастурини ўзлаштиришнинг меъёрий муддати |
|----------------------------|----------------------|---|
| Бакалавриат таълим дастури | Бакалавр | 4 йил |

4 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврлар касбий фаолиятининг тавсифи

4.1 Бакалаврнинг касбий фаолият соҳаси

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти – умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллажлари учун ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчисини тайёрлаш жараённида фойдаланиладиган фанлар, педагогик фаолият воситалари, усуллари, методлари йигиндисидан иборат бўлган таълим йўналишидир.

Бакалаврларнинг касбий фаолияти қўйидагиларни қамраб олади:

- Касбий таълим дидактикаси;
- Касбий таълим педагогикаси ва ташхис технологияси;
- Ўқитишининг дидактик воситалари;
- Таълимнинг электрон воситалари;
- Умумий ўрта таълим;
- Ўрта маҳсус, касб-хунар таълим тизимидағи ўрни ва роли.

4.2 Бакалаврларнинг касбий фаолияти обьектлари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бакалаврларнинг **касбий фаолияти обьектлари** – умумтаълим мактаблари, академик лицейлар, касб-хунар коллажлари ва мактабдан ташқари

таълим муассасалари, ўқувчилар, ўқув-тарбия жараёни, ўқитишининг педагогик технологиялари ва методлари, ўзбек тили ва адабиёти, араб графикаси.

4.3 Бакалаврларнинг касбий фаолияти турлари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр ўз психологик-педагогик, касбий тайёргарлигига мувофиқ қуидаги касбга оид фаолият турларини юритиши мумкин:

- ўқитувчилик;
- тарбиячилик;
- ўқув-методик;
- илмий-тадқиқот.

Бакалавр тайёрланадиган касбий фаолиятнинг муайян турлари таълим жараёнининг манфаатдор иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим тизими томонидан аниқланади.

4.4 Бакалаврлар касбий фаолиятининг вазифалари

5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр ўз психологик-педагогик, касбий тайёргарлигига мувофиқ қуидаги касбга оид фаолият турлари билан шуғулланиши мумкин:

- **ўқитувчилик:** академик лицейлар, касб-хунар коллежлари, умумтаълим мактабларида ўзбек тили ва адабиёти, эски ўзбек тили ва ёзуви фани ўқитувчиси;
- **тарбиячилик:** мактабдан ташқари муассасаларда фаолият;
- **ўқув-методик:** ушбу йўналишлар бўйича таълимни амалга оширувчи вазирликлар, унинг тармоқ бошкармалари ва муассасаларида методист;
- **илмий-тадқиқот:** ўкув жараёни билан боғлик жараённи ўрганувчи илмий-тадқиқот ишларини бажариши мумкин.

4.5 Таълимни давом эттириш имкониятлари

Бакалавр педагогик тайёргарликдан кейин умумий ўрта таълим мактаблари, ўрта маҳсус, касб-хунар таълими тизими таълим муассасаларида педагогик фаолиятни амалга ошириши ҳамда турдош таълим йўналишларининг магистратура мутахассисликлари бўйича олий таълим муассасаларига ҳар йилдаги қабул режасини шакллантирилаётганда таълимнинг ваколатли давлат органи томонидан аниқланадиган икки йилдан кам бўлмаган муддатли магистратурада ўқишни давом эттириши мумкин.

Педагогик фаолиятни олиб борганда ўз малакасини ҳар уч йилда ошириб туриши керак.

5 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалавр компетентлигига қўйиладиган талаблар

5.1 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича битирувчи қуидаги **умумий малакавий компетенцияларга** эга бўлиши лозим:

а) умумий малакавий компетенциялар:

- дунёкараш характеристидаги билимлар тизимида эга бўлиши, гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар асосларини, жорий давлат сиёсатининг долзарб масалаларини билиши, ижтимоий муаммолар ва жараёнларни мустақил таҳлил қила олиши;
- Ватан тарихини билиши, маънавий, миллий ва умуминсоний қадриятлар масалалари юзасидан ўз фикрини баён қила олиши ва илмий асослай билиши, миллий истиқбол ғоясига асосланган фаол ҳаётини нуктаи назарга эга бўлиши;
- табиат ва жамиятда кечеётган жараён ҳамда ходисалар ҳакида яхлит тасаввурга эга бўлиши, табиат ва жамият ривожланиши ҳақидаги билимларни эгаллаши ҳамда улардан замонавий илмий асосларда ҳаётда ва ўз касб фаолиятида фойдалана билиши;
- инсоннинг бошқа инсонга, жамиятга, атроф-муҳитга муносабатини белгиловчи ҳуқуқий ва маънавий мезонларни билиши, касбий фаолиятида уларни ҳисобга ола билиши;
- соғлом ҳаёт тарзини юритиш зарурияти бўйича илмий тасаввур ва эътиқодга эга бўлиши, ўз-ўзини жисмоний чиниқтириши;
- ахборот йигиш, сақлаш, қайта ишлаш ва ундан фойдаланиш усусларини эгаллаган бўлиши, ўз касбий фаолиятида асосли мустақил қарорларни қабул қила олиши;
- тегишли бакалавриат йўналиши бўйича ракоботбардош умумкасбий тайёргарликка эга бўлиши;
- янги билимларни мустақил эгаллай билиши, ўз устида ишлаши ва ўз меҳнатини илмий асосда ташкил қила олиши лозим.

б) касбий компетенциялар, жумладан:

Умумкасбий компетенциялар:

- назарияни амалиётга татбиқ этиши бўйича: ўзбек тилшунослик, умумий тилшунослик, ўзбек адабиёти тарихи, назарияси, қардош ва чет эл адабиётига оид билимларни эгаллаш, тил фанлари, адабиётнинг долзарб масалаларини илгай олиш ва ўқувчиларга етказа олиши;
- метод ва технологияларни ўқув жараёнига татбиқ этиши бўйича: анъанавий ва ноанъанавий методлар, илғор педагогик технологияларни фан ва мавзуларни ўтиш чогида танлай олиши, ўз фанида метод

ва технологияларни ижодий қўллай олиши, фактларни таҳлил қилиши, умумлаштириш ва шу асосда хulosа чикара олиши;

- илмий-методик ишларни амалга ошириш бўйича: ҳар бир мавзунинг илмий-назарий, илмий-методик, психологияк хусусиятларини ёрита олиши, ўқитишнинг илмий асосларини таҳлил қилиб бориши, методик бирлашмаларда умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус, касб-хунар таълими мазмунида фаннинг ўрнини белгилай олиши ва унинг илмий муаммолари бўйича педагогик ўқишларда маърузалар ўқиши, мактаб, академик лицей ва касб-хунар коллажларида дифференциал таълимни йўлга кўя олиши, ўкув жараёни билан боғлик барча хужжатларни юрита олиши;

- маънавий-маърифий ишлар бўйича: ҳар бир ўкувчининг руҳий, ахлоқий ҳолатини билиши, якка тартибида ўкувчилар билан гурух билан ишлай олиши, маънавий-маърифий ишларни режалаштира олиши, уни ташкил этиши методикасини эгаллаш, ўкувчилар онгига миллий истиқлол гоясини сингдириш, диний экстремизмга қарши иммунитетни юзага келтириш метод ва технологияларини билиши;

- ўкув жараёнини ташкил этиши ва бошқарши бўйича: дарс типларини билиши ва уларни мақсадга мувофиқ ташкил этиши, ўкув режа ва фан дастури, тематик режани тайёрлай олиши, таълим муассасаси методик бирлашмаси ишини режалаштириш ва раҳбарлик қила олиши, дарс жадвалининг тузилиш тамойилларини билиши, таълим муассасасига раҳбарлик қилишни **билиши керак**.

Касбий маҳорат бўйича ўз билими ва кўникмасини эгаллаган лавозимида мустакил фаолият кўrsatiш ҳамда касбий лаёқат талабларига **жавоб бериши керак**.

5.2 Таълим дастурлари бўйича билим, малака ва кўникмаларга қўйиладиган талаблар

5.2.1 Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар бўйича талаблар

Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар блок бўйича талаблар Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги тасдиқлаган ««Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар» блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурӣ билимлар мазмунига қўйилган талаблар» асосида белгиланади.

5.2.2 Математика ва табиий-илмий фанлар бўйича талаблар

Математик коммуникатив курс

Бакалавр:

- дунёни билишнинг маҳсус усули бўлган математика, унинг тушунчалари ва тасаввурларининг яхлитлиги;

- ахборот технологиясининг жамиятни ривожланишидаги ўрни ва аҳамияти;

- янги ахборот технологияларидан таълим соҳасида фойдаланиш формалари **тўғрисида масаввурга эга бўлиши**;

- математик анализ, аналитик геометрия ва математик статистиканинг асосий тушунчалари ва методлари;

- педагогик дастурлаш воситалари;

- матнларни ва график ахборотларни тайёрлаш, таҳлил қилиш ва ишлов бериш, ахборот технологияларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;

- обьектларни сифат ва миқдор муносабатларини ифодалашда математик белгилардан фойдаланиш;

- педагогик дастурлаш воситаларини ишлаб чиқиш;

- янги ахборот технологиялари воситалари билан ишлаш;

- тармоқ технологиялари (internet, электрон почта ва бошқалар) воситалари билан ишлаш;

- ахборот технологиясининг дастурий воситаларидан фойдаланиб, турли хужжатларни тайёрлаш ва ишлаб чиқиш **кўникмасига эга бўлиши лозим**.

Табиий-илмий курс

Бакалавр:

- коинотнинг яхлит физик обьект эканлиги ва унинг эволюцияси;

- табиий фанларнинг фундаментал бирлиги, табиатни билишнинг тугалланмаслиги, унинг янада тараққий этиши;

- табиатда дискретлик ва давомийлик;

- табиатдаги тартибилик ва тартибсизлик орасидаги нисбат ҳақида, обьектлар тузилишининг тартибга солинганлиги, уларнинг тартибсизлик ҳолатига ўтиши ва аксинча ҳолатлар;

- табиатнинг динамик ва статистик қонунлари;

- табиий тизимнинг обьектив тавсифи бўлган эҳтимоллик;

- табиатшуносликнинг турли бўлимларидаги ўлчамлар ва ўзига хослик;

- табиатшуносликнинг фундаментал константалари;

- мувофиқлик (симметрия) тамойили ва табиатни асраш қонунлари;

- табиатдаги ҳолатлар ва унинг вақт ўтиши билан ўзгариб туриши;

- табиатдаги обьектларнинг индивидуал ва колектив муносабатлари;

- табиатшуносликда замон;

- материя тузилишининг биологик шакли, хусусияти, тирик системаларни қайта тиклаш ва ривожлантириш тамойиллари;

- биосфера ва унинг эволюцион йўналиши;

- тирик системалар яхлитлиги ва гомеостази;

- организм ва атроф-мухитнинг ўзаро таъсири, организмлар ҳамжамоаси, экосистемалар;
- табиатни муҳофаза қилишининг экологик тамойиллари, табиатдан оқилона фойдаланиш, табиатни асрашга қаратилган технологиялар яратиш истиқболи;
- табиатшуносликдаги энг янги кашфиётлар, улардан техник қурилмалар яратишда фойдаланиш истиқболлари;
- физик ва биологик моделлаштириш;
- одам биосфераси ва ижтимоий биологияси бирлиги табиати нұқтаи назардан уларнинг касбий фаолиятдаги оқибатлари;
- Марказий Осиё мамлакатларининг географик жойлашиши, табиий-иктисодий ва ахоли потенциали;
- ёш физиологияси ва гигиенасининг асосий тамойиллари **тұғрисида тасаввурға әга бўлиши;**
- механика, электр ва магнетизм, тебраниш ва тўлқинлар, квант физикаси, статик физика ва термодинамика, моддаларнинг реакцияга бардошлилиги, экологиянинг асосий тушунчалари, қонунлари ва моделлари;
- физика ва экологияда назарий ва экспериментал тадқиқотлар олиб бориш усуллари;
- Марказий Осиё мамлакатларининг географик тавсифномаси, муаммолари ва ривожланиш истиқболлари;
- физик ва биологик ҳодисаларнинг заарли оқибатларидан атроф-мухитни, инсонни муҳофаза қилиш усуллари ва методлари;
- ёш физиологияси фанининг асослари ва гигиена талабларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- сода физик, кимёвий ва биологик тизим моделларидан ўқув жараёнда фойдаланиш;
- табиатшунослик фанларининг турли бўлимлари учун характеристири бўлган катталикларнинг тартиб рақамларини ўлчаш ва баҳолаш;
- атроф-мухит ва одамни заҳарли моддалардан муҳофаза қилиш;
- гигиена талабларига риоя қилиш **қўнікмаларига әга бўлиши лозим.**

5.2.3 Умумкасбий фанлар блоки бўйича талаблар

психология ва педагогика курси

Умумий психология

Бакалавр:

- психологиянинг табиий ва ижтимоий фан сифатида талқин қилиниши;
- психологиянинг соҳалари;
- психология ва фалсафанинг ўзаро алоқаси;
- психология ва илмий-техник тараккиёт;
- педагог фаолиятида психологиянинг етакчи ахамиятга әга эканлиги **тұғрисида тасаввурға әга бўлиши;**
- психика тирик мавжудоднинг объектив борлиқни акс эттириш шакли эканлиги;
- психика ва онг муносабати;
- улуғ мутафаккирларнинг психологик қарашлари;
- психологиянинг ўрганиш методлари;
- фаолият ва мотивлар, фаолиятнинг асосий турлари;
- рефлексия назарияси;
- одам психикасининг пайдо бўлиши;
- одам психикасининг онтогенез тараққиёти;
- юксак психик функцияларининг таркиб топиши;
- мотивация соҳалари;
- иродавий ҳаракатлар ва уни бошқариш;
- индивид, шахс, индивидуаллик;
- шахс фаолияти;
- шахсни экспериментал тадқиқ қилиш методлари;
- мулокот ва унинг кўп мақомли характеристири;
- нутқ ва унинг функциялари;
- дикқат, унинг физиологик механизмлари, турлари;
- сезги ва идрокнинг физиологик асослари;
- хотира назарияси;
- хаёл ва унинг турлари;
- тафаккур ва хиссий билиш;
- темперамент назарияси, типлари;
- характер ва унинг бошқа психологик ҳодисалар билан боғлиқлиги;
- қобилиятнинг сифат ва миқдор характеристикасини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- шахс (ўқувчи)нинг психологик хусусиятларини ўрганувчи метод ва технологиялар;
- ўқув жараёнини бошқариш;

- экспериментлар ўтказиш;
- шахс (ўкувчи) психикасининг ўзига хос хусусиятларини кузатиш;
- ўкув жараёнида турли анкета ва бошқа усусларни қўллай олиш;
- психологик маърифий ишларни ташкил этиш **кўнікмаларига эга бўлиши лозим.**

ёш ва педагогик психология

Бакалавр:

- умумий психология ва ёш психологияси;
- умумий психология ва педагогик психология;
- физиологик ва психологик ривожланиш жараёни;
- ёш ва педагогик психологиянинг ўқитувчи фаолиятида тутган ўрни тўғрисида **тасаввурга эга бўлиши;**

- иқтидорли болалар ва уларни танлаш;
- ёш психологиясининг пайдо бўлиши;
- ёш психологиясини ўрганиш методлари;
- таълимнинг ёш психологияси тараққиётида тутган ўрни;
- мактабгача ёш даврининг ўзига хос хусусиятлари;
- кичик мактаб ёши болалар психологияси;
- ўсмир ва ўспиринлар психологияси;
- таълим ва ақлий тараққиёт;
- педагогик қобилият ва унинг турлари;
- ўқитувчи шахсига қўйиладиган психологик талабларни **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**

- болаларнинг психологиясига хос хусусиятларни ўрганиш бўйича экспериментлар ўтказиш;
- болаларнинг мактабга тайёргарлиги бўйича хулоса бера олиш;
- инсоннинг ривожланиш босқичларидаги психологик ўзгаришларини тадқиқ қилиш;
- педагогик фаолиятда ўкувчиларнинг психологик хусусиятлари, улардаги турли жараёнилар бўйича маслаҳатлар олиб бориш;
- ёш психологияси бўйича олиб борилган эксперимент ва кузатувларни расмийлаштириш **кўнікмаларига эга бўлиши лозим.**

Умумий педагогика

педагогика назарияси ва тарихи

Бакалавр:

- илмий тадқиқот обьектлари ва методлари;
- педагогиканинг ижтимоий фан эканлиги;
- педагогика фанининг методологияси;
- педагогиканинг жамиятдаги ўрни;
- таълимни инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш, унинг узвийлиги, узлуксизлиги;
- педагогика фанининг асосий ривожланиши босқичлари.
- ўтмиш ва замонавий педагогиканинг асосий йўналишлари;
- илғор педагогик қарашлар;
- жаҳон таълим тизими;
- педагогиканинг мақсадига кўра турлари;
- педагогик жараёндаги интеграциялар **тўғрисида тасаввурга эга бўлиши;**
- Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги сиёсати, кадрлар тайёрлаш миллий модели;
- таълим ва тарбиянинг ўзига хос хусусиятлари, бирлиги, дифференциацияси, ягона педагогик жараён;
- XXI аср педагоги образи;
- педагогик антропология;
- таълим назарияси (дидактика)нинг асосий компонентлари: концепциялари, парадигмалари;
- таълим принциплари;
- таълим методлари, технологиялари;
- таълим турлари ва босқичлари;
- таълимни ташхис қилиш;
- тарбия назариясининг моҳияти;
- тарбиянинг мазмуни, принциплари;
- тарбияда муҳит (социум), рухият(психология);
- тарбия методлари ва технологиялари;
- маҳсус педагогиканинг ўзига хос хусусиятлари;
- тарбия турлари;
- жамоада, оиласидаги тарбия ҳамда ўз-ўзини тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари;
- Ўзбекистон Республикаси таълим тизими;
- таълимни бошқариш шакллари;
- шахсга таълим ва тарбия бериш тоғисининг пайдо бўлиши;
- таълим ва тарбия тўғрисида Шарқ ва Farb мутафаккирларининг қарашлари;

- тарбия, мактаб ва педагогик фикрнинг тараққий этиш тарихи;
- жаҳон педагогик жараёни;
- Ўзбекистон Республикасида педагогика фанининг ривожланишини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- таълим ва тарбия жараёнида миллий ғоя ва маънавиятимизнинг бой меросларидан фойдаланиш;
- ўз педагогик фаолиятини режалаштириш;
- таълим муассасаларида ўқитиш ва тарбиялашнинг замонавий метод ва технологияларини қўллаш;
- ўқувчини рафбатлантириш, унинг фаолиятини назорат қилиш, истеъоди, иктидорини рӯёбга чиқариш бўйича тадбирлар ишлаб чиқиш, айни замонда жазолашнинг замонавий шаклларидан фойдаланиш;
- ўқувчилар билимини баҳолаш;
- ота-оналар, жамоа, ўқувчилар билан якка ва гурух бўлиб ишлаш;
- ўқувчилар гурухларини бошқариш **қўникмаларига эга бўлиши лозим**.

педагогик технологиялар

Бакалавр:

- анаънавий ўқитиш методлари ва педагогик технологиялар;
- таълим жараёни ва технологик жараён;
- педагогик фаолият ва ижод;
- таълимда новаторлик;
- педагог шахсининг имкониятлари;
- билиш жараёнини оптималлаштиришда педагогик технологиянинг аҳамияти;
- педагогик технология тушунчаси ва унинг таърифлари;
- педагогик технология ва ахборот технологиялари **тўгрисида масаввурга эга бўлиши**;
- педагогик технология жараёни, уни лойихалаш;
- педагогик технологияни таъминловчи жиҳозлар, воситалар;
- технологик жараёнларнинг такомиллашиб бориши тарихи;
- ўқувчи шахси ва педагогик жараён;
- педагогик технологияларнинг илмий-назарий асослари;
- анъанавий таълим методлари ва технологиялари;
- педагогик жараённи шахсга ўйналтирилган педагогик технологиялар: ҳамкорлик педагогикаси ва б.;
- таълим олувчиларнинг фаолиятини жонлантирувчи педагогик технологиялар;
- лойихалаштириш асосида ўқув жараёнини бошқариш технологиялари;
- модулли, интерактив, ўйинли ва бошқа технологиялар;
- ривожлантирувчи таълим технологияларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;

- таълим олувчиларнинг билиш қобилиятларини баҳолай олиш;
- конкрет вазиятни хисобга олиб, зарур бўлган технологияларни танлаш;
- технологик жараённи лойихалаш;
- замонавий педагогик технологияларни таҳлил қилиш, ўқув жараёнига татбиқ этиш;
- технологик жараённи сифатли ташкил этиш;
- педагогик технология лойихалари, технологик карталарни ишлаб чиқиш;
- таълим олувчилар билимини аниқлаш бўйича эксперимент ўtkазиш, қайта алоқани таъминлаш **қўникмаларига эга бўлиши лозим**.

педагогик маҳорат

Бакалавр:

- педагог касбининг ўзига хос хусусиятлари;
- педагог шахси, унинг жамиятда тутган ўрни;
- педагог фаолиятининг асосий ўйналишлари;
- касбий маҳорат тушунчаси;
- педагог ва таълим соҳасидаги ахборот технологиялар;
- XXI аср педагогига қўйиладиган асосий талаблар **тўгрисида масаввурга эга бўлиши**;
- педагогик фикр тарихида маҳорат масалалари;
- педагогик қобилият, унинг турлари;
- педагогнинг коммуникатив қобилияти, унинг воситалари;
- педагогнинг мулокот маданияти ва психологияси;
- педагог ва таълим олувчи ўртасидаги мулокотнинг ўзига хос хусусиятлари;
- педагогик назокат ва одоб-ахлоқ меъёрлари;
- педагогик техника ва уни шакллантириш усуслари;
- таълим жараёнидаги педагогнинг маҳорати;
- педагог маҳоратини такомиллаштириш шарт-шароитларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- танланган метод ва технологияларни жорий қилишда муҳитни, вазиятни баҳолай олиш;
- таълим ва тарбия жараёнида талаб қилинган иродани намойиш қилиш, сабр-тоқат, қатъият, кайфиятни ўзгартира олиш, жавобгарликни ҳис қилиш;

- юз берган нохуш вазиятдан чиқиб кета олиш;
- педагогик жараёнда ҳар кандай низоларнинг олдини олиш;
- ўз хатти-ҳаракатларини бошқара олиш ва бунда гўзалликка эришиш;
- ўз педагогик назокати ва одобини такомиллаштириб бориш;
- назокат билан сўзлаш техникасига риоя қилиш;
- таълим ва тарбия жараёнида санъаткорлик унсурларидан фойдаланиш;
- ўз меҳнатини расмий ва ижодий ташкил эта олиш: вактдан унумли фойдаланиш;
- ўз маҳоратини тинмай ошириб бориш;
- илғор тажрибаларни ўз фаолиятига сингдириш **кўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Ўқитувчи нутки маданияти

Бакалавр:

- маданият ва унинг инсон ижтимоий ҳаётида тутган ўрни;
- нутқ ва унинг шакллари;
- нутқ техникаси;
- нутқ маданиятининг бошқа тилшунослик фанлари билан алоқаси;
- нутқий фаолият **тўғрисида масаввурга эга бўлиши;**
- нутқ маданиятининг назарий асослари;
- нутқ маданиятининг коммуникатив белгилари;
- нутқ маданияти ва стилистик нормалари;
- нутқ маданияти ва адабий тил;
- нутқ маданиятининг таълим тараққиётидаги ўрни;
- илмий-техник терминология ва нутқ маданияти;
- нотиқлик санъати асослари;
- нутқ маданиятини такомиллаштириш йўлларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- ифодаларни тўғри тузиш;
- нутқни мантикли, аниқ ифодалай олиш;
- соҳа терминларини билиш;
- адабий тилда соғ гаплаша олиш;
- таълим жараёни этикетларига риоя қилиш;
- нотиқлик санъатини намойиш қила олиш **кўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиши методикаси

Ўзбек тили ўқитиши методикаси

Бакалавр:

- ўзбек тилининг таълим тизимида тутган ўрни;
- ўзбек тилини ўқитиши методикасининг педагогика, психология фанлари билан боғлиқлиги;
- ўзбек тилини ўқитиши методлари ва технологиялари тарихи;
- ўзбек тили бўйича яратилган дарслклар, қўлланмаларнинг хусусиятлари **тўғрисида масаввурга эга бўлиши;**
- ўзбек тилини ўқитиши методикасининг тилшунослик фанлари билан боғлиқлиги;
- ўзбек тилини ўқитиши методлари, технологиялари, уларнинг назарий асослари;
- умумий ўрта таълим ўзбек тили мазмуни;
- ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими ўзбек тили мазмуни;
- ўзбек тилини ўқитишида дидактик принциплар;
- ўзбек тилини ўқитишида унинг кисмлари, бобларига хос хусусиятлари;
- ўзбек тили бўйича дарсдан ташқари ишларни **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши;**
- ўзбек тилига ўқувчиларда меҳр уйғота олиш;
- ўзбек тилини ўқитишининг метод ва технологияларини қўллай олиш;
- ўзбек тили бўйича мустакил таҳсил олишга ўқувчиларни йўллаш;
- ўзбек тили бўйича ўқувчилар билимини баҳолай олиш;
- ўзбек тили дарслари, тарбиявий ишлар бўйича талаб қилинган барча ҳужжатларни юритиш;
- ўзбек тили дарсларини режалаштириш **кўникмаларига эга бўлиши лозим.**

Ўзбек адабиётини ўқитиши методикаси

Бакалавр:

- ўзбек адабиётининг таълим тизимида тутган ўрни;
- ўзбек адабиётини ўқитиши методикасининг педагогика, психология фанлари билан боғлиқлиги;
- ўзбек адабиётини ўқитиши методлари ва технологиялари тарихи;
- ўзбек адабиёти бўйича яратилган ўқув адабиётларининг хусусиятлари **тўғрисида масаввурга эга бўлиши;**
- ўзбек адабиётини ўқитиши методикаси фанининг адабиёт фанлари билан боғлиқлиги;
- ўзбек адабиётини ўқитиши методлари ва технологиялари, уларнинг назарий асослари;
- адабиётни ўқитишининг дидактик принциплари;

- умумий ўрта таълим адабиёт фани мазмуни;
- ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими адабиёт фани мазмуни;
- ўзбек адабиёти бўйича дарсдан ташқари ишларни **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- адабиёт ўқитишида замонавий метод ва технологияларни қўллай олиш;
- адабиётга ўқувчида меҳр уйғота олиш;
- ўқув-тарбия жараённида адабиёт материаларидан фойдалана олиш;
- адабиёт бўйича билимларини баҳолаш;
- адабиётни ўқитиши бўйича талаф қилинган хужжатларни тайёрлаш;
- бадиий асарни мустақил таҳлил қилиш, китобхонлар конференциясини ўтказиш;
- адабиёт дарсларини режалаштириш;
- ёзма ишларни текшириш ва баҳолаш;
- ифодали ўқишини ўргатиш **кўникмаларига эга бўлиши лозим**.
- адабиёт назариясига оид қоидаларни бадиий адабиётни таҳлил қилишда кўллаш;
- чет эл, ҳамдўстлик мамлакатлари адабий асарларини таҳлил қила олиш **кўникмасига эга бўлиши лозим**.

Тилишунослик курси

Бакалавр:

- тилнинг жамиятда тутган ўрни;
- тилшунослик ва унинг фанлар тизимидағи ўрни;
- ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланиш омиллари;
- ўзбек тил билими фанининг юзага келиши;
- ўзбек тилининг туркий тиллардан бирни эканлиги;
- ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг график системаси **тўгрисида тасаввурга эга бўлиши**;
- тилнинг структураси ва системаси;
- тил ва ёзувнинг пайдо бўлиши;
- жаҳон тилларининг классификацияси;
- тилшунослик тарихи;
- тилшунослик мактаблари;
- тил ва нутқ, тил ва тафаккур, тил ва ахборот муносабатлари;
- ҳозирги ўзбек тилининг фонетик ва фонологик тизими;
- ўзбек тилининг имло ва талаффуз қонуниятлари;
- ўзбек тилининг лугат таркиби ва сўз семантикаси;
- ўзбек тилидаги турғун иборалари;
- ўзбек тили лексикологияси;
- ўзбек тилидаги сўзларнинг морфемик ва морфологик таҳлили;
- ўзбек тили морфологияси категориялари;
- сўз ясалиш тизими;
- сўз туркумлари ва унинг ички категориялари;
- ўзбек тилидаги сўз бирикмалари синтаксиси;
- ўзбек тилининг содда ва қўшма гап синтаксиси;
- ўзбек тилидаги мураккаб синтактик бутунликлар;
- ўзбек пунктуацияси асослари;
- ўзбек тилининг тарихий илдизлари: қадимги туркий тил, ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, ўзбек адабий тили тарихининг тараққиёт даврлари;
- ўзбек тилининг диалектал таркиби;
- эски ўзбек ёзуви ва унинг хусусиятлари;
- форс ва араб тилларининг асосий хусусиятлари;
- ўзбек адабий тилининг функционал услублари;
- матннинг коммуникатив бўлаклари;
- матн синтагматикаси;
- матннинг прагматик хусусиятлари;
- матннинг лингвистик таҳлили;
- ўзбек тилининг функционал услубларини **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қўллай олиши**;
- ўзбек тилшунослиги фанлари орасидаги назарий ва амалий билимларни боғлай олиши;
- ўзбек тил структураси ва системасини ажратса олиш;
- ўзбек тилининг ўз ва ўзлашган қатламини фарқлай олиши;
- ўзбек тилидаги матнни фонетик, лексик ва грамматик жиҳатдан таҳлил қилиш;
- ўзбек тилининг жаҳон тиллари классификациясида тутган ўрнини белгилаш;
- ўзбек тилининг услугига хос асосий хусусиятларини фарқлаш;
- тилнинг тараққиёт босқичлари ва жараёнларини фарқлаш;
- шарқ тилларидаги матнларни ўқий олиш, таржима қилиш ва оғзаки баён қилиш;

- ўзбек тили графикаси, орфоэпияси, орфографияси, пунктуацияси қоидаларини хаётда кўллаш, уни ўз фаолиятида ижодий ривожлантира билиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим**.

Адабиётшунослик курси

Бакалавр:

- адабиётнинг филологик фан эканлиги;
- ўзбек адабиётининг тараққий этиш омиллари;
- ўзбек адабиёти жаҳон адабиётининг бир кисми эканлиги;
- адабиётда миллӣ ва умуминсоний қадриятларнинг акс этиши;
- адабиёт ва санъат муносабатлари тӯғрисида

 - ифодали ўқишининг таълим тизимида аҳамияти;
 - ифодали ўқиш ва адабий жанрлар;
 - ифодали ўқиш ва шеърий санъатлар **тӯғрисида масаввурга эга бўлиши;**

- адабиётшуносликнинг таркибий кисмлари;
- адабиёт назариясининг асослари;
- ўзбек адабиёти ва уни даврлаштириш;
- ўзбек адабиёти жанрлари тараққиёти;
- ўзбек классик адабиёти ва уларнинг намояндалари асарлари таҳлили;
- замонавий ўзбек адабиёти, унинг тематик ва жанрлар йўналиши, уларнинг намояндалари асарларининг таҳлили;
- ўзбек адабиёти жанрларининг тараққиёти;
- хозирги адабиёт вакилларининг ижоди;
- ўзбек болалар адабиётининг ўзига хос хусусиятлари;
- ўзбек халқ оғзаки ижоди намуналари;
- чет эл адабиёти тарихи, жаҳон адабиётидаги таникли бўлган адиблар ижоди;
- мустақил ҳамдўстликка кирган мамлакатлар адабиётининг хусусиятлари ва уларнинг таникли адиблари ижоди;
- ўзбек адабиёт танқидчилигининг пайдо бўлиши ва тараққиёти;
- XX аср ўзбек танқидчилик тарихи;
- миллӣ истиқлол даври танқидчилиги;
- ўзбек адабиёт танқидчилиги намояндалари;
- хозирги адабиёт жараённинг адабий-назарий қонунларини;
- ифодали ўқишининг предмет ива вазифаси;
- интонация (оҳанг) компонентлари;
- ритм, темп, риторика, тушунчалари;
- шеърий асарлар ва уни ифодали ўқиш;
- шеър санъатлари ва уларга риоя қилган ҳолда ўқиш;
- насрый ва гарматик жанрларнинг хусусиятлари ва уларни ифодали ўқиш;
- аруз ва бармоқ вазнидаги шеърларни ифодали ўқиши **билиши, малака ҳосил қилиши ва амалда қуллай олиши;**
- ўзбек адабиёти намуналарини гоявий-эстетик жиҳатдан таҳлил қилиш;
- бадиий адабиётнинг турлари ва жанрларини фарқлаш;
- ҳар бир адабиёт намояндасининг асарларига давр нуктаи назардан ёндошиб баҳолай олиш;
- ўзбек адабиётини миллӣ истиқлол гояси асосида таҳлил қилиш;
- бадиий асарни муҳокама қила олиш;
- ифодали ўқишини баҳалай олиш;
- жанрлар бўйича ифодали ўқиш намуналарини кўрсата олиш **қўникмаларига эга бўлиши лозим;**

5.2.4 Ихтисослик фанлари блоки бўйича талаблар

Бакалавр:

- ихтисосликка мос таълим соҳасининг асосий илмий-методик муаммолари ва ривожининг истиқболини ҳамда уларнинг турдош соҳалар билан ўзаро алоқасини тушуниши;
- ихтисосликнинг муайян соҳаси билан боғлик бўлган асосий обьектларни, ходиса ва жараёнларни билиши, уларни илмий-тадқиқ қилиш усуулларидан фойдалана билиши;
- ўрганилаётган фан, метод ва технологияларга кўйиладиган илмий-методик талабларни таърифлаб беришини уddyлаши, уларни амалга оширишнинг мавжуд илмий-методик воситаларини билиши керак.

Бакалавр ихтисослигига кўйиладиган муайян талаблар ихтисослик фанлари туркумидан танланган вариантидаги ўқув фанларининг мазмуни бўйича олий таълим муассасаси томонидан белгиланади.

5.2.5 Битирув малакавий ишларига кўйиладиган талаблар

Битирув малакавий ишида бакалавр тугалланган касбий вазифаларни ҳал қиласида ва бунда барча блок фанлари бўйича олинган билимлардан фойдаланилади.

Бу ишда бакалавр:

- ўрганилаётган масаланинг ҳолати ва тарихини таҳлил қиласи;
- илмий-назарий, илмий-методик масалани аниқлаб олади, унинг ечилишидаги бир неча варианtlарни кўзда тутади ва улардан энг муҳим вариантини танлайди;

- хulosани шакллантиради ва ҳал қилинган масала натижалари бўйича тавсиялар беради ва тегишли фан соҳасида қўлланиши имкониятларини белгилайди.

5.2.6 Малакавий амалиёт бўйича талаблар

педагогик амалиёт

Бакалавр:

- умумий ўрта таълим ва ўрта маҳсус таълимдаги ўзбек тили ва адабиёти таълими мазмуни, давлат таълим стандартлари, фан дастурлари бўйича иш юритиш;
- ўзбек тили ва адабиёти фанларининг синфлар ва курслар бўйича ўқув режаларида жойлаштирилиш;
- синф-дарс тизимига риоя килган ҳолда ўзбек тили ва адабиёти фанлари бўйича план-конспект, календар-план асосида дарс ўтиш;
- анъанавий ва замонавий метод ҳамда технологияларни дарс жараённида қўллаш;
- ўзбек тили ва адабиёти дарсларини ўтиш чоғида тарбиявий ишларни олиб боришни **билиши ва улардан фойдалана оилиши лозим.**

ўқув амалиёти.

Бакалавр:

- ўзбек шеваларининг ўзига хос хусусиятларини ҳис қила олиш;
- шева вакиллари билан илмий-амалий мулоқот ўрната олиш;
- шева фактларини таҳлил қила олиш;
- ўзбек фольклори намуналарини ёзиб ола билиш;
- ёзиб олинган ҳалқ оғзаки ижоди намуналарини мавжуд материалларга қиёслай олиш;
- ўзбек шевалари ва фольклорини ёзиб олиш методларини қўллашни **билиши ва улардан фойдалана оилиши лозим.**

5.2.7 Бакалаврларнинг стажерлик фаолияти мазмуни ва уни ташкил этишга қўйиладиган талаблар.

Бакалаврларнинг стажерлик фаолияти ёш педагогнинг педагогик касбга киришиб кетишини амалий жиҳатдан таъминлайдиган жараёндир.

Стажерлик фаолиятининг мақсади – педагогик ишга қабул қилинган ҳар бир бакалаврнинг педагогик жараённи амалга ошириш учун фаол киришиб кетиши ва унга кўникиши, педагогик касбни давом эттириш учун унинг назарий билимлари асосида амалий фаолиятини ташкил этишни тизимга солишдир.

Стажерлик фаолиятининг вазифаси – бакалаврнинг педагог сифатида шаклланниши, унинг ўқув-методик ва илмий-методик жараённи ташкил этиши ҳамда уни амалга ошириш кўникмаларини ривожлантириш.

Бу вазифа қўйидаги мазмунни ўз ичига олади:

Ўқув жараённи бўйича:

умумий ўрта таълим ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими ДТСларини ўқув жараёнига боғлаб синчиклаб ўрганиб чиқиш;

ўзи машғулот ўтказадиган фаннинг ўқув дастурини таҳлил қилиш ва шу асосда ишчи ўқув дастурини тайёрлаш;

календар-тематик режани шакллантириш;

синф журналининг расмийлаштирилишини ўрганиш;

ўқувчилар билимини назорат қилишнинг рейтинг низомини ўрганиш ва амалда татбиқ этиш, ўқувчилар билимини баҳолай олиш;

фан кабинети, унинг замонавийлигини таъминлаш, жиҳозларни ишлатиш бўйича ишланмалар билан танишиш ва уни бойитиш;

фанлар бўйича метод бирлашмалар иш мазмунини ўрганиш ва ундаги ўзининг мажбуриятларини белгилаб олиш;

машигутларга тайёргарлик кўриш ва режа-конспект тузилмасини таҳлил қилиш ва шу асосда ўзининг кунлик режа-конспектларини тузиш;

дарсликлар устида ишлаш;

қўлланмалар, ўқув-методик тавсияномалар устида ишлаш;

тарқатма материаллар тайёрлаш малакаларини эгаллаш;

ўқитиш методлари ва педагогик технологияларни таснифлаш ва ўқув жараённида қўллаш;

турли даражада ўзлаштирувчи ўқувчилар билан ишлаш методикасини эгаллаш;

ўқувчиларда фанни ўрганишга бўлган мотивациясини кучайтириш;

глобал тармоқлар орқали ўқитиш методлари ва технологияларини қабул қила олиш, уни қайта ишлаш ва ўқув жараённига олиб кириш.

Тарбиявий ва ташкилий ишлар бўйича:

умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус, касб-хунар таълими тизимида олиб бориладиган маънавий-ахлоқий тадбирлар мажмуасини ўрганиб чиқиш ва бундай тадбирларни ташкил этиш ва ўқазиш технологиясини ишлаб чиқиши ҳамда уларни ўз амалий фаолиятида фойдаланиш;

синф раҳбарига юклатиладиган вазифаларни аниқлаш ва иш режасини тузиш;

ота-оналар билан ишлаш тажрибаларини ўрганиш ва унинг режасини ишлаб чиқиш;

ўқувчиларга ахлок, айниқса, шарқона одоб нормаларини сингдириш;

ўқувчилар шахсини, жамоа аъзолари, раҳбариятни хурмат қилиш тамойилларига амал қилиш;
ўқувчилар орасида миллий ғояни тарғиб килувчи ва маънавиятини бойитувчи маърифий-тарбиявий ишларни олиб бориш;

санъат ва халқаро ижтимоий ҳаётда юз берадиган воқеаларнинг миллий тарбияга салбий таъсирини тез англаш ва маърифий йўллар билан уларнинг олдини олиш.

Бакалаврларнинг стажерлик фаолиятига масъул органлар ва шахсларга қўйиладиган талаблар.

Бакалаврга қўйиладиган талаблар:

стажерлик фаолияти бўйича йиллик иш режасини («устоз» билан ҳамкорликда) тузиш ва уни изчил амалга ошириш;

умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими ва тарбия жараёнини норматив ҳужжатлар асосида ўрганиб чиқиш;

амалдаги ҳужжатлар асосида ўз шахсий режаларини ишлаб чиқиш;

интернетдан янги ахборотларни олиш ва уни ўкув жараёнига киритиш;

ўқитиши методлари ва технологияларини эгаллаш ва ўқувчи шахси хусусиятларига мос равишда метод ва технологияларни танлай олиш;

ўқув адабиётлари (асосий ва қўшимча)даги материалларни ижодий қайта ишлай олиш;

таълим муассасаси ички тартиб-қоидаларига амал қилиш;

ўзининг фаолиятига баҳо бера олиш ва хисобот тайёрлаш.

Кадр тайёрлаган олий таълим муассасаси раҳбариятига қўйиладиган талаблар:

олий таълим ахборот-ресурс маркази базасидан, шунингдек, олий таълим муассасасининг интернетдаги порталидан бепул фойдаланишга имконият яратиш;

бакалаврнинг ўқув-методик ва илмий-методик ишларига раҳбарлик қилиш учун мутахассис тайинлаш;

бакалаврларнинг стажерлик фаолияти натижаларини умумлаштириш, илмий-тадқиқотлар олиб бориш ва такомиллаштириш.

Иш берувчи таълим муассасаси раҳбариятига қўйиладиган талаблар:

бакалаврга таълим муассасасининг ахборот-ресурс маркази базасидан тўлиқ фойдаланишга руҳсат бериш;

муассасанинг интернетга уланган компьютерида ҳар куни камида бир соат ишлашига шароит яратиш;

йиллик стажерлик фаолияти режасини шакллантиришга ёрдам бериш ва уни метод бирлашмада ҳамда педагогик кенгашда тасдиқлаш;

йиллик иш режасининг бажарилишини педагогик кенгашда ҳар чоракда муҳокама қилиб бориш ва методик ёрдам ташкил этиш;

бакалаврга тажрибали мутахассисни «устоз» сифатида бириктириш ва унинг ҳам фаолияти ахборотини педагогик кенгашда муҳокама қилиб бориш ва баҳо бериш;

ўрнатилган намунада вазирликка ва олий таълим муассасасига маълумотнома йўллаш (электрон почта орқали).

Кадрларга буюртмачи бўлган таълимни бошқаршига ваколатли давлат органи раҳбариятига қўйиладиган талаблар:

таълим муассасаларида бакалаврларнинг ўқув-методик таъминотини таҳлил қилиб бориш ва уни ўйлга қўйишнинг зарур чораларини кўриш;

халқ таълими, ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими бошқармаларининг ёш кадрларнинг фаолиятини такомиллаштириш бўйича амалга ошираётган тадбирларини вазирлик Ҳайъати ёки бошқарма кенгашларида муҳокама қилиш;

бакалаврларнинг педагогик кўникишларига қаратилган чора-тадбирлар кўриш, улар фаолиятини мувофиқлаштириш.

6 Таълим дастурининг мазмуни ва компонентлари

6.1 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича бакалаврларни тайёрлаш таълим дастури таълимнинг кундузги шакли бўйича 4 йил ўқишига мўлжалланган бўлиб, куйидаги вақт тақсимотига эга:

| | |
|---|------------------|
| Назарий, амалий ўқитиши, шу жумладан: жорий, оралиқ ва якуний аттестациялар | 136 ҳафта |
| Малакавий амалиётлар | 15 ҳафта |
| Битирув малакавий иши | 4 ҳафта |
| Жорий ва якуний давлат аттестациялари | 17 ҳафта |
| Таътиллар | 32 ҳафта |
| Жами | 204 ҳафта |

6.2 Талаба хафталик ўқув юкламасининг максимал ҳажми 54 соат, шундан аудиториядаги ўқув юкламаси – 30 соатгача, қолган соатлар ҳажми мустақил таълим учун ажратиласди.

6.3 Жорий, оралиқ ва якуний аттестацияларни ҳисобга олган ҳолда таълим дастурининг умумий ҳажми 4 йиллик ўқув даври учун 9288 соатни ташкил этади.

6.4 Таълим дастурини ўзлаштиришда бир қатор масалалар ёки интеграллаштирилган курслар муаммолари бўйича талабаларнинг мустақил таълими кўзда тутилади.

6.5 5111200 – Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши бўйича таълим дастурининг зарурий мазмuni

6.5.1 Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар

Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанларнинг зарурий мазмуни «Гуманитар ва ижтимоий-иктисодий фанлар» блоки бўйича бакалаврлар тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига кўйилган талаблар» асосида белгиланади.

6.5.2 Математик ва табиий-илмий фанлар

Математик коммуникатив курс

6.5.2.1 Олий математика асослари:

асосий алгебраик тузилмалар, вектор фазо ва чизиқли акслантириш, аналитик геометрия, кўп ўлчовли евклид геометрияси, топология элементлари, мантикий ҳисоблашлар, алгоритмлар назарияси, комбинаторика, дифференциал ва интеграл ҳисоблаш, дифференциал тенгламалар, эҳтимолликлар назариясининг математик асослари, тасодифий ҳодисалар моделлари, гипотезаларни текшириш, энг катта ўхшашлик принципи, эксперимент натижаларини қайта ишлашнинг статистик методлари.

6.5.2.2 Информатика ва ахборот технологиялари:

ахборотларни йиғиш жараёни, узатиш, қайта ишлаш ва тўплаш ҳакида умумий тавсифнома; ахборотларни тарқатиш жараёнида техник ва дастурлаш воситалари.

Технология тушунчаси. Ахборот технологиялари, уларнинг кўринишлари ва классификацияси. Янги ахборот технологиялари. Янги ахборот технологиялари воситалари. Шахснинг ўқишида, тарбияланишида ва ривожланишида янги ахборот технологияларидан фойдаланиш. Педагогик дастурий воситалар. Матн ва график ахборотларни тайёрлаш, тахлил қилиш ва қайта ишлаш технологияси. Мультимедиа технологияси. Тармоқ технологиялари. Internet технологияси. Масофадан ўқитиши.

Табиий-илмий курс

6.5.2.3 Марказий Осиё географияси:

«Марказий Осиё» атамаси моҳияти, Марказий Осиёнинг чегаралари, ўлчамлари, географик ўрни, қўшни мамлакатлар билан тарихий географик яқинлиги, табиий-демографик потенциали; ҳозирги вақтдаги сиёсий-иктисодий ҳолати, Ўзбекистон, Козогистон, Қирғизистон, Тоҷикистон, Туркманистон республикалари – Марказий Осиёнинг муҳим сиёсий-иктисодий географик субъектлари сифатида, Марказий Осиё республикаларининг географик характеристикаси, ривожланиш муаммо ва истикబоллари, ташки иқтисодий алоқалари ва иқтисодий районлари.

6.5.2.4 Ҳозирги замон табиий фанлар концепцияси:

Моддий дунё ва уни ўрганиш методологияси. Дунёнинг умумий илмий манзараси. Дунёнинг физик, кимёвий ва биологик манзараси, замонавий дунёкарашнинг таркиби, микро ва макро дунё, улардаги эволюцион ва революцион ўзгаришлар. Табиий цикллар. Биосфера ва ноосфера. Антропоген омиллар ва уларнинг жонли ва жонсиз табиатга таъсири. Ўзаро яқин фанларнинг табиатни ўрганишдаги роли ва аҳамияти (физикавий, кимёвий физика, геолгик кимё ва б.).

Ер ва коинот. Геологик жараёnlар ва уларнинг жонли табиат вакилларига таъсири. Модда ва энергиялар ўзаро алмашинувининг умумий қонуниятлари. Организмларнинг ташки муҳит билан диалектик боғлиқлиги. Реал дунёнинг моддий бирлиги. Инсон табиатнинг, дунё эволюциясининг энг олий маҳсули сифатида. Умуминсоний, табиий-илмий муаммолар ва уларни ҳал қилиш ўйллари, реал воқелик, имколниятлар ва прогноз.

6.5.2.5 Ёш физиологияси ва гигиена:

организмнинг ёш хусусиятлари ва органлар ҳамда тизимларнинг турли вазифалари. Организм-яхлит бир тизим. Одамнинг ўсиш ва ривожланиши. Организмнинг атроф-муҳит билан алоқадорлиги. Ирсий касалликларнинг генезиси ва уларни профилактика қилиш масалалари. Ёш организмнинг ўсиши ва ривожланишининг ўзига хослиги. Ички секреция безларининг фаолияти. Гармонлар муҳим биостимулятор ва регулятор сифатида. Тўқима, орган ва организмлар вазифаларининг гуморал бошқаруви, организмлар хаёт фаолиятида нерв тизимининг аҳамияти. Ҳар томонлама тараққий этган шахсни тарбиялашда соғлом турмуш тарзининг аҳамияти. Болалар соғлигини ҳимоя қилишда оиланинг ўрни. Соғлом организмни таъминлашда овқатланиш кун режими ва бошқа омилларнинг аҳамияти. Инсон организмнинг жисмоний ва рухий соғлом бўлишида гигиенанинг аҳамияти. Шахсий гигиенага кўйиладиган талаблар ва гигиена меъёrlари.

6.5.2.6 Экология ва табиатни муҳофаза қилиш:

одам ва биосфера: биосферанинг тузилмаси, экосистемалар, организм ва муҳитнинг ўзаро муносабатлари, одамнинг соғломлиги ва экология. Атроф-муҳитнинг глобал муаммолари.

табиатдан фойдаланиши: табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг экологик тамойиллари ва табиатни муҳофаза қилиш, табиатдан оқилона фойдаланишнинг иқтисодий асослари. Атроф-муҳитни

мухофаза қилиш техника ва технологиялари. Экологик ҳукуқ асослари ва касбий масъулият. Атроф-мухит соҳасида халқаро алоқалар.

6.5.3 Касбий фанлар бўйича

Педагогика ва психология курси

6.5.3.1 Умумий психология:

умумий психология: умумий психологиянинг обьекти, вазифалари. Психология табиий ва ижтимоий фан сифатида. Психика ҳақида тушунча, психиканинг ориентировка қилувчанлик ва бошқарувчанлик вазифаси. Бош мия ва психика. Психика ва онг. Психология ва фалсафа. Шарқ мутафаккирларининг психологик қарашлари. Психика ва онгни таҳлил қилиш принциплари. Ҳозирги замон психологиясининг тузилмаси ва унинг принциплари. Психологиянинг соҳалари. Психологиянинг методлари ва унинг таҳлили. Фаолиятнинг психологик таҳлили. Мотивлар ва фаолият. Психиканинг тараққиёти. Мотивация ва эмоция психологияси. Ирода психологияси. Шахс психологияси. Шахс, индивид, индивидуаллик тушунчалари. Фрустрация ва шахснинг истикбол режалари. Конформизм. Дунёқараш ва эътиқод. Мулоқот психологияси ва нутқ. Диққат ва унинг турлари. Сезги ва идрок. Хотира ва хаёл. Тафаккур. Муаммоли вазият ва уни ҳал қилиш. Темперамент, унинг ўзига хос хусусиятлари.

Ёш ва педагогик психология: ёш ва педагогик психологиянинг предмети, унинг ривожланиш тарихи, Шарқ мутафаккирларининг қарашлари. Ёш психологиясидаги мактаблар. Ёш психологиясини ўрганиш методлари. Таълим мазмуни ва психик тараққиёт. Ёшнинг умумий характеристикиси. Ёш тараққиётини даврлашириш. Мактабгача ёш даври характеристикиси. Кичик мактаб ёши даври психологияси. Ўсмир психологияси, ўспирин психологияси. Таълимни ва билимларни ўзлаширишни бошқариш психологияси. Таълим ва ақлий тараққиёт. Тарбия методлари ва формалари. Бўлгуси ўқитувчи шахси сифатлари. Педагогик қобилияти: назария ва амалиёт.

6.5.3.2 Умумий педагогика

Педагогика назарияси: педагогика фани, унинг предмети, методологияси, илмий-тадқиқот обьекти, методлари. «Таълим тўғрисида Қонун» ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлиги. Узлуксиз таълим. Педагог кадр тавсифномаси. Педагогика фанининг мақсадига кўра тармоклари, бошқа фанлар, шу жумладан фалсафа, психология фанлари билан алоқаси. Педагогик антропология. Шахс, таълим ва тарбия. Хорижий мамлакатлардаги тарбияга қисқача изоҳ. Ягона педагогик жараён. Дидактика – таълим назарияси. Дидактиканинг вазифалари. Таълимнинг ривожланиш йўналишлари: узлуксиз таълим концепцияси, технологоизация концепцияси, таълим парадигмалари. Дидактик принциплар(тамойиллар). Ўқитиш жараёни, ўқитишнинг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи вазифалари. Таълимнинг психологик, физиологик асослари. Таълимда илмийлик, изчиллик, мувофиқлик, ижодийлик ва бошқа принциплар. Таълим жараёнида мотивация. Таълим методлари, воситалари ва технологиялари. Умумий ва хусусий методлар. Ўқувчиларни мустакил фикрлашга қаратилган метод ва технологиялар. Метод танлаш ва мотивация. Ўқув адабиётлари ва уларнинг турлари. Электрон ўқув адабиётлари. Таълим турларининг ўзига хос хусусиятлари. Педагогик технологиялар. Таълим шакллари. Таълимни ташхис этиш. Тарбия назарияси. Тарбия жараёни, муҳити(социум), тарбия принциплари, тарбия қўйиладиган талаблар. Тарбия метод ва технологиялари. Миллий тарбия масаласи. Тарбия турлари. Тарбия ва миллий ғоя. Тарбия ва маънавият. Оила тарбияси.

Таълим тизимини бошқариши. Ўзбекистон Республикасида таълим тизими. Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари. Таълим муассасаси, уни бошқариш. Бошқарувда васийлик ва ҳомийлик масалалари. Махсус(коррекцион) педагогика, унинг мақсад ва вазифалари, унинг педагог фаолияти учун аҳамияти.

Педагогика тарихи. Таълим, тарбия ва таълим муассасаси тўғрисидаги гоянинг пайдо бўлиши. Энг қадимги, ўрта, янги ва энг янги даврларда тарбия, мактаб ва педагогик фикрлаш тараққиёти. Ислом маданияти ва тарбия. Тарбия тўғрисида Шарқ мутафаккирларининг қарашлари. Туркистонда таълим ва тарбия. Ўзбекистонда мактаб, маориф, таълим ва тарбиянинг ривожланиш тарихи. Мустақиллик даврида таълим ва тарбия. Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида педагогик фикрларнинг хусусиятлари.

Педагогик технологиялар: педагогик технология тушунчаси ва таърифи. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ва педагогик технологиялар. Педагогик технология тушунчаси, ўқув жараёни, ўқув муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этишининг янги метод ва формаларига қўйиладиган замонавий талаблар. Ўзбекистон Республикасида таълимнинг ривожланиши ва кадрлар тайёрлашнинг миллий дастури. Таълим жараёнида ўқувчи шахси, шахснинг сифат тизими. Ўқитиш жарёнида билим олиш, малака ва кўнинма хосил қилиш. Инновацион фаолият тизими ва педагогнинг инновацион фаолияти. Педагогик технологияларга илмий-назарий ёндашув. Педагогик технологиялар ҳақидаги қарашлар. Педагогик технологиянинг ЮНЕСКО эътироф этган тавсифи, классификацияси ва илмий асослари. Шахсга йўналтирилган технология, муаммоли ўқитиш, дастурли ўқитиш, ўқитишнинг ахборот технологияси, муаллифlik технологияси, ривожланувчан таълим, ўйинли технологиялар, модул технологияси, интерактив технологиялар, билимларни назорат қилиш технологияси. Технологик карта.

Педагогик маҳорат: педагогик маҳорат ва педагогик технология, педагогик маҳоратнинг назарий асослари. Педагог шахси таълим амалиётида ва педагогик фикр тарихида педагогнинг маҳорати масалалари. Педагогик қобилияти. Педагогнинг коммуникатив қобилияти. Мулоқот маданияти ва таълим олувчининг психологик фаолияти. Педагогик техника ва уни шакллантириш усувлари. Ўқув ва тарбия жараёнида

педагог маҳорати. Педагог меҳнатини ташкил этишнинг илмий асослари. Педагогик тажриба орттириш тизими, тадқикот методлари, хозирги таълим муассасаларида илғор педагогик ғоялар, тажрибаларнинг тараққиёти ва уни ҳаётга таббик этиш йўллари. Педагогик маҳорат тараққиёт тарихи. Мустақил малака ошириш ва ўз-ўзини назорат қилиш. Ўқув-тарбия жараённида педагогик мулоқот маҳорати, педагогик тажриба ва уни таббик этиш, педагог фаолиятида шарқона муомала маданияти асослари.

6.5.3.4 Ўқитувчи нутқи маданияти:

Нутқ маданияти ҳакида тушунча. Нутқ маданиятининг назарий асослари. «Нутқ маданияти»нинг бошқа тилшунослик фанлари билан алоқаси. Нутқ маданияти тарихи. Нутқ маданиятининг коммуникатив белгилари: тўғрилик, аниқлик, мантиқийлик, софлик, ифодалилик, бойлик ва бошқалар. Нутқ маданияти ва стилистик норма. Нутқ маданияти ва адабий тил. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Таълим жараёнидаги нутқ маданиятининг ўрни ва аҳамияти. Нутқ техникасини такомиллаштириш йўллари.

6.5.3.5 Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикаси:

Ўзбек тилини ўқиттиши методикаси: ўзбек тили ўқитишнинг хусусий ва умумий методикаси. Ўзбек тили ўқитиш методикасининг тилшунослик фанлари билан алоқаси. Умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус касб-хунар таълими она тили мазмуни. Таълимнинг илғор методлари ва усуллари. Дарс типлари ва бўйимлари. Дарслер, ўқув кўлланмаси, дастур, дарс режасига қўйиладиган талаблар ва ўқитиш принциплари. Замонавий педагогик технологиялар. Ўқитишнинг анъанавий ва ноанъанавий методлари, фонетика, лексика, морфология, синтаксис ва пунктуация ўқитиш методикаси. Ўзбек тили бўйича дарсдан ташқари ишлар.

Ўзбек адабиётини ўқиттиши методикаси: ўзбек адабиётининг ўқитишнинг умумий ва хусусий методика тушунчаси, ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси тарихи. Ўзбек адабиётини ўқитиш усуллари ва йўллари. Ўқитиш методикаси нутқи назаридан бадиий асар таҳлили назарияси. Ўзбек адабиёти бўйича умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус, касб-хунар таълими ўзбек адабиёти мазмуни, ўқув режаси, мактаб дастурлари ва дарслерининг мазмуни. Таълим муассасаларида бадиий асарни ўрганиш босқичлари. Дарс турлари. Адабиёт дарсларининг режалари ва конспектлари. Ўқувчилар билимларини баҳолаш мезонлари. Оғзаки ва ёзма нутқи ривожлантириш. Замонавий педагогик технологиялар, ўзбек адабиётини ўқитишнинг умумназарий ва хусусий хусусиятлари. Адабиёт дарсларида кўргазмалик. Адабиёт бўйича дарсдан ташқари ишлар

Тилшунослик курси

6.5.3.6 Тилшунослик асослари:

Тил ҳақидаги фаннинг предмети. Тилшунослик фанининг бошқа табиий ва ижтимоий фанлар билан алоқаси. Тилнинг моҳияти ва вазифалари. Тил ва жамият, тил ва миллат. Тил тизими ва тузилиши, унинг сатҳлари, бирликлари ва уларнинг намоён бўлиш қонуниятлари. Тилнинг пайдо бўлиш назарияси. Ёзувнинг асосий тараққиёт даврлари. Алфавит. Тилни ўрганиш методлари. Қиёсий-тарихий метод ҳакида тушунча. Жаҳон тиллари таснифи. Жаҳон тилларининг гениалогик ва типологик таснифи.

6.5.3.7 Умумий тилшунослик:

Тилшунослик асослари ва умумий тилшунослик. Тилшунослик тарихи: қадимги Хитой ва Ҳиндистоннинг тилшунослиги, Грек ва Рим тилшунослиги, Араб тилшунослиги, Европа ўйғониш давридаги тилшунослик. Қиёсий-тарихий тилшунослик ва унинг оқимлари. Ўрта Осиёда тилшунослик. Тилшуносликнинг хозирги замон мактаблари ва йўналишлари, уларнинг назарий асослари. Тил тизими ва тузилиши. Тил ва аҳборот. Тилни ўрганиш методлари.

6.5.3.8 Ўзбек тили практикуми:

Ўзбек тили норматив грамматикасининг предмети, мақсади ва вазифалари. Сўзнинг фонетик, лексик ва грамматик таҳлили. Орфоэпик ва имловий хатоларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш йўллари. Оғзаки ва ёзма нутқда грамматик хатолар ва уларни бартараф этиш. Пунктуация, пунктуацион хатолар.

6.5.3.9 Хозирги ўзбек адабий тили:

Хозирги ўзбек адабий тили курсининг мақсад, вазифалари ва тузилиши. Ўзбек тилининг ижтимоий вазифа, давлат тили эканлиги. Ўзбек тили – туркӣ тиллардан бири. Адабий тил. Ўзбек тилининг фонетик ва фонологик тизими. Нутқ аппарати, тилнинг артикуляцион базаси, нутқ товушлари ва фонема, фонемаларнинг вариация ва вариантлари, унли ва ундош фонемалар классификацияси, нутқ товушлари талафузидаги фонетик хусусиятлар, бўғин, ургу.

Орфоэпия ҳақида тушунча. Алоҳида товуш ва сўзларнинг хамда ўзлашган сўзларнинг талафуз қоидалари. Нутқ маданиятининг шаклланишида орфоэпиянинг роли ва ўрни. Ҳарфлар, алфавит, графемалар. Ўзбек орфографиясининг принциплари, орфография қоидалари. Орфография ва транскрипция, орфография ва транслитерация, орфография ва пунктуация, орфография ва орфоэпия. Ўзбек ёзувлари тарихи.

Лексикология, фразеология ва лексикография. Лексикология – ўзбек тилшунослиги бўйимларидан бири. Ўзбек тилининг лугат таркиби. Лугат таркибининг асосий бирликлари ва тараққиётининг қонунийлиги. Сўзнинг семантик тузилиши. Лексик маъно турлари. Омоним, синоним, антоним ва уларнинг турлари. Омоним ва унинг ёндош ҳодисаларга мунасабати. Лугавий бирликларнинг тарихий, замонавий, семасеологик, экспрессив нутқи назардан таснифи, ўзбек тили лугат таркибини бойитиш усуллари.

Фразеология бирликларнинг семантикаси ва структураси. Фразеология бирликлар компонентларининг семантик бирлиқувчанлик даражасига кўра классификацияси. Фразеологиямиз ва сўзларнинг ўзаро алоқаси, уларнинг умумий ва фарқли томонлари, тил ва нутқдаги ўрни.

Лексикография, лугатларнинг турлари; лугат тузишнинг принциплари. Ўзбек лексикографияси

тарихи.

